

*Rus adabiyoti dostonlari*

N.S. Leskov



MSENSK  
UYEZDIDAN  
GHIQQAN MAKRET  
XONIM

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

--	--





821  
L45

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

# NIKOLAY SEMYONOVICH LESKOV



## МҢЕНСК УYEZDIDAN CHIQQAN МАКБЕТ ХОНИМ

Т. 72

*Qissalar va hikoyalar*


TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

UO'K 821.161.1-32  
KBK 84(2Ros=Rus)  
L 45

Rus tilidan *Qodir Mirmuhamedov, Nigora Rahimova,*  
*Shohsanam Sopiyeva, Toshpo'lat Mirzayev,*  
*Dilafruz Matyoqubova, Rohila Abdullayeva* tarjimasi

Leskov rus adabiyotiga o'ziga xos bir yozuvchi sifatida kirib kelgan. U rus hayoti voqeligining tesha tegmagan, qorong'i tomonlarini chuqur va batafsil yoritgan mohir qissanavis, ajoyib prozaik, qochirimli til egasi sifatida mashhurdir.

Yozuvchi asarlarida chor Rossiyasi davrida zahmatkash xalqning boshidan kechirgan jabr-zulmlari yorqin bo'yoqlarda tasvirlanadi, dinni niqob qilgan nopok kimsalarning mol-dunyo orttirish yo'lida qilgan tubanliklari, hiyla-nayranglari kuchli satira tig'iga olinadi.



ISBN 978-9943-7605-3-0

© Q. Mirmuhamedov va boshq. (tarj.), 2021  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



## SO‘ZBOSHI

Ajoyib rus yozuvchisi Nikolay Semyonovich Leskov (1831–1895) Orlov guberniyasining Goroxovo qishlog‘ida amaldor oilasida tug‘ilgan.

Bolalik chog‘ida onasining diniy yo‘nalishdagi tarbiyasini olgan. Otadan yosh yetim qolgan Leskov, oiladagi moddiy qiyinchilik tufayli, gimnaziyadagi o‘qishini tashlab, 1847-yilda Oryol jinoiy sudi palatasiga ishga kiradi. Bu ish unga bo‘lg‘usi asarlari uchun ko‘pgina mavzular beradi. 1849-yilda u Kiyevdagi tog‘asi tibbiyot professori Alferev huzuriga borib, Kiyev universitetida erkin tinglovchi sifatida agronomiya, huquq, kriminalistika, anatomiya fanlari bo‘yicha ma‘ruzalar tinglaydi. Bular Leskovga o‘sha davr rus hayotini yaqindan tanishga yordam beradi.

U Kiyevda ukrain tilini o‘rganadi, Taras Shevchenko, Marko Vovchok, Aleksandr Kotlyarevskiy kabi taniqli ukrain yozuvchilari bilan shaxsan tanishadi. Leskov yozuvchilik faoliyatini jurnalist sifatida dehqonlar hayotini yorituvchi ocherk va maqolalar bilan boshlaydi. Keyin uning «Chipta kovush kiygan ma’shuqa», «Advokat», «Jome ahli», «Bosh urar joy yo‘q» romanlari, «Msensk uyezdidan chiqqan Makbet xonim», «Chapaqay», «Qo‘riqchi», «Mahliyo musofir», «Sohibjamol Aza», «Dunyoning narigi chekkasida», «Sartarosh», «Hukmdorlar sudi» va boshqa qator hikoya va qissalari bosilib chiqa boshlaydi.

Leskov murakkab va qarama-qarshiliklar bilan to‘la ijodiy yo‘lni bosib o‘tgan. Uning ilk hikoyalari («Qurg‘oqchilik», «Bir xotinning turmushi») krepostnoychilikka qarshi qaratilgan bo‘lsa, XIX asrning 60–70-yillaridagi keskin g‘oyaviy, siyosiy kurash sharoitida Leskov, «Yo‘l yo‘q» (1864) va «Tig‘ ustida» (1871) nomli romanlarini yozadi. Ammo 1870-yillardan boshlab yozuvchi rus hayotini realistik bo‘yoqlar bilan aks ettirishga kirishadi. Yozuvchining bu davrda yaratgan asarlari oddiy rus kishilari turmushini chuqur va samimiy

yoritishi bilan ajralib turadi. Bu vaqtda adibning ijodi o'zining gullagan davriga kiradi.

Leskov qahramonlari – u xoh xudojo'y-mutaassib bo'lsin, tarbiyachi, talaba, yoki harbiy mundir sohibi bo'lsin – aksariyati beozor, xulqi pok, mardona, fidoyi va oriyatli kishilardir.

Yozuvchining «Shaydoyi g'arib» (1873) «Mohir usta» (1883) «Tulalik g'ilay-chapaqay va po'lat burga qissasi» (1881) nomli qissalari uning eng yaxshi asarlari jumlasiga kiradi. Bularda rus xalqining fojiviy turmushi, uning dahosi va qahramonligi kuylanadi.

1880–90-yillar Leskov ijodi xalqqa qarshi bo'lgan cherkov, politsiya va pomeshchiklarga tayanib siyosat yurgizadigan tuzumga nisbatan o'tkir satirik ohang bilan boyiydi.

1884-yilning kuzida Leskov Yasnaya Polyanada buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan uchrashib, yaqindan tanishadi. Ulug' yozuvchi shaxsiyati Leskovda unutilmas teran hissiyot uyg'otadi va uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatadi. Leskov o'zining 40 yillik ijodiy faoliyati davomida nasriy asarning yangi-yangi janrlarini kashf etadi. «Msensk uyezdidan chiqqan Makbet xonim» qissasi shu jumladandir. Muallif asar qahramoni Katerina Izmaylovaning shahvoniy hirsini va qilgan mudhish jinoyatlari orqali Rossiya uyezdida yashovchi tijorat ahlining beshafqat, johil va buzuq muhitini mohirlik bilan ko'rsatgan. Fyodor Dostoyevskiy bu qissani juda yuksak baholagan va uni o'zi muharrirlik qilgan «Epoxa» jurnalida chop ettirgan. Taniqli bastakor Dmitriy Shostakovich bu asardan ilhomlanib, «Katerina Izmaylova» nomli opera yozgan.

Nikolay Leskov 1895-yil 21-fevralda, uni hayotining so'nggi besh yilida qiynab kelgan astma kasalligining navbatdagi xurujlaridan birida Peterburgda vafot etadi.

*Jamshid MATYOQUBOV*







*Ilk qo'shiqni sen yonib kuyla.*

Matal

## BIRINCHI BOB

Bizning tomonlarda ba'zan shunaqangi toifa odamlar uchraydiki, bunday uchrashuvlardan so'ng oradan ancha-muncha yil o'tgan bo'lsa-da, ularning ayrimlarini eslaganingda vujuding jimirlab, qalbing hayajonlanib ketadi. Savdogar xotini Katerina Lvovna Izmaylova ana shunday odamlar toifasidan edi; bir paytlar u juda mudhish bir fojiaga qo'l urgan ediki, bizdagi aslzoda kishilar, Katerina Lvovnani, ana shu yovuz qilmishidan keyin, Msensk uyezdidan<sup>1</sup> chiqqan Makbet xonim<sup>2</sup>, deb atay boshlagan edilar.

Katerina Lvovna uncha go'zal bo'lmasa ham, sirdan qaraganda, istarasi issiq juvon edi. U yigirma to'rt yoshga qadam qo'ygandi; bo'yi uncha baland emas, qaddi-qomati kelishgan, bo'yni xuddi sayqallangan marmardek silliq, yelkalari durkun, tarang siynalari do'mpaygan, nafis burni ipga tortganday to'g'ri, qora ko'zlari tiyrak, oppoq peshanasi keng, sochlari tim qora edi. Uni bizdagi savdogar Izmaylovga erga berdilar; Izmaylov bu qizga muhabbat tufayli ham, qandaydir xohish bilan ham emas, shunchaki, xotinli bo'lish maqsadida sovchi qo'yib uylandi, xolos. Katerina kambag'al qiz bo'lgani uchun kuyov tanlaydigan ahvolda emas edi. Izmaylovlar uyi shahrimizdagi nufuzli xonadonlardan biri edi: ularning bu uyezdada ijaraga olgan kattakon tegirmoni bo'lib, oliy nav oqbug'doy uni bilan savdo qilar edilar, shahar chekkasida daromadli bog'lari va shahar ichida dang'illama uylari ham bor edi. Umuman, ular badavlat savdogarlardan edilar. Buning ustiga, oila ham unchalik katta emas edi; oila a'zolari: yoshi saksonga borib qolgan, ko'p yillardan beri beva

<sup>1</sup> Msensk uyezdi – Oryol guberniyasidagi bir uyezd.

<sup>2</sup> Makbet xonim – U. Shekspirning «Makbet» nomli tragediyasi qahramoni; u badqahr va o'ta makkor ayol bo'lgan.

qaynota Boris Timofeich Izmaylov; uning o'g'li – Katerina Lvovnaning eri Zinoviy Borisich (u ham allaqachon ellik yoshni qoralagan) hamda Katerina Lvovnaning o'zi, vassalom. Katerina Lvovna, garchi Zinoviy Borisich bilan turmush qurganiga besh yil bo'lib qolgan bo'lsa ham, hanuz farzand ko'rmagan edi. Zinoviy Borisich Katerina Lvovnaga uylanmasdan oldin birinchi xotini bilan yigirma yilcha umr kechirdi, ammo undan ham farzand ko'rmagandi. Beva qolganidan keyin, shoyad shu ikkinchi xotinimdan butun mol-u davlatimga merosxo'r bo'luvchi farzand ko'rsam, deb orzu qildi; lekin mana, Katerina Lvovna bilan ham uning baxti ochilmadi, orzusi ushalmadi.

Befarzandlik Zinoviy Borisichning dilini og'ritar, nafaqat Zinoviy Borisich, uning otasi qariya Boris Timofeich ham, hatto Katerina Lvovnaning o'zi ham bu alamli darddan yurak-bag'rilari o'rtanib, qattiq qayg'urardilar. Gir atrofi baland devor bilan o'ralib, itlari zanjirlardan bo'shatib yuboriladigan bu badavlat xonadondagi diqqinapas hayotdan yuragi siqilib ketgan boyvuchcha xotin, agar Xudo unga farzand ato etganida bormi, jigargo'shasini tun-u kun bag'riga bosib ardoqlagan bo'lardi, albatta; ikkinchi tomondan «O'zi nega erga tegding, niyating nima, bepusht ekansan, nimaga endi sho'rlikning boshini bog'lading?» deb qilingan ta'na-malomatlar juvonning yuragiga nashtardek sanchilardi – go'yo o'z eriga ham, qaynotasiga ham, bu savdogarlarning jamiki qarindosh-urug'lariga ham xiyonat qilayotgan aynan u, ya'ni Katerina Lvovna edi.

Qaynotasining uyida u hech narsaga muhtoj bo'lmay, huzur-halovatda kun kechirayotgan bo'lsa ham, doim yuragi ziq edi. Mehmonga ahyon-ahyonda bir borar, shunda ham, eri bilan birgalikda faqat savdogarlarnikiga borardi-ki, bunday mehmondorchilik uning ko'nglini zarracha ham ovutmasdi. Bu toifa odamlar hazil-mutoyibani bilmaydigan dag'al tabiat kishilar bo'lib, nuqul Katerinaning qanday o'tirganini, qanday turgani va yurganini zimdan kuzatar edilar; vaholanki, Katerina Lvovna yuragida o'ti bor juvon edi, turmushga chiqmasidan oldin, qizlik paytida u odmigina erkin hayot kechirishga odatlangan edi: istagan paytida qo'lga chelak olib, daryo bo'yiga suvga borar, xohlasa, bandargohda ko'ylagini yechmasdan cho'milar yo bo'lmasa, chetan devor yonidan o'tib ketayotgan yigitlarning ustiga, hazillashib pista po'choqlarini sochib

yuborardi; lekin bu yerda hayot butunlay boshqacha. Qaynotasi bilan eri ertalab barvaqt turishadi, soat oltida choy ichishib, har biri o'z ishiga ketadi, Katerina bo'lsa kun bo'yi bekorchilikdan xonama-xona sandiraqlab yurgani-yurgan. Hamma yer chinniday ozoda, hammayoq sokin va ovloq, ikonalar oldida shamchiroqlar porlab turadi, butun boshli uyda na «tiq» etgan tovush, na biron kimsaning ovozi eshitiladi.

Katerina Lvovna huvullagan xonalarda sarsari kezib, zerikkanidan esnay boshlaydi, shunda u zinadan boloxonadagi er-xotin uchun ajratilgan mo'jzagina yotoqqa ko'tariladi. Shu yerda u deraza oldiga o'tirib, xizmatkorlarning ombor oldida kanop tolalarini o'lchashayotganini yo oqbug'doy unini qoplarga solishayotganini kuzatadi – shunda yana og'zi ochilib esnay boshlaydi; yaxshi-ku qaytaga: bir-ikki soat mizg'ib oladi, uyg'ongach, yana savdogarlar xonadoniga xos o'sha rus dilgirligi boshlanadiki, bunday ahvolda yashagandan ko'ra, o'zini dorga osib o'ldirish yuz karra quvonchliroq, deyishadi. Katerina Lvovnaning kitob mutolaa qilishga uncha hushi yo'q edi, ustiga-ustak, bu xonadonda shundoq ham bitta Kiyev paterikidan<sup>1</sup> boshqa hech qanday kitob yo'q edi.

Katerina Lvovna qaynotasining boy-badavlat xonadonida bemehr eri bilan besh yildan beri shu tarzda yuragi toq bo'lib yashab kelardi; lekin ma'lumki, uning bu dilgir kayfiyatiga hech kim e'tibor ham bermasdi.

## IKKINCHI BOB

Katerina Lvovna erga tekkanining oltinchi bahorida Izmaylovlar tegirmoni to'g'onini suv olib ketdi. Aksiga olib, bu payt tegirmondagi ish oshib-toshib yotgan edi. Afsuski, tegirmonga juda katta ziyon yetgan edi: suv tegirmon novini ko'tarib turgan pastki to'sin tagiga oqa boshladi; uni tezda tuzatishning iloji bo'lmadi. Shunda Zinoviy Borisich tevarak-atrofdan bir talay odamlarni boshlab keldi, o'zi ham doim shu yerda muqim bo'ldi; shahardagi ishlarning bari chol otaning o'ziga qolgan edi; Katerina Lvovna esa, hayhotday uyda yolg'iz o'zi

---

<sup>1</sup> Kiyev pateriki («O'talar kitobi») – qadimgi rus adabiyoti namunalaridan biri.

ertadan kechgacha yuragi siqilib vaqt o'tkazardi. Erining uyda yo'qligi avvaliga uni zeriktira boshladi, lekin ayni chog'da, uning yo'qligi, qaytaga, yaxshi bo'lganday edi: u yolg'izlikda o'zini erkinroq his qiladi. Katerina Lvovnaning eriga hech qachon ko'ngli bo'lmagan edi, erining yo'qligi esa, bu uyda unga xo'jayinlik qiluvchilarning bittaga kamayganidan dalolat berardi.

Bir kuni Katerina Lvovna boloxonadagi o'z ko'shkida o'tirarkan, hech narsa haqida o'ylamay, nuqul homuza tortaverdi. Nihoyat, bekor o'tirib, og'zini kappa-kappa ochib esnayverganidan o'zi uyalib ketdi. Hovlida havo biram yoqimli: kun iliq, charog'on, xushvaqt, bog'ning yashil panjarali devori orasidan turfa xil qushlarning daraxtdan daraxtga, butoqdan butoqqa pir-pir uchayotgani ko'rinib turardi.

«Voy, nima bo'ldi menga – nuqul homuza tortganim-tortgan? – deb o'yladi Katerina Lvovna. – Undan ko'ra, pastga tushib, hovlida sayr qilganim yo bog'ni aylanganim yaxshimasmi?»

U qoplama kalta po'stinni yelkasiga tashlab, pastga tushdi.

Hovli biram charog'on, biram xushbahra, to'rdagi omborlar oldida esa, sho'x-sho'x kulgi yangrardi.

– Muncha og'zinglar qulog'inglarda? – so'radi Katerina Lvovna qaynotasining gumashtalaridan.

– Bilasizmi, onaginam Katerina Lvovna, biz tirik cho'chqani tarozida tortib ko'rdik, – deb javob qildi ishboshi.

– Qanaqa cho'chqani?

– Aksinyani-da – u o'g'il tuqqan bo'lsa ham, lekin bizni cho'qintirish marosimiga chaqirmadi, – dedi kulib turib chiroyli chehrasi sullohona boquvchi, tim qora sochlari jingalak, iyagida soqoli endigina sabza urgan yosh yigit.

Shu payt tarozi shayiniga osilgan un bochkasidan oshpaz xotin Aksinyaning cho'g'day qizarib ketgan oytovoq yuzi mo'raladi.

– Yashshamagur shaytonlar, – deya qarag'andi oshpaz xotin tarozining temir shayiniga osilib, tebranib turgan un bochkasidan chiqishga urinarkan.

– Hozir, tushlik qilmaganida sakkiz pud keldi, agar hali bir bog'lam pichan yeb olsa, qadoqtoshlar ham yetmay qoladi uni tortishga, – dedi yana haligi chiroyli yigit va oshpaz xotinni bochkadan un qoplari ustiga ag'darib tushirdi.

Xotin hazilomuz javrab-javrab o'zini tartibga keltirdi.

– Qani, men qancha kelarkinman? – dedi hazillashib Katerina Lvovna va arqondan ushlab tarozi pallasiga chiqib turdi.

– Uch pud-u yetti qadoq, – dedi yana o'sha chiroyli yigit Sergey ikkinchi pallaga qadoq toshlarni qo'yarkan. – Vo ajab!

– Nimaga ajablanyapsan?

– Vazningiz atigi uch pud ekanligiga, Katerina Lvovna. O'yalaymanki, sizni kun bo'yi qo'lda ko'tarib yurish kerak – shunda ham hech charchamaysan, qaytaga, miriqib huzur qilganday bo'lasan.

– Nima, seningcha, men odam emasmanmi? Baribir toliqib qolasan, – dedi bunaqa qochirim gaplardan ancha chiqib qolgan Katerina Lvovna qizarib ketib; keyin kutilmaganda, uning sho'x-sho'x, quvnoq so'zlar aytib, odamlar bilan chaqchaqlashgisi keldi.

– Hech ham-da! Sizni men hatto saodatli arab yurtigacha bermalol ko'tarib borgan bo'lardim, – dedi Sergey Katerina Lvovnaning ilmoqli gapiga javoban.

– Sen, yigit, noto'g'ri gapirding, – dedi qopga un solayotgan mujik. – Bizda qanaqa og'irlik, qanaqa salmoq bo'lishi mumkin? Nima, tosh bosarkanmi jismimiz? Bizning jismimizda, bo'tam, son bor, lekin salmoq yo'q: jismimiz emas, kuchimiz, ha, faqat kuchimiz tosh bosadi.

– Bilasizlarmi, men qizlik paytimda juda kuchli edim, – dedi Katerina Lvovna yana o'zini tiyib turolmay. – Ko'pchilik erkaklar meni hech yengolmaganlar.

– Qani, uzating-chi qo'lingizni, agar shu gapingiz rost bo'lsa, – deb iltimos qildi o'ktam yigit.

– Voy, uzugim: qo'limni og'ritding! – chinqirib yubordi Katerina Lvovna Sergey uning qo'lini siqqanida va ikkinchi qo'li bilan yigitni itarib yubordi.

Bekaning qo'lini qo'yib yuborgan Sergey bu turtkidan ikki qadam orqaga tisarilib ketdi.

– Hm... ana senga ayol kishi, – dedi hayron qolgan mujik.

–Yo'q, agar xohlasangiz kurash tushaylik, – dedi Sergey jingalak sochlarini tarvaqaylatib.

– Mayli, boshla, – dedi vaqtichog'likka mayl qo'ygan Katerina Lvovna va tirsaklarini ko'tardi.

Sergey bu yosh bekani quchoqlab, uning lo'ppi siynalarini o'zining qizil ko'ylak kiygan ko'kragiga bosdi. Katerina Lvovna yelka-

larini silkitib, uning quchog'idan sirg'alib chiqmoqchi bo'lgan edi, Sergey ayolning oyog'ini yerdan uzib ko'tardi, biroz vaqt shu alpozda ko'tarib turdi-da, so'ng to'nkarilgan g'alla yashigi ustiga astagina o'tqazdi.

Katerina Lvovna kerilib maqtagan kuchini hatto ishga solishga ham ulgurmedi. U loladek qizarib ketib, o'tirgan yerida yelkasi-dan tushib ketgan kalta qalpog'ini to'g'riladi, keyin asta-asta yurib ombordan chiqib ketdi; Sergey esa mardona tomoq qirib qo'yib qichqirdi:

– Qani, hoy xudoning notavon bandalari! Anqaymasdan tort unni, yarim qilma butunni, qoplarga to'ldirib sol, ortganini olib qol...

Sergey hozir bu yerda bo'lib o'tgan ishga mutlaqo beparvodek ko'rinardi. Katerina Lvovnaning orqasidan kelayotgan Aksinya derdi:

– O'lguday xotinboz bu kasofat Seryoja! Har qanaqa ayolni ham o'zining qaddi-qomati, chiroyli husni bilan bir zumda avrab rom qiladi badbaxt, tilyog'lamalik bilan xushomad qila-qila oxiri gunohga botirmay qo'ymaydi; judayam vijdonsiz bu yaramas!

– Sen, Aksinya... haligi, – dedi oldinda ketib borayotgan yosh beka, – haligi... o'g'ling tirikmi?

– Tirik, onaginam, tirik – baloyam urmagan! Hech kimga keragi yo'q odamning joni qattiq bo'larkan.

– Kimdan orttirgansan o'sha o'g'lingni?

– E-e, so'ramang! O'yinqaroqlik mevasi – axir el ichida yurganingdan keyin... bo'larkan-da.

– Bizda ko'pdan beri ishlaydimi anavi yigit?

– Kim? Sergeyni so'rayapsizmi?

– Ha.

– Bir oycha bo'lib qoldi. Ilgari Kopchanovlarnikida xizmat qilgan ekan, ho'jayini haydab yuboribdi. – Aksinya bu yog'iga pichirlab gapirdi: – Mish-mishlarga qaraganda, uy bekasi bilan oshiq-ma'shuq bo'lganmish... Xudodan qo'rqmaganini qarang bu murtadning!

## UCHINCHI BOB

Xira tortgan iliq havo og'ushidagi shaharda qosh qoraya boshlagan payt. Zinoviy Borisich hali tegirmondan qaytmagan. Qaynota Boris Timofeich ham uyda yo'q: u, meni kechlik taomga kutmanglar,

deb tayinlab, eski qadrdonining tug'ilgan kuniga mehmonga ketgan. Katerina Lvovna bekorchilik tufayli barvaqt kechlik qildi, keyin boloxonadagi ko'shki derazasini ochib, uning yondoriga suyangancha pista chaqib, po'choqlarini tupurib o'tirdi. Hamma xizmatkorlar oshxonada ovqatlanishdi, keyin birin-ketin hovliga chiqishib, uxlagani har yoqqa: kimlar omborxonalariga, kimlar xushbo'y pichan g'aramlari ustiga tarqalishdi. Oshxonadan eng oxirida Sergey chiqdi. U hovlida biroz tentirab yurdi, itlarni zanjirdan yechib yubordi, so'ng Katerina Lvovnaning derazasi tagidan o'tarkan, bosh ko'tarib unga qaradi va egilib ta'zim qildi.

– Salom, – dedi o'z ko'shkida o'tirgan Katerina Lvovna past ovoz bilan; bu payt butun hovli xuddi suv quygandek teran sukutga cho'mgan edi.

– Begoyim! – degan ovoz keldi ikki daqiqadan keyin Katerina Lvovnaning eshigi ortidan.

– Kim u? – so'radi qo'rqib ketgan Katerina Lvovna.

– Qo'rqmang, bu men, Sergeyman, – javob qildi gumashta yigit.

– Nima kerak senga, Sergey?

– Sizga gapim bor edi, Katerina Lvovna: arzimagan bir narsa so'ramoqchiydim, begoyim; ijozatingiz bilan bir zumgagina huzuringizga kirsam.

Katerina Lvovna kalitni burab, Sergeyni xonaga kiritdi.

– Nima deysan? – deb so'radi u o'zi deraza tomon tisarilar ekan.

– Sizda, Katerina Lvovna, o'qigani bironta kitob yo'qmikin, deb keluvdim. Zerikib ketyapman juda ham.

– Menda hech qanaqa kitob yo'q, Sergey, kitob o'qimayman sira, – deb javob qildi Katerina Lvovna.

– Biram zerikyapmanki, – deb zorlandi Sergey.

– Nimaga endi zerikarkansan?

– Qiziqsiz-a, nega endi zerikmay: qirchillama yigitman axir; lekin monastir rohiblari singari kun kechiryapman, kim bilsin, bunaqada to go'rga kirgunimizcha so'qqabosh bo'lib o'tib ketamizmi, deyman. Ba'zi payt shunaqangi ayanchli ahvolga tushamanki...

– Nega uylanmaysan?

– Eh, begoyim, uylan, deb aytishga oson! Kimga ham uylanardim? Xashaki bir odam bo'lsam; badavlat xonadonning qizi meniga tegmasa – kambag'al bo'lganimdan; Katerina Lvovna, o'zingiz



ham yaxshi bilasiz, bizlar omi odamlarmiz. Nima, o'sha boyvuchcha qizlar muhabbat nimaligini bilisharmidi? Ana, ko'rdingizmi, boylar uchun begona muhabbat degan so'z. Lekin siz, aytishim mumkin-ki, muhtojlikdagi har qanday odamga tasalli bera olasiz, holbuki, o'zingiz mana bu uy sohiblari qo'lida xuddi qafasdagi qushchadek erksizsiz.

– Ha, men ham zerikaman, – degan gap Katerina Lvovnaning og'zidan chiqib ketdi.

– Axir zerikmay bo'larkanmi, begoyim, bunaqa g'urbatxonada! Basharti, siz, xuddi boshqalarga o'xshab, o'zingizga chetdan bironta ovunchoq orttirganingizda ham, u bilan yuz ko'rishishingiz amri mahol bo'lardi.

– E, qo'y... gapirma bunaqa gaplarni. Agar bitta bola tug'ib olganimda bormi, u bilan ovunib, zerikmay yashayverardim.

– Ammo-lekin, men sizga aytsam, begoyim, o'sha bola o'zidan-o'zi paydo bo'lmaydi-da; buning uchun biron-bir turtki kerak. Nima, ne-ne xo'jayinlar qo'lida ishlab, sizdek ayollarning achchiq qismlarini ko'ra-ko'ra, ko'zimiz pishmabdimi bizning? Esingizda bo'lsa, shunday bir qo'shiq bor: «Sen bo'lmasang, meni, mahbubam, qamrab olur doim qayg'u-g'am»; ana shu qayg'u-g'am, men sizga aytsam, Katerina Lvovna, yuragimga shunday og'uli nashtar bo'lib sanchilyaptiki, qaniydi, po'lat xanjar bilan ko'ksimni chok qilib, yuragimni sizning oyog'ingiz ostiga tashlasam. Shunda ruhim yengil tortgan, yuz karra yengil tortgan bo'lardi... – Sergeyning ovozi titray boshladi.

– Nega endi sen yurak dardingni kelib-kelib menga aytyapsan? Keragi yo'q menga bunaqa gaplarning. Bor, ket bu yerdan...

– Yo'q, uzr, begoyim, – dedi Sergey butun vujudi titrab Katerina Lvovna tomon qadam tashlarkan. – Men bilaman, ko'ryapman, hattoki juda yaxshi sezyapman ham, tushunib turibman ahvolingiz menikidan yaxshiroq emasligini; mana, faqat hozir, – dedi u bir entikib olib, – hozir... shu damda bo'ladigan hamma ish faqat sizning qo'lingizda, sizning ixtiyoringizda, begoyim.

– Nimalar deyapsan o'zi? Nima? Nega xonamga chiqding? O'zimni derazadan tashlayman, – dedi Katerina Lvovna butun vujudini g'ayritavsif vahima qamrab olayotganini sezib, deraza tokchasi mahkam ushlab olarkan.

– O mening jonim-jahonim! Nima qilasan o‘zingni derazadan tashlab? – deb sullohona pichirladi Sergey va boyvuchcha bekani deraza oldidan tortib olib, mahkam bag‘riga bosdi.

– Voy, o‘lmasam! Oh! Qo‘yvor, – pichirladi Katerina Lvovna ingroq tovush bilan. U Sergeyning qaynoq bo‘salaridan tobora bo‘shashib borarkan, beixtiyor yigitning mardona pinjiga suqilib kirardi.

Sergey bekani xuddi go‘dak boladay ko‘tarib, xonaning qorong‘i burchagiga olib ketdi.

Xona teran sukutga toldi; bu sukunatni faqat Katerina Lvovnaning karavoti boshida devorga osib qo‘yilgan erining cho‘ntak soati chiqilishi buzardi; ammo bu chiqillash hech nimaga xalal bermadi.

Oradan yarim soat o‘tdi; Katerina Lvovna Sergey tomonga qaramay, to‘zib paxmaygan sochlarini kichkina ko‘zgu qarshisida tartibga keltirarkan, dedi:

– Ket endi.

– Nega endi bu yerdan ketarkanman? – quvnoq ohangda quvlik bilan javob qildi Sergey.

– Qaynotam eshiklarni qulflab qo‘yadi.

– Voy, jonginam-ey! Qaysi yigit ma‘shuqasining oldiga faqat eshikdan kirarkan? Sening huzuringga kirishim yo xonangdan chiqishim uchun menga hammayoq eshik, – deb javob qildi yigit, boloxonani ko‘tarib turgan ustunlarga ishora qilar ekan.

## TO‘RTINCHI BOB

Zinoviy Borisich uyida yana bir hafta bo‘lmadi, bu asnoda uning xotini haftaning har tuni to tong otguncha Sergeyning og‘ushida bo‘ldi.

Bu kechalarda Zinoviy Borisichning xobxonasida qaynotaning yerto‘lasidan olib chiqilgan maylar ichildi, turfa xil shirinliklar yeyildi, bekaning asal lablaridan entika-entika bo‘salar olindi, par yostiqa yoyilgan tim qora jingalak soch tolalari mayin-mayin silandi. Vaholanki, bandaning yuradigan yo‘li hammavaqt ham silliq-tekis bo‘lavermaydi, unda o‘ydim-chuqur joylar ham uchraydi.

Boris Timofeichning hech uyqusi kelmadi: qariya tungi yo‘l-yo‘l chit ko‘ylakda huvullagan uy ichida xonama-xona tentirab yurib, goh

u, goh bu derazadan hovliga nazar tashlardi. Qarasa, kelinining derazasi ostidagi ustundan qizil ko‘ylak kiygan xizmatkor Sergey asta-sekin tushib kelyapti. Ana, xolos! Boris Timofeich uydan o‘qday otilib chiqib, azamatning oyog‘iga chang soldi. Yigit xo‘jayinining qulog‘i tagida shavla qaynatmoqchi bo‘lib o‘girildi-yu, lekin shovqin ko‘tarilishini o‘ylab, shashtidan qaytdi.

– Qani, gapir. – dedi Boris Timofeich, – qayerdan tushyapsan, o‘g‘ri?

– Qayerda bo‘lgan bo‘lsam ham, endi u yerda yo‘qman, Boris Timofeich, – deb javob qildi Sergey.

– Kelinimning xonasida tunadingmi?

– Qayerda tunaganimni, xo‘jayin, o‘zim bilaman; siz, Boris Timofeich, yaxshisi, gapimga quloq bering: bo‘lib o‘tgan ishni, otaginam, endi to‘g‘rilab bo‘lmaydi; undan ko‘ra, siz, hech bo‘lmasa, xonadoningiz sha‘niga isnod keltirmaslikni o‘ylang. Ochig‘ini aytavering, meni nima qilmoqchisiz? Nima bilan ko‘nglimni ovlamoqchisiz?

– Sen gazandani besh yuz qamchi bilan siylamoqchiman, – dedi Boris Timofeich.

– Ayb menda – ixtiyor sizda, – deb rozi bo‘ldi yigit. – Ayting, qayoqqa boray? Mayli, icha qoling qonimni.

Boris Timofeich Sergeyni o‘zining kichkina, ammo pishiq qurilgan omborxonasiga boshlab borib, to o‘zi holdan toyguncha uni qamchi bilan savaladi. Sergey biron marta ham ingramadi, lekin og‘riq alamidan ko‘ylagi yengining yarmini g‘ajib tilka-tilka qildi.

Boris Timofeich Sergeyni to orqasidagi qonli qamchi izlari qotib bitguncha shu omborxonada qoldirdi; oldiga sopol ko‘zada suv qo‘ydi, keyin eshikka otning kallasiday qulf osib, o‘g‘lini chaqirib kelgani odam yubordi.

Lekin Rusiya zaminida yuz chaqirimli tuproq yo‘lni hatto hozir ham tez bosib o‘tib bo‘lmaydi; Katerina Lvovna bo‘lsa, endi bir soat ham Sergeysiz turolmay qolgan edi. Kutilmaganda uning g‘ayrati jo‘sh urib, g‘aflatda yotgan shahvoniy tabiati ko‘z ochdi-yu, tiyiqsiz qat‘iy harakatlar qila boshladi. U Sergeyning qayerda yotganini bilib oldi, u bilan temir eshik ortida turib gaplashdi va kalitni qidirib topgani yugurib ketdi. So‘ng «Qo‘yvoring, dadajon, Sergeyni». dedi u qaynotasi oldiga kelib.

Cholning rangi bo'zarib ketdi. U shu choqqacha hamisha mo'minqobil bo'lib kelgan, illo endilikda fahsh ishiga ruju qo'ygan kelining bunday sulohlik qilishini hech kutmagan edi.

– Nimalar deyapsan, behayo? – deb u Katerina Lvovnaga tanbeh bera boshladi.

– Qo'yvoring uni, – derdi Katerina Lvovna, – vijdonim haqqi, qasam ichaman, hech qanday yomon ish bo'lmagan o'rtamizda.

– Yomon ish bo'lmagan, de! – dedi chol tishlarini g'ijirlatib. – Bo'lmasa, tuni bilan nima qildinglar boloxonada? Eringning yostiqlarini qoqib ko'pchitdinglarmi?

Lekin kelin nuqul, «qo'yvoring, qo'yvoring», deb tixirlik qila-verdi.

– Unday bo'lsa, – dedi Boris Timofeich, – yaxshilab qulog'ingga quyib ol: hali ering kelsin, shunda seni – hayoli, pokiza xotinni otxonaga olib kirib, o'zimiz po'stagingni qoqamiz, anavi ablahni bo'lsa, ertagayoq qamatib yuboraman.

Boris Timofeich shunday qarorga kelgan edi, lekin qarori amalga oshmadi.

## BESHINCHI BOB

Boris Timofeich yotar oldidan qo'ziqorinli bo'tqa yegan edi, uning jig'ildoni qaynadi; keyin birdan ko'krak osti qattiq achishib, azza-bazza o'qchib qusa boshladi, ertalabga qolmay joni uzildi, xuddi omborxonadagi kalamushlardek – Katerina Lvovna o'sha kalamushlar uchun o'qtin-o'qtin zaharli oq kukun doridan ovqat tayyorlab turardi.

Mana, Katerina Lvovna Sergeyni cholning zindonidan olib chiqib, uni erining to'shagiga yotqizdi va yelkasidagi qamchi izlarini davolay boshladi; Boris Timofeichni esa, hech qanday ishtibohga borib o'tirmay, nasroniylik udumi bo'yicha dafn etdilar. Shunisi qiziqki, nega bunday bo'ldi, deb hech kim so'ramadi ham, o'ylamadi ham: Boris Timofeich qo'ziqorin yeb o'libdi – nima bo'пти, qo'ziqorindan zaharlanib o'lganlar son mingta. Cholni shosha-pisha dafn qilishdi, o'g'lining yetib kelishini ham kutishmadi, chunki tashqarida havo issiq edi. Zinoviy Borisichni chaqirib kelish uchun tegirmonga yuborilgan odam uni u yerdan topmabdi – Zinoviy Borisich yuz chaqirimcha


narida arzonga sotiladigan o'rmon daragini eshitib, o'sha o'rmonni ko'rgani ketgan ekan, lekin qayerga ketayotganini hech kimga ayt-mabdi ham.

Katerina Lvovna shundan so'ng butunlay quyushqondan chiqib ketdi. U shundoq ham dovyurak xotinlardan edi, endi bo'lsa, uning nimalarni ko'ngliga tukkanini hech bilib bo'lmadi; u savlat to'kib kerilib yurar, hovlidagi hamma odamlar ustidan hukmronlik qilar, Sergey ni esa yonidan bir qadam nari jildirmadi. Hovlidagi xizmatkorlar bekaning bu yurish-turishini ko'rib hayron bo'lishgan edi, Katerina Lvovna saxovat ko'rsatib, hammaning ko'nglini oldi va odamlarda uyg'ongan ajablanish zumda barham topdi. «Nima bo'пти, – deyishardi ular, – bekamiz Sergey bilan til topishibdi, xolos. Bu uning ishi, javob beradigan ham o'zi».

Bu orada Sergey butunlay sog'ayib, yana qaddini tikladi va Katerina Lvovnaning atrofida xuddi babaq xo'rozday parvona bo'la boshladi; ularning oshiq-ma'shuqlik hayoti yana avjiga mindi. Lekin to'xtamay o'tib borayotgan vaqt nafaqat ularga, o'zgalarga ham xizmat qilardi: Katerina Lvovnaning anchadan beri uzoqda bo'lgan eri Zinoviy Borisich, mana, g'azabi jo'sh urib, shoshgancha uyiga qaytayotgan edi.

## OLTINCHI BOB

Tushdan keyin tashqarida havo jazirama edi, buning ustiga, xira pashsha juda jonga tegdi. Katerina Lvovna yotoqxona derazasi qop-qog'ini yopdi, yana ichkaridan uni shol ro'moli bilan ham to'sib qo'ydi-da, huzur qilib dam olgani savdogar erining momiq to'shagiga Sergey bilan birga yotdi. Katerina Lvovna goh pinakka ketib, goh uyg'oq yotarkan, vasvasali taxayyullar ta'siridan vujudi cho'g'dek qizib, qora terga botar, harorati ko'tarilib, bazo'r hansirab nafas olardi. Beka, garchi uyg'onadigan payt kelganini, boqqa tushib choyxo'rlik qilishi lozimligini sezayotgan bo'lsa ham, hech o'rnidan turolmasdi. Mana, nihoyat, oshpaz xotin kelib eshikni taqillatdi. «Olma tagida, – dedi u, – samovar o'chib qolyapti». Katerina Lvovna zo'rg'a uyg'ondi va yonida – o'zi bilan Sergey o'rtasida yotgan mushukni erkalay boshladi. Bu yoqimtoy, bo'zrang, durkun va xo'ppa semiiz mushuk-



ning mo‘ylovi xuddi soliq yig‘adigan burmistrnikiga o‘xshardi; Katerina Lvovna mushukning momiq yungini titkilar, u esa nuqul to‘mtiq tumshug‘i bilan bekaga suykalar va asta ming‘irlab qo‘shiq aytardi – go‘yo ishq-muhabbatdan saboq berayotgandek. «Nega kirdiykin-a, bu mushuk xonamga? – deb o‘yladi Katerina Lvovna. – Deraza oldiga qaymoq qo‘ygandim, hali yeb qo‘ymasaydi yashshamagur. Haydab yuborishim kerak», degan qarorga keldi u va mushukni ushlab otib yubormoqchi bo‘ldi, lekin mushuk uning barmoqlari orasidan xuddi tumandek sirg‘alib chiqib ketdi. «Tavba, qayoqdan kelib qoldi o‘zi bu mushuk uyimizga? – deb o‘yladi Katerina Lvovna hamon bosinqirab. – Hech qachon mushuk zoti bo‘lmagandi bu yerda, qay go‘rdan kelib qoldiykin-a?» U yana mushukni ushlab olmoqchi bo‘ldi, lekin mushuk ko‘rinmay qoldi. «Voy, tavba, nima bo‘lyapti o‘zi? Nima o‘zi bu? Mushukmi yo bir balomi?» deb o‘yladi Katerina Lvovna. U esankirab qolgandi; keyin birdan uyqusi ham, mudrog‘i ham qochib, ko‘zini ochdi. U xonaning har tomoniga bir-bir ko‘z tashlab chiqdi – hech qanaqa mushuk-pushuk yo‘q edi, faqat chiroyli yigit Sergey ma‘shuqasini baquvvat qo‘li bilan quchib, qaynoq yuzini uning siynasiga bosgancha yonida uxlab yotardi.

Mana, Katerina Lvovna o‘rnidan turib to‘shagida o‘tirdi. Sergey o‘pa-o‘pa, suya-suya g‘ijimlangan par to‘shak bilan parqu yostiqni tekisladi-da, choy ichgani boqqa tushib ketdi; quyosh endi ufqqa yonboshlay boshlagan, oftobda qizigan zaminga g‘oyat xushbahra sehrli oqshom tushayotgan edi.

– Uxlab qolibman, – dedi Katerina Lvovna Aksinyaga va oppoq gullab turgan olma daraxti tagiga yozilgan gilamga borib o‘tirdi. – Senga bir gap aytaman, Aksinyushka – ta‘birini bilarmikansan? – dedi u oshpaz xotinga, finjon likopchasini o‘zi sochiq bilan artarkan.

– Nima, onaginam?

– Nafaqat xobimda, o‘ngimda ham allaqanday mushuk nuqul qo‘ynimga kiraveradi.

– Voy, u rostdanam mushukmi?

– Rost, mushuk.

Katerina Lvovna qo‘yniga mushuk qanday kirganini so‘zlab berdi.

– Nima qilardingiz uni erkalab?

– Kim biladi deysan! O‘zim ham bilmayman nega uni erkalaganimni.

– Voy, tavba! – dedi oshpaz xotin.  
– O‘zim ham juda hayronman.  
– Buning ta‘biri – chamamda, kimdir sizning oldingizga kelmoqchiga o‘xshaydi yo, ehtimol, boshqa biron ish sodir bo‘lar.  
– Axir nima bo‘lishi mumkin?  
– Nima bo‘lishini hech kim aniq aytolmaydi sizga, tasadduq, hech kim tushuntirolmaydi ham buni, illo bir nima yuz berishi aniq.  
– Bir oy tushimga oy kirib chiqdi, endi bo‘lsa, mana, mushuk, – deb gapida davom etdi Katerina Lvovna.

– Oy – bu chaqaloq.

Katerina Lvovna cho‘g‘day qizarib ketdi.

– Nima deysiz, huzuringizga Sergeyni yuboraymi? – dedi Aksinya bekasiga munis dugona bo‘lish ishtiyoqida.

– Mayli, – dedi Katerina Lvovna, – gapingda jon bor, yaxshi, chaqiraqol: birga choyxo‘rlik qilaman.

– Bo‘lmasam-chi, albatta, chaqirish kerak uni, – dedi Aksinya va bog‘ning eshikchasi tomon xuddi o‘rdakka o‘xshab lapanglab yurib ketdi.

Katerina Lvovna mushuk to‘g‘risida Sergeyga ham gapirib berdi.

– Bu xayolot, xolos, – dedi Sergey.

– Agar bu xayolot bo‘lsa, nega ilgari hech ham ko‘rinmagan edi?

– Ilgari nimalar bo‘lmagan deysan? Ilgari senga ko‘zim tushgani hamono ishqingda o‘t bo‘lib yonardim, endi bo‘lsa, mana, oppoq badaning butunicha meniki!

Sergey Katerina Lvovnani gir-gir aylantirdi va hazillashib uni patgilamga otib yubordi.

– Voy, boshim aylanib ketdi, – dedi Katerina Lvovna. – Seryoja! Beri kel, yonimga o‘tir, – deb chaqirdi uni, ham nozlanib, ham kerishib.

Azamat yigit boshini egib, gulga g‘arq bo‘lgan olma daraxti tagiga kirdi va Katerina Lvovnaning oyog‘i yoniga o‘tirdi.

– Sen mening ishqimda yongansan-a, Seryoja?

– Bo‘lmasam-chi, yonganman.

– Qanday yongansan? So‘zlab ber menga.

– E, buni so‘zlab bo‘larkanmi? Ishq o‘tida yonish qanaqa bo‘lishini so‘z bilan ifodalab bo‘larkanmi? Men, koshki vaslingga yetsam, deb orzu qilardim.

– Unda nega men sezmadim, Seryoja, ishqimda yonganingni? Bu bir qarashda seziladi, deyishadi-ku.

Sergey indamadi.

– Vaslimga yetish orzusida yurgan ekansan, unda nega doim qo‘shiq aytarding? Nega? O‘zim eshitganman bostirma tagida qo‘shiq aytganlaringni, – deb yana so‘roqqa tutdi Katerina Lvovna mahbubini erkalarkan.

– Qo‘shiq nima ekan? Uni hamma aytadi, ana, chivinni ol, umri bo‘yi g‘ing‘illab kuylagani-kuylagan, lekin bu uning shodlik qo‘shig‘i emas-ku, – deb quruqqina javob qildi Sergey.

Ular sukutga toldilar. Sergeyning ushbu izhori ishqidan Katerina Lvovnaning ko‘ngli yorishib ketdi.

Uning gaplashgisi kelar, lekin Sergey tumshayib gung bo‘lib o‘tirardi.

– Qara, Sergey, axir bu jannat-ku, jannat! – dedi Katerina Lvovna olma daraxtining chamanday gullab turgan quyuq novdalari orasidan beg‘ubor moviy osmondagi munavvar to‘lin oyga mahliyo bo‘lib boqarkan.

Olma daraxtining yaproq va gullari orasidan sizib o‘tayotgan oy shu‘lasi gilamda chalqancha yotgan Katerina Lvovnaning yuz-ko‘zi va butun vujudi bo‘ylab g‘oyat ajib nurli dog‘lar bo‘lib pildirardi, havo sokin, faqat yengilgina esgan iliq shabada pinakka ketgan yaproqlarni asta-asta tebratar, gulga kirgan giyohlar va daraxtlarning nafis iforini uchirib kelardi. Kishini erinchoqlikka, huzur-halovatga, dil xumorini yozishga bo‘lgan ishtiyoqini qitiqlovchi allaqanday xushhollik havoni to‘ldirgan edi.

O‘z gapiga javob olmagan Katerina Lvovna och pushtirang olma gullari orasidan osmonga tikilgancha yana sukutga toldi. Sergey ham sukutda edi; lekin uni osmon qiziqtirmasdi. U tizzalarini quchoqlab o‘tirarkan, butun nigohi oyog‘idagi etiklariga qaratilgan edi.

Nodir oqshom! Osuda, oydin, muattar hamda xayrli va xuzurbaxsh iliq oqshom. Uzoqda, bog‘ ortidagi jarning narigi tomonida kimdir yangroq ovoz bilan qo‘shiq kuylay boshladi; chetan devor tagidagi shumurt butasiga qo‘ngan bulbulning sho‘x chah-chahi eshitildi; baland xoda uchiga ilingan qafasdagi bedana uyqu aralash vavag‘lab qo‘ydi, otxonadagi ot ma‘yus pishqirdi, bog‘ devori ortidagi maydon-da esa, bir gala itlar sho‘x-sho‘x akillashib quvalashgancha, yarim



xarobaga aylangan eski tuz omborlarining quyuc soyasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Katerina Lvovna tirsagiga tayanib, boshini ko'tardi-da, bog'dagi gurkirab o'sgan o't-o'lanlarga qaradi; bu o'tlar daraxtlarning gul va yaproqlari tomonidan parcha-parcha qilib yuborilgan oyning shu'lasini bilan bekinmashoq o'ynashardi. Bu muhtasham, nafis, yariqiroq dog'lar butun o'tloqni zarrin rangga bo'yab, ular uzra jonli olov kapalaklardek, shunday bezovtalanib, shunday miltillab lip-lip uchardilarki, go'yo daraxtlar tagidagi barcha o't-o'lanlar hozir oy tashlagan to'rga ilinib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa talpinayotgandek ko'rinardilar.

– Oh, Seryojekha, qanday ajoyib tun-a! – dedi Katerina Lvovna tevarak-atrofga bir-bir ko'z yugurtirarkan.

Sergey loqayd yelkasini qisdi.

– Voy, nima bo'ldi senga, Seryojka, nimadan xafasan? Yo joningga tegdimmi men?

– Qo'ysang-chi bemaza gapni! – deb quruqqina javob qildi Sergey va engashib Katerina Lvovnani nomigagina o'pib qo'ydi.

– Sen bevafo san, Seryojka, – dedi rashki kelgan Katerina Lvovna. – Tuturug'ing yo'q sening.

– Bu gapingni sira ham yuqtirmayman o'zimga, – deb javob qildi Sergey beparvo ohangda.

– Nega bo'lmasa o'piching sovuq?

Sergey indamadi.

– Faqat uylangan erkaklar o'z xotinlarini shunaqa o'pishadi, – dedi Katerina Lvovna Sergeyning sochini o'ynaganicha gapida davom etarkan, – ular shu tarzda bir-birlarining labidagi changni qoqishadi. Sen meni shunday o'pginki, tepamdagi olma daraxtining nozik gullari boshimga duv to'kilsin. Mana, mana bunaqa bo'ladi o'pish, – deb pichirlardi Katerina Lvovna o'ynashini quchoqlab, undan shahvoniy hirs bilan bo'sa olarkan.

– Sendan so'ramoqchiydim, Seryoja, – deb yana gapira boshladi Katerina Lvovna biroq fursat jim o'tirgach, – nega hamma seni xiyanatkor deb aytyapti?

– Kim ekan o'sha men to'g'rimda g'iybat qilgan?

– Odamlar gapirishyapti.

– Bo'lsa bordir, bir paytlar bitta-yarimta bo'lmag'ur qizga xiyanat qilgan bo'lsam qilgandirman.

– Nima qilarding, ahmoq, bo‘lmag‘ur qizlar bilan elakishib? Hech ham sevish kerakmas bo‘lmag‘ur qizlarni.

– Gapingni qara-yu! Bunaqa ishda mulohaza qilib o‘tirarkanmi kishi? Bunda faqat havas ish ko‘rsatadi, ishq emas. Olaylik, sen biron-ta do‘ndiqcha bilan, shunchaki, nomiga, hech qanday jiddiy maqsadni ko‘zlamay, nomaqbul, ya‘ni g‘ayriqonuniy aloqa qilib qo‘yding; qarabsanki, o‘sha do‘ndiqcha ko‘z ochib yumguningcha bo‘yningga mahkam chirmashib oladi – buni hatto o‘zing ham sezmay qolasan. E, o‘rgildim unaqa muhabbatdan!

– Eshit gapimni, Seryojka! Sening boshqalar bilan qanday aloqada bo‘lganingni men bilmayman, bilishni ham xohlamayman; lekin sen menga peshma-pesh xushomadlar qilib, axiyri, mana bugun ikkovimiz bir-birimizni sevishga muyassar bo‘ldik; bu gunoh ishda mening xohish-istagim qancha bo‘lgan bo‘lsa, sening hiyla-nayranglaring ham shundan kam bo‘lmadiki, mabodo, Seryojka, sen menga biron marta bo‘lsa xiyonat qilsang, agar boshqa birontani mendan ortiq ko‘rsang va meni boshqa bironta do‘ndiqchaga almashtirgudek bo‘lsang, men sendan, o qalbm quvonchi, meni kechirasan-u, faqat o‘lganimda ajralaman, aslo tirik ajralmayman.

Sergey bir seskanib tushdi.

– E, nimalar deyapsan, charog‘on oftobim Katerina Lvovna! – deya o‘zini oqlamoqchidek gap boshladi Sergey. – Axir o‘zing ko‘rib, bilib turibsan-ku ahvolimizni. Mana, bugun mening o‘ychan kayfiyatda o‘tirganimni o‘zing ham payqabsan, ammo, nega bunaqa o‘yga cho‘mdi ekan, deb o‘ylab ko‘rmayapsan. Kim bilsin, hozir mening yuragim laxta-laxta qondir!

– Gapir, gapir, Seryoja, yoz yuragingni.

– Nimaniyam gapiray? Mana, olaylik, birinchi navbatda, hade-may ering qaytib keladi, ana unda men puf sassiq bo‘laman. «Qani, Sergey Filipich, shiqillat tuyog‘ingni, orqa hovliga chiqib ket, o‘sha yerdan, bostirma tagidan turib, Katerina Lvovnaning yotoqxonasi-da yonib turgan shamni kuzat, uning par to‘shakni ko‘pchitib yozib, o‘zining qonuniy eri Zinoviy Borisich bilan yonma-yon yotayotganini ko‘z oldingga keltir».

– Bu bo‘lmaydi! – dedi Katerina Lvovna sho‘x ohangda va qo‘l siltab qo‘ydi.

– Qanaqasiga bo‘lmas ekan! Men aniq sezib turibman, busiz turolmaysizlar. Menda ham, Katerina Lvovna, yurak bor, men ham azob chekaman.

– Be, qo‘ysang-chi, shu gaplarni.

Sergeyning rashk qilishi Katerina Lvovnaga xush yoqardi, shu bois u kulib qo‘yib, yana mahbubini o‘pishga tushdi.

– Yana shuni... – deb Sergey gapini davom ettirarkan, boshini Katerina Lvovnaning yelkasigacha yalang‘och bo‘lgan quchog‘idan asta-sekin ozod qila boshladi, – yana shuni aytishim mumkinki, hozirgi mushkul ahvolim meni bir emas, o‘n emas, ko‘p marta shunday va bundan-da boshqacha o‘ylar surishga majbur qiladi. Bordi-yu men, aytaylik, siz bilan teng mavqeda bo‘lganimda edi, agar badavlat baringin yo savdogar bo‘lganimda edi, to o‘la-o‘lgunimcha siz bilan birga bo‘lardim. Ana, endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, sizning yoningizda qanaqa odamman men? Sizning oppoq bilagingizdan ushlab, yotoqxonangizga yetaklab kirib ketishlarini ko‘z oldimga keltirsam, bunga yuragim sira ham dosh berolmaydi, buning oqibatida, o‘zim ham umrbod jirkanch odam bo‘lib qolishim aniq, Katerina Lvovna! Men ayol kishi bilan, faqat rohatlanish uchungina bog‘lanadigan odamlar toifasidan emasman. Men chin muhabbat nimaligini, uning yuragim qonini xuddi zaharli ilondek so‘rishini butun vujudim bilan his qilaman.

– Nega endi menga bunaqa gaplarni gapirib yotibsang? – deb Katerina Lvovna uning so‘zini bo‘ldi. Uning Sergeyga rahmi kela boshlagan edi.

– Katerina Lvovna! Nega endi bu haqda gapirmay? Axir hamma narsa kunday ravshan, hammasi allaqachon xuddi ipga tizilganday aniq belgilab qo‘yilgandan keyin, qolaversa, bir kun kelib emas, hatto ertagayoq bu hovlida Sergeyning o‘zi ham, soyasi ham qolmaydigan bo‘lganidan keyin, nega gapirmay? Nega?

– Yo‘q, Seryojka, yo‘q, gapirma buni! Bu aytganing hech qachon bo‘lmaydi, men bir zum ham sensiz turolmayman, – deb Katerina Lvovna Sergeyning yupatarkan, boyagi-boyagiday uni erkalardi. – Agar ish chatoqlashguday bo‘lsa... yo u o‘ladi, yo men, sen faqat men bilan bo‘lasan.

– Muhabbatimizning davom etishi aslo mumkin emas, Katerina Lvovna, – dedi Sergey ma‘yus va g‘amgin bosh chayqab. – Bunday

muhabbat domiga ilinganimdan yorug' dunyoga kelmaganim yaxshi edi. Undan ko'ra, teng tengi bilan, deganlaridek, o'zimga tengimni topib, faqir kishi panada qabilida, boriga qanoat qilib yashayversam bo'lardi-ku. Nega endi kelib-kelib sizni tanladim mangu muhabbatim deb? Nahotki, menga jazman bo'lib yashashdan faxrlansangiz? Muqaddas boqiy ibodatgoh haqqi, men sizning eringiz bo'lishni istardim: ana unda men, garchi o'zimni hamisha sizdan quyiroq pog'onada turgan hisoblasam ham, har qalay, siz, zavjai muhtaramamni qanchalik sevib e'zozlashimni butun elga ko'z-ko'z qilgan bo'lardim.

Katerina Lvovna Sergeyning bu so'zlaridan, uni rashk qilayotganini va unga uylanish ishtiyoqida ekanini his qilib, suyunganidan o'zini yo'qotib qo'yayozdi – ayol qalbini seldek eritib yuboruvchi bu ishtiyoq shunday huzurbaxsh tuyg'uki, sevilgan qiz uning ta'sirida nikohdan oldingi qisqa muddatli ishqiy munosabatning ko'z ochib yumguncha «g'uv» etib o'tib ketganini ham sezmay qoladi. Katerina Lvovna hozir Sergey ni deb, suv kelsa suvdan kechishga, o't kelsa o'tdan o'tishga, hatto eng og'ir mashaqqatlarni boshidan kechirishga ham tayyor edi. Sergey uni o'ziga shunday rom qilib olgan ediki, Katerina Lvovnaning bu yigitga bo'lgan sadoqati hozir hadsiz-hududsiz edi. Yosh beka bunday saodatdan telba bo'lib qolayozdi; uning to-mirlarida qon gupurar, endi hech bir gap qulog'iga kirmasdi. U shosha-pisha kafti bilan Sergeyning lablarini to'sdi va uning boshini o'z siynasiga bosib quchoqlagancha dedi:

– O, o'zim bilaman seni qanday qilib boy savdogarga aylantirishni ham, sen bilan qonuniy tarzda umrguzaronlik qilishni ham. Sen faqat to vaqti-soati kelguncha bekordan-bekorga dilimni g'ash qilmay tur.

Yana ustma-ust totli bo'salar, suyib-siyपालashlar davom etdi.

Pichanxonada uxlab yotgan keksa gumashtaning qulog'iga so-kin tunda uyqu aralash goh xuddi to'polonchi bolalar munkillab qolgan cholni mazax qilayotganday pichirlash va hiringlashlar, goh sho'x suv parilari go'yo kimnidir qitiqlayotganday yangroq va quvnoq xandalar eshitilardi. Holbuki, bul vaqtichog'lik ijrochilari faqat oy nuriga cho'mib, patgilam ustida u yoqdan-bu yoqqa dumalashib o'ynashayotgan Katerina Lvovna bilan uning navqiron mahbubi edi, xolos. Ularning boshlari uzra qad ko'targan olma daraxtining oppoq gullari do'lday to'kila-to'kila axiyri to'kilmay qo'ydi. Bu asnoda yoz-

ning qisqa tuni o'tib borar, oy ham omborlarning baland tomlari orqasiga berkinib, ro'yi zaminga qiyo boqqancha xira torta boshlagandi; oshxona tomidan mov bo'lgan bir juft mushukning quloqni teshib yuborgudek chiyillagani, keyin ularning jon holatda pishqirgani eshildi; shuning ketidan ikkita yo uchta mushuk tomga tirab qo'yilgan bir bog'lam taxtaga tirmashib pastga dumalab tushdi.

– Ketdik uxlagani, – dedi Katerina Lvovna xuddi sillasi qurigan odamday hansirab va gilamga qanday yotgan bo'lsa, shu kiyimida, ya'ni faqat bitta ko'ylak bilan oq yubkada o'rnidan turib, qabriston sukunatiga g'arq bo'lgan hovlidan yurib o'ta boshladi. Sergey esa gilamni va beka sho'xlik qilib yechib tashlagan bluzkani ko'tarib unga ergashdi.

## YETTINCHI BOB

Katerina Lvovna shamni puflab o'chirib, butunlay yechinib momiq parto'shakka yotgan zahoti uni uyqu elitdi. To'yib-to'yib o'ynab, miriqib ko'ngilxushlik qilgan Katerina Lvovna dong qotib uxlab qoldi, endi uning oyoqlari ham, qo'llari ham mast uyquda edi; lekin uning qulog'iga uyqusi aralash, yana eshik ochilganday va kechagi mushuk yana uning ko'rpasi ustiga xuddi eski choriqday «do'p» etib tushganday bo'ldi.

– Voy, boshga bitgan balo bo'ldi-ku, bu yashshamagur mushuk! – dedi aysh-u ishratdan toliqqan Katerina Lvovna uyqusirab. – Eshikni ataylab o'z qo'lim bilan qulflab qo'ygandim, deraza ham yopiq, qay go'rdan kirdiykin? Hozir otib yuboraman uni, – Katerina Lvovna o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin g'aflat uyqusidagi qo'llari ham, oyoqlari ham unga itoat etmadilar; mushuk bo'lsa uning ustida yurib, nuqul xurillar, boz ustiga, odamga o'xshab gapirganday bo'lardi. Katerina Lvovnaning butun vujudi boshdan-oyoq jimirlab ketdi.

«Yo'q, – deb o'yladi u, – ortiq chidolmayman, ertaga albatta muqaddas suvdan bir kosa karavotim yoniga qo'yib qo'yaman, negaki, uyimga tanda qo'ygan bu mushuk juda alomat jonivor ko'rinadi.»

Mana, u yana tumshug'ini Katerina Lvovnaning qulog'iga tiragancha, «xur-xur» qilib gapira boshladi: «Nega endi, – dedi u, – men

mushuk bo'larkanman? Qanaqasiga? Sen o'zing, Katerina Lvovna, oqila juvonsan-ku, bilasan-ku axir, men hech qanaqa mushuk emasman, balki el tanigan nufuzli savdogar Boris Timofeich bo'laman. Faqat shunisi yomonki, ichimdagi jamiki ichak-chavoqlarim kelinginam mehmon qilib boqqan ovqatdan tilka-tilka bo'lib ketgan. Oqibatda, – deb xurilladi u, – men kichrayib qoldim, endi meni yaxshi tanimagan odamlarning ko'ziga asl shakl-shamoyilimda emas, mushuk bo'lib ko'rinyapman. Qani, ayt-chi, menga, turish-turmushing qalay o'tayapti, Katerina Lvovna? Eringga bo'lgan sadoqatingni qanday oqlayapsan? Men ataylab keldim qabristondan, Sergey Filipich bilan birgalikda eringning to'shagini qanday isitib obod qilayotganingni ko'rgani... Xur-xur... Endi men hech nimani ko'rmayapman. Mendan qo'rqma: bilasanmi, ko'zlarim kosasidan otilib chiqib ketgan sen bergan ovqatni yeganimdan keyin. Qani, ko'zlarimga qara-chi, kelinginam, qo'rqma!»

Katerina Lvovna qaradi-yu dodlab yubordi. O'zi bilan Sergey o'rtasida yana o'sha mushuk yotardi, lekin mushukning boshi Boris Timofeichning boshi edi; u bosh marhumning tirikligidagiday katalikda bo'lib, ko'zlarining o'rnida bir juft olovli doira gir-gir aylanardi.

Sergey uyg'onib ketdi, Katerina Lvovnani tinchitib, yana uxlab qoldi; Katerina Lvovnaning uyqusi esa butunlay o'chgan edi – lekin ayni vaqtida o'chgandi.

U ko'zini ochib yotarkan, birdan kimningdir darvoza osha hovliga sakrab tushganini eshitib qoldi. Ana, itlar ham vovillab o'sha odamga tashlanishdi-yu, lekin darrov jimib qolishdi – erkalanib unga suykali-shayotganday tuyuldi. Mana, oradan yana bir daqiqa o'tdi, pastdagi temir lo'kidon shiqillab, eshik ochildi. «Yo menga shunday tuyulyapti, yo bo'lmasa, mening Zinoviy Borisichim qaytib keldi, negaki, eshik uning zaxira kaliti bilan ochildi», deb qo'nglidan o'tkazdi Katerina Lvovna va shosha-pisha Sergeyni turtib uyg'otdi.

– Eshit, Sergey, – dedi u va o'zi ham tirsagiga tayangancha hushyor tortib quloq sola boshladi.

Haqiqatan ham, kimdir zinadan ehtiyotlik bilan asta-sekin qadam bosib chiqib, xobxona eshigiga yaqinlashayotgan edi.

Katerina Lvovna tungi ko'ylakda to'shakdan irg'ib turib, derazani ochdi. Shu zahoti Sergey boloxona ayvoniga yalangoyoq sakrab o'tib,

ustunga qo‘l va oyoqlari bilan chirmashdi – u bekaning ko‘shkidan necha martalab shu ustunni quchoqlab pastga tushgan edi.

– Yo‘q, to‘xta, ketma! Shu yerda yotib tur.. uzoqlashma, – deb pichirladi Katerina Lvovna va Sergeyga derazadan uning kiyimi bilan poyabzalini tashladi, so‘ng o‘zini yana ko‘rpa tagiga olib kuta boshladi.

Sergey Katerina Lvovnaning aytganini qildi: ustundan pastga sirpanib tushish o‘rniga shu boloxonadagi chipta bordon panasiga berkindi.

Bu payt Katerina Lvovna erining eshik tagiga kelganini va nafasini ichiga yutib, xonaga quloq solayotganini eshitib yotardi. U hatto erining rashk o‘tida yonayotgan yuragi tez-tez gursillab urayotganini ham eshitganday bo‘ldi; lekin Katerina Lvovnada bu payt eriga achinish emas, balki uni mazax qiluvchi yovuzona istehzo uyg‘ongan edi.

«Chuchvarani xom sanabsan», deb o‘ylardi u xuddi ma’sum go‘dakdek jilmayib huzur qilarkan.

Bu voqea o‘n daqiqacha davom etdi; lekin eshik ortida turib, xotining qanday nafas olib uxlayotganini eshitish axiyri Zinoviy Borisichning joniga tegdi shekilli, eshikni taqillatdi.

– Kim u? – deb so‘radi Katerina Lvovna bir oz fursatdan keyin uyqusiragan ovozda.

– Men, – deb javob qildi Zinoviy Borisich.

– Sizmi?

– Bo‘lmasam-chi, eshityapsan-ku!

Katerina Lvovna tungi ko‘ylakda sakrab turib, erini xonaga kiritdi va yana issiq o‘rniga yotib oldi.

– Negadir tongotar chog‘da salqin tushyapti, – dedi u ko‘rpagaburkankan. Zinoviy Borisich xonaga kirgach, atrofga ko‘z tashlab cho‘qinib oldi va yana har tomonga olazarak bo‘lib qaray boshladi.

– Qalaysan? – so‘radi u xotinidan.

– Yomonmas, – deb javob berdi Katerina Lvovna, so‘ng o‘rnidan ko‘tarilib, egniga oldi ochiq xonaki chit ko‘ylagini kiya boshladi.

– Samovar qo‘yish kerakdir? – so‘radi u.

– Mayli, Aksinyani chaqir, o‘sha qo‘ysin.

Katerina Lvovna yalang oyog‘iga boshmog‘ini ilib, yugurib chiqib ketdi. Yarim soatcha daragi bo‘lmadi uning. Bu asnoda u o‘zi samovarni o‘t oldirdi va asta-sekin boloxona ayvoniga ko‘tarilib, u yerda pisib o‘tirgan Sergeyga:

- Qimirlamay o‘tir, – deb pichirladi.
- Qachongacha axir? – so‘radi Sergey ham pichirlab.
- Voy, muncha kaltafahmsan-a! O‘tiraver, o‘zim aytmagunimcha.

Shunday deb, Katerina Lvovna uni yana avvalgi joyida qoldirdi. Bu yerdan yotoqxonada bo‘layotgan hamma gap Sergeyga eshilib turardi. U eshik ochilganini va Katerina Lvovnaning yana xobxonaga, erining oldiga kirganini eshitdi. U yerda aytilayotgan har bir so‘z aniq eshitila boshladi.

– Qayoqda qolib ketding shuncha vaqt? – so‘radi Zinoviy Borisich xotinidan.

- Samovar qo‘ydim, – javob qildi xotin beparvo ohangda.

Jim bo‘lib qolishdi. Zinoviy Borisich kamzulini qoziqqa ilgani eshitildi. Mana, endi u pishqirib, suv sachratib yuvina boshladi; ana, u sochiq so‘radi, yana gapira boshladi.

– Xo‘sh, qanday o‘tdi otamning ma‘rakasi, qanday dafn etdinglar uni? – so‘radi er.

- Qanday bo‘lardi, – dedi xotin, – o‘ldi, ko‘mdik.

– Taajjub, nega bunday bo‘ldiykin-a?

– Yolg‘iz Xudoga ayon bu, – deb javob qildi Katerina Lvovna, keyin finjonlarning jaranglagani eshitildi.

Zinoviy Borisich xona ichida mahzun kayfiyatda u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

– Qani, ayt-chi, bu yerda o‘zing qanday kun kechirding, mensiz? – deb yana savol bera boshladi Zinoviy Borisich xotiniga.

– Qanday bo‘lardi – hamma qatori: bazm-u ziyofatlarga, teatrlarga bormasam...

– Nazarimda, eringning kelganiga ham uncha quvonmayotgandaysan, – deya piching qildi Zinoviy Borisich xotini tomonga qiyo boqarkan.

– Nima, sen bilan men yosh kelin-kuyovmidikki, es-hushimizni yo‘qotsak? Bundan ortiq qanday quvonish mumkin? Ko‘rib turibsan, yugurib-yelib yotibman qo‘nglingni ovlash uchun.

Katerina Lvovna samovar olib kelgani yana chopib chiqib ketdi va yana Sergeyning oldiga o‘tib, shivirladi: «Hushyor bo‘lib tur, Seryoja!» Sergey nima bo‘lishini aniq bilmasdi, shunga qaramay shay bo‘lib turdi. Katerina Lvovna xonaga qaytib kirganida Zinoviy Borisich to‘shakda



tizzalab turib, karavot tepasiga o'zining munchoq zanjirli kumush soatini osayotgan edi.

– Nima uchun sen, Katerina Lvovna, yolg'iz o'zingga ikki kishilik o'rin solding? – deb u birdan xuddi taajjublanganday so'rab qoldi.

– Nimagaki, seni kutayotuvdim, – javob qildi Katerina Lvovna dangal eriga tikilib turib.

– O, behad minnatdorman sendan buning uchun... lekin to'shakdagi mana bu narsa qayoqdan kelib qoldi?

Zinoviy Borisich choyshab ustida yotgan ingichka jun belbog'ni (Sergeyning belbog'ini) bir uchidan ushlab, xotining ko'zi oldiga olib bordi. Katerina Lvovna o'ylab ham o'tirmay javob qildi:

– Bog'da yotgan ekan, – dedi u, – olib yubkamga belbog' qilgandim.

– Ha-a, – dedi Zinoviy Borisich o'z so'zlariga alohida urg'u berib, – yubkang masalasida eshitdik biz ham...

– Nimani eshitding?

– Nimani bo'lardi, qilib yurgan savobli ishlaringizni-da.

– Men hech qanaqa ish qilganim yo'q.

– Biz buni hali tekshirib, surishtirib ko'ramiz, – dedi Zinoviy Borisich xotini oldiga choydan bo'shagan finjonni surib qo'yarkan.

Katerina Lvovna indamadi.

– Biz, Katerina Lvovna, sizning hamma qilgan ishlaringizni aniqlaymiz, – dedi yana Zinoviy Borisich uzoq cho'zilgan sukutdan keyin xotiniga qoshini chimirib qararkan.

– Sizning Katerina Lvovnangiz qo'rqoqlardan emas. Bunaqa po'pisangiz bilan qo'rqitilmaysiz meni, – dedi xotin.

– Nima? Nima? – deb o'shqirdi Zinoviy Borisich.

– Hech nima – eshitganing, – javob qildi Katerina Lvovna.

– Ehtiyot bo'l, ey xotin! Men yo'g'imda tiling biyron bo'lib qolibdimi?

– Nega endi tilim biyron bo'lmasin? – dedi Katerina Lvovna.

– Undan ko'ra o'zingni o'ylasang bo'lardi.

– Nima qilibmanki o'zimni o'ylayman? Odamlar tilim bor deb nimalarni g'iybat qilishmaydi; nima men hammasiga quloq solishim kerakmi tishimni tishimga qo'yib? Anoyi yo'q!

– G'iybat emas bu, sening kim bilandir don olishib yurganing ham bizga ma'lum.

- Kim bilan qanaqa don olishib yurgan ekanman?
- Bilaman qanaqa don olishib yurganingni.
- Bilsang, ayt aniqroq qilib!

Zinoviyy Borisich indamadi va yana bo'shagan finjonni xotini tomon surib qo'ydi.

– Nima demoqchilgingni o'zing ham bilmaysan, – dedi Katerina Lvovna eridan hazar qilib va choy qoshiqni uning finjoniga jahl bilan tashlarkan. – Qani, gapir, kim haqida chaqimchilik qilishdi senga? Kim ekan o'sha mening jazmanim?

– Bilasan hali, ko'pam shoshilma.

– Nima, senga Sergey to'g'risida biron nima deb g'iybat qilishdimi?

– Bilib olamiz hali, bilib olamiz, Katerina Lvovna. Hali hech kim bizning senga bo'lgan huquqimizni bekor qilmagan, bekor qila olmaydi ham... Hammasini o'zing aytib berasan hali...

– E... E!.. Sabr kosam to'lib toshdi, – deya chinqirdi Katerina Lvovna tishlarini g'ijirlatib va rangi dokaday oqarib ketib, eshikdan o'qday otilib chiqdi.

Bir necha soniyadan keyin u Sergeyning qo'lidan ushlab xonaga kirib keldi-da, dedi:

– Mana u. Mayli, so'roq qil uni ham, meni ham, o'z bilganingcha. Balki, yana boshqa bilmagan narsalaringni bilib olarsan. Xo'sh, yana nimani bilmog'chisan?

Zinoviyy Borisich kalovlanib qoldi. U goh eshik oldida turgan Sergeyga, goh, qo'llarini ko'ksida chalishtirib to'shak chetida behuzur o'tirgan xotiniga qararkan, nimalar bo'layotganini tushunolmay garang edi.

– Hey, nima qilyapsan o'zi, ilon? – deyoldi u zo'rg'a o'tirgan yeridan qo'zg'alolmay.

– Bo'l, so'rayver o'sha yaxshi bilgan narsalaringni, – dedi Katerina Lvovna gustoxlik bilan. – Balki hali meni kaltaklab qo'rqitmoqchidirsan ham, – deb gapida davom etdi u, hech nimadan tap tortmay, – hech qachon bunday bo'lmaydi; endi menga kelsak, sening bunaqa po'pisalaringni ilgariyam eshitganman... Men endi seni nima qilishim kerakligini yaxshi bilaman, aytganimni qilaman ham.

– Bu nima qiliq? Yo'qol! – deb baqirdi Zinoviyy Borisich Sergeyga.

– Nima qiliq! – dedi Katerina Lvovna erining jig‘iga tegib.

U chaqqonlik bilan eshikni qulflab, kalitni cho‘ntagiga soldi, so‘ng yana tungi ko‘ylagida to‘shakka yonboshlab yotib oldi.

– Qani, Seryojehka, beri kel, kelaver, jonginam, – deb u gumashta yigitni o‘z yoniga imlab chaqirdi.

Sergey jingalak sochlarini silkitib, zarracha ham tap tortmay bekaning yoniga kelib o‘tirdi.

– Yo tavba! E Xudo! Bu nima, degan gap? Nima qilyapsanlar, maxluqlar?! – deb o‘kirib yubordi cho‘g‘dek qizarib ketgan Zinoviy Borisich o‘rmidan turarkan.

– Ha, nima? Yoqmadimi senga? Mana, ko‘r, tomosha qil, shunqor erim, qanday maza!

Katerina Lvovna kulib yubordi va erining ko‘zi oldida Sergeyni jo‘shqin hirs bilan o‘pa ketdi.

Shu payt bekaning yuziga sharaqlab tarsaki tushdi va Zinoviy Borisich ochiq turgan deraza tomon otildi.

## SAKKIZINCHI BOB

– A... a, shunaqami hali!.. O, rahmat, jonim erim. Men sendan shuni kutgan edim! – deya chinqirdi Katerina Lvovna. – Mana, endi ko‘rasan... Mening aytganim bo‘ladi, senikimas...

U bir siltanib, Sergeyni o‘zidan itarib yubordi-da, eriga quyunday tashlandi. Zinoviy Borisich deraza oldiga yetib borishga ulgurmay, xotin uning orqasidan borib, o‘zining ingichka barmoqlari bilan uning tomog‘idan xuddi namiqqan kanop bog‘ini siqib bog‘layotganday, xippa bo‘g‘di va yerga otib yiqitdi.

Ensasi bilan yerga qattiq urilgan Zinoviy Borisichning esi og‘ib qoldi. Mojaro yechimi bunchalik tez yuz berishini hech kutmagan edi u. Xotini tomonidan qilingan bu birinchi hujum Katerina Lvovnaning eridan qutulish uchun hozir hech nimadan tap tortmasligidan va ayni paytda, o‘zining ham ushbu damdagi ahvoli nihoyatda xatarli ekanligidan dalolat berardi. Zinoviy Borisich bularning hammasini yerga yiqilib tushgan lahzadayoq idrok qildi-yu, lekin baribir, baqirgani bilan ovozini hech kim eshitmasligini, qaytaga, jinoiy ishni jadallash-tirishi mumkinligini tushunib dod solmadi. U churq etmay yotgan-

cha, atrofga olazarak bo‘lib qaradi va axiri xotining ko‘ziga tikildi – u nozik barmoqlari bilan erining tomog‘idan bo‘g‘ayotgan edi. Zinoviy Borisich o‘zini himoya qilishga urinmadi ham; uning musht bo‘lib mahkam tugilgan qo‘llari ikki yonida yotar, o‘zi dag‘-dag‘ qaltirardi. Uning bir qo‘lini Katerina Lvovna tizzasi bilan yerga bosib turgan bo‘lsa ham, ikkinchi qo‘li ozod edi.

– Bosib tur buni, – dedi ayol Sergeyga loqayd ohangda pichirlab va o‘zi eri tomon o‘girildi.

Sergey xo‘jayinining ustiga minib olib, uning ikkala qo‘lini tizzalari bilan bosdi va Katerina Lvovnaga qo‘shilib, u ham Zinoviy Borisichni bo‘g‘moqchi bo‘ldi, lekin shu choq birdan Zinoviy Borisich jon achchig‘ida chinqirib yubordi. Ustiga minib olgan raqibini ko‘rgan Zinoviyning qalbida qonli intiqom o‘ti alanga olgandi: u o‘zining eng oxirgi kuchlarini jamlab, Sergeyning tizzasi tagidagi qo‘llarini jonjahd bilan tortib oldi va uning qora sochlariga chang solib, bo‘ynidan xuddi vahshiy hayvondek g‘archcha tishladi. Lekin bu intiqom uzoq davom etmadi: Zinoviy Borisich shu zahoti og‘ir ingrab, boshi shilq etib osilib tushdi. Rangi dokadek oqarib ketgan Katerina Lvovna eri bilan o‘ynashi tepasida zilday og‘ir quyma shamdonning uch tomonidan ushlab, haykalday qotib turardi. Endi Zinoviy Borisichning chakasi va yonog‘idan qon ingichka iz qoldirib oqa boshlagan edi.

– P-popni ch-chaqir, – deb ingradi Zinoviy Borisich ustida o‘tirgan Sergeydan jirkanganday bosh silkib undan qutulishga urinar-kan. – Isistig‘for qilaman, – dedi u g‘o‘ldirab va sochlari ostida laxta bo‘lib quyila boshlagan iliq qonga ko‘z qirini tashladi.

– Shundoq ham to‘ng‘iz qo‘paverasan, – pichirladi Katerina Lvovna, so‘ng: – Bas, yetar, ko‘p cho‘zma, – dedi u Sergeyga, – mahkamroq bo‘g‘ tomog‘idan!

Zinoviy Borisich xirillay boshladi.

Katerina Lvovna engashib, erining tomog‘ini bo‘g‘ayotgan Sergeyning qo‘llari ustidan o‘z qo‘lini bosdi, keyin Zinoviy Borisichning ko‘kragiga quloq tutib birpas yotdi. Besh daqiqali sukutdan so‘ng o‘rnidan turib dedi: «Bo‘ldi, yetar, kuni bitdi».

Sergey ham hansiragancha o‘rnidan turdi. Tomog‘i bo‘g‘ilib, chakasi yorilgan Zinoviy Borisich o‘lib yotardi. Uning boshi tagida chap tomonda mo‘jazzgina qon dog‘i bo‘lib, endi u patila sochlar orasida ivib, laxtalanib, oqmay qo‘ygan edi. Sergey Zinoviy Borisichning ja-

sadini yerto'ladagi g'ishtin omborchaga (bundan bir necha kun burun marhum Boris Timofeich uni, ya'ni Sergeyni shu yerga qamagan edi) olib tushib, yana boloxonaga qaytib chiqdi. Bu payt Katerina Lvovna tungi ko'ylagining yengini shimarib, etagini lippasiga qistirib, Zinoviy Borisichdan qolgan yerdagi qon dog'larini mochalka va sovun bilan azza-bazza ishqalab yuvayotgan edi. Zinoviy Borisich zaharli choy ichgan samovarning suvi hali sovimagan edi; hamma dog'lar osongina yuvib, yo'q qilindi.

Katerina Lvovna idish-tovoq yuviladigan mis tog'oracha bilan sovuqlangan mochalkani qo'liga oldi.

– Qani, sham tutib tur, – dedi u Sergeyga o'zi eshik tomon yurarkan, so'ng Sergey Zinoviy Borisichni yerto'lagacha ko'tarib olib tushgan hamma yerni diqqat bilan ko'zdan kechirarkan: – Pastroq, pastroq ushla, – deb buyurdi.

Bo'yalgan polning faqat ikkita yerida olcha donasiday kichkina ikkita qon dog'i uchradi. Katerina Lvovna ularni ham mochalka bilan ishqalab yo'q qildi.

– O'z xotining orqasidan ayg'oqchilik qilishning, uning oldiga xuddi o'g'riday pusib kirishning jazosi shu bo'ladi – dedi Katerina Lvovna qaddini tiklab va yerto'ladagi omborcha tomonga qarab qo'yib.

– Bo'ldi, tamom, – dedi Sergey va o'z ovozidan o'zi seskanib ketdi.

Ular boloxonaga qaytishganida, kunchiqar tomondan balqigan shafaqning nafis qizg'ish shu'lasini oppoq gulga burkangan olma daraxtini zarrin nur bilan bezab, bog' atrofidagi yashil panjara orasidan Katerina Lvovnaning xobxonasiga mo'ralay boshlagan edi.

Yelkasiga kalta po'stin tashlagan kekxa gumashta pichanxonadan chiqib, hovlidan oshxona tomonga o'tib borarkan, ham cho'qinar, ham homuza tortardi. Katerina Lvovna derazaning yopiq eshigini ipidan tortib ochdi va Sergeyga, go'yo uning qalbini his etmoqchi bo'lganday, tikilib qaradi.

– Mana, endi sen savdogarsan, – dedi u oppoq bilaklarini Sergeyning yelkasiga qo'yib.

Sergey hech nima demadi.

Uning lablari pir-pir uchar, butun vujudi xuddi bezgagi qo'ziganday dag'-dag' qaltirardi. Katerina Lvovnaning esa faqat lablari sovuq edi.

Ikki kundan keyin Sergeyning qo‘llarida misrang hamda belkurak dastasidan qavariq va qadoqlar paydo bo‘ldi; shu bilan birga, Zinoviy Borisich ham o‘zining xandaqli omborchasiga shunday puxta joylashingtirilgan ediki, endi uni beva qolgan xotini yoki xotining o‘ynashsiz hech kim to mahshar kunigacha topa olmasdi.

## TO‘QQIZINCHI BOB

Sergey bo‘ynini qizil ro‘mol bilan o‘rab yurar va doim, to-mog‘imga qandaydir yara chiqqanga o‘xshaydi, deb zorlanardi. Bu orada, Sergeyning bo‘ynidagi Zinoviy Borisichning tishlaridan qolgan tamg‘a hali bitib ketmasidan, odamlar Katerina Lvovnaning erini eslab xavotirlana boshladilar. Hammadan ko‘proq Sergeyning o‘zi uni tez-tez tilga ola boshladi. U kechqurunlari darvoza oldidagi uzun o‘rindiqa yigitlar bilan gurlanglab o‘tirarkan: «Hayronman, yigitlar, xo‘jayinimizdan haligacha dom-darak yo‘q, nima bo‘ldiykin-unga?» deb o‘zi gap ochardi.

Yigitlar ham hayron edilar.

Ana shunda tegirmondan, xo‘jayinning ot-arava yollab allaqachon shahardagi hovlisiga jo‘nab ketgani haqida xabar keldi. Uni shaharga olib kelgan aravakash, Zinoviy Borisichning go‘yo noxush kayfiyatda bo‘lganini va unga juda g‘alati tarzda javob berib yuborganini, ya‘ni: shaharga yetmasdan uch chaqirim naridagi monastir tagida aravadan tushib, qo‘liga pul solingan xaltani olib, piyoda yurib ketganini aytibdi. Bu xabarni eshitib, hamma yana ham ko‘proq taajjubga tushdi.

Zinoviy Borisich dom-daraksiz yo‘qolgan edi, vassalom.

Ana shunda qidiruvlar boshlandi, lekin hech nima aniqlanmadi: savdogarzoda xuddi suvga cho‘kkanday g‘oyib bo‘lgandi.

Hibsga olingan aravakash bergan guvohlikdan, savdogarning faqat monastir yaqinda, daryo bo‘yida aravadan tushib piyoda yurib ketganigina ma‘lum bo‘ldi. Xullas, hech nima oydinlashmadi. Katerina Lvovna esa bu payt beva xotin maqomida Sergey bilan erkin-emin vaqtixushlik qilardi. Bu ham yetmaganday, Zinoviy Borisich falon joydamish, pismadon joyga jo‘nab ketibdi, degan taxminlarni ovoza qila boshlagandilar. Va lekin Zinoviy Borisich hamon uyiga qayt-

masdi, holbuki, uning hech qachon uyiga qayta olmasligini Katerina Lvovna juda yaxshi bilardi.

Oradan bir oy, ikki oy, uch oy o'tdi, ana shunda Katerina Lvovna o'zining homilador ekanini his eta boshladi.

– Endi, Seryojchka, hamma sarmoyalar bizniki bo'ladi: mening merosxo'rim bor endi, – dedi u Sergeyga va duma mahkamasiga borib, mana shunaqa-shunaqa gaplar, men ikkiqatman, xo'jalik ishlari o'lda-jo'lda, uni boshqarishimga ruxsat beringlar, deb arz qildi.

Tijorat ishlari tanazzulga yuz tutsa yaxshimas-ku, axir. Katerina Lvovna erining jufti haloli; hech kimdan qarzlari ham yo'q ko'rinadi, binobarin, beva xotinga xo'jalik ishlarini boshqarishi uchun ruxsat berilsa ham bo'ladi. Shu qarorga kelib, ruxsat berishdi.

Katerina Lvovna butun mulkka hukmronlik qilib yashay boshladi; Sergeyni esa, endi malikaning amri bilan Sergey Filipich deb atay boshladilar; shu kunlarda, xuddi tomdan tarasha tushganday, yana bir noxushlik sodir bo'ldi. Livendan shahar hokimiga kelgan maktubda Boris Timofeichning tijorat ishlarda faqat o'zining sarmoyasigina emas, balki uning kichik yoshdagi jiyani Feodor Zaxarov Lyaminning ham puli muomalada bo'lganligi, boz ustiga, Lyaminning puli Boris Timofeichnikidan ham ziyodroq ekanligi haqida, shunga ko'ra, bu narsani puxta tekshirib chiqish hamda butun sarmoyani yolg'iz Katerina Lvovnaning qo'liga topshirib qo'ymaslik lozimligi masalasi yozilgan edi. Bu xabarni, turgan gapki, shahar hokimi Katerina Lvovnaga ma'lum qildi; keyin, oradan bir hafta o'tar-o'tmay, hech kutilmaganda Livendan bir kampir kichik bir o'g'il bolani yetaklab kirib keldi.

– Men, – dedi kampir, – rahmatli Boris Timofeichning xolavachasi bo'laman, bu bola – mening jiyanim Feodor Lyamin.

Katerina Lvovna ularni kutib oldi.

Kelganlarning Katerina Lvovna tomonidan qanday qarshi olinib, qanday qabul qilinayotganini hovlida turib kuzatayotgan Sergeyning rangi quv o'chib ketdi.

– Ha, nima bo'ldi senga? – so'radi beka murdadek oqarib ketgan Sergeydan; u kelganlar orqasidan kirib ostonada to'xtab qolgan edi.

– Hech nima, – deb javob qildi gumashta orqasiga o'girilib dahlizga chiqarkan.

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – deb so'radi Sergey Filipich Katerina Lvovnadan tunda samovar atrofida o'tirishganda. – Bundan chiqdi, Katerina Lvovna, endi butun umidlarimiz puchga chiqarkan-da, a?

- Nega endi puchga chiqarkan, Seryoja?
- Negaki, endi hamma narsa taqsimlanadi. Keyin, bu quppa-qu-ruq yerda nimaga ham bekalik qilasiz?
- Nima, bizga qolgani kamlik qiladimi, seningcha?
- Yo‘q, gap menda emas; men faqat, endi baxtli kunlarimizdan judo bo‘lib qolamizmi, deb qo‘rqyapman, xolos.
- Qanaqasiga? Nega endi biz baxtli bo‘lolmas ekanmiz, Seryoja?
- Negaki, Katerina Lvovna, men sizni sof muhabbat bilan sevaman, shunga ko‘ra, sizni shu choqqacha bo‘lgan qiyofada emas, aslzoda xonim-afandi sifatida ko‘rishni xohlayman, – deb javob qildi Sergey Filipich. – Endi bo‘lsa, hamma narsa chappasiga ketib, hali sarmoyangiz kamaygandan keyin avvalgi ahvolingizdan ham g‘aribroq bo‘lib qolishingiz meni kuydiradi.
- Eh, Seryojechka, nima qilaman men shuncha boylikni?
- To‘g‘ri, Katerina Lvovna, balki sizga qizig‘i yo‘qdir o‘sha boylikning, illo mening sizga bo‘lgan hurmatim haqqi, shuni e‘tirof etishim joizki, ichi qora, mal‘un odamlarning sizga qanday ko‘z bilan qarashlarini o‘ylasam, yurak-bag‘rim qon bo‘lib ketadi. Sizni-ku, bilmayman, ammo men bunday ahvolda hech ham baxtli bo‘lolmasam kerak, deb o‘ylayman.

Sergey shunday gaplarni qayta-qayta Katerina Lvovnaning qu-log‘iga quyaverib, nuqul anavi go‘dak Fedya Lyaminning kasofatidan eng baxtsiz odamga aylanayotganini, oqibatda barcha tijorat ahli oldida Katerina Lvovnani ulug‘lash va qadrlash imkonidan mahrum bo‘lishi mumkinligini pesh qilaverdi. Sergey har safar bu masala yuzasidan gap ochganida, agar shu Fedya bo‘lmaganida, Katerina Lvovnaning eri g‘oyib bo‘lganidan keyin to‘qqiz oy o‘tganida bola tug‘ib butun boylikka ega bo‘lishi, ana unda baxtli turmushlarining cheki chegarasi bo‘lmasligi haqida luqma tashlab o‘tardi.

## O‘NINCHI BOB

Keyin Sergey nimagadir voris haqida butunlay gap ochmay qo‘ydi. Sergeyning bu haqda gapirmay qo‘yganini ko‘rgan Katerina Lvovnaning fikri-zikri va qalbiga endi Fedya Lyamin mahkam joylashib olgandi. Mana, u xayolot og‘ushida bo‘lganidan, hatto Sergeyga ham sovuq muomala qila boshladi. U uyqusida ham, xo‘jalik ishla-



ri bilan mashg'ul bo'lganida ham, yo Xudoga ibodat qilayotganida ham hamisha miyasi bir fikr bilan band bo'lardi: «Bu nima degan gap? Nega endi men shu zumrasha deb sarmoyamdan judo bo'lishim kerak? Axir qancha azob chekdim, ne-ne gunoh ishlarga qo'l urmadim, – deb o'ylardi Katerina Lvovna, – u bo'lsa, qo'lini sovuq suvga ham urmay, mening boyligimni tortib olmoqchi... Durustgina odam bo'lsayam mayliydi, qayoqdagi bir tirmizak bola...».

Havoda ilk sovuqlar boshlandi. Zinoviy Borisich haqida, turgan gapki, hanuz hech yerdan hech qanday darak kelmasdi. Katerina Lvovna kun sayin to'lishib borar va doim xayol og'ushida yurardi; shaharda uning to'g'risida har turli mish-mishlar, shov-shuvlar tarqalib, odamlar: «Izmaylovning shu tobgacha hamisha ozg'in va so'lg'in bo'lgan bepusht kelini qanday qilib va kimdan birdaniga qornini qappaytirib oldiykin?» deb surishtira boshlashdi. Bu asnoda hamvoris o'smir bola Fedya Lyamin olmaxon mo'ynasidan tikilgan po'stinchada hovlida o'ynab yurib, qatqaloqlar ustidagi yupqa muzlarni sindirardi.

– Qo'y, Feodor Ignatich! Qo'y, boyvachcha! – deb qichqirardi hovlidan yugurib o'tayotgan oshpaz Aksinya. – Sen savdogarzodasan, ko'lmaklarni kovlashing odobdanmi?

Hamvoris Fedya bo'lsa, Katerina Lvovnani homilasi bilan xijolatga qo'yib, kimningdir yo'liga g'ov bo'layotgani yoki kimningdir baxtini kemtik qilayotgani haqida hech ham o'ylamay, sho'x uloqchaday dik-dik sakrab o'ynar va uni parvarish qilib o'stirgan buvisiga zid o'laroq, beg'am, betashvish halovatda uxlab qolardi.

Bir kuni Fedyaga suvchechak toshdi, bu ham yetmaganday, shamollab qolib, ko'kragi sancha boshladi va yotib qoldi. Avvaliga uni giyoh o'tlar bilan davolashdi, keyin tabibga odam yuborishdi.

Tabib bu xonadonga tanda qo'ya boshladi, bolaga turfa xil dorilar yozib berdi, unga goh buvisi, goh buvisining iltimosi bilan Katerina Lvovna soat-basoat dori ichirib turishdi.

– Yordamingni ayama, Katerinushka, – dedi yosh beka o'ziga o'zi, – sen onasan, o'zingning ham homilang bor, o'zing ham qilmish gunohlaring uchun Xudoning g'azabiga uchrashingni kutib yuribsan; yaxshilik qil.

Katerina Lvovna kampirning iltimosini hech qaytarmadi. Kampir «xastalik to'shagida yotgan o'smir Feodor» uchun ibodat qilgani

kechki ibodatga ketganida ham, nevarasiga prosfora<sup>1</sup> bo‘lagini olib kelgani ertalabki ibodatga borganida ham Katerina Lvovna bemor bola yonida o‘tirib, unga suv ichirar, vaqtida dorisini berardi.

Bir kuni kampir Tashrif bayrami<sup>2</sup> arafasida o‘tkaziladigan kechki va va tungi ibodatga ketarkan, Katerinushkadan Fedyushkaga qarab turishni iltimos qildi. Bola bu payt sal tuzala boshlagan edi.

Katerina Lvovna Fedyaning oldiga kirdi, bola olmaxon mo‘ynali po‘stinchasini kiyib, to‘shagida paterik kitobini o‘qib o‘tirardi.

– Nima o‘qiyapsan, Fedya? – so‘radi Katerina Lvovna kresloga o‘tirib.

– Avliyolar hayotini, xolajon.

– Qiziqmi?

– Judayam qiziq, xolajon.

Katerina Lvovna iyagini kaftiga tiragancha, kitob o‘qiyotgan Fedyaning qimirlab turgan lablariga tikilarkan, shu chog‘ birdan: «Bu bola hali menga ko‘p tashvishlar keltiradi, agar gumdon bo‘lsa, qanday yaxshi bo‘lardi», degan uning ilgarigi o‘y-xayollari yana xuddi tuzoqdan bo‘shatilgan iblislardek yopirilib kelib miyasini qamrab oldi.

«Ha-da, nima qipti, – deb o‘ylardi Katerina Lvovna, – bola kasal, unga dori berib yotishi... kasal bo‘lgandan keyin, har narsa bo‘lishi mumkin... Tabib dori tayinlashda yanglishgan, degan bahona kifoya».

– Dori ichadigan payting bo‘ldimi, Fedya?

– Beraqoling, xolajon, – dedi bola va qoshiqdagi dorini ichib yuborib, qo‘shib qo‘ydi. – Judayam qiziq kitob ekan, xolajon, bunda avliyolar haqida yozilgan.

– Mayli, o‘qiyver, – dedi Katerina Lvovna va butun xonaga ko‘z yugurtirib chiqib, derazaning jimjimador muz qoplagan oynalariga tikilib qoldi.

– Borib aytay, deraza qopqalarini yopishsin, – dedi u va mehmonxonaga, u yerdan zalga, undan keyin o‘zining boloxonasiga chiqib o‘tirdi.

<sup>1</sup> *Prosfora* – pravoslav mazhabidagi dindorlar ibodat chog‘ida iste‘mol qiladigan oq bug‘doy unidan pishirilgan kichkinagina dumaloq kulcha.

<sup>2</sup> *Tashrif (vvedeniye) bayrami* – Bibi Maryamning ibodatgohga kirishini (21-noyabr) xotirlab o‘tkaziladigan cherkov bayrami.

Besh daqiqalardan keyin bu yerga qo‘y terisidan kalta po‘stin kiygan Sergey chiqib keldi; u sukutda edi.

– Deraza qopqalarini yopishdimi? – so‘radi undan Katerina Lvovna. – Yopishdi, – dedi Sergey sham so‘xtasini qaychilab olarkan; so‘ng pechka oldiga borib turdi.

Xonaga jimlik cho‘kdi.

– Bugun tungi ibodat hali-beri tugamasa kerak? – so‘radi Katerina Lvovna.

– Ertaga katta bayram, ibodat ancha cho‘ziladi, – javob qildi Sergey.

Yana jimlik.

– Fedyaning oldiga boraqolay. U yolg‘iz o‘tiribdi, – dedi Katerina Lvovna o‘rnidan turarkan.

– Yolg‘iz, de? – so‘radi Sergey qovoq ostidan unga tikilib qararkan.

– Yolg‘iz o‘zi, – javob qildi Katerina Lvovna pichirlab, – ni maydi?

Ikkovining ko‘zidan ko‘ziga qandaydir chaqmoqdek shiddatli chiziq tortilganday bo‘ldi; lekin ular bir-birlariga bironta ham so‘z aytmadilar.

Katerina Lvovna pastga tushdi, xonalardan o‘tdi; hamma yer osuda edi; shamchiroqlar jimgina yonib turar, bekaning soyasi devorlar bo‘ylab lip-lip o‘tardi; eshiklari yopilgan derazalardagi muz erib yig‘lay boshlagandi. Fedya kitob o‘qib o‘tirardi.

– Xolajon, – dedi u Katerina Lvovnani ko‘rib; – bu kitobni olib qo‘ying-da, huv anavi ikona qutisi ustida yotgan kitobni olib bering.

Katerina Lvovna jiyani iltimosini bajarib, kitobni olib berdi.

– Endi uxlasang bo‘lardi, Fedya!

– Yo‘q, xolajon, buvim kelishini kutaman.

– Kutib nima qilasan?

– Buvim menga tungi ibodatdan tabarruk kulcha olib keladilar – so‘z berganlar.

Katerina Lvovna birdan dokadek oqarib ketdi, uning o‘z homilasi – o‘z bolasi bugun birinchi marta yuragi ostida qimirlab tepingandi, shunda uning ko‘ksini muz qoplaganday bo‘ldi. U xona o‘rtasida birpas qimir etmay turib qoldi, keyin muzlab qolgan qo‘llarini ishqilagancha xonadan chiqdi.

– Xo‘sh? – dedi u boloxonaga asta-asta yurib chiqarkan, Sergeyni hanuz pechka oldida turganini ko‘rib.

– Nima? – dedi Sergey eshitar-eshitilmas va qo‘rqib ketdi.

– U bir o‘zi.

Sergay qoshlarini chimirib, og‘ir hansirab nafas ola boshladi.

– Ketdik, – dedi Katerina Lvovna shaxt eshik tomon burilib.

Sergey apil-tapil etigini yechdi va so‘radi:

– Nima olay?

– Hech nima, – dedi Katerina Lvovna va Sergeyni qo‘lidan ushlab pastga yetaklab tushib ketdi.

## O‘N BIRINCHI BOB

Katerina Lvovna uchinchi marta kelganida, kasal bola seskanib ketib, kitobini tizzasiga qo‘ydi.

– Nima qildi, Fedya?

– Negadir qo‘rqib ketdim, xolajon, – dedi bola xavotirli jilmayib va to‘shak chetiga surilib o‘tirdi.

– Nimadan qo‘rqib ketding?

– Siz bilan yana kimdir kelayotganday bo‘ldi, xolajon.

– Voy, qachon? Hech kim kelgani yo‘q men bilan, o‘rgilay.

– Hech kim, deng?

Bola karavotning oyoq tomoniga engashib, xolasi kirib kelgan eshikka qaradi-da, sal ko‘ngli taskin topdi.

– Menga shunday tuyuldi, shekilli, – dedi u.

Katerina Lvovna jiyani karavotining bosh tomonidagi to‘siqqa suyandi. Fedya xolasi yuziga qarab turib, negadir rangingiz oqarib ketdi, dedi. Katerina Lvovna bunga javoban besabab yo‘talib qo‘ydi va mehmonxonaga ochiladigan eshikka umid bilan qaradi. U yoqdan faqat pol taxtasining ohista qisirlagani eshitildi.

– Men, xolajon, o‘z farishtam Feodor Stratilat haqida o‘qiyotuvdim. U Xudoga judayam sodiq bo‘lgan ekan.

Katerina Lvovna churq etmay turaverdi.

– Agar xohlasangiz, xolajon, o‘tiring, sizgayam o‘qib beraman, – dedi jiyani navozish bilan.

– Shoshmay tur, men hozir kelaman, zaldagi shamchiroq so‘x-tasini olaman-u qaytaman, – dedi Katerina Lvovna va shoshgancha chiqib ketdi.

Mehmonxonada allakimlar juda ohista pichirlashardi; shunday bo‘lsa ham, bu pichir-pichir sukutga cho‘mgan uyda bolaning ding qulog‘iga eshitildi.

– Xolajon! Nima bo‘lyapti o‘zi? Kim bilan pichirlashyapsiz u yoqda? – deb yig‘i aralash chinqirib yubordi bola. – Bu yoqqa keling, xolajon, men qo‘rqib ketyapman, – dedi u yig‘lab, shunda Katerina Lvovnaning mehmonxona tomondan «xo‘sh» degani eshitildi; bola bu so‘zni o‘ziga qaratilgan deb o‘yladi.

– Nimadan qo‘rqasan? – deb so‘radi xonaga dadil va shaxdam-shaxdam yurib kirgan Katerina Lvovna sal xirillagan ovozda, so‘ng u karavot oldida turib, o‘z gavdasi bilan mehmonxonaga ochiladigan eshikni to‘sdi. – Yot!

– Yotgim kelmayapti, xolajon.

– Yo‘q, Fedya, gapimga quloq sol, yot, uxlaydigan payting bo‘ldi, yota qol, – deb yana takrorladi Katerina Lvovna.

– Nega unaqa qilyapsiz, xolajon? Sirayam yotgim kelmayapti.

– Yo‘q, sen yot, yota qol, – dedi Katerina Lvovna yana ham o‘zgargan va bo‘shashgan ovozda, so‘ng bolani ikki qo‘ltig‘idan olib, to‘shagiga yotqizdi.

Ana shunda Fedya juda ham hayajonlanib ketib, dodlab yubordi: uning ko‘zi xonaga rangi bo‘zarib yalangoyoq kirib kelayotgan Sergeyga tushgan edi.

Katerina Lvovna bolaning dahshatdan lang ochilgan og‘zini kafti bilan to‘sib turib baqirdi:

– Qani, bo‘l tez! Mahkam bosib tur, qimirlamasin!

Sergey Fedyaning oyoq va qo‘llaridan ushladi, Katerina Lvovna kattakan par yostiqni olib, sho‘rlik xasta bolaning yuziga shartta bosib, ustiga baquvvat, dirkillagan siynalari bilan yotib oldi.

Xonada to‘rt daqiqacha qabrison sukunati davom etdi.

– Bo‘ldi, joni uzildi, – deb pichirladi Katerina Lvovna va ham-mayoqni tartibga keltirish uchun endigina oyoqqa turgan edi, ne-ne jinoyatlarning shohidi bo‘lgan bu sokin xonadonning devorlari gursil-lab urilgan mushtlar, zarbalardan qattiq larzaga keldi: deraza oynalari zirilladi, pol taxtalari tebrandi, osma shamchiroqlarning zanjirlari zor-

lanib jingillay boshladi, g'ayritabiiy soyalar devorlar bo'ylab zir-zir yugurdi.

Sergey qo'rqqanidan qaltirab ketdi va oyog'ini qo'liga olgan-cha chopib chiqib ketdi. Katerina Lvovna uning orqasidan yugurdi, shovqin-suron, baqiriq-chaqiriqlar esa ular orqasidan ta'qib qilib borardi. Bamisoli qandaydir g'ayrizaminiy kuchlar gunoh botqog'iga botgan bu uyni tag-tugi bilan qo'porib tashlashga urinayotganday edi.

Katerina Lvovna qo'rqib ketgan Sergeyning hovliga otilib chiqib, vahimaga tushganini sezdirib qo'yishidan xavotirda edi; yo'q, u to'g'ri boloxonaga chopib chiqib ketgan ekan.

Zinadan yugurib chiqqan Sergey qorong'ida peshonasini qiya ochiq turgan eshik qirrasiga urib oldi va ingragancha pillapoyalardan umbaloq oshib tusha boshladi; bu dahshatdan u o'zini yo'qotib qo'yayozdi.

Sergey oyog'i osmondan bo'lib, boshi pillapoyalarga urilib, yo'l-yo'lakay, orqasidan yetib kelgan Katerina Lvovnani ham ag'darib pastga dumalab tusharkan, nuqul:

– Zinoviyy Borisich, Zinoviyy Borisich! – deb g'o'ldirardi.

– Qani u? – so'radi Katerina Lvovna.

– Ana, qo'lida temir tova bilan tepamizdan uchib o'tdi. Ana, ana, ana! – deb chinqirdi Sergey, – majaqlayapti, hamma narsani majaqlayapti.

Endi hamma narsa oydinlashgan edi: ko'chaga to'plangan tumonat odam deraza oynalarini qars-qurs urar, allakimlar eshikni ochib kirmoqchi bo'lardi.

– Sen ahmoqsan! Tur o'rningdan, ahmoq! – deb o'shqirdi Katerina Lvovna va shunday deb turib, g'izillagancha Fedyaning oldiga tushib ketdi, borib go'dak murdaning boshini xuddi uxlab yotganday qilib yostiqqa qo'ydi, so'ng odamlar qarsillatib urayotgan ko'cha eshikni chayir qo'llari bilan ochdi.

Manzara nihoyatda dahshatli edi, Katerina Lvovna eshik oldida to'plangan olomonning boshi osha qaradi: son-sanoqsiz begona odamlar hovliga baland devordan oshib tushar, dahshatli shovqin-surondan ko'cha larzaga kelgan edi.

Katerina Lvovna nima bo'lganini bilishga ham ulgurmay, eshik oldini qamal qilgan xalq uni tutib rosa ezg'iladi va hibsga oldi.

## O'N IKKINCHI BOB

Bu barcha vahimalar mana bunday sodir bo'lgandi: o'n ikkinchi bayram<sup>1</sup> arafasida bo'ladigan tungi ibodatga hamma cherkovlarda, hattoki Katerina Lvovna istiqomat qilayotgan uncha kichik bo'lmagan uyezdda ham tumonat odam yig'ilardi. Ertasi kuni prestol<sup>2</sup> bo'ladigan cherkovda-ku, xalqning ko'pligidan tangaday joy anqoning urug'i edi. Bunaqa paytda, odatda, savdogarvachchalardan tarkib topgan xonishchilar qo'shiq san'ati havaskorlari ichidan yetishib chiqqan maxsus regent<sup>3</sup> boshqaruvida diniy qo'shiq kuylaydilar.

Bizning xalq xudojo'y, xudoning cherkoviga qattiq ixlos qo'ygan, shu bilan birga, o'ziga yarasha san'atkor ham: cherkovning serhasham qiyofasi va u yerda uyg'unlik bilan jo'r bo'lib ijro etiladigan diniy madhiyalar xalqimiz uchun eng ulkan, eng musaffo huzur-halovatdir. Bizda xonishchilar kuylagan cherkovga shaharning yarim aholisi to'planadi, desak mubolag'a bo'lmaydi, ayniqsa, savdogar yigitlar: gumashtalar, dastyor bolalar, fabrika va zavodlarning ishchi yoshlari yana xo'jayinlarning o'zlari ham xotinlari bilan – hamma-hammalari bitta cherkovga tiqilib kirishadi; ularning har biri papertda<sup>4</sup> turib bo'lsa ham, deraza tagiga to'planib bo'lsa ham, saronning jazirama issig'iga ham, qahraton qishning ayoziga ham qaramay, oktava (yo'g'on) ovozli qo'shiqchining xonishini va tenor ovozi qo'shiqchining chinqirib avjga chiqishini eshitishga mushtoqdirlar.

Izmaylovlar xonadoniga tegishli butxonada muqaddas Bibi Maryamning ibodatgohga birinchi tashrifi sharafiga prestol kuni bo'lishi kerak edi, shuning uchun bu bayram arafasidagi oqshomda, ya'ni Fedya falokatga uchragan paytda, shaharning barcha yoshlari ana shu butxonaga yig'ilgan edilar; ular ibodatdan keyin ko'cha-ko'yni boshlariga ko'tarib shovqin solib tarqalisharkan, mashhur tenor qo'shiqchining fazilatlarini hamda bas ovozli xonishchining tasodifiy xatolari haqida gurunglashardilar.

<sup>1</sup> *O'n ikkinchi bayram* – xristianlarda 12 ta eng muhim diniy bayramlardan biri.

<sup>2</sup> *Prestol* – biron muqaddas avliyo yoki yirik diniy hodisa sharafiga qurilgan ibodatgohda ularni xotirlash kuni.

<sup>3</sup> *Regent* – cherkovdagi xonishchilar rahbari.

<sup>4</sup> *Papert* – cherkovga kiraverishdagi ochiq sahn.

Lekin barchani qiziqtirayotgan mavzu faqat xonishchilar emas edi: olomon ichida boshqa masalalarga qiziqqan odamlar ham bor edi.

– Qiziq-a, yigitlar, Izmaylovning kelini haqida juda g'alati mish-mishlar yuribdi, – dedi mashinist yigit (uni bir savdogar o'zining bug' tegirmonida ishlash uchun Peterburgdan yollab chaqirib olgan edi) Izmaylovlar uyiga yaqin kelganida, – odamlarning aytishicha, – dedi u, – o'sha kelin o'zlarining gumashtasi Seryojka bilan don olishib yurarmish doim...

– Buni hamma biladi, – dedi egniga dag'al ip gazlama bilan sir-langani po'stin kiygan odam. – Bugun butxonada ham ko'rinmadi-yov.

– Butxona deysan-a! Bu yaramas xotin shunday qabih ishlar qil-ganki, endi u vijdonsiz na xudodan qo'rqadi, na odamlar ko'ziga tik qarashdan.

– Iye, qaranglar, uylarida chiroq yonib turibdi, – dedi mashinist yigit deraza eshikchasi tirqishidan tushib turgan shu'laga ishora qilib.

– Qani, mo'ralab ko'r-chi, nima qilishayotgan ekan! – deya pi-chirlashdi bir necha kishilar.

Mashinist ikkita o'rtog'ining yelkasiga tayanib, endi eshikcha tirqishiga ko'zini qadagan ham edi, birdaniga baqirib yubordi va bo'ralab so'kindi:

– Og'aynilar, azizlar! Ichkarida kimnidir bo'g'ib o'ldirishayapti!

Mashinist shunday deb turib, deraza eshikchasini jon-jahd bilan gursillatib ura boshladi. Unga qo'shilib yana o'ntacha odam deraza qopqasini mushtlardi.

Olomon lahza sayin ko'payib borar, oqibatda, biz yuqorida aytib o'tganimiz – Izmaylovlar uyini qamal qilish boshlangandi.

– Men ko'rdim, o'z ko'zim bilan ko'rdim, – derdi mashinist Fedyaning o'ldirilganiga guvohlik berib, – ikkovi to'shakda chalqan-cha yotgan go'dakni bo'g'ishdi.

Sergeyni shu kuniyoq mahkamaga olib ketishdi, Katerina Lvov-nani esa, o'zining boloxonasiga qamab, qo'riqlagani ikkita soqchi qo'yib qo'yishdi.

Izmaylovlar uyida sovuq zabtiga olgan: pechlar yoqilmagan, eshiklar lang ochiq: tomoshatalab, bekorchi bir olomon o'rnini ik-kinchi shunaqa olomon egallab turardi. Odamlar kichkina tobutda yotgan Fedyani va qopqog'i ustiga kattakon mato yopilgan katta tobutni ko'rgani kelishardi. Fedyaning peshonasiga oq atlas tasma



yopilgan bo‘lib, bu tasma marhumning miyasi yorib ochilganidan keyin qolgan qizil chandiqni berkitib turardi. Sud tibbiyot yo‘li bilan yorilgan boshchanoq Fedyaning bo‘g‘ib o‘ldirilganini aniqlab berdi; ana shunda mayitning tepasiga olib kelingan Sergey popning mahshar kuni bo‘ladigan so‘rov haqidagi hamda tavba qilmagan bandalarni qanday jazolar kutayotgani to‘g‘risidagi va‘zlarini eshitgani hamono yig‘lab yubordi va nafaqat Fedyani o‘ldirilganini qasam ichib bo‘yniga oldi, shuningdek, janozasiz ketgan Zinoviylar Borisichning jasad qayerga ko‘milganini ham aytib, uni kovlab olishlarini iltimos qildi. Quruq qumga qo‘milgan jasad hali uncha buzilmagan edi; uni xandaqdan olib, katta tobutga yotqizdilar. Sergey bu ikkala jinoyatda ham yosh beka unga sherik bo‘lganini aytib, hammani dahshatga soldi. Lekin Katerina Lvovna hamma berilgan savollarga faqat: «Hech nima bilmayman, hech narsadan xabarim yo‘q», deb javob qaytaraverdi. Ana shunda Sergeyni beka bilan yuzlashtirishdi. Katerina Lvovna Sergeyning e‘tirofini eshitib, bir so‘z ham aytmadi, o‘ynashiga hayron bo‘lib, lekin beg‘araz qarab qo‘ydi-da, beparvo kayfiyatda dedi:

– Hamonki, u sirni ochib qo‘ygan ekan, mening ham tonishimdan foyda yo‘q, men o‘ldirganman.

– Nima sababdan? – deb so‘rashdi undan.

– Anavini deb, – javob qildi juvon boshini xam qilib turgan Sergeyni ko‘rsatib.

Jinoyatchilarni boshqa-boshqa avaxtaga qamashdi; butun jamoatchilikning diqqatini o‘ziga tortgan va hammaning g‘azab-u nafratini qo‘zg‘atgan bu dahshatli ish tezda poyoniga yetdi. Fevral oyining oxirida sud jinoyat palatasida Sergeyni hamda uchinchi gildiya savdogarining bevasi Katerina Lvovnani o‘z shaharlarining bozor maydonida qamchi bilan savalash, so‘ng ikkovini surgunga surish haqida hukm chiqarganini e‘lon qildi. Mart oyining boshida ertalabki izg‘irinda jallod Katerina Lvovnaning yalang‘och oppoq yelkasiga hukmda aytilgan miqdorda qamchi urib, badanida ko‘kargan va qontalash izlar qoldirdi, keyin Sergeyning ham yelkasida sanoqli qamchi izlarini qoldirib, uning chiroyli yuziga qizdirilgan uchta surgun tamg‘asini bosdi.

Shu o‘tgan vaqt davomida jamoat ahli negadir, Katerina Lvovnaga qaraganda, Sergeyga ko‘proq achindi. Aftiga qatron surilib, qora qoniga belangan Sergey jallod taxtapulidan tushayotganida tizzasi qaltirab yiqilayozdi, lekin Katerina Lvovna pillapoyadan ohista odim-

lab tusharkan, faqat egnidagi qalin ko‘ylak bilan dag‘al mahbuslik choponini qamchidan jarohatlangan yelkasiga tekkizmaslikka harakat qilardi.

Hatto avaxta kasalxonasida yotganida, unga o‘zi tuqqan bolasini emizgani olib kelishganda ham u faqat: «Ko‘rmay ham, kuymay ham!» deb yuzini teskari burgan va zarracha ingramay, zorlanmay, taqir karavotga yuztuban yotib olgandi.

## O‘N UCHINCHI BOB

Tarkibida Sergey va Katerina Lvovna bo‘lgan mahbuslar guruhi bahor fasli faqat kalendar bo‘yicha kirib kelgan, ammo quyosh, xalq ta‘biriga ko‘ra, «charaqlab nur sochsa ham, hali uncha isitmaydi»gan paytda safarga chiqdi.

Katerina Lvovnaning bolasini boqib tarbiyalash uchun marhum Boris Timofeychning xolavachchasi – kampirga berishdi; jinoyatchi beva ayol tuqqan bola o‘ldirilgan Zinoviy Borisichning qonuniy o‘g‘li deb tan olingani sababli, endi bu murg‘ak bola Izmaylovlarga tegishli butun mol-u davlatning yagona merosxo‘ri bo‘lib qolgandi. Katerina Lvovna bundan juda xursand bo‘ldi va bolasini xuddi keraksiz matohdek, mutlaqo beparvo kayfiyatda topshirdi. Uning bolaning otasiga bo‘lgan muhabbatidan bir zarrasi ham, ko‘pchilik jo‘shqin ehtirosli ayollarda bo‘lgani singari, bolasiga o‘tmadi.

Shuni ham aytish joizki, bu ayol endi na ziyo-yu zulmatni, na yovuzlig-u ezgulikni, na dilgirlik-u shodlikni tan olardi; u hech nimaning idrok qilmas, hech kimni sevmas, hatto o‘zini ham yoqtirmay qo‘ygan edi. U faqat mahbuslar guruhining yo‘lga chiqishini sabrsizlik bilan kutardi, zero, ana shundagina u yana o‘zining Seryojechkasi bilan uchrashish ishtiyoqida edi, bolasini esa butunlay unutib yuborgandi.

Katerina Lvovnaning umidlari puchga chiqmadi: oyog‘iga zilday kishan solingan, tamg‘alangan Sergey qamoqxona darvozasidan Katerina Lvovna bilan bitta guruhda yo‘lga chiqdi.

Inson har qanday iztirobli manfur holatga ham baholi qudrat ko‘nikarkan va o‘zining g‘aribona quvonchlari sari intilish layoqatini har qanday vaziyatda ham imkon qadar saqlab qolar ekan; Katerina

Lvovna orzu qilgan odam endi uning yonida: u Sergey bilan yana ko'rishadi, yonida ekan, uzoq surgun yo'li ham baxt gullariga burkadi.

Katerina Lvovna o'zining olachipor qopchig'iga qimmatbaho buyumlardan ozgina solib olgan edi, naqd puli esa undan-da kam edi. Lekin u shu boyligi va pullarining ko'pini hali Nijniy Novgorodga yetib bormasdan Sergey bilan yonma-yon yurishga rozilik olish va etap manzilining torgina sovuq burchagida qorong'ida bir soatgina Seryojekasi bilan quchoqlashib turish uchun underlarga<sup>1</sup> tarqatib bo'lgan edi.

Lekin Katerina Lvovnaning tamg'alangan jazmani endi negadir juda bemehr bo'lib qolgandi: uning har bitta aytgan gapi ayolning diliga o'qday sanchilardi; shunday bo'lsa ham, u kun sayin puchayib borayotgan hamyonidan o'zining yeb-ichishi uchun juda zarur bo'lgan chorak so'mlik kumush tangani underga berib, Sergey bilan xufyona uchrashishga ruxsat olardi, lekin Sergey endi bunday uchrashuvlarning qadriga yetmas, hatto bu haqda bir necha marta gapirgan edi ham:

– Sen etap yo'lagining burchak-burchagida men bilan ishqalanish o'rniga underga qistirayotgan o'sha pulingni menga bersang bo'lardi.

– Faqat tangamiri (25 tiyin) berdim, xolos, Seryojenka, – deb o'zini oqlay boshlardi Katerina Lvovna.

– Nima, tangamiri pul emasmi? Bunaqa tangamirilarni yo'l-yo'lakay ancha-munchasini terib olibsani, shekilli, hech ayamay, itgayam, bitgayam qistirib yotibsani.

– Evaziga, Seryoja, mana, sen bilan ko'rishyapman.

– Shuncha chekkan azoblarimizdan keyin, ko'ngilni quvontirarmidi bunaqa ko'rishishlar? Menga qolsa, bu uchrashuvlarni chetga surib qo'yib, boshimga tushgan azob-u uqubatlarga la'natlar o'qigan bo'lardim.

– Lekin menga, Seryoja, baribir, faqat seni ko'rib tursam bo'lgani.

– Tentaklik bu, – javob qilardi Sergey.

Katerina Lvovna bunday javobni eshitganida lablarini qonatgudek qattiq tishlab olar, ba'zida esa, tun qorong'isidagi uchrashuv chog'ida shu choqqacha yig'i nimaligini bilmagan uning ko'zlarida g'azab va

<sup>1</sup> *Under (unter ofitser)* – kichik zobit.

alam yoshlari paydo bo'lardi; lekin u baribir chidar, indamas va o'zini o'zi aldamoqchi bo'lardi.

Ular bir-birlariga bo'lgan anq shunday yangicha muomala bilan Nijniy Novgorodga yetib bordilar. Bu yerda ularning guruhi Moskva yo'li bo'ylab Sibirga borayotgan mahbuslar guruhiga qo'shildi.

Tarkibida har xil toifadagi odamlar bo'lgan bu kattagina guruhning mahbusalar bo'limida ancha ko'zga yaqin ikkita ayol bor edi: bittasi – yaroslavlilik askar xotini Fiona xuddi mo'jizadek go'zal xilqat bo'lib, u sarvqomat, qalin sochlari zulukdek qora, quyuc va uzun mijgonlari timqora xumor ko'zlarini xuddi sehrli harir hijob yanglig' to'sib turardi; ikkinchi ayol – o'n yetti yoshli chuvak yuzli, sariq soch, nozik badani farahbaxsh, og'zi kichkinagina, nafis yonoqlarida kuldirgichlari bo'lgan bu qizning zarrin soch tolalari olachipor mahbuslik ro'molchasi ostidan dikkayib chiqib turardi. Uni mahbuslar Sonetka deb chaqirishardi.

Sohibjamol Fiona muloyim va tanbal tabiat ayol edi. Uni o'z guruhida hamma bilardi, lekin u bilan qovushishga muvaffaq bo'lgan erkak mahbuslarning birontasi ham bu qovushishdan huzur qilmagani, shu bois, Fionaning boshqa xushtorlarga ham shu tarzda saxovat ko'rsatishidan hech kim ranjimas edi.

– Fiona xolamizning ko'ngli yumshoq, hech kimga yo'q demaydi, – deyishardi mahbuslar hazil qilishib.

Lekin Sonetka mutlaqo boshqa toifadan edi.

Uning to'g'risida shunday deyishardi:

– Ilonbaliq u, qo'ling oldida jilpanglaydi-yu, hech tutqich bermaydi.

Sonetka didli qiz edi, o'ziga kerak kishini «chertib-chertib» tanlard; uning uchun shahvoniy ehtiros oddiygina shirin holva emas, balki iztirob va fidoyilikni talab qiluvchi teran hissiyot edi; Fiona bo'lsa, oldiga kelgan xushomadgo'yga: «Nari tur!» deyishga ham erinuvchi, o'zining faqat xotin kishi ekanligini biluvchi oddiy bir rus ayoli edi. Bunaqa ayollar qaroqchilar to'dalarida, mahbuslar orasida va Peterburgdagi sotsial-demokratik kommunalarda juda yuksak qadrlanadi.

Bu ikki ayolning bitta qo'shma guruhda paydo bo'lishi Sergey bilan Katerina Lvovna hayotida so'nggi fojiaiy hodisa yuz berishiga turtki bo'ldi.

## O'N TO'RTINCHI BOB

Mahbuslarning qo'shma guruhi Nijniy Novgoroddan Qozon shahriga birgalikda yo'lga chiqqan birinchi kundan boshlab Sergey ochiqdan-ochiq askar xotini Fionaning ko'nglini ovlashga kirishdi va bu harakati zoe ketmadi. Sohijjamol tannoz Fiona yumshoq ko'ngil ayol bo'lganidan, hech bir erkakni zorlantirmaganidek, Sergeyga ham tarang qilib o'tirmadi. Uchinchi yo to'rtinchi manzilda to'xtashganida, Katerina Lvovna Seryojchka bilan uchrashish uchun pora berib, qosh qoraya boshlagan paytdan mijja qoqmay, chaqirib kelishlarini kutib yotdi; hali-zamon navbatchi under kirib uni turti va: «Bor tez», deb pichirladi. Ana, eshik ochilib qaysiyam bir ayol yo'lakka lip etib chiqib ketdi; yana bir marta eshik ochildi, yana bir mahbusa so'ridan sakrab tushib, soqchi kuzatuvida tashqariga otildi; nihoyat, kimdir Katerina Lvovnani yopinib yotgan choponidan tortqiladi. Yosh juvon mahbuslarning biqinlari tegaverib, siyqalanib ketgan so'ridan sakrab tushdi, yelkasiga choponini tashladi va qarshisida turgan kuzatuvchini turti.

Katerina Lvovna yo'lakdan o'tib borayotganida shabchiroq bilan xira yoritilgan bitta yerda o'zlarini sezdirmaslikka uringan ikki yo uch juft oshiq-ma'shuqlarga to'qnash keldi. Erkak mahbuslar kamerasi yonidan o'tib borayotganida esa, kamera eshigidagi tuynukdan bosiq kulgi eshitildi uning qulog'iga.

– Sho'xlik qilishyapti bachchag'arlar, – deb to'ng'illadi Katerina Lvovnani kuzatib kelayotgan soqchi va uning yelkasidan ushlab to'xtatib, shu yerdagi burchakka itardi-da, o'zi nari ketdi.

Katerina Lvovna bu yerda bir choponni va soqolli yuzni paypaslab topdi; ikkinchi qo'li ayol kishining issiq yuziga tegdi.

– Kim bu? – so'radi Sergey pichirlab.

– O'zing nima qilyapsan bu yerda? Yoningdagi kim?

Katerina Lvovna qorong'ida raqibasining ro'molini yulqib oldi. Ayol o'zini chetga olib qocha boshladi va yo'lakda allakimga urilib ketib, yiqildi.

Erkaklar kamerasida gurr kulgi ko'tarildi.

– Maraz! – deb pichirladi Katerina Lvovna va Sergeyning yangi jazmani boshidan yulqib olgan ro'mol uchi bilan uning yuziga urdi.

Sergey uni urgani qo'l ko'tardi; lekin Katerina Lvovna yo'lakdan tez yugurib o'tib, ayollar kamerasi eshigini ochdi. Erkak mahbuslar

kamerasidan eshitilgan boyagi kulgi endi avjga mingandi; shabchiroq yaqinida turib, o'z oyog'i ostiga tufflayotgan, hamma narsaga beparvo soqchi:

– Jim! – deb o'shqirdi.

Katerina Lvovna kelib indamay o'rniga yotdi va shu alpozda tong o'ttirdi. Uning tili: «Men uni sevmayman-ku, axir», demoqchi bo'lsa ham, dili Sergeyni yanada qizg'inroq sevishini his qilardi. Uning ko'z oldida nuqul bir kaftini anavi buzuqining ensasiga qo'yib, ikkinchi qo'li bilan uning qaynoq yelkasidan quchgan Sergey qayta-qayta namoyon bo'lardi.

Sho'rlik juvon yig'lab yubordi va beixtiyor o'sha kaftning hozir o'z ensasida bo'lishini, ikkinchi qo'lining esa, o'zining dag'-dag' qal-tirayotgan yelkasidan quchishini xohlay boshladi.

– Kel, qo'y endi, qaytarib ber ro'molimni, – deb uyg'otdi uni er-talab askar xotini Fiona.

– Iye, senmiding hali?

– Iltimos, bera qol!

– Nega bizni bir-birimizdan judo qilyapsan?

– Qanaqasiga judo qilibman? Nima, bu muhabbatimidiki yo ish-qiy havasmidiki, jahling chiqsa?

Katerina Lvovna bir lahza o'ylanib qoldi, keyin qorong'ida yulqib olgani ro'molni yostig'i tagidan chiqarib, uni Fionaga otdi va devorga o'girilib yotdi.

Uning ko'ngli yengil tortgandi.

– Tuf, – dedi u o'zicha, – hali men shu yamoq tog'oraga rashk qilib yuribmanmi? Ordon! G'irt bema'nilik-ku, o'zimni unga teng qilishim!

– Endi sen, Katerina Lvovna, – dedi Sergey ertasi kuni yo'lda ketaturib, – gapimni eshit, shuni tushunginki, birlamchi, men senga Zinoviy Borisich emasman, ikkilamchi, sen ham endi savdogarning boyvuchchasi emassan: shuning uchun, iltimos, sal o'pkangni bos. Bozoring kasod bo'lgan endi.

Katerina Lvovna bunga javoban hech nima demadi, shundan ke-yin u bir haftagacha Sergeyga qayrilib ham qaramay, bir so'z ham aytmay ketaverdi. Bu uning Sergey bilan birinchi marta janjallashishi edi, shu bois undan qattiq xafa bo'lganini ko'rsatish va yarashgani birinchi bo'lib gap ochmaslik uchun, tishini tishiga qo'yib chidadi.

Katerina Lvovna Sergeydan achchig‘lanib yurgan shu kunlarda Sergey oqbadan Sonetkaga xushomad qilib, uning ko‘nglini ovlay boshladi. U goh «alangali salomlar», deb qizga ta‘zim qilar, goh jilmayib boqar, goh ro‘para kelib qolganida, uni quchib bag‘riga boshishga urinardi. Katerina Lvovna bularning barini ko‘rar, ko‘rib battar qoni qaynab ketardi.

«Endi yarasha qolsammikin-a, u bilan?» deb ko‘nglidan o‘tkazdi Katerina Lvovna oyog‘i ostiga qaramay, yo‘lda qoqilib-suqilib borarkan.

Lekin yarashgani birinchi bo‘lib og‘iz ochishga uning g‘ururi yo‘l qo‘ymasdi. Bu orada Sergey Sonetkaga astoydil ilakisha boshlagan va xuddi ilonbaliqdek shundoqqina qo‘ling oldida jilpanglab hech tutqich bermaydigan Sonetkaning kutilmaganda, «gah» desa qo‘lga qo‘nadigan bo‘lib qolganini endi hamma ko‘rayotgan edi.

– Mendan xafa bo‘lgan eding, – dedi bir kuni Fiona Katerina Lvovnaga, – axir, nima yomonlik qiluvdim senga? Men bilan bo‘lgan ish allaqachon o‘tib ketdi, undan ko‘ra, sen anavi Sonetkaga ko‘z-quloq bo‘lsang yaxshi edi.

«E, qurib ketsin o‘sha g‘ururim: shu bugun kechasiyoq yarashganim bo‘lsin», deb Katerina Lvovna ahd qilarkan, faqat bir narsa to‘g‘risida, ya‘ni yarashish uchun boshqacharoq yo‘l topish haqida o‘y lay boshladi.

Lekin bu mushkul ahvoldan uni Sergeyning o‘zi kutqardi.

– Lvovna! – deb chaqirdi u bir qo‘nish joyida. – Bugun kechasi bir zumga yonimga chiqqin, gap bor.

Katerina Lvovna indamadi.

– Nima, haliyam xafamisan? Chiqmaysanmi?

Katerina Lvovna yana hech nima demadi.

Lekin etap manzilga yetishganida, Katerina Lvovnaning boshliq underga suykilib, yo‘lda odamlar sadaqa qilgan o‘zining yetti tiyin pulini unga berayotganini Sergey va boshqa mahbuslar ham ko‘rishgandi.

– Hali yana yiqqanimda qolgan yarim tangani ham beraman, – deb yolborgandi Katerina Lvovna.

Shunda under pulni shinelining qaytarma yengiga yashirib:

– Mayli, – degandi.

Bu muzokara oxirida Sergey tomoq qirib qo‘ydi, Sonetkaga ko‘z qisdi.

– Oh, Katerina Lvovna! – dedi Sergey uni quchoqlagancha, etap uyining pillapoyasidan ko‘tarilar ekan. – Bu xonimga teng keladigan ayol, yigitlar, butun dunyoda topilmaydi.

Katerina Lvovna bu saodatli ondan cho‘g‘day qizardi, entikib-entikib nafas oldi.

Tunda eshik xiyolgina ochilgan zahoti, u kameradan otilib chiqib ketdi, qorong‘i yo‘lakda dag‘-dag‘ qaltirab, paypaslab Sergeyni qidir-di.

– O, mening Katyam! – dedi Sergey uni quchoqlab.

– Oh, mening zolimim! – dedi Katerina Lvovna yig‘i aralash va Sergeyning pinjiga kirib o‘pa boshladi.

Soqchi yo‘lakda u yoqdan bu yoqqa yurar, keyin to‘xtab, oyog‘i ostiga tupurar va yana yura boshlardi. Eshik ortidan yo‘l yurib charchagan mahbuslarning xurraklari eshitar, qayerdadir sichqon nimanidir qitirlatib kemirar, pech ostida qora chigirtkalar kimo‘zarga chirillashar, Katerina Lvovna esa jannatiy huzur og‘ushida edi.

Lekin mana, nihoyat, farahbaxsh damlar tugab, tashvishli jaydari gaplar boshlandi.

– Bu azob o‘ldiradi meni: to‘piqlarimdan tizzamgacha suyagimning sirqirab og‘riganiga hech chidolmayapman, – deb zorlana boshladi Sergey Katerina Lvovna bilan yo‘lakning bir burchagida yerda o‘tirarkan.

– Endi nima qilmoqchisan, Seryojechka? – deb so‘radi Katerina Lvovna o‘zini uning choponi etagi bilan o‘rarkan.

– Qaydam, Qozonga borganimizda lazaretga yotqizishlarini so‘rasammikin?

– Voy, nimalar deyapsan, Seryoja?

– Nima qilay, og‘rig‘iga chidolmayapman.

– Unda, sen qolasan-u, meni haydab ketishadimi?

– Iloj qancha? Kishan oyoqlarimni shunaqangi g‘ajib tashladiki, men senga aytsam, bu ketishda erta-indin suyagimniyam kemira boshlaydi... Har holda, bir juftgina jun paypoq topsam yomon bo‘lmasdi, – deb qo‘shib qo‘ydi Sergey bir daqiqadan keyin.

– Paypoq?! Menda bor, Sergey, yangi paypoq.

– E, qo‘ysang-chi! – dedi Sergey.

Katerina Lvovna bir so‘z demay, g‘izillagancha kamerasiga kirib ketdi, u yerda o‘zi yotgan so‘ridagi xaltasini kavlab, qo‘lida bir juft



yashil rangli guldor qalin jun paypoq bilan yana shoshgancha Sergeyning oldiga qaytib chiqdi.

– Mana, endi chidasa bo‘ladi, – dedi Sergey Katerina Lvovna bilan xayrlasha turib, uni oxirgi paypog‘idan mahrum qilarkan.

Baxtdan sarmast Katerina Lvovna o‘z o‘rniga kelib yotib, qattiq uxlab qoldi.

U o‘zidan keyin Sonetkaning yo‘lakka chiqqanini ham, so‘ng faqat tongotar chog‘idagina oyoq uchida asta kirib kelganini ham eshitmadi.

Bu voqea Qozongacha yana ikki kunlik yo‘l qolganida yuz bergan edi.

## O‘N BESHINCHI BOB

Kameralari havosi og‘ir va dimiqqan etapning darvozasidan chiqqan mahbuslar guruhini rutubatli sovuq kun qarshi oldi: shiddatli shamol uvullar, yomg‘ir qor aralash bo‘ralab yog‘ardi. Katerina Lvovna ruhafzo kayfiyatda chiqib keldi, lekin safga turishi bilan butun vujudida titroq turib, rangi bo‘zarib ketdi. Ko‘z oldi qorong‘ilashdi; barcha bo‘g‘imlari zirqirab holsizlandi. Katerina Lvovnaning ro‘parasida turgan Sonetka uning guldor yashil jun paypog‘ini kiyib olgan edi.

Katerina Lvovna yo‘lga tusharkan, o‘zini xuddi murdadek his qildi; faqat ko‘zlarigina Sergeyga dahshatli o‘qraygancha qotib qolgan edi.

Birinchi manzilda u Sergeyning oldiga xotirjam yurib kelib, «ablah» deb pichirladi va kutilmaganda uning yuziga tupurdi.

Sergey uni urmoqchi bo‘lib xezlangan edi, mahbuslar ushlab qolishdi.

– Shoshmay tur hali! – dedi Sergey yuzidagi tupukni artarkan.

– Qoyil, bo‘sh kelmadi u senga, – deb Sergeyning mazax qila boshlashdi mahbuslar; ayniqsa, Sonetka qotib-qotib kuldi.

Oshiq-ma‘shuqlikning aynan shunaqa xili yoqardi bu qizga.

– Ko‘rasan, dodingni beraman hali bu qilmishing uchun, – deb do‘q qildi Sergey Katerina Lvovnaga.

Yog‘in-sochin havodan va yo‘l azobidan tinkasi qurigan Katerina Lvovna navbatdagi etap uyining so‘risida tunda ko‘ngli bezovta

bo‘lib uxlab yotarkan, ayollar palatasiga ikkita odam kirib kelganini eshitmadi.

Odamlar kirishgan zahoti, Sonetka so‘ridan bosh ko‘tarib, tovush chiqarmay, Katerina Lvovnani qo‘li bilan ko‘rsatdi va yana choponga burkanib yotib oldi.

Shu lahzadayoq Katerina Lvovnaning boshiga choponi yopildi, faqat bo‘z ko‘ylakda qolgan uning yelkasi aralash orqasida qo‘shaloq qilib o‘rilgan arqonning yo‘g‘on uchi mardona kuch bilan darra bo‘lib o‘ynay boshladi.

Katerina Lvovna chinqirib yubordi, lekin ovozi boshini burkab olgan chopon ostidan eshitilmadi. U bir silkinib bosh ko‘tarmoqchi bo‘ldi, ammo qo‘lidan hech ish kelmadi: barzangi mahbus uning yelkasiga minib o‘tirib, ikki qo‘lini mahkam bosib turardi.

– Ellikta, – deb sanadi kimdir va bu, shubhasiz, Sergeyning ovozi edi.

So‘ng bu tungi sharpalar zumda xonadan chiqib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar.

Katerina Lvovna boshidagi choponni otib tashlab, shaxt o‘rnidan turdi: hech kim ko‘rinmadi; faqat sal nariroqdan kimningdir chopon ostidan hasadli hiringlashi eshitildi. Katerina Lvovna Sonetkani kulgisidan tanidi.

Bu og‘ir alamning cheki-chegarasi yo‘q; shuningdek, ayni chog‘da, Katerina Lvovnaning qalbida alanga olib yonayotgan achchiq adovat ham mislsiz edi. U o‘zini yo‘qotib qo‘yib, oldinga tashlandi va hushidan ketib, uni ushlab qolgan Fionaning ko‘ksiga bosh urdi.

Katerina Lvovna kechagina bevafo o‘ynashining ko‘nglini ovlab, lazzatlantirgan bu ovsar va shalviragan raqibasining lorsillagan siynasiga xuddi ona ko‘ksiga yopishgan go‘dakdek bosh qo‘yib, achchiq alamiga chidolmay yum-yum yig‘lay boshladi. Endi ular teng edilar: ikkovining ham qiymati bir, ikkovi ham «puf, sassiq» bo‘lgan edilar.

Ha, ular teng!.. Birinchi uchrashuv asirasi Fiona ham, muhabbat mojarosini boshlagan Katerina Lvovna ham endi teng edilar.

Ochig‘ini aytganda, Katerina Lvovna endi hech nimadan afsuslanmasdi. U to‘yib-to‘yib yig‘lab olgach, bag‘ritoshga aylandi va yo‘qlamaga mutlaqo xotirjam kayfiyatda chiqdi.

Nog‘ora chalindi; hovliga kishanlangan mahbuslar, kishanlanmagan mahbuslar, Sergey ham, Fiona ham, Sonetka ham, Katerina

Lvovna ham, shuningdek, juhud bilan kishanband qilingan raskolnik<sup>1</sup> ham, bitta zanjirga bog‘langan polyak bilan tatar ham gurra-gurra chiqqa boshlashdi.

Hamma mahbuslar jam bo‘lishgach, baholi qudrat tartib bilan saf lanishdi va yurib ketishdi.

O‘ta befayz manzara: jamiyat orasidan yulqib olingan va saodatli kelajaklari haqidagi jamiki orzu-umidlaridan tamomila mahrum etilgan bu bir siqim kishilar yo‘lning sovuq va chilp-chilp loyiga botib borardilar. Tevarak-atrofning ko‘rinishi juda-juda xunuk: balchiq yo‘lning oxiri ko‘rinmaydi, osmonni qora bulut qoplagan, hamma-yoqda barglari to‘kilib, yalang‘och bo‘lib qolgan oq tollar va ularning tarvaqaylagan shoxlariga hurpayib qo‘nib o‘tirgan qarg‘alar. Shamol goh ingrab jazavaga tushadi, goh uvullab sherday o‘kiradi.

Do‘zax azobini eslatib, kishi qalbini larzaga keltiruvchi bu tovushlar uqubatli yo‘l manzarasi bilan omuxta bo‘lib avjga mingancha, Injildagi afsonaviy payg‘ambar Ayyubga uning xotini aytgan: «Tug‘ilgan kuningga la‘natlar o‘qi va o‘l!» degan maslahatday yangrardi.

Ushbu kalimaga amal qilishni istamagan va mana shu g‘oyat mungli vaziyatda ham o‘lim haqidagi o‘ylardan quvonish o‘rniga undan qo‘rqadigan odamlar vahshiyona uvillovchi bu ovozlarni yanada dahshatliroq na‘ra bilan bo‘g‘ishlari lozim. Buni oddiy odam juda yaxshi tushunadi: bunday paytda u o‘z tabiatidagi jamiki hayvoniy hirslarga erk beradi, dabdurustdan tentaklik qilib, o‘zini ham, boshqa odamlarni ham, ularning ruhiyatlarini ham mazax qila boshlaydi. Shundoq ham uncha xushtabiat bo‘lmagan bu odam endi eng johil zotga aylanadi.

– Qalaysiz, boyvuchcha? Xonim-afandim sog‘-salomatmilar? – dedi Sergey Katerina Lvovnaga sullohlik qilib; bu payt mahbuslar guruhi bugungi tunalgan etapdan yo‘lga chiqib, endigina jiqqa ho‘l tepalik ortiga o‘tgan edi.

Sergey shu gapdan keyin Sonetka tomonga o‘girilib, uni o‘z cho-poni bariga o‘radi-da, baralla ovoz bilan kuylay boshladi:

*Tashqarida bir malla soch bosh ko'rindi dumaloq,  
O, hali ham uxlamabdi bu mug'ombir qizaloq.  
Kel, yashiray choponimning bari bilan, kel tezroq.*

<sup>1</sup> *Raskolnik* – rasmiy cherkovga qarshi qaratilgan diniy-ijtimoiy harakat mazhablaridan birining a‘zosi.

Sergey qo‘shiq ayta turib, Sonetkani quchoqladi va hamma mahbuslarning ko‘zi oldida uni cho‘lpillatib o‘pdi.

Katerina Lvovna bularning barini ko‘rdi ham, ko‘rmadi ham: hozir u joni uzilgan odamga o‘xshardi. Guruhdagilar uni turtishar, itarishar, Sergeyning Sonetka bilan badaxloqlik qilayotganini unga imo bilan ko‘rsatishardi. Katerina Lvovna hammaga masxara bo‘la boshlagan edi.

Agar bironta mahbus Katerina Lvovnaning qoqilib-suqilib bora-yotgani ustidan mazax qilib kulmoqchi bo‘lsa, Fiona:

– Tegmanglar unga, – deb yonini olardi, – ko‘rmayapsizlarmi, yaramaslar, axir xasta-ku, bu ayol!

– Oyog‘i ho‘l bo‘lgandir-da, – deb piching qildi bir mahbus yigit.

– Bo‘lmasam-chi, savdogarlar xonadonining boyvuchchasi-ku, axir: nozikoyim, – deb luqma tashladi Sergey.

– Ammo-lekin, agar oyog‘iga issiq paypoq kiysa, sal ko‘zga yaqin bo‘larmidi, – deya gapini davom ettirdi u.

Katerina Lvovna go‘yo g‘afolat uyqusidan uyg‘onganday bo‘ldi.

– Yashshamagur zaharli ilon, – dedi u alamiga chiday olmay, – mayli, mazax qil, yaramas, ustimdan kulib qol!

– Yo‘q, begoyim, hecham mazax qilayotganim yo‘q sizni, faqat aytmoqchidimki, manavi Sonetka ajoyib paypoq sotmoqchi ekan, balki siz, savdogar xotini, sotib olarsiz, deb o‘yloddim.

Ko‘plar kulib yuborishdi. Katerina Lvovna dovdiraganicha jo‘nab qoldi.

Havoning avzoyi tobora battar buzila boshladi. Osmonni burkab olgan qora bulutlardan pag‘a-pag‘a yog‘ayotgan ho‘l qor yerga ingan zahoti erib, shundoq ham chilp-chilp loy yo‘lni botqoq balchiqqa aylantira boshladi. Nihoyat, uzoq ufqda qoramtir bir chiziq ko‘rindi; uning ikkinchi cheti ko‘rinmas edi. Bu daryo uzra esgan anchagina kuchli shamol asta-asta qad ko‘tarayotgan mahobatli mash‘um dolg‘alarni goh olg‘a, goh orqaga haydardi.

Shiltai shalabbo bo‘lib, dag‘-dag‘ qaltirayotgan mahbuslar guruhi suv bo‘yiga kelib paromni kuta boshladi.

Turqi sovuq jiqqa ho‘l parom keldi; mahbuslarni unga chiqara boshladilar.

Parom tinmay yog‘ayotgan ho‘l qorga burkanib to‘lqinlarda chayqalgancha, sohildan uzoqlasha boshladi. Shu payt mahbuslardan biri:

– Aytishlaricha, bu paromda araq sotadigan odam bormish, – dedi.  
– Ha, juda mavridi edi-da bekorchilikda, – dedi Sergey va Sonetkaning ko‘nglini ovlamoq maqsadida, Katerina Lvovnaga tegajoqlik qila boshladi: – Hey, boyvuchcha, eski qarddonligimiz hurmati, araq bilan mehmon qil bizni. Qizg‘anma pulingni. Bir paytlar qanday sevishganimizni, sen bilan, jonginam, kuzning uzun kechalari qanday ishrat qilganimizni, qarindoshlaringni tavba-tazarrusiz, janoza o‘qitmay, narigi dunyoga ravona qilganimizni bir esla...

Katerina Lvovna sovuqdan dag‘-dag‘ qaltirardi. Uning butun vujudida shalabbo kiyimiga singib, suyak-suyagigacha zirqirayotgan sovuqdan tashqari yana boshqa allaqanday holat sodir bo‘layotgan edi. Boshi alangai otash bo‘lib yonardi: ko‘z qorachig‘lari kattalashib, telbavash chaqnagancha to‘lqinlarga qadalgandi.

– Araq bo‘lsa, men ham yo‘q demasdim: sovuqdan qaltirab ket-yapman, – deb shang‘illadi Sonetka.

– Begoyim, kel endi, mehmon qila qol! – deya xiralik qilardi Sergey.

– Voy, behayo-e! – dedi Fiona ta‘na bilan boshini sarak-sarak qilgan-gancha.

– Bu ishing vijdotsizlik, – dedi mahbus yigit Gordyushka Fiona-ni gapini quvvatlab.

– Sho‘rlikka tish qayraganing kammi? Hech bo‘lmasa, boshqalar-dan uyalsang bo‘lardi.

– Kim qo‘yibdi senga gapirishni, jumla-jahon tamakidoni!<sup>1</sup> Ni-maga endi uyalarkanman? Balki uni hech qachon sevmagandirman ham... Endi menga bu qo‘tir mushukning basharasidan ko‘ra manavi Sonetkaning yirtiq boshmog‘i azizroq: xo‘sh, bu gapimga qarshi nima deya olasan? Yaxshisi, ana, og‘zi qiyshiq Gordyushkani seva qolsin; yo bo‘lmasa... – Sergey atrofiga alanglab, ko‘zi chakmon va harbiy furajka kiygan jinqarcha otliq unterga tushdi va qo‘shib qo‘ydi: – bo‘lmasam, ana, etap underiga suykala qolsin: har holda, u chakmoni bilan yomg‘irdan pana qiladi-ku.

– Buning ustiga, zobitning xotini degan nom ham qozonardi, – deb qichqirdi Sonetka.

---

<sup>1</sup> *Jumla-jahon tamakidoni* – suyuqoyoq xotinga berilgan ta‘rif.

– Bo‘lmasam-chi!.. Hazil-hazil bilan paypoqqa ham pul ishlab olardi, – dedi Sergey Sonetkaga jo‘r bo‘lib.

Katerina Lvovna o‘zini himoya qilishga urinmasdi ham: u daryo to‘lqinlarini tobora diqqat bilan kuzatarkan, faqat lablari pirpirardi, xolos. Sergeyning razolatli gaplari orasidan unga qutura boshlagan to‘lqinlarning suroni eshitalardi. Ana shu payt birdan uning ko‘ziga bir to‘lqin orasidan ko‘tarilgan Boris Timofeichning ko‘kargan kal-lasi ko‘rindi, yana bir to‘lqin qa‘ridan boshi egik Fedyani quchoqla-gan eri suvda chayqalib qad ko‘tardi. Katerina Lvovna diniy duolarni eslashga urinib, labini qimirlatar va pichirlab derdi: «Ha, uzun kuz kechalari sen bilan qanday aysh-u ishrat qilgandik, ne-ne odamlarni vahshiyona o‘ldirib, narigi dunyoga jo‘natgandik...».

Katerina Lvovna dag‘-dag‘ qaltirardi. Uning bir nuqtaga tikilgan telbavash nigohi vahshiyona boqardi. U qo‘llarini bir-ikki marta allaqayoqqa cho‘zib, yana tushirdi. Oradan yana bir daqiqa vaqt o‘tdi – shunda Katerina Lvovna birdan chayqalib ketdi va ko‘zini jo‘shqin to‘lqinlardan uzmagan holda engashib, Sonetkaning oyog‘iga chang soldi-yu, bir hamlada u bilan birga paromdan suvga sho‘ng‘idi.


Hamma hayratdan tosh qotib qoldi.

Katerina Lvovna to‘lqin ustida bir ko‘rinib, yana sho‘ng‘idi; boshqa to‘lqin Sonetkani ko‘tardi.

– Changak! Changakni tashlanglar! – deb baqirishdi paromdagilar.

Uzun arqonga bog‘langan zalvorli changak uchib borib suvga tushdi. Sonetka yana ko‘rinmay qoldi. Ikki soniyadan keyin u, daryo oqizib ketgani sababli, paromdan ancha uzoqda yana qo‘llarini suvdan chiqardi. Lekin shu choq boshqa to‘lqin qa‘ridan beligacha qalqib ko‘tarilgan Katerina Lvovna, xuddi mitti baliqchaga tashlangan cho‘rtan baliqday, Sonetkaga hamla qildi-yu, ikkovi ham boshqa ko‘rinmay qoldilar.

*Qodir MIRMUHAMEDOV tarjimasi*





## BIRINCHI BOB

Vena kengashi o'z ishini tamomlaganidan keyin imperator Aleksandr Pavlovich Yevropaning turli mamlakatlarida sayr qilib, har xil mo'jizalarni tomosha qilishni ko'ngli tilab qoldi. U juda ko'p mamlakatlarni aylanib chiqdi. Tabiatan dilkash bo'lganidan, u hamma yerda har toifa odamlar bilan el bo'lib, chiqishib ketaverardi, shu vajdan ajnabiylar biror mo'jiza ko'rsatib uni hayratga solmoqchi, o'z tomoniga og'dirib olmoqchi bo'lar edi, lekin podshoning qanotida Platov degan don kazagi bor ediki, u ajnabiylarning bu xil nayranglarini xush ko'rmas, uy-joyini qo'msab, tezroq yurtimizga qaytaylik, deb podshoga iltijo qilar edi. Bordi-yu, podsho ajnabiylarning biror buyumiga qiziqib qolgudek bo'lsa, unga hamroh bo'lib yurgan kishilar mum tishlagandek churq etishmasdi, lekin Platov esa, darhol undaymas, bunday, bu xil buyumlar o'zimizda ham topiladi, sizlarnikidan sira ham qolishmaydi deb, gapni chalg'itar edi. Podshoning chet el buyumlariga ixlosmandligini bilgan inglizlar o'z buyumlari bilan uni qoyil qoldirish, ruslardan ixlosini qaytarish uchun uning kelishiga har xil hiyla-nayrang o'ylab qo'ydilar, ko'p hollarda, ayniqsa, dabdabali majlislarda ular o'z muddaolariga erishdilar ham. Platov esa fransuzchani mukammal bilmagani uchun bunga uncha qiziqmas, bola-chaqali odam bo'lganidan fransuzcha gap-so'zlarni bachkana hisoblab, bosh qotirish ham arzimaydi, deb o'ylar edi. Inglizlar o'z buyumlarining ruslarnikidan afzal ekanligini ko'rsatib shuhrat qozonish niyatida podshoni turli-tuman harbiy anjom omborlariga, qurol-yarog' va sovun-u arra zavodlariga taklif etganlarida Platov tutaqib ketib o'ziga o'zi shunday dedi:

– E, bular judayam haddilaridan oshib ketishdi-ku. Shu paytgacha tishimni tishimga qo'yib keldim, endi ortiq chidab bo'lmaydi. Til bilamanmi, yo'qmi, lekin o'z odamlarimizni isnodga qoldirmayman.

U shunday deyishi bilan podsho unga gapirib qoldi:



– Gap bunday, ertaga sen bilan ularning qurol saqlanadigan ajoyibxonalarini borib ko‘ramiz. U yerdagi qurol-yaroqlar shunday takomilga yetkazilganki, bir ko‘rishdayoq biz – ruslar hunar, bilimimiz bilan hech narsaga arzimasligimizga tan berasan-qo‘yasan.

Platov podshoga hech narsa demadi, ta‘bi tirriq bo‘lib, boshini quyi soldi, keyin turadigan xonasiga kelib, denshikka<sup>1</sup> yo‘l sandiqchasidan bir flyaga kavkaz arog‘i – kislyarka oldirdi-da, katta stakanni chippa to‘ldirib, bir ko‘tarishda ichib yubordi, so‘ng safarda olib yuriladigan buklama ikonaga ibodat qildi, keyin hechqisi yo‘q, kechning xazinasidan ertaning nasibasi yaxshi deb o‘ylab, burkasiga o‘ranib olib, shunday xurрак otdiki, butun boshli uyda bitta ham ingliz uxlay olmadi.

## IKKINCHI BOB

Ertasiga podsho Platovni olib, ajoyibxonaga jo‘nadi. Podsho ruslardan Platovdan boshqa hech kimni olmadi, chunki ular ixtiyoriga ikki kishilik kareta berishgan edi.

Muazzam bir bino oldiga kelib to‘xtashdi, peshtoqi ta‘rifga sig‘maydi, yo‘laklarining haddi-hisobi yo‘q, xonalari bir-biridan soz. Har xil haybatli byust va qandillari bor eng katta zalning o‘rtasida ipak chodir tagida Abolon polvederskiy<sup>2</sup> turibdi.

Nimalarga hayron bo‘lib qarayaptiykin, degan o‘yda podsho Platovga razm soldi; Platov bo‘lsa hech narsaga qaramayotgandek ko‘zlarini yerga tikib boryapti, nuqul mo‘ylovini gajak qilib buraydi, xolos.

Inglizlar darhol har xil mo‘jizalarni: dengiz ko‘tarilishi va dovul turishini bildiradigan buremetrni, piyoda askarlar kiyadigan, tuya junidan to‘qilgan kiyimlarni, suv o‘tmaydigan suvoriy plashlarini ko‘rsatib, urush sharoitiga qaysinisi qanday moslanganini tushuntira boshladilar. Podsho ularni ko‘rib quvonar, hammasi ham ko‘ziga ajoyib bo‘lib ko‘rinar edi. Platov bo‘lsa, bularning menga hech qizig‘i yo‘q degandek, sira pinagini buzmasdi.

Podsho unga bunday dedi:

<sup>1</sup> *Denshik* – Chor armiyasida zobit xizmatidagi askar.

<sup>2</sup> *Appolon Bulvederskiy* – qadimgi mashhur haykal.

– Odam deganiyam shunday bo‘ladimi, yuraging shunchalik ke-sakmi? Nahotki seni hech narsa hayratga solmayapti?

Platov bo‘lsa unga shunday javob qildi:

– Meni shu narsa hayratga soladiki, bizning azamat donliklar bunday anjomlarsiz ham urushib, o‘n ikki millat<sup>1</sup> askarini tumtaraqay qilganlar.

Podsho:

– Bema‘ni gap, – degan edi, Platov unga:

– Bu gagingizga nima deyishimni bilmayman, lekin tortishishga haddim sig‘maydi, shuning uchun jim turishga majburman, – dedi.

Inglizlar esa, podsho bilan Platov orasida gap qochganini fahm-lab, podshoni darhol Abolon polvederskiy haykali oldiga boshlab ke-lishdi va haykalning bir qo‘lidan Mortimer<sup>2</sup> miltig‘i, boshqa qo‘lidan to‘pponchani olishdi. Keyin:

– Bizda mana shunday qurollar ham yasashadi, – deyishib miltiq-ni podshoga uzatishdi.

Podsho Mortimer miltig‘ini xotirjam turib tomosha qildi, zero, bu xil miltiqlar uning o‘zida – Sarskoe-Seloda ham bor edi, keyin unga to‘pponchani berib, shunday deyishdi:

– Bu to‘pponcha ajoyib va g‘aroyib san‘at namunasi-dir, buni biz-ning admiralimiz Kandelabriyada<sup>3</sup> qaroqchilar atamanining belbog‘i-dan tortib olgan.

Podsho to‘pponchaga qarab undan ko‘zini uzolmay qoldi.

– Bay-bay-bay, qoyilman-e! Naqadar nozik ishlanibdi-ya! – shun-day deb Platovga o‘girildi-da, ruschalab: – Mabodo, Rossiyada me-ning ixtiyorimda shunday bir usta bo‘lganida, boshim osmonga yetib, faxrlangan bo‘lardim, ustani esa, dvoryan qilib ko‘tarardim.

Bu gaplarni eshitgani hamono Platov o‘ng qo‘lini keng cholvo-rining cho‘ntagiga suqdi-da, aslaha otvyortkasini oldi. Inglizlarning «ochilmaydi» deyishlariga qaramay, zamogini kavlay boshladi. Ot-vyortkani ikki marta burab zamokni chiqarib oldi-da, tepkisini pod-shoga ko‘rsatdi. Uning bukik joyiga ruscha so‘zlar bilan «Ivan Mosk-vin, Tula shahri» deb yozib qo‘yilgan edi.

Inglizlar hang-mang bo‘lib, bir-birlarini turtkilashib qolishdi.

<sup>1</sup> Napoleon armiyasi ko‘zda tutilmoqda.

<sup>2</sup> *G.V. Mortimer* – XVIII asr oxirida yashagan ingliz qurolsozi.

<sup>3</sup> *Kandelabriya* – Italiyadagi yarimorol.

– E attang, ish pachava bo‘ldi-da!

Podsho esa qovoq-tumshug‘ini osiltirib, Platovga:

– Nega ularni izza qilding, ularga juda yuragim achiydi. Yur, ketdik, – dedi.

Ular yana ikki kishilik karetaga o‘tirib jo‘nab ketdilar, podsho o‘sha kuni balga bordi. Platov esa, katta stakanni to‘ldirib kislyarkadan otib oldi-da, kazakchasiga dong qotib uxladi.

Platov inglizlarni yerga urib, rus ustasini ko‘klarga ko‘targanidan xursand edi. Lekin podshoning nima sababdan inglizlarga achinganini bilmay, xunob edi.

«Podshoning nega jahli chiqdi? – deb o‘ylardi Platov. – Hech aqlim yetmaydi!» Shu xayolga borib ikki marta o‘rnidan turib, cho‘qindi va dong qotib uxlash uchun aroq ichdi.

Inglizlar hali bu vaqtda uxlashmagan, g‘imirlab qolishgan edi. Podsho balda vaqtichog‘lik qilayotganida ular shunday bir antiqa narsa topib qo‘ydilarki, u Platovni hovuridan tushirmay qo‘ymas edi.

## UCHINCHI BOB

Ertasiga Platov podsho huzuriga salomga kirganida, podsho unga:  
– Darhol ikki kishilik karetaga qo‘shsinlar, yangi ajoyibxonalarni tomosha qilgani boramiz, – deb qoldi.

Platov yurak yutib, ajnabiylarning narsalarini shuncha ko‘rganimiz ham yetar, yurtimiz Rossiyaga qaytsak qalay bo‘lar ekan, deb podshoga maslahat soldi. Lekin podsho ko‘nmadi. U:

– Yo‘q, men yana yangi narsalarni ko‘rmoqchiman, ular birinchi nav qandni qanday tayyorlashlarini aytib, maqtandilar, – dedi.

Shundan keyin ular jo‘nadilar.

Inglizlar podshoga qandning har xil navlarini ko‘rsata boshladilar, Platov esa qarab turdi-da:

– Qani, bizga molvo<sup>1</sup> qand zavodlaringizni ko‘rsatinglar-chi, – deb qoldi.

---

<sup>1</sup> XIX asrning 10–20-yillarida Peterburgda Ya.N. Molvoning «Kommersiya sovetnika i kavaleri» nomli qand zavodi bor edi.

Inglizlar shoshib qolishdi, chunki ular molvo nimaligini bilishmasdi. Ular pichirlashib, imo-ishora qilishib, «Molvo, molvo» deb g'ujurlashar, lekin ruslarning molvo degan qandlari borligiga aqlari yetmas edi. Shuning uchun, chor-nochor, bizda anvoyi tur qand bor-u, lekin «molvo» degani yo'q deb tan olishga majbur bo'ldilar.

Platov esa:

– Unday bo'lsa, og'iz ko'pirtirib maqtanmasalaring ham bo'lar ekan, – dedi. – Bizga mehmon bo'lib boringlar, sizlarni choy-u, Bobrin zavodi chiqargan asl molvo qandi bilan siylaymiz.

Podsho esa, Platovning yengidan tortib:

– Hoy, menga qara, ishingga aralashaverma, – dedi unga sekin.

Shundan keyin inglizlar podshoni eng oxirgi ajoyibxonaga boshladilar: bu yerda mineralli toshlar, nimfozoriyalar<sup>1</sup> va bahaybat Misr piramidalaridan tortib, teri orasiga kirib oladigan ko'z ilg'amas sirka-gacha bor edi-ki, ular dunyoning har chekkasidan keltirilgan edi.

Podsho karetni haydashni buyurdi.

Piramidalarni va turli-tuman hayvonlar-u parrandalarning tuluplarini tomosha qilib bo'lib, jo'nab ketayotgan paytlarida Platov shu gaplarni ko'nglidan kechirdi: «Xayriyat, hamma ish ko'ngildagidek bo'ldi, podsho hech narsaga ajablanmadi».

Lekin oxirgi xonaga kelganlarida u yerda jiletka va fartuk kiygan ishchilar qup-quruq patnis ko'tarib turganini ko'rdilar.

Podshoga quruq patnis tutganlarida, u hang-mang bo'lib:

– Nima bu o'zi? – deb so'radi.

Ingliz ustalar esa:

– Hazrati oliylari, bu bizning sizga arzimas tuhfamiz, – deb javob qilishdi.

– Axir, nima o'zi bu?

– Iltifot etib, manavi zarrachaga qarasangiz, – deyishdi.

Podsho tikilib qarasa, kumush patnisda ko'z ilg'amas bir zarracha yotibdi. Ishchilar podshoga:

– Iltifot etib, barmog'ingizni ho'llab uni kaftingizga olib ko'rsangiz, – deyishdi.

– Boshimga uramanmi bu zarrachani?

– Bu behuda bir zarracha emas, nimfozoriya.

---

<sup>1</sup> Infuzoriya va nimfa.

– Tirikmi?

– Yo‘q, biz asl ingliz po‘latidan burga shaklida quyganmiz, qor-nida murvati bilan prujinasi bor. Iltifot qilib, kalit bilan burasangiz, burga darhol dansega<sup>1</sup> raqs tushadi.

Podsho qiziqib qolib:

– Xo‘sh, kaliti qani? – deb so‘ragan edi, inglizlar:

– Kaliti shu yerda turibdi, – deb javob qilishdi.

Podsho:

– Nega bo‘lmasa, ko‘rmayapman, – degan edi inglizlar:

– Chunki, buni melkoskop<sup>2</sup> bilan ko‘rish kerak, – deyishdi va melkoskop berishdi.

Podsho bunday qarab, patnisda, burga yonida rostdan ham kalit-cha yotganini ko‘rdi.

– Iltifot etib, uni kaftingizga olib qo‘ysangiz, – deyishdi inglizlar, – qornida teshigi bor, kalitni yetti marta aylantirsangiz, dansega raqs tushadi.

Podsho kalitchani ming mashaqqat bilan bir qo‘liga oldi-da, arang ushlab turib, boshqa qo‘liga burgani oldi va kalitchani solishi bilan burga mo‘ylovlarini qimirlatdi, keyin asta-sekin oyoqlarini yig‘ib, oxiri bir sakrab osmonda dansega tusha ketdi, bir tomonga ikki, boshqa tomonga bir veroyatsiya<sup>3</sup> qilib, butun kadrilga raqs tushdi.

Podsho shu zahoti inglizlarga bir million berishni buyurib, xohlasangiz bir mirilik kumush pul, xohlasangiz qog‘oz pul olishingiz mumkin, dedi.

Inglizlar qog‘oz pulga tishimiz o‘tmaydi, kumush pul bera qo-ling deb, iltimos qilishdi, keyin shu vaqtning o‘zida pixini yorgan quv ekanliklarini ko‘rsatishdi: burgani tuhfa qilishga qilishdi-yu, le-kin g‘ilofini berishmadi, g‘ilofsiz na kalitchani va na burgani ushlab bo‘lardi, birpasda yo‘qolib, supurindiga qo‘shib olib chiqib tashlanadi. Uning g‘ilofi esa yong‘oqdek yaxlit gavhardan qilingan, gavhar-ning o‘rtasini o‘yib, burgachaga joy yasalgan edi. Ular g‘ilof davlat xazinasiga qarashli, qattiq nazorat ostida, hatto sizga ham berolmay-miz, deb vaj-korson ko‘rsatishdi.

<sup>1</sup> Dancer (*fr.*) bu yerda raqsning bir turi ma‘nosida.

<sup>2</sup> Mikroskop

<sup>3</sup> *Variatsiya* – klassik raqsning bir turi, sakrash asosiga qurilgan bo‘lib, bir-ikki daqiqa davom etadi.

Platovning bu gapdan fig'oni chiqib, shunday dedi:

– Bunday firibgarlik na hojat! Sovg'angizga bir million oldingizku, nima, shuncha pul kamlik qildimi? Har qanday buyumning g'ilofi bo'lishi darkor.

Lekin podsho:

– Bas qil, ishing bo'lmasin, mening ishingma aralashma. Bularning odati shunaqa, – deb Platovning og'ziga urdi va inglizlardan: – Burga solinadigan g'ahar qancha turadi, – deb so'radi.

Inglizlar yana besh ming so'rashdi.

Podsho Aleksandr Pavlovich: «To'lansin» dedi-da, burgani haligi g'aharga, o'z joyiga solib qo'ydi va yo'qotib qo'yishdan qo'rqib uni oltin tamakidoniga soldi, tamakidonni esa, safar vaqtida olib yuriladigan, ichiga sadaf va baliq suyaklari terilgan qutiga solib qo'yishni buyurdi. U ingliz ustalarini izzat-hurmat qilib jo'natayotib, ularga: «Yorug' jahonda sizlarning oldingizga tushadigan usta yo'q, hatto mening qo'l ostimdagi ustalar ham sizlarning oldingizda ip esholmaydi» dedi.

Ular juda taltayib ketishdi. Platov esa podshoning gapiga g'iring deya olmadi. Melkoskopni oldi-da, «bu buyum haligi burganiki, shundoq ham o'zmuncha pul olmadingiz» degan xayolga borib, hech narsa demay uni cho'ntagiga urdi.

Rossiyaga qaytib kelishgunga qadar bundan Aleksandr Pavlovichning xabari bo'lmadi. Chunki podshoning harbiy ishlardan ko'ngli so'vib, ruhiy xastalikka duchor bo'lgani va Taganrogda pop Fedotning<sup>1</sup> huzuriga borib gunohlariga iqror bo'lib, tavba-tazarru qilishni istab qolganidan ular ko'p o'tmay yurtlariga jo'nab ketishgan edi. Yo'lda ular o'rtasida ko'ngilli gaplar juda oz bo'ldi. Sababi, ular ikki xil fikrga kelib qolgan edilar: podsho san'atda inglizlarga teng keladigani yo'q deb o'ylasa, Platov esa unga, bizning ustalar ham chakki emas, yo'l-yo'riq ko'rsatilsa, qo'llaridan har ish keladi, lekin o'qib-o'rganishlariga imkon yo'q, der edi. Turmush, fan va oziq-ovqat masalasida ingliz ustalari mutlaqo boshqacha huquqqa ega ekanligini,

---

<sup>1</sup> «Pop Fedot» uydirma emas: imperator Aleksandr Pavlovich umrining oxirgi kunlarida Taganrogda Aleksey Fedotov, hazrat Chexovskiy huzurida gunohlariga iqror bo'lib tavba-tazarru qiladi. «Oliy hazratning piri» deb nom olgan Fedot-Chexovskiy mutlaqo tasodif ortidan sodir bo'lgan bu voqeani har kimga aytib maqtanishni yaxshi ko'rardi. Aftidan, hamma yoqqa dovrug'i ketgan «pop Fedot» xuddi shu Fedotov Chexovskiyning o'zi bo'lsa kerak. (Muallif izohi).

ularning hech narsadan kamchiliklari yoʻqligini, shu vajdan tushunchalari boshqachaligini podshoga tushuntirdi.

Bu xil izohlar podshoning koʻngliga oʻtirishmaganini koʻrgan Platov, gapni choʻzib oʻtirmadi, shundan keyin ular miq etmay ketaverishdi, faqat Platov har stansiyada karetdan tushib, alamidan kvas ichiladigan stakanni toʻldirib aroq ichardi-da, shoʻrtak teshikkulcha tamaddi qilib, bir qadoq Jukov<sup>1</sup> tamakisi sigʻadigan, daraxt ildizidan yoʻnib yasalgan trubkasini chekardi, keyin karetaga, podsho yoniga chiqib oʻtirardi-yu, ogʻziga talqon solgandek indamay ketaverardi. Podsho bir tomonga qarab ketar, Platov esa kokilli boshini kareta derazasidan chiqarib, shabadada tamaki tutunini burqsitib ketar edi. Ular shu alpozda Peterburgga yetib kelishdi. Podsho, pop Fedot oldiga ketayotganida Platovni tashlab ketdi. U Platovga:

– Diniy gaplarga sening tobing yoʻq, boz ustiga shu qadar koʻp chekasanki, tamaking tutunidan miyamni qurum bosib ketdi, – dedi.

Platovning koʻngli ogʻridi, uyiga keldi-da, diqqinapas kushetkaga yotib oldi va Jukov tamakisidan hadeb buruqsitib chekaverdi.

## TOʻRTINCHI BOB

Inglizlarning qora poʻlatidan yasalgan gʻaroyib burga Aleksandr Pavlovich Taganrogda olamdan oʻtguncha, uning qutisida, baliq suyaklari tagida yotdi. Podsho oʻlimi oldidan vasiyat qilib, malikaning koʻngli taskin topganidan keyin unga berib qoʻy, deb burgani pop Fedotga topshirdi. Imperatritsa Yelesaveta Alekseyevna<sup>2</sup> burganing oʻyinini koʻrib, zavqlanib jilmaydi-yu, lekin uni oʻyinga tushirib koʻngil ochmadi.

– Men endi motamsaro bir bevaman, hech qanday ermak koʻnglimga sigʻmaydi, – dedi u va Peterburgga qaytib kelgach, bu gʻaroyib burgani boshqa qimmatbaho narsalarga qoʻshib yangi podshoga tortiq qildi.

Imperator Nikolay Pavlovich ham boshda burgaga hech eʼtibor bermadi, chunki u taxtga oʻtirganidan keyin gʻalayon chiqib qoʻli

<sup>1</sup> 1820–1850-yillarda Peterburgda Vasiliy Jukov fabrikasida tayyorlanadigan tamaki juda mashhur boʻlgan edi.

<sup>2</sup> Yelizaveta Alekseyevna (1779–1826) Aleksandr I ning xotini.

tegmagan edi, lekin keyinchalik bir kun akasidan meros qolgan qu-tichani titkilayotib oltin tamakidonga ko'zi tushdi, tamakidonni ochib, yong'oqdek gavharni oldi va uning ichida yotgan po'lat bur-gani ko'rdi, burga prujinasi ko'pdan buralmaganidan harakat qilmas, go'yo to'ngib qolgandek jimgina yotar edi.

Podsho burgani ko'rib, tang qoldi:

– Qanday match bu o'zi, nega uni akam ko'z qorachig'idek saq-labdi?!

Saroy a'yonlari uni tashlab yubormoqchi bo'lishgan edi, podsho ko'nmadi:

– Tegmanglar, buning bir balosi bo'lsa kerak.

Anichkov ko'prigi ro'parasidagi dorixonadan misqollab zahar tor-tadigan dorifurushni chaqirib kelib, burgani unga ko'rsatishdi, dorifu-rush burgani shu ondayoq tili ustiga qo'ydi-da, «Qattiq ma'dan ta'mi kelyapti», dedi. Keyin asta tishlab ko'rib:

– Nima desangiz deng, bu haqiqiy burga emas, nimfozoriya, ma'dandan yasalgan, buni bizning ruslar qilmagan, – dedi.

Podsho burganing qayerdan kelganini va qanday karomati borligi-ni darhol bilishni farmon qildi.

Mulozimlar zir yugurib, daftarlar-u ro'yxatlarni ko'zdan kechir-dilar, lekin ularda hech narsa yozilmagan edi. Undan, bundan su-rishtirdilar – hech kim hech narsa bilmaydi. Xayriyatki, don kazagi Platov tirik, diqqinapas kushetkasida trubkasini chekib yotgan edi. U saroydagi chop-chopni eshitgani hamono kushetkasidan irg'ib turdi-da, trubkasini tashladi va shopi shalop-u nishonlarini taqib, podsho huzuriga keldi. Podsho undan:

– Xo'sh, bahodir chol, nima yumush bilan kelding, – deb so'radi.

– Menga, hazrati oliylari, hech narsa kerak emas, yeyishdan ichishdan kamligim yo'q, mamnunman, – dedi Platov, – men siz-lar topgan nimfozoriya xususida uch-to'rt og'iz gap aytgani kel-dim. Angliyada mening ko'z o'ngimda mana bunday-bunday ishlar bo'lgan, burganing yonida kaliti bor, menda esa ularning melkoskopi bor, shu melkoskopda uni ko'rish mumkin, o'sha kalit bilan burga-ning qornidagi prujina buralsa, burga osmonga sakrab, o'ng-u so'lga veroyatsiyalar qiladi.

Burganing prujinasini buragan edilar, u sakrab o'yinga tusha ket-di, shunda Platov:



– Nafsilamrini aytganda, hazrati oliylari, – dedi, – bu juda ustalik bilan, ajoyib qilib ishlangan, lekin bizlar shavq-zavqqa berilib, hayron bo‘lmaylik. Tulada yoki Sesterbekda, – o‘sha davridayam Sestroreskni Sesterbek deb atashardi, – ruslar uni bir tekshiruvdan o‘tkazishsin, iloji bo‘lsa, hunarlarini ko‘rsatib inglizlarning popugini pasaytirib qo‘yishsin, toki ular ruslarni oyoq uchida ko‘rsatmasinlar.

O‘z fuqarosi – ruslarga podsho Nikolay Pavlovichning ixlosi baland edi, ajnabiylarga yon berishni yoqtirmasdi. Shu vajdan u Platovga murojaat qilib, bunday dedi:

– Sen, bahodir chol, ko‘p ma‘qul gapni aytding, bu ishni ochdi qilishni senga topshiraman. Ishim boshimdan oshib yotgan bir paytda menga burganing hech darkori yo‘q, sen buni olgin, bundan buyon endi diqqinapas kushetkangda cho‘zilib yotma, Tinch Donga borib, itoatimdagi donliklar bilan gaplash, ularning hol-ahvollarini so‘ra, turmushlari va sadoqatlarini surishtir, ko‘ngillari nima istashini bil. Tuladan o‘tganingda bu nimfozoriyani tulalik ustalarimga ko‘rsat, buni nima qilish to‘g‘risida bir o‘ylab ko‘rsinlar. Mening nomimdan shuni aytingki, akam bu buyumdan hayratga tushib, mazkur nimfozoriyani yasagan begona odamlarni ko‘klarga ko‘tarib maqtagan edi, men bo‘lsam, o‘z odamlarimga ishonaman, ular hech kimdan kam emas. Ular mening gapimni yerda qoldirmaydilar, biron chorasini topadilar.

## BESHINCHI BOB

Platov po‘lat burgani olivoldi-da, Donga ketayotib, Tulada to‘xtadi va uni tulalik qurolsozlarga ko‘rsatib, ularga podshoning gaplari bilan istagini yetkazdi. Keyin ulardan:

– Xo‘sh, pravoslavlar, shunga nima deysizlar? – deb so‘radi.

Qurolsozlar esa:

– Podshoning iltifotlaridan, otaxon, ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarildi, u o‘z fuqarolariga umid bog‘lab aytgan so‘zlarini bir umr esdan chiqarmaymiz, bu ish xususida qanday tadbir qo‘llashimizni darrov ayta olmaymiz. Zeroki, ingliz xalqi ham ahmoq emas, aksincha, juda quv, o‘z ishiga pishiq. Ular bilan bellashish uchun pux-

ta o'ylash va xudodan madad so'rash kerak. Agar sen ham, valine'matimiz, bizlarga podsho singari ishonsang, bu burgani g'ilofi va oltin tamakidoni bilan bizga tashlagin-da, bermalol Tinch Donga jo'nayver. Donda sayr qilib, o'ynab-kul, vatanni himoya qilib, urushda orttirgan jarohatlaringni davola, qaytishda Tuladan o'tganingda to'xtab, bizlarga odam yubor, u vaqtgacha, xudo yor bo'lsa, bir tadorigini ko'rib qo'yarmiz.

Tulaliklarning bunchalik ko'p muhlat so'rganliklari va nima qilishlarini ochiq aytmaganlaridan Platovning ko'ngli to'lmadi. U, ularni tilidan ilintirmoqchi bo'lib, gapni xo'p aylantirdi, donliklarga xos quvlikni ham ishga solib ko'rdi, lekin tulaliklar quvlikda undan qolishmasdilar. Shunisi borki, ular shu asnoda bir qarorga kelgan bo'lsalar ham, biroq Platov ishonmasligi mumkin, degan andishaga borib, mashaqqatli ishlarini yuzaga chiqargach, unga taqdim qilishga jazm etgan edilar.

Shu vajdan Platovga bunday dedilar:

– Biz nima qilishimizni hozircha o'zimiz ham bilmaymiz, lekin xudodan umidimiz katta, har holda podshoning gapini oqibatsiz qoldirmaslikka harakat qilamiz.

Ularning qo'yniga qo'l solmoqchi bo'lib Platovning qilgan barcha harakati bekor ketdi, chunki tulaliklar ham anoyi emas edi.

Platov gapni aylantira-aylantira, tulaliklarni tilidan ilintirolmashligiga ko'zi yetgach, oltin tamakidon bilan nimfozoriyani ularga berdi-da:

– Xayr, mayli, nachora, sizlar aytganicha bo'la qolsin; sizlarning qanaqaligingizni bilaman, – deb shularni tayinladi: – Ammo-lekin, ilojim qancha, men sizlarga ishonaman, biroq qulog'ingizda bo'lsinki, gavhar almashtirib, inglizning nozik ishini buzib qo'ymanglar yana, ko'p imillamanglar, chunki men quyundek uchaman, ikki haftaga qolmay Tinch Dondan Peterburgga qaytaman, shungacha qanday bo'lmasin podshoga ma'qul bo'ladigan bir narsa hozirlab qo'yinglar.

Qurolsozlar:

– Ko'ngling to'q bo'lsin, inglizlarning nozik ishini buzmaymiz, gavharni almashtirib qo'ymaymiz, – deb uni xotirjam qilishdi, – ikki hafta bizga bermalol yetadi, qaytishingga, podshoga ko'rsatishga arziydigan bir nima hozirlab qo'yamiz.

Lekin nimaligini baribir aytishmadi.

## OLTINCHI BOB

Platov Tuladan jo'nab ketdi, qurolsozlar ichida eng mirishkorlaridan uchitasi yor-birodarlari va uy ichidagilari bilan xayrlashdilar, hech kimga hech narsa demay, xaltalariga yegulik narsalar solivolib, shahardan chiqib ketdilar. Ular orasida g'ilay-chapaqay bir usta ham bo'lib, yuzida xoli bor edi, chakkasidagi bir tutam sochini shogirdlik qilib yurgan vaqtida usta yulib olgandi.

Tulaliklar bu uch ustaning Moskva shahri tomonga emas, aksincha, Kiyev tarafga jo'nab ketishganini ko'rib qolishdi-yu, e, ha, tushunarli, ular Kiyev shahriga borib yer bag'rida yotgan aziz-avliyolarning qabrlarini ziyorat qilib, ularning arvohtaridan madad so'rashadi yoki Kiyevda hamisha gujg'on o'ynaydigan ko'zi tirik taqvodorlardan (valilardan) oq fotiha olishadi deb gumon qildilar.

Lekin bu haqiqatdan yiroq bir gumon edi, xolos. Aslida Kiyevga uch hafta ichida piyoda borib kelish va ingliz xalqining ishini puchga chiqarish uchun tulalik ustalariga vaqt ham, masofa ham yo'l qo'ymas edi. Borish zarur bo'lsa, Moskvaga borganlari tuzuk edi, zero, bu shahargacha bo'lgan masofa atigi «bir yuz sakson chaqirim» bo'lib, u yerda ham aziz-avliyolarning qabri behisob edi. Boshqa tomonga, Oryolga borgudek bo'lsalar, baribir «bir yuz sakson chaqirim» yo'l bosishlari kerak edi, undan u yog'i Kiyevgacha esa ozmas-ko'pmas besh yuz chaqirim masofa bor edi. Bunday uzoq yo'l yurish oson emas, yurgan taqdirda ham darrov hordiq chiqarib bo'lmaydi, ancha vaqtgacha oyoq tayoqdek qotib qolib, qo'llar qaltirab yuradi.

Ba'zi odamlar, ustalar hovliqib, Platov oldida maqtanchoqlik qilib qo'yishdi-yu, lekin bafurja o'ylab ko'rib, o'takalari yorildi, shundan keyin podshoning oltin tamakidoni-yu, gavharini va boshlariga balo bo'lgan inglizlarning g'ilofdagi burgasini olib qochib qolishdi, degan o'yga ham borishdi.

Lekin bu taxmin ham mutlaqo asossiz bo'lib, butun millat umid bog'lagan qo'li gul ustalar sha'niga haqoratdek edi.

## YETTINCHI BOB

Tulaliklar aqlli kishilar bo'lib, temir-u po'latdan buyum yasashda ham, dinni tushunishda ham hech ulardan o'tadigani yo'q edi. Bu xususda ularning shuhrati o'z yurtlaridan tashqari, hatto muqaddas

Afonga<sup>1</sup> ham yetib borgan edi: ular ovozlari har maqomga solib, qiyib ashula aytishnigina emas, balki «Kechki ibodatga jom chalish» surati chizishni ham bilishardi. Bordi-yu, ulardan bitta-yarimtasi hayotini din yo‘liga bag‘ishlab, rohib bo‘lib ketsa, bundaylar monastirlarda eng yaxshi mutavalli bo‘lishar, ulardan o‘tkir nazr-niyoz yig‘uvchilar chiqar edi. Afon xalqi tulaliklar misoli sog‘in sigirdek foydali ekanini bilishar, agar tulaliklar bo‘limganda Rossiyaning ovloq joylarida yashovchi aholi Sharqdan keltirilgan tabarruk buyumlardan benasib bo‘lar, Afon esa, ruslarning saxovati, izzat-hurmati va xayr-sadaqasidan bebahra qolar edi. Endilikda «afonlik tulaliklar» tabarruk buyumlarni butun mamlakat bo‘ylab tashib yurishar, aholining qashishga tirnog‘i qolmagan joylardan ham ustalik bilan nazr-niyoz yig‘ishardi. Tulalik tavfiqli, diyonatli, cherkov yo‘lidan chiqmaydigan odam bo‘ladi, shu vajdan Platovning hamda butun Rossiyaning obro‘-sini ko‘tarishga bel bog‘lagan uch usta, Moskvaga emas, janubga yo‘l olib, to‘g‘ri ish qilishdi, ular Kiyevga borishni xayollariga ham keltirmay, Orlov guberniyasi uyezd shahri Msenskka qarab ketishdi, u yerda Nikolay avliyoning «toshga o‘yilgan» surati bor ediki, rivoyatlarga qaraganda, u juda qadim zamonlarda, katta tosh ikona ustida Zusha daryosidan oqib kelgan ekan. Bu «dahshatli va vahimali» suratda zarvaraq kimxob chopon kiygan Mir-Likiyskiy<sup>2</sup> avliyo bor bo‘yicha tasvirlangan bo‘lib, uning qiyofasi qahrli edi, bir qo‘lida ibodatxona, boshqa bir qo‘lida «jangda mushkullarni oson qiladigan» qilich ushlab turar edi. Hamma gap shu «mushkullarni oson» qiluvchi qilichda edi. Nikolay avliyo, umuman, savdo-sotiq va harbiy ishlar homiysi edi, lekin bu borada «msensklik Nikola» undan o‘tardi, shu sababdan ham tulaliklar uni ziyorat qilgani borishdi. Ular surat yonida, keyin tosh ikona oldida ibodat qilishdi va axiri «kechasi» uylariga qaytib, hech kimga hech narsa demay, g‘oyat maxfiy ishga kirishishdi. Uchalasi chapaqayning mo‘jaz uyiga tushishdi-da, eshikni-yu, deraza qopqalarini taqa-taq berkitib olishdi, Nikolay ikonasi oldida chiroq yoqib, ish boshlashdi.

<sup>1</sup> Afon – Gretsiyadagi yarimorol, u yerda katta-yu kichik monastirlar juda ko‘p edi. Jumladan, ruslarniki ham ko‘p edi.

<sup>2</sup> Nikolay «Sohibkaromat», IV asr. Likiya mamlakatining Mira shahrida arxiyepiskop bo‘lgan.

Oradan ikki-uch kun o'tsa hamki hech qayoqqa chiqishmadi, bolg'achalarini tinmay tiqillataverishdi. Lekin nima qilayotganlari noma'lum edi.

Hamma bunga qiziqardi-yu, lekin hech kim hech narsa bilolmasdi, chunki ustalar bu to'g'rida churq etib og'iz ochmas, tashqarida qoralari ham ko'rsatishmas edi. Ular turgan uyga turli-tuman odamlar kelib eshikni taqillatishar va har xil bahona qilib, o't yoki tuz so'rashar edi, lekin uch mohir usta turli vaj-korsonlar ko'rsatib, eshikni ochishmasdilar. Sirasini aytganda, nima tamaddi qilishlari ham noma'lum edi. Odamlar, vahimada yugurib chiqishib, nima yaganlarini aytishar degan o'yda, qo'shningizning uyiga o't ketdi, deb qo'rqitib ham ko'rishdi, ammo buning ham foydasi bo'lmadi, quv ustalarga hech narsa kor qilmas edi. Lekin bir kuni chapaqay derazadan boshini chiqarib:

– Yonsalaring yonaverlaring, bizning bekorchi vaqtimiz yo'q, – dedi-da, sochi yuliq boshini ichkari oldi va deraza qopqog'ini qarsillatib yopib, yana o'z ishiga tutindi.

Biroq deraza qopqoqlarining tirqishidan uy ichida miltillab chiroq yongani ko'rinar, jajji bolg'achalarning sandonga jaranglab tushgani eshitilar edi.

Xullas, hamma ish shu qadar maxfiy ediki, hech kim hech narsa bila olmadi, bu hol kazak Platov Tinch Dondan podsho huzuriga qaytguncha davom etdi. Bu vaqt ichida ustalar na biron kishi bilan uchrashdilar va na biron odam bilan gaplashdilar.

## SAKKIZINCHI BOB

Platov as'asa-yu dabdaba bilan juda oshig'ich kelar edi: o'zi foytunda o'tirar, peshtaxtaga, izvoshchining ikki yoniga esa, ikkita chopar kazak qamchi ushlab o'tirib olgan edi, ular tez hayda, deb hech ayamay izvoshchini savalashardi. Agar kazaklardan biron tasi mudrab qolsa, foytunda o'tirgan Platov izvoshchining orqasiga boplab tepar, shunda otlar yana yeldek uchardi. Bu tadbir shunday yaxshi natija berdiki, otlarni hech qaysi bekatda to'xtatib bo'lmay, ular yuz qadamcha oldinga o'tib ketar edi. Keyin kazak yana izvoshchini qamchi bilan savalar, shu tariqa yana orqaga, bekat oldiga qaytib kelishar edi.

Ular Tulaga ham quyundek uchib kelib, Moskva shahri tomonga yuz qadamcha o'tib ketdilar; keyin kazak yana izvoshchini savalab, otlarni orqaga qaytartirdi. Ular otlarni almashtirish uchun bekat darvozasi oldiga kelib to'xtashdi. Platov foytundan tushmadi ham, faqat chopariga, burgani olib qolgan ustalarni oyog'ini yerga tegizmay olib kel, deb farmon berdi.

Qani, tez bo'ling va inglizlarni sharmandai sharmisor qiladigan ishingizni olivoling, deb xabar bergani bir chopar oyog'ini qo'liga olib yugurib ketdi, lekin u nariroqqa bormasidanoq, Platov qistalangi-ga olib, uning orqasidan chopar ustiga chopar yuboraverdi.

U barcha choparini yuborib bo'lgach, ustalarni tezroq chaqirib kelishga ermaktalab oddiy odamlarni ham yubora boshladi, o'zi bo'lsa toqati toq bo'lib, foytundan oyog'ini chiqarar, o'zi ham chopib borib kelishga shaylanar va sabri chidamay tishlarini g'ijirlatar edi.

U davrda har bir ish puxta va juda tez bajarilishi talab qilinardi, chunki tadbirli rus xalqining bir lahza ham vaqti bekor ketmasin-da.

## TO'QQIZINCHI BOB

Ajoyib ishga bel bog'lagan tulaliklar bu payt ishlarini poyoniga yetkazish arafasida edilar. Choparlar ustalarning oldiga halloslab, tillari osilganча yugurib kelishdi, ermaktalab oddiy odamlar esa odatlanmaganlaridan oyoqlari mayishib, ko'chada dumalab qolishdi, keyin Platovning ko'ziga ko'rinishdan qo'rqib, ba'zilar uyiga ura qochdi, ba'zi birovlar duch kelgan yerga yashirindi.

Choparlar chapaqayning uyiga yetib kelishdi-yu, baqira boshlashdi, lekin ular eshikni ochishmagach, andishaga bormay, deraza qopqalarining temir belbog'ini jon-jahdlari bilan tortdilar, ammo belbog'lar shu qadar mustahkam ediki, hatto sal bo'lsin bukilmadi ham, eshikni tortgan edilar, ichkaridan dub lo'kidonni surib qo'ygan ekanlar. Shunda choparlar o't o'chiruvchilar qilig'ini qilib, ko'chada yotgan bir xodani olib keldilar-da, kulbaning bo'g'otidan ko'tarib, tomini ag'darib tashladilar. Tomni ag'darishga ag'dardilar-u, lekin o'zlari ham tappa cho'zilib qoldilar, chunki hech tinim bilmay ishlagan ustalarning terlashidan bu torgina kulbaning havosi shu qadar buzilib, sasib-bijg'ib ketgan ediki, ochiq havoda yurib kelgan odam bir marta nafas olsa,

surobi to'g'ri bo'lar edi. Choparlar baqirib-chaqirib dag'dag'a qilishdi:

– Qanday odamsanlar asti, badbaxtlar, falon-pismadon, badbo'y havo bilan bizni zaharlashga qanday haddilaring sig'di! Nima, xudoni unutilaringmi?

Ustalar shunday javob qilishdi:

– Biz hozir, so'nggi mixni qoqib bo'lamiz-u, qilgan ishimizni olib boramiz.

Choparlar bo'lsa:

– Ungacha u terimizni shilib, po'stimizga somon tiqadi, – deyishdi.

Lekin ustalar bunday javob berishdi:

– Teringizni shilishga ulgurolmaydi, siz gap sotib turganingizda, o'sha oxirgi mixni ham qoqib bo'ldik. Qani, yugurib borib ayting, hozir olib boramiz.

Choparlar zing'illagancha ketishar ekan, ustalar bizni laqillatdi, degan xayolga borib dam-badam to'xtab, orqalariga qarab qo'yishar edi. Aslida-chi, aslida ustalar haq gapni aytgan edilar, ular vaqtni qizg'anib, axir, ulug' odam huzuriga ketyapmiz-ku, deb bashangroq kiyinishni ham yig'ishtirib qo'yib, apil-tapil otlangan, chakmonlarining ilgagini yo'l-yo'lakay solib yo'lga chiqqan edilar. Ikki ustaning qo'lida hech vaqo yo'q edi, lekin uchinchi usta, chapaqay esa yashil jildli podsho qutisini ko'tarib olgan edi, quti ichida esa, po'lat burga yotardi.

## O'NINCHI BOB

Choparlar o'pkalarini qo'ltiqlab Platov oldiga yugurib kelishdiku, axborot berishdi:

– Mana, o'zlari ham shay bo'lib turishibdi!

Platov darhol ustalarga savol tashladi:

– Bitdimi?

Ustalar:

– Bitdi, – deya qutini berishdi.

Bu asnoda foytunga otlar qo'shilgan, izvoshchi peshtaxtaga o'tirgan, foreytor<sup>1</sup> ham otiga minib olgan edi. Kazaklar zum o'tmay,

<sup>1</sup> Foytunga juft-juft qilib qo'shilgan otlarning eng oldingisiga minib boruvchi odam.

izvoshchining ikki yoniga o'tirib olib, uning boshi ustida qamchi o'ynata boshlashdi.

Platov darhol yashil jildli qutini yulib-yulqib ochdi-yu, paxtaga o'rog'liq oltin tamakidonni, tamakidon ichidan esa gavhar g'ilofni chiqarib, ko'zdan kechirdi: qarasa, inglizlarning burgasi o'sha-o'sha yotibdi, yonida hech narsa yo'q.

Platov tepa sochi tik bo'lib:

– Bu nima degan gap? Podshoning ko'nglini ko'taradigan ishingiz qani? – deb so'radi.

Ustalar shunday deb javob qilishdi:

– Ishimiz shu yerda.

Shunda Platov:

– Xo'sh, nima ish qildingiz, tushuntirib bermaysizmi? – deb ustalarni savolga tutdi.

Ustalar:

– Tushuntirib nima qilamiz? O'zi ko'rinib turibdi-ku, ko'ravering-da, – deyishdi.

Platov kiftlarini uchirib, o'dag'ayladi:

– Burganing kaliti qani?

Ustalar bo'lsa:

– Shu yerda. Burga turadigan gavharda, – deyishdi.

Platov kalitni olmoqchi bo'ldi-yu, lekin barmoqlari to'mtoqligi ishning beliga tepdi, u har qancha urinsa ham na burgani va na uning qornidagi buraladigan joyga tiqig'lik kalitni ololadi, shunda alam qilib ketib, kazakchasiga so'kina boshladi.

– Nima qilganlaring bu, ablahlar, hech narsa qilmay, buyumning rasvosini chiqaribsanlar! Hammangning kallangni olaman!

Ustalar ko'ngli og'rib shunday deyishdi:

– Bekorga bizni ranjityapsiz, podshoning odami bo'lganingiz uchun gapingizni ko'taramiz, lekin bizga ishonmaganingiz va yuz-xotir qilmay podshoning gapiniyam yerda qoldirishibdi degan o'yg'a borganingiz uchun, sizga ishimizning siri nimadaligini aytmaymiz, malol kelmasa, podshoning o'ziga olib borib ko'rsating, qanday odam ekanligimizni ko'rsin, yuzini yerga qaratmasligimizni bilsin.

Platov bo'lsa tutaqib ketib dag'daga qildi:



– Siz, muttahamlar, yolgʻon gapiryapsiz, mendan osonlikcha qutulmaysiz, bittangiz men bilan Peterburgga borasiz, qanday karomat koʻrsatganingizni oʻsha yerda surishtirib bilaman.

Shunday deya u, qoʻlini shartta uzatdi-yu, toʻmtoq barmoqlari bilan gʻilay-chapaqayning yoqasidan changallab olib bir silkigan edi, chapaqayning chakmon ilgaklari shart-shurt uzilib ketdi. Platov uni kuch bilan foytunga tortib chiqardi-da, oyogʻi tagiga choʻkka-latib qoʻydi.

– To Peterburgga yetib olguncha, shu yerda xuddi baroq itdek oʻtirib borasan, sheriklaring uchun sen javob berasan. – Shundan keyin choparlarga farmon berdi: – Qani, haydang! Lalaymang, indinga Peterburgda, podsho huzurida hozir boʻlay.

Ustalar qoʻrqa-pisa, oʻrtoqlari chapaqayning tarafini olib:

– Bu qanday gap, uni hujjat-pujjatsiz olib ketaverasizmi? Bu yoqqa qaytib kelishi amri mahol boʻladi-ku! – deyishdi.

Lekin Platov javob oʻrniga hammayogʻi chandiqlik boʻlib ketgan, qip-qizil, dahshatli mushtini doʻlaytirdi-da:

– Mana sizlarga hujjat! – deb oʻdagʻayladi.

Kazaklarga esa:

– Haydang, yigitlar! – deb buyurdi.

Kazaklar, izvoshchilar va otlar bab-baravar harakatga kelib, chapaqayni hujjatsiz-nesiz Peterburgga olib ketishdi. Platovning buyrugʻi bajo keltirildi, oradan bir kun oʻtgach, podsho saroyiga yetib kelishdi va odatdagidek otlarni toʻxtata olmay, saroy ustunlari yonidan oʻtib ketishdi.

Platov nishonlarini taqib, podsho huzuriga ketdi, chopar kazaklarga esa, gʻilay-chapaqayni darvoza oldida ushlab turishni buyurdi.

## OʻN BIRINCHI BOB

Platov podshoning koʻziga koʻrinishini oʻylasa, yuragi orqasiga tortib ketardi, sababi, Nikolay Pavlovich hech narsani esdan chiqarmaydigan, ziyrak odam edi, u albatta burga toʻgʻrisida surishtirishini Platov bilardi. Yorugʻ jahonda dushmanidan sira tap tortmagan Platovni hozir vahm bosdi: qutini koʻtarib saroyga kirdi-yu, uni zaldagi pechka orqasiga yashirib qoʻydi. Platov qutini yashirib qoʻyib,

podshoning kabinetiga kirgach, shoshib-pishib, Tinch Donda kazaklar bilan qilgan suhbatini gapirib bera boshladi. U podshoning xayolini shunga jalb qilaman, basharti, podsho esiga tushib, burga to'g'risida surishtirib qolsa, javob-muomala qilaman, indamasa, men ham indamayman; qutini kabinet kamerdineriga aytib, yashirtirib qo'yaman, tulalik chapaqayni esa qal'adagi yolg'iz kameraga qamab qo'yaman, toki u kerak bo'lguncha o'sha yerda o'tiradi, deb o'ylagan edi.

Lekin podsho Nikolay Pavlovich hech narsani esidan chiqarmagan edi. Platov Tinch Donda bo'lib o'tgan gap-so'zlarni tugatgani hamono, u so'rab qoldi:

– Xo'sh, qalay, nimfozoriya yasagan ingliz ustalari oldida tulalik ustalarimning yuzi shuvit bo'lib qolmadimi?

Ustalarning ishidan xabari bo'lmagani uchun Platov shunday javob qildi:

– Nimfozoriya, hazrati oliylari, g'ilofida qanday bo'lsa, shunday turibdi, uni qaytarib olib keldim, tulalik ustalar esa durustroq bir ish qilolmadilar.

Shunda podsho Platovga bunday dedi:

– Sen, bahodir chol, nimalar deypasan asti, bunday bo'lishi mumkin emas.

Platov uni ishontirmoqchi bo'lib, bo'lgan ishlarni birma-bir gapirib berdi. U tulaliklar burgani podshoga ko'rsating deyishganini aytganda, Nikolay Pavlovich Platovning yelkasiga qoqqi-da, dedi:

– Burgani menga ber. Imonim komilki, ustalarim meni aldamaydi. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bir ish qilganga o'xshaydilar.

## O'N IKKINCHI BOB

Pechka orqasidan qutini keltirib, movut jildini ochishdi-da, oltin tamakidondan gavharni olib ko'zdan kechirishdi, burga unda ilgari qanday yotgan bo'lsa, hozir ham shunday yotar edi.

Podsho buni ko'rdi-yu:

– Bu qanday rasvolik! – dedi, lekin rus ustalaridan ixlosi qaytmadi, aksincha, erka qizi Aleksandra Nikolayevnani chaqirib, unga buyurdi:

– Sening barmoqlaring nozik, kalitchani ol-da, manavi nimfozoriyaning qornidagi prujinani darrov bura.

Malika kalitni burashi bilan burga mo'ylovlarini qimirlata boshladi, lekin oyog'i qimir etmadi, Aleksandra Nikolayevna prujinani oxirigacha burasa hamki, nimfozoriya ilgarigidek na dansega raqs tushdi, na biror veroyatsiya qildi.

Buni ko'rib, Platov g'azabdan bo'zarib ketdi va g'avg'o ko'tardi:

– Eh, itdan tarqagan, pastkashlar! Nega menga hech narsa aytgilari kelmadi desam, gap bu yoqda ekan-da! Yaxshiyam, u ahmoqlarning birini olib kelgan ekanman.

Platov shu gaplarni aytib, darvoza oldiga yugurib chiqdi-da, chapaqayning sochidan changallab olib, u yoqdan bu yoqqa siltalay boshladi, sho'rlik ustaning sochlari pardek to'zib ketdi. Platov urishdan to'xtagach, chapaqay o'zini o'nglab oldi-da, yozg'irdi:

– Shogird yurganimda-ku, sochimni bitta qo'ymay yulib olishgandi, endi qaysi gunohimga menga yana bu xil jazo beryapsiz?

– Shu gunohing uchunki, – dedi Platov, – men sizlarga ishonib, kafil turgan edim, sizlar esa, noyob buyumni rasvo qilibsiz.

Bu gapni eshitib, chapaqay javob berdi:

– Bizga kafil bo'lganing uchun g'oyat minnatdormiz, lekin biz hech narsani rasvo qilganimiz yo'q: juda katta qilib ko'rsatadigan melkoskop olib kelib ko'ring.

Platov melkoskop to'g'risida aytgani yugurib ketar oldidan, chapaqayga o'dag'aylab:

– Sen, falon-pismadon, shoshmay tur hali, abjag'ingni chiqarman, – dedi.

Shundan keyin, u choparlarga, buni yanayam qisti-bastga olinglar, deb tayinladi va o'zi esa zinadan chiqib borar ekan, halloslab duo o'qidi: «Poko parvardigoro, yo bibi Maryam onamiz shafqatli podshoning dastini daroz qil». Pillapoyalarda turgan saroy a'yonlari esa, Platov tumshug'idan ilindi, endi uni saroydan quvib yuborishadi deb o'ylab, undan yuzlarini o'girdilar, dovyurakligi uchun ularning Platovni ko'rgani ko'zlari, otgani o'qlari yo'q edi.

## O'N UCHINCHI BOB

Platov chapaqayning gapini podshoga yetkazgani hamono, u shodligidan terisiga sig'may ketdi va:

– Imonim komilki, ruslarim meni dog'da qoldirmaydilar, – dedi va melkoskopni olib kelishga farmon berdi.

Ko'z ochib yumguncha yostiqlik ustiga qo'yib melkoskopni olib keldilar, podsho burgani olib tippa-tik qo'yib, yonboshlatib, oyog'ini osmonga qilib, xullas, har ohangga solib qarasa hamki, hech narsani ko'rmadi. Shunda ham u ishonchini yo'qotmay:

– Pastda turgan o'sha qurolsozni bu yerga, huzurimga olib kelinglar, – deb buyurdi.

Shunda Platov oraga tushib shunday dedi:

– Uni kiyintirish lozim, qanday olib kelgan bo'lsak o'sha holatda, ust-boshining mazasi yo'q.

Podsho:

– Hechqisi yo'q, qanday bo'lsa shundayligicha olib kelaveringlar, – dedi.

Platov pastga tushdi-da, chapaqayga zug'um qildi:

– Sen, falon-pismadon, qani yur, borib podshoga o'zing javob ber.

Chapaqay pinagini buzmay shunday dedi:

– Nima qipti, borsam boraveraman, javob berish qiyin bo'ptimi?

Chapaqay engil-boshim yomon-ku, degan andishaga borib o'tirmay podsho huzuriga yo'l oldi, halpillab turgan shimining bir pochasi etigining qo'njiga tiqilgan, boshqa pochasi esa etigi ustiga tushib turardi, eski, uzun choponining oldi ochiq, ilgaklari tutmas, yoqasi yirtilib ketgandi.

«Ilojim qancha? – deb ko'nglidan o'tkazdi u. – Podsho meni ko'rgisi keptimi, demak, borishim zarur, yonimda hujjatim yo'qligiga men aybdor emasman, ish qanday bo'lganini unga gapirib beraman».

Chapaqay podshoning huzuriga kirib, ta'zim qilishi bilan podsho unga gap qotdi:

– Bu qanday gap axir, og'ayni, burgani ming ohangga solib boqdik, melkoskop tagiga qo'yib ham ko'rdik, aytarli hech narsani payqamadik.

Chapaqay bu gapni eshitib shunday dedi:

– Siz, hazrati oliylari, qanday qilib qaradingiz?

A'yonlar podsho bilan shu taxlit gaplashasanmi, degandek imoshora qilishdi. Chapaqay esa, a'yonlar qanday gaplashishini bilmas, shuning uchun tilyog'lamalik yoki xushomad qilmay to'ppa-to'g'ri gapirar edi.

Podsho gap bilan a'yonlarning og'ziga urdi:

– Uning boshini aylantirmanglar, qo‘yinglar, bilganicha gapiraversin.

Keyin chapaqayga:

– Biz, mana bunday qo‘yib qaradik, – deb burgani melkoskop tagiga qo‘ydi. – Mana o‘zing qara, hech narsa ko‘rinmayпти.

Chapaqay javob berdi:

– Bunaqa qilib hech narsani ko‘rib bo‘lmaydi, hazrati oliylari, sababki, bunday qo‘yganda bizning ishimiz ko‘rinmaydi.

Podsho savol berdi:

– Qanday qilib qarash kerak?

Shunda chapaqay bunday dedi:

– Uning bir oyog‘ini melkoskop tagiga qo‘yib, so‘ng har qaysi oyog‘ining tagini alohida-alohida ko‘rish darkor.

– Axir insof bilan aytsang-chi, – dedi podsho, – oyog‘ining tagini ko‘rish o‘limdan qiyin-ku!

– Na iloj, – dedi chapaqay, – bizning ishimizni shunday mashaqqat bilan ko‘rsagina hammaning og‘zi ochilib qoladi.

Burgani melkoskop tagiga chapaqay aytganidek qilib qo‘yishdi, shunda podsho tepadagi oynakchasidan qaradi-yu, chiroyi ochilib ketdi, engil-boshi to‘zigan, hammayog‘i chang, kir-chir chapaqayni darhol quchoqlab olib, o‘pa boshladi, keyin to‘planib turgan a‘yonlarga o‘girilib:

– Ana, ko‘rdingizmi, rus ustalarim meni aldamasliklarini hammadan yaxshi bilardim. Kelib ko‘ringlar, bu azamatlar ingliz burgasiga taqa qoqib qo‘yishibdi! – dedi.

## O‘N TO‘RTINCHI BOB

A‘yonlar galma-gal kelib qaray boshladilar: chindan ham burganing oyoqlariga haqiqiy taqa qoqilgan edi. Shunda chapaqay ajablanadigani faqat shugina emas deb qoldi.

– Agar, – dedi u, – besh million marta katta qilib ko‘rsatadigan melkoskop bo‘lganda, sizlar har qaysi taqada uni yasagan rus ustasi-ning nomini ham o‘qigan bo‘lur edingiz.

– Bu yerda sening noming ham bormi? – deb so‘radi podsho.

– Hecham yo‘q, – dedi chapaqay.

– Nega?

– Shuning uchunki, men bu taqalardan ham kichikroq ishni qilganman: taqalar qoqilgan mixlarni men yasaganman, uni hech qanday melkoskopda ko‘rib bo‘lmaydi.

Bu gapni eshitib podsho savol berdi:

– Bunday g‘aroyib ishni qilishingizda ishlatgan melkoskopingiz qani?

Shunda chapaqay:

– Biz faqir odamlarmiz, melkoskop olishga qurbimiz yetmaydi, lekin ko‘zimiz pishib qolgan, – dedi.

Uloq chapaqayda ketganini ko‘rgan ba‘zi a‘yonlar galma-galdan kelib, chapaqayni o‘pa boshlashdi, Platov bo‘lsa unga yuz rubl berib, kechirim so‘radi:

– Sochingni yulib olganim uchun kechir meni, birodar.

– Xudo kechirsin, – dedi u, – bunaqa kaltak boshimizda birinchi sinishi emas.

Shundan keyin churq etib og‘iz ochmadi, nafsilamr gaplashadigan odam ham yo‘q edi, chunki podsho taqalangan nimfozoriyani darhol joyiga qo‘yib, sovg‘a tarzida Angliyaga qaytarib yuborishga farmon berdi.

– Toki, – dedi u, – bu ish biz uchun ajablanarli bir narsa emasligini bilib qo‘yishsin.

Yana podsho, burgani hamma tilni mukammal biladigan maxsus kuryer olib borsin, uning yonida chapaqay ham bo‘lsin, inglizlarga ishlarini ko‘rsatib, Tulada qanday ustalar borligini ularga bildirib qo‘ysin, deb tayinladi.

Platov uni o‘zi cho‘qintirib:

– Xudo yor bo‘lsin, senga o‘z qo‘lim bilan solgan kislyarkadan yuboraman. Safarda ko‘ngil yoz, oz ham ichma, ko‘p ham ichma, me‘yorida ich, – dedi.

U so‘zining ustidan chiqdi, kislyarka yubordi.

Graf Kiselvrode<sup>1</sup> bo‘lsa, chapaqayni tulaliklarning hammomida yuvib-tarashni, sartaroshxonada soch-soqolini tekislab, saroy xonishchilari kiyadigan bashang kaftan bilan yasantirishni buyurdi. Odamlar uning ham amali bor ekan deb o‘ylashsin-da, axir.

---

<sup>1</sup> Graf Nesselrode Karl Vasilyevich (1780–1862) – 1822–1856-yillarda tashqi ishlar vaziri bo‘lgan.

Grafning aytganlarini bajo keltirib, safar oldidan uni choy va Platov yuborgan kislyarka bilan mehmon qilishdi, keyin qorni lopillamasin deb, beliga sirib kamar bog'lashdi va Londonga olib ketishdi. Shundan chapaqayning chet el sarguzashti boshlandi.

## O'N BESHINCHI BOB

Kuryer bilan chapaqay yeldek uchishdi, Peterburgdan Londonga yetib borguncha hech qayerda to'xtashmadi, faqat har bekatta, ichaklari buralib, o'pkalari tushmasligi uchun kamarni tortibroq bog'lashardi: podsho huzuridan chiqqan Platov, davlat omboridan istaganingcha vino ol, deb chapaqayga ijozat bergan edi, vinoni g'amlab olgan chapaqay tamaddi qilmay, vinoga ruju qo'ydi, butun Yevropa bo'ylab ashulani vang qo'yib ketaverdi, u ruscha ashulalar aytardi, naqarotini esa, ajnabiychasiga olardi: «Ay iyuli – se tre juli»<sup>1</sup>.

Kuryer chapaqayni Londonga olib keldi-da, tegishli odamga uchrashib, unga qutini topshirdi, so'ng chapaqayni mehmonxonaga joylashtirdi. Lekin chapaqay xiyol o'tmay zerikib qoldi, qorni ham ochdi. Eshikni gursillatib urgan edi, xizmatchi keldi.

Chapaqay unga og'zini ko'rsatdi, shunda xizmatchi uni oshxonaga boshlab bordi.

Chapaqay bu yerda, stol yonida anchagacha o'tirib qoldi, chunki biror narsa so'ray desa inglizchani bilmas edi. Lekin yo'lini topdi, yana stolni chertib og'zini ko'rsata boshladi, inglizlar uning muddaosini tushunib, turli chaman anvoyi taomlar keltirdilar, biroq chapaqay ko'ngliga yoqqanini olib, yoqmaganini qaytarib yubordi. Inglizlar unga pechda pishirilgan xamir bilan kalla-pocha olib kelishdi, chapaqay buni ko'rib: «Shu ovqatni ham yeb bo'larkanmi» dedi-da, yemadi, shundan keyin boshqa ovqat keltirishdi. Aroqlari to'tiyo qo'shgandek ko'm-ko'k bo'lgani uchun, chapaqay uni ham ichmadi, eng tozasidan suvdoniga quyib oldi-da, oz-ozdan ichib, salqin joyda kuryerni kutib o'tirdi.

Kuryerdan nimfozoriyani olib qolgan odamlar darhol juda katta qilib ko'rsatadigan melkoskopda uni ko'rishdi-yu, ertasiqayoq bu mo'jiza barchaga ayon bo'lsin deb shu zahoti yolg'on-yashiq qo'shib matbuotga tumtaraqli maqola yozishdi.

<sup>1</sup> C'est tre's joli (франц.). Bunchayam dilrabo.

– O‘sha ustani hoziroq ko‘rishimiz kerak, – deyishdi ular.

Kuryer ularni mehmonxonaga boshlab keldi, lekin u yerda chapaqayni topisholmay oshxonaga kirishdi, chapaqay kayf qilib o‘tirgan edi, kuryer inglizlarga «Ana, u!» dedi.

Inglizlar shapillatib uning yelkasiga qoqishdi va o‘zlariga teng bilib, qo‘l olib ko‘rishishdi. «Kamrad, kamrad, mohir usta ekan, – deyishdi ular, – sen bilan bafurja gaplashamiz, hozir sening sog‘lig‘ing uchun ichamiz».

Ancha vino buyurishdi-da, dastlabki qadahni chapaqayga tutishdi, u odob saqlab birinchi bo‘lib ichmadi, ko‘nglida, alamzadalikdan zaharlab qo‘ysalar-a, degan yomon xayolga bordi.

– Yo‘q, – dedi u, – bunaqa odat hech yerda yo‘q. Oldin mezbondan, keyin mehmondan, avval o‘zingiz iching.

Inglizlar vinolarniig har xilidan oz-ozdan ichishdi-da, keyin chapaqayga quyishdi. U o‘rnidan turib, chap qo‘li bilan cho‘qindi va o‘tirganlarning sog‘lig‘i uchun qadah ko‘tardi.

Inglizlar uning chap qo‘li bilan cho‘qinganini ko‘rib, kuryerdan so‘rashdi:

– Qaysi mazhabda u, luteranes<sup>1</sup> mazhabidami, protestant mazhabidami?

– Yo‘q, u lyuteranes mazhabida ham emas, protestant mazhabida ham, u provaslav mazhabida.

– Nega bo‘lmasa chap qo‘li bilan cho‘qinadi?

– U chapaqay, – deb javob berdi kuryer, – hamma ishni chap qo‘lida qiladi.

Inglizlar yana ham taajjubga tushishdi va chapaqay bilan kuryerga bosib-bosib vino berishdi, xullas, uch kun surunkasiga mayxo‘rlik qilishdi, keyin inglizlar: «Endi bas qilaylik» deyishdi. Suvga hushyor qiladigan dori qo‘shib ichib, lanjlikdan xalos bo‘lishdi va chapaqaydan, qayerda qay hunarga o‘qiganini, hisob ilmini qayerigacha bilishini surishtira boshlashdi.

Chapaqay bunday javob berdi:

– Bizning ilmimiz juda jo‘n. Zabur-u Ta‘birmomadan xabarimiz bor, xolos, arifmetikani sira ham bilmaymiz.

Inglizlar ko‘z urishtirib olib:

– Juda qiziq-ku, – deyishgan edi, chapaqay:

---

<sup>1</sup> Luteran



– Bizlarda o‘zi shunaqa, – deb javob berdi.  
– Rossiyada «Ta’bironoma» qanday kitob? – deb so‘rashdi inglizlar.

– Bu shunday kitobki, – dedi chapaqay, – mabodo podsho Dovud o‘zining Zabur kitobida biror narsaga aniq ta’bir topolmagan bo‘lsa, Ta’bironoma ochiq aytib beradi.

– E, attang, attang, agar siz to‘rt amalni bilganingizdami, juda yaxshi bo‘lardi, sizga Ta’bironomadani ko‘proq foyda keltirardi. Ana unda har bir mashinaning quvvati nihoyatda aniq hisoblangan bo‘lishiga aqlingiz yetardi, qo‘l hunarini juda puxta o‘rganganingiz bilan nimfozoriyadagi jajji mashinaning kuchi qay darajada ekanligini, taqani ko‘tarib yurolmasligini bilgan bo‘lur edingiz. Ana, ko‘rdingizmi, endi nimfozoriya na sakray oladi-yu, na dansega raqs tushadi.

Chapaqay ularning gapini ma’qul topdi.

– Gapingiz shak-shubhasiz to‘g‘ri, – dedi chapaqay, – ilmga kelganda oqsoqimiz, lekin el-yurtimizga sodiqmiz.

Inglizlar unga shunday taklif qilishdi:

– Bu yerda qoling, biz sizga ilm-urfon o‘rgatamiz, siz ajoyib usta bo‘lib yetishasiz.

Lekin chapaqay ko‘nmadi:

– Uyda ota-onam bor, – dedi u.

Inglizlar, ota-onangga yubor, deb pul berishgan edi, chapaqay olmadi.

– Biz el-yurtimizga sodiqmiz, padari buzrukvorimiz munkillab qolgan, kampir volidamiz esa, cherkovga bormasa turolmaydi, o‘zim ham bu yerda yolg‘iz zerikib qolaman, haliyam so‘qqaboshmandam.

– Ko‘nikib ketasiz, – deyishdi inglizlar, – bizning dinimizni qabul qilasiz, sizni uylantirib qo‘yamiz.

– Hecham bo‘lmaydi, – dedi usta.

– Sabab?

– Sababi, ruslarning dini eng to‘g‘ri din, bobokalonlarimiz unga qanday ishonishgan bo‘lsa, biz ham shunday ishonishimiz darkor.

– Siz, – deyishdi inglizlar, – bizning dinimizni bilmaysiz, biz ham xristian dinidamiz, uyimizda Injil saqlaymiz.

– Injil, darhaqiqat, hammada bir xil, lekin bizning kitobimiz qalinroq va dinimiz ham kuchliroq, – dedi chapaqay.

– Nimaga asoslanib bunday deyasiz?

– Bizda bunga aniq dalillar bor.

– Qanday dalillar?

– Masalan, – dedi chapaqay, → bizda mo‘jizakor ikonalar, avliyolarning (mumiyolangan) chirimas jasadlari bor, sizda bular yo‘q. Yakshanbadan boshqa diniy bayramlaringiz ham yo‘q, boz ustiga ingliz ayolini nikohlab olsam ham u bilan turishga or qilaman.

– Nega unday deysiz? – deyishdi inglizlar. – Siz bizning ayollarni kamsitmang, ular juda ozoda kiyinishadi, ro‘zg‘or ishlariga ham mohir.

Chapaqay ularga:

– Men ularni bilmayman, – dedi.

Inglizlar esa:

– Buning ahamiyati yo‘q, bilib olarsiz, sizni nozaninlar bilan uchrashtiramiz, – deyishdi.

Chapaqay bu gapdan uyalib:

– Qizlarning boshini bekorga aylantirishning nima hojati bor? – dedi va yo‘q deb turib oldi. – Nozaninlar to‘ralarga yarashadi, bizdaylarga to‘g‘ri kelmaydi, bordi-yu, bu gap taluliklarning qulog‘iga yetsa bormi, meni xo‘p kulgi qilishadi.

Inglizlar chapaqayning o‘zi-yu so‘ziga qiziqib qolishdi.

– Agar yigit bilan qiz uchrashmasa, ko‘ngliga yoqqan qizga uylanmoqchi bo‘lgan yigit sizlarda nima qiladi?

Chapaqay ularga ruslarning odatini tushuntirdi:

– Bizda, agar yigit bir qizga uylanish niyatida bo‘lsa, qiznikiga sovchi yuboradi, sovchi og‘iz solgandan keyin kuyov ikkovi odob saqlab qiznikiga borishadi va jamiki urug‘-aymog‘i oldida qizni aylana-oshkor ko‘zdan kechirishadi.

Ular uning gapiga tushunishdi, lekin bizda sovchi bo‘lmaydi, bunaqa odat yo‘q deyishdi. Shunda chapaqay bunday dedi:

– Unday bo‘lsa yana yaxshi, kishi astoydil niyat qilsagina bunday ishga bel bog‘lashi kerak, mening bo‘lsa begona xalq ayoliga uylanish niyatim yo‘q, shunday bo‘lgach, qizlarning boshini aylantirishning nima hojati bor?

Inglizlarga chapaqayning mulohazasi ma‘qul bo‘ldi, yana uning yelkasiga qoqishdi, soniga shapatilab urib, erkalashdi. Keyin shunday savol berishdi:

– Malol kelmasa shuni aytsangiz, bizning qizlarda qanday nuqsonlar koʻrdingiz va nima uchun ulardan oʻzingizni olib qochasiz?

Shunda chapaqay dilidagi gapni ochiq-oydin aytdi-qoʻydi:

– Men ulardan nuqson qidirmayman, lekin ularning halpillagan kiyimlari menga yoqmaydi: nima kiyganlarini va uning qanday zarurati borligini hech kim bilmaydi. Ustlariga bir narsa kiyib, pastiga allamabaloni tikib olishgan, qoʻllarida esa gʻalati paypoq. Ip gazlamadan uzun yopinchiq kiygan sapaju<sup>1</sup> maymunga oʻxshashadi.

Inglizlar kulib yuborishdi va:

– Buning sizga qanday ogʻirligi bor? – deb soʻrashdi.

– Ogʻirligi yoʻq, – dedi chapaqay, – lekin ular bu kiyim-boshlarini yechib boʻlgunlaricha qarab turgan kishi istihola qilib, toqati toq boʻlsa kerak, degan xavotirdaman.

– Nahotki, sizlarning fasonlaringiz yaxshiroq boʻlsa? – deb soʻrashdi inglizlar.

– Bizning fasonimiz, – deb javob berdi chapaqay, – Tulada juda oddiy, hamma ayollar toʻr tutilgan koʻylak kiyadi, xonim oyimlar ham koʻylaklariga toʻr tutib olishadi.

Ular chapaqayni xotinlariga koʻrsatishdi va unga choy quyib berishdi. Chapaqay aftini burishtirganini koʻrib, soʻrashdi:

– Nega aftingizni burishtirasiz?

Chapaqay:

– Biz bunchalik xushtaʼm choy ichishga oʻrganmaganmiz, – dedi. Keyin inglizlar rus odaticha chaqmoq qand olib kelishdi.

Ular:

– Bunaqada odam lazzat ololmaydi-ku, – deyishgan edi, chapaqay:

– Bizga shunisi lazzatli, – deb javob berdi.

Inglizlar chapaqayni hayotlariga oshufta qilish uchun harchand urinsalar hamki boʻlmadi, uni yoʻldan urolmadilar, lekin biroz mudatga qoling, bu vaqt ichida sizni har xil zavodlarga olib boramiz, sanʼatimizni koʻrsatamiz deb, chapaqayni arang koʻndirishdi.

– Shundan keyin, – deyishdi inglizlar, – sizni kemamizda eson-omon Peterburgga olib borib qoʻyamiz.

Bu taklifga chapaqay rozi boʻldi.

---

<sup>1</sup> *Sapaju* – maymunning bir turi, juni qalin, lekin kalta boʻladi.

## O'N OLTINCHI BOB

Inglizlar chapaqayni allada aziz, to'rvada mayiz qildilar, kuryerni esa Rossiyaga jo'natib yubordilar. Kuryerning amali, hamma tillarni bilishi inglizlarni qiziqtirmadi, ular chapaqayga ixlos qo'yib, barcha zavodlarga olib bordilar va o'z hunarlarini namoyish qildilar. Chapaqay ularning barcha sanoat korxonalarini: ma'dan va sovun-arra zavodlarini borib ko'rdi, ulardagi tartib-qoidalar unga juda ma'qul bo'ldi, ayniqsa, ishchilarning ta'minoti uni tang qoldirdi. Ularda har bir ishchining qorni to'q, usti but, har qaysisi jiletka kiyadi, juldur kiyim kiygan ishchini ko'rmaysiz, biror narsaga oyoqlarini urib olmaslik uchun nag'alli pishiq botinka kiyib olishgan, ishni ham kaltak ostida emas, ilmiy asosda, ma'nisiga tushunib qilishadi. Har qaysisining ro'parasiga karra jadvali osilgan, oldiga taxta qo'yib qo'yilgan, usta bir ish qilmoqchi bo'lsa, rejasini avval jadvalga qarab solishtiradi, keyin taxtaga raqamlarni yozib o'chiradi, xullas, aniq hisoblab, ishga kirishadi, ishi ham raqamdagidek to'g'ri va puxta bo'ladi. Bayram kelsa juft-juft bo'lib, hassa ushlab oladilar-da, shukuh-salobat bilan sayr qilgani chiqadilar.

Chapaqay ularning turmushlarini-yu, ishlarini ko'rib chiqdi va butun diqqatini shunday bir narsaga jalb qildiki, bundan inglizlar g'oyat taajjubga tushishdi. Chapaqay yangi multiqqlar qanday yasalayotganiga qiziqmay, eskilari qay ahvolda saqlanayotganiga e'tibor berdi. Yangi multiqqlarni ko'rib, ularni maqtar va:

– Buni biz ham qila olamiz, – derdi.

Eski multiq oldiga kelganda esa, barmog'ini quvuriga tiqib, yon tomonini siypalab, xo'rsinib qo'yardi:

– Bunisi bizdagidan yuz chandon yaxshi.

Inglizlar chapaqay nimaga shama qilayotganiga tushunmas, chapaqay bo'lsa so'rab-surishtirardi:

– Bilsam bo'ladimi, bizning generallarimiz buni hech ko'rishganmi, yo'qmi?

– Bu yerda bo'lganlari, turgan gap ko'rishgan, – deyishdi inglizlar.

– Ular qo'lqop kiyishganmidi, kiyishmaganmidi?

– Sizning generallaringiz hamisha parad formasida; shundan qiyos qilganda, qo'lqop kiyishgandi, albatta.

Chapaqay indamadi. Lekin bexosdan bezovtalanib, xit bo‘la boshladi. Diqqati oshib, inglizlarga murojaat qildi:

– Bergan non-tuzingizga rozi bo‘ling, sizlardan g‘oyatda minnatdorman, kerakli narsalarning hammasini ko‘rdim, endi hayallamay uyga jo‘nasam.

Yana bir qancha muddatga olib qolish uchun inglizlarning qilgan barcha harakatlari behuda ketdi. Quruqlikdan uni yuborib bo‘lmasdi, sababi – til bilmasdi, suvdan yuborish xavfli edi, kuz bo‘lgani uchun, dovul turib qolishi mumkin, lekin chapaqay ikki oyog‘ini bir etikka tiqib: «Ketaman» deb turib oldi.

– Biz buremetrga qaradik, dovul bo‘ladi, bu sizga Fin ko‘rfazi emas, buni O‘rtayer dengizi deydilar, cho‘kib ketasiz, – dedilar.

– Xudoning xohishi shunday bo‘lsa, qayerda o‘lsam ham mayli, lekin unib-o‘sgan elimga ketmasam bo‘lmaydi, yo‘qsa bu yerda jinni bo‘lib qolaman.

Uni zo‘rlab olib qolishmadi, oziq-ovqat va pul berishdi, esdalik uchun, prujinasini bossa jiringlaydigan yon soat tuhfa qilishdi, kech kuz, dengiz havosi sovuq, tag‘in sovqotib qolmasin deb shamonjan asraydigan boshligi bor issiq palto hadya etishdi. Chapaqayni issiq kiyintirib, Rossiyaga jo‘naydigan kema oldiga olib kelishdi va uni xuddi haqiqiy boyondek eng yaxshi joyga joylashtirishdi. Lekin chapaqay boshqa janoblar bilan birga usti yopiq joyda o‘tirishni yoqtirmas, andisha qilar, shu vajdan palubaga chiqib, brezent tagiga o‘tirib olar va «bizning Rossiya qaysi tomonda?» deb so‘rar edi. Chapaqayning savolini eshitgan ingliz qo‘li yoki boshi bilan imo qilib bir tomonni ko‘rsatardi, shunda chapaqay o‘sha yoqqa o‘girilardi-da, ona yurti tarafiga intizorlik bilan tikilardi.

Ko‘rfazdan O‘rtayer dengiziga chiqqanlarida, chapaqayda Rossiyaga qaytish ishtiyoqi shu qadar kuchaydiki, u bezovta bo‘lib, halovatini yo‘qotdi. Havo buzilib, to‘lqin kemani yong‘oq po‘chog‘idek o‘ynatsa hamki, chapaqay pastga, kayutaga tushmadi, brezent tagida el-yurti tomonga tikilganicha o‘tiraverdi.

Inglizlar bir necha marta kelib uni issiq joyga chaqirishdi, lekin bezor qilmasinlar deb, chapaqay yolg‘on gapirishga o‘tdi:

– Yo‘q, menga shu yer tuzuk, pastda elak-elak qilsa, dengiz kasaliga chalinib qolaman.

Chapaqay shu taxlit, eng zarur ishi bo‘lmasa pastga tushmadi, uning bu qilig‘i kema kapitanining yordamchisiga juda ma‘qul

bo'ldi, chapaqayning shum toleligini qarangki, u rus tilini bilarkan, quruqlikda o'sib katta bo'lgan bu rus kishisi bo'ron-u yog'ingarchilikka bardosh berganini ko'rib, kapitan yordamchisi g'oyat taajjubga tushdi.

– Barakalla, rus! Qani, bir ichaylik!

Chapaqay ichdi.

Kapitan yordamchisi:

– Yana bittadan! – dedi.

Chapaqay yana ichdi, kayflari ancha oshdi. Shunda kapitan yordamchisi undan so'rab qoldi:

– Sen bizning mamlakatimizdan Rossiyaga qanday sir olib ket-yapsan?

Chapaqay:

– Bu mening ishim, – deb javob berdi.

– Agar shunday bo'lsa, – dedi kapitan yordamchisi, – kel, ingliz-chasiga garov o'ynaymiz.

Chapaqay taajjubga tushdi:

– Qanday garov?

– Endi yolg'iz hech narsa ichish yo'q, nima bo'lsa bab-baravar baham ko'ramiz, birimiz nima ichsak, ikkinchimiz ham shuni ichamiz, kimki ichishda boshqasidan o'tsa, garovni o'sha yutgan hisoblanadi.

Chapaqay: «Bulut quyushmoqda, qorin qappaymoqda, yo'l olis, safar zerikarli, to'lqinlar ortida yurtim ko'rinmaydi, kel, garov o'ynasam o'ynay qolay, vaqt ko'ngilli o'tadi» degan gaplarni dilidan o'tkazib:

– Bo'пти, o'ynaymiz! – dedi.

– Lekin g'irromlik bo'lmasin.

– Ko'nglingizni to'q qiling, unday bo'lmaydi.

Ular gapni bir joyga qo'yib, qo'l olishdi.

## O'N YETTINCHI BOB

Ular ichishni O'rtayer dengizida boshlab, Rigadagi Dinamindegacha ichishdi, ichganda ham bab-baravar ichishdi, bir-biriga bo'sh kelishmadi, shunchalik teng ichishdiki, biri dengizga qarab suvdan

chiqib kelayotgan shaytonni ko'rgan edi, shu shayton ikkinchisiga ham ayon ko'rindi. Lekin kapitan yordamchisi sariq shaytonni ko'rgan bo'lsa, chapaqay unga, yo'q sariq emas, negrlardek qop-qora edi dedi. Kapitan yordamchisiga:

– Cho'qingin-da, teskari qarab ol, bu girdobdan chiqqan shayton, – deb gap ma'qullamoqchi bo'ldi.

Ingliz bo'lsa, yo'q, bu «dengiz g'avvosi» deb bahslashdi.

– Xohlaysanmi, – dedi u, – men seni dengizga otaman. Qo'rqma, u seni ko'z ochib yumguncha olib chiqib, menga topshiradi.

Chapaqay unga:

– Agar shunday bo'lsa, ota qol, – dedi.

Kapitan yordamchisi uni yelkasida bort oldiga ko'tarib ketdi.

Buni matroslar ko'rib qolib, ularni bu ishdan qaytarishdi va borib kapitanga aytishdi. Kapitan rom, vino, sovuq taomlar berib ikkovini pastga qamab qo'ying, garovlarini davom ettirsinlar, lekin o'tda pishirilgan studen va puding bermang, tag'in ichlarida spirt alanga olib ketmasin, deb tayinladi.

Ularni to Peterburggacha shu alfozda olib kelishdi, garovni hech qaysisi yutmadi: shu yerda ikkovini ikki aravaga ortishdi-da, inglizni Angliya naberejnyasiga, elchixonaga, chapaqayni esa, kvartalga olib ketishdi. Shundan keyin ularning taqdiri butunlay boshqa-boshqa bo'ldi.

## O'N SAKKIZINCHI BOB

Inglizni elchixonaga olib kelishgani hamono, dorifurush bilan tabib chaqirishdi. Tabib uni issiq vannaga solishni buyurdi, dorifurush esa, darhol habdori tayyorladi va o'z qo'li bilan inglizning og'ziga tiqdi, keyin ikkalasi uni par to'shakka yotqizib, terlasin deb, ustiga pochapo'stin yopib qo'yishdi. Oromi buzilmasligi uchun elchixonada xodimlariga aksirmaslik to'g'risida buyruq ham berishdi. Kapitan yordamchisi uxlagunga qadar dorifurush bilan tabib undan xabardor bo'lib turishdi, uxlagandan keyin esa, yana habdori tayyorlashdi-da, uni boshidagi stolcha ustiga qo'yib, chiqib ketishdi.

Chapaqayni esa kvartalda yerga yotqizib qo'yib:

– Kimsan, qayerdan kelyapsan, pasporting yoki biror hujjating bormi? – deb surishtirishdi.

Kasaldan, ichkilikdan va uzoq vaqt davomida kema chayqatganidan chapaqayning sillasi shunday qurigan ediki, bir og'iz ham gap aytolmay, bazo'r ingrardi.

Shunda ular chapaqayni tunashdi: katak-katak ko'ylagini yechib olishdi, soati bilan pulini ham shilvolishdi, so'ng pristav, o'tkinchi bir izvosh topib tekinga kasalxonaga eltib qo'ying, deb farmoyish berishdi.

Mirshab chapaqayni chana topib o'tqazish uchun boshlab ketdi, lekin uzoq vaqt ovora bo'lib bitta ham chana to'xtatilmadi, chunki chana haydovchilar mirshablardan qochishardi. Bu vaqt ichida chapaqay darvoza panjarasi tagida, sovuq yerda yotdi, keyin mirshab aloha bir chana to'xtatdi, lekin chanada issiqqina po'stak yo'q edi, sababi – chana haydovchilar bunday paytda mirshablarning tezroq oyog'i sovqotsin deb, po'stakni taglariga bosib, yashirishardi. Chapaqayni hammayog'i ochiq holda olib ketishdi, yo'lda bir chanadan ikkinchisiga o'tkazayotganlarida bir necha marta yerga tushirib yuborishdi, ko'tarib olayotib, hushiga kelsin deb xo'p qulog'idan tortishdi. Chapaqayni bir kasalxonaga olib kelishgan edi, hujjati yo'q deb olishmadi, yana uch-to'rt kasalxona ham qabul qilmadi, xullas, chekka yoqadagi egri-bugri tor ko'chalarda ertalabgacha ko'tarib yurishgani va chanadan-chanaga o'tkazishganidan uning a'zoyi badani lo'qillab ketdi. Bir kasalxonada vrach yordamchisi mirshabga, uni avom xalq kasalxonasi – Obuxovga olib bor, u yerda nasl-nasabini surishtirmay, hammani olib qolaverishadi, dedi.

Doktorlar tilxat yozib bering, ish bir yoqlik bo'lguncha kasalni yo'lakka olib chiqib turing deyishdi...

Kapitan yordamchisi esa, ertasiga o'rnidan turdi, habdoridan bitasini ichib, qaylasiga guruch solingan tovuq go'shti yeb, bardam qiladigan doridan suvga qo'shib ichdi va:

– Mening rus o'rtog'im qayerda qoldi? Qidirib topaman, – dedi. Keyin apil-tapil kiyinib, g'izillagancha jo'nab ketdi.

## O'N TO'QQIZINCHI BOB

Kapitan yordamchisi uddaburonlik qilib, chapaqayni tezda qidirib topdi, uni hali karavotga yotqizishmagan, yo'lakda, yerda yotgan edi. Chapaqay inglizni ko'rib unga o'z dardini aytdi:



– Qanday bo‘lmasin podshoga ikki og‘iz so‘z aytishim kerak edi. Ingliz yelib-yugurib graf Kleynmixel huzuriga bordi-da, g‘alva qildi:

– Shu ham insofdanmi? – dedi u. – Garchi u eski chopon bo‘lsa ham, qalbi pok.

Odamning qalbini pesh qilgani uchun inglizni shu zahoti quvib solishdi. Keyin unga bir odam shunday maslahat berdi: «Yaxshisi, Platovga uchrash, u kattaga ham, kichikka ham bab-baravar».

Ingliz Platovni topdi, Platov hamon kushetkasida yotgan edi. Inglizning gaplarini eshitgach, chapaqayni esladi:

– Esimda bor, birodar, bir-ikki marta ko‘zim tushgan, hatto sochini ham yulib olganman, lekin hozir uning boshiga musibat tushgan vaqtda qanday qilib yordam ko‘rsatishga hayronman, chunki xizmatdan bo‘shadim, falaj bo‘lib qoldim, meni hurmat qilmay qo‘yishdi, vaqtni o‘tkazmay, tezroq Skobelevga borib uchrash, uning qo‘li har yerga yetadi, bu borada tajribasi bor, bir ilojini qiladi.

Kapitan yordamchisi Skobelev huzuriga borib, hamma gapni: chapaqayning kasalini, kasal bo‘lish sababini birma-bir gapirib berdi. Skobelev uning gapini eshitib shunday dedi:

– Bunday kasaldan mening xabarim bor, lekin uni nemislar davolay olmaydi, popdan chiqqan bitta doktor davolashi mumkin, ular bunday ishlarni ko‘raverib ko‘zi pishib ketgan, men hozir u yerga rus doktori Martin-Solskiyni yuboraman.

Lekin Martin-Solskiy yetib kelganida chapaqayning joni uzilay deb turgan edi, chunki ensasi panjaraga urilib yorilib ketgandi, u bir gapnigina g‘o‘ldirab ayta oldi:

– Podshoga borib ayting, inglizlar miltiqni g‘isht bilan tozalamaydilar, biznikilar ham tozalashmasin, xudo ko‘rsatmasin urush bo‘lib qolsa, miltiqlar otilmay qoladi.

Sodiq fuqaro chapaqay shu so‘zlarni aytib cho‘qindi-yu, qazo qildi.

Martin-Solskiy darhol borib, graf Chernishevga chapaqayning gaplarini aytib, shu gapni podshoga yetkazsangiz degan edi, graf Chernishev unga o‘dag‘aylab berdi:

– Sen odamlarni qustirib, ichini ketkazib yuraver, birovning ishiga aralashma, bunga Rossiyada generallar bor.

Xullas, chapaqayning gapini podshoga yetkazmadilar, mulkiylarni to Qrim urushiga dovur g'isht va qum bilan tozalab keldilar. O'sha mahallarda mulitiq o'qlansa, quvuri g'isht-u qum bilan tozalanganidan o'q liqillardi.

Shunda Martin-Solskiy Chernishevga chapaqayni eslatdi, lekin graf yana jekirib berdi:

– Bas qil, sen, klizmaning nayi, o'zingni bil, o'zgani qo'y, bunday gapni ikkinchi eshitmay, bo'lmasa sendan yuz o'giraman.

Martin-Solskiy: «Rostdan ham yuz o'girishi mumkin» deb o'ylab, indamay qo'ya qoldi.

Bordi-yu, u chapaqayning gapini o'z vaqtida podshoga yetkazganida, Qrimdagi urushda raqiblarning holiga maymunlar yig'lardi.

## YIGIRMANCHI BOB

Endi bularning hammasi «o'tgan kunlar voqeasi-yu, o'tmish qissasi»dir. Garchi bu qissa o'zi u qadar tagdor bo'lmasa-da, mahorat bilan to'qilgan va bosh qahramoni zol bo'lishiga qaramay, uni tezda unutmog uchun hech qanday ehtiyoj yo'q. Chapaqayning ism-sharifi ham buyuk mutafakkirlarning ismlari kabi keyingi avlod uchun saqlanib qolmagan, lekin u xalq xayolini o'zida mujassamlantirgan mif sifatida diqqatga sazovor. Sarguzashtlari esa o'sha zamonni kishining ko'zi oldida yaqqol gavalantiradi. Zamon ruhi qissada mohirona, haqqoniy tasvir etiladi.

Turgan gapki, hozir Tulada chapaqayga o'xshash afsonaviy usta yo'q, mashina noshud odamlarni ham, qobiliyatli odamlarni ham teng qilib qo'ydi, endi mohir ustalar o'z mahoratlarini oshirish ustida tirishqoqlik bilan jon koyitib ishlaydigan bo'lib qoldilar. Mashina ish haqining oshishiga yo'l ochib berdi-yu, ammo odamlarning hunar, san'ati ravnaq topishiga g'ov bo'ldi. Odamlarning hunar, san'ati shu qadar kamolotga yetgan ediki, bu hol xalqni ular to'g'risida mana shunday ko'z ko'rib, quloq eshitmagan afsonalar to'qishga rag'batlantirgan edi.

Ishchilar mexanika ilmining amalda keltiradigan foydasining qadriga yetishadi, lekin o'tmishni mehr-muhabbat va g'urur bilan eslashadi. Zero, bu ularning dostoni bo'lib, unda «pok inson qalbi» ulug'lanadi.

*Nigora RAHIMOVA tarjimasi*





## ALOMAT SAN'ATKOR

### Qabr boshidagi hikoya

#### 1

Bizda ko'pchilik «san'atkor» deganda rassom-u haykaltarosh yoki akademiya shu unvonga loyiq ko'rganlarni ko'z oldiga keltiradi. Boshqalarni bu siraga qo'shmaydi. Deylik, Sazikov bilan Ovchinnikovni (tilla va kumushga o'yama naqsh soluvchi moskvalik ustalar) aksariyat shunchaki zargar deb biladi, xolos. Boshqa xalqlarda unday emas: Heyne «haqiqiy san'atkor» va «g'oyalar xazinasi» atalmish bir tikuvchi haqida yozgan, Vort yaratgan ayollar liboslari esa hatto hozirgi kunda ham san'at asari deya baholanadi.

Amerikaliklar san'at sohasini birmuncha keng tushunadi: taniqli yozuvchi Bret Gart hikoya qilishicha, ularda mayitlarni pardozi qiladigan bir «san'atkor» rosa mashhur bo'lib ketibdi. U marhumlar yuziga jismni tark etgan jonning ozmi-ko'pmi baxtiyor ekanini ko'rsatuvchi «taskin ifoda»sini qoyilmaqom muhrlay olgan emish.

Bu «san'at»ning bir necha turi bor edi chog'i – uchtasi esimda qolgan: «1) xotirjamlik; 2) teran xayol; 3) xudo suhbatidan baxtiyorlik hissini aks ettirish». O'sha «san'atkor»ning shuhrati iste'dodi qadar behad yuksak ekan. Lekin u badiiy ijod erkinligini hurmat qilmaydigan omi olomon qurboniga aylanadi. Butun shaharni firib bilan shilib yurgan soxta bir bankir o'lganda uning yuziga «xudo suhbatidan mamnunlik hissi»ni muhrlagani uchun toshbo'ron qilinadi. Firibgarning baxtdan boshi osmonga yetgan merosxo'rlari shunday «buyurtma» bilan marhum qarindoshiga minnatdorlik bildirmoqchi bo'lgan ekan, qarangki, «san'atkor» ijrochiga bu qimmatga tushib, badalini hayoti bilan to'labdi...

Ana shunday favqulodda san'atkor usta bizda – Rusda ham o'tgan.

Ukamga Lyubov Onisimovna degan bo‘ychan, qotmadan kelgan bir kampir enagalik qilgan. U graf Kamenskiyga qarashli sobiq Orlov teatri aktrisalaridan bo‘lgan. Hozir men hikoya qilajak voqea ham Orlovda, bolalik chog‘imda ro‘y bergan edi.

Ukam mendan yetti yosh kichik; demak, u – ikki yashar bola, enaga qo‘liga topshirilganida men to‘qqizga kirgan va tevarakdagi voqea-hodisalarni bemalol tushunadigan yoshda edim.

Aslida-ku, Lyubov Onisimovnani kampir deb ham bo‘lmasdi – unchalik qari emas edi u. Lekin sochi negadir qordek oppoq; yuz tuzilishi nafis, o‘zi istaraligina edi. Qad-qomati alifdek, ortidan xuddi navnihol qizmi deb o‘ylaysiz.

Onam bilan xolam unga qarab turib, bir vaqtlar bu rosa ofatijon bo‘lgan, deganini necha marta eshitganman.

U o‘ta halol, beozor va ko‘ngilchan ayol edi. Gohida may ham ichib turardi.

Enagamiz bizni ko‘pincha Troisk cherkovi joylashgan qabristonga olib borar va eski xoch o‘rnatilgan qarovsiz bir qabr boshiga cho‘kib, qayg‘uli voqealarni so‘zlab berishni xush ko‘rar edi.

«Usta sartarosh» hikoyasini ham undan o‘sha yerda eshitganman.

## 3

U yigit Lyubov Onisimovna bilan teatrda birga ishlagan; enagamiz «sahnada tomosha ko‘rsatgan va raqs tushgan», yigit esa grafga qaram krepostnoy artistlar «sochini turmaklab, pardoz-andoz qilgan». U qulog‘iga taroq qistirib olib qo‘lidan nimpushti yog‘upali qutichani qo‘ymaydigan xashaki sartarosh-pardozchi emas, yangi-yangi g‘oyalar o‘ylab topadigan rostakam san’atkor bo‘lgan ekan.

Lyubov Onisimovnaning aytishicha, «aktyorlar yuzida biror bir tuyg‘uni tasvirlash»da uning oldiga tushadigani bo‘lmaganmish.

Bu ikki «iqtidor» ijodi qaysi bir graf Kamenskiy qo‘lida gullab-yashnagan – aniq ayta olmayman. Chunki bizda Kamenskiy degan naq uch graf o‘tgan, orlovlik qariyalarning eslashicha, har uchala-

si ham o'taketgan zolim bo'lgan. Feldmarshal Mixail Fedotovichni jabr-zulmdan to'yib ketgan dehqonlar 1809-yili o'ldirgan. Uning ikki o'g'li bo'lib, Nikolay 1811-yili, Sergey 1835-yili olamdan o'tgan.

Qirqinchi yillar, ya'ni bola chog'larim «soxta» derazalari qorakuya va sariqqa bo'yab tashlangan bahaybat kulrang yog'och imoratni necha marta ko'rganman. Uning atrofi uzundan uzun devor bilan o'ralgan bo'lib, ba'zi joylari nurab yotardi. Graf Kamenskiyning qarg'ish tekkan qo'rg'oni shu edi. Teatr ham shu yerda bo'lgan. U biz boradigan qabristondan aniq ko'rinib turardi. Lyubov Onisimovna menga biror nima so'zlab bermoqchi bo'lsa, gapni doim:

– Huv anavi yoqqa qaragin, jonim... Ko'ryapsanmi, qo'rqinchli-a? – deb boshlardi.

– Juda qo'rqinchli, enagajon, – derdim men rostdan-da yuragim taka-puka bo'lib.

– Hozir senga bundan-da qo'rqinchli voqea aytib beraman.

Uning ana shunday hikoyalaridan biri sartarosh Arkadiy haqida edi. Nozikta'b va o'ta jasur bu yigit yoshlik chog'lari enagamiz yuragidan joy olgan ekan.

#### 4

Arkadiy faqat aktrissalar sochini turmaklagan va ularnigina pardoz qilgan. Erkaklar sartaroshi bo'lak edi, graf biron bir artistdan «olijanob odam yasash kerak» deya buyruq bersagina Arkadiy erkaklar bo'lmasiga o'tgan. «San'atkor sartarosh» pardoz uslubining siri – uning «g'oyalar xazinasi» ekanida edi. Ayni shu iqtidor ila u artistlar chehrasiga «eng inja tuyg'u»larni-da muhrlay olgan.

– Ba'zan uni chaqirib, – deydi Lyubov Onisimovna, – «Chehrasida mana bunday, mana bunday tuyg'ular aks etsin» deb buyruq berilardi. Arkadiy aktyor yoki aktrissani qarshisiga turg'izib yoki o'tqazib qo'yardi-da, qo'lini chalishtirganicha o'yga cho'mardi. Bu vaqtda uning o'zini bir ko'rsangiz: har qanday o'ktam yigitni yo'lda qoldirardi! O'rtabo'y bo'lsa-da, qaddi-basti shunday kelishgan ediki, ta'rifiga til ojiz. Burni ixcham, qirra, katta-katta ko'zlari odamga muloyim boqadi. Sochi qalin, peshonasidan osilib tushgan bir tutam kokili shu qadar yarashganki – go'yo bulut ortidan boqib turganga o'xshardi u.

Xullas, barno yigit sartaroshimiz «hammani o'ziga mahliyo etgan edi». Graf ham uni yaxshi ko'rar va «boshqalardan ajratib chiroyli kiyintirar, biroq unga o'ta qattiqqo'l edi». O'laqolsa o'zidan boshqaning soch-soqolini kuzashiga yo'l qo'ymas, shu bois kiyimxonasidan chiqarmas, Arkadiy doim teatrda, hech qayerga bora olmas edi.

Uni hatto cherkovga istig'for aytishga ham, marosimlarga ham yubormas, negaki grafning o'zi dahriy edi. Ruhoniylarni ko'rsa jini qo'zirdi. Bir gal hatto pasxa bayrami kuni borisogleblik xoch ko'targan ruhoniylarni tozilariga talatgan. *(Bu voqeani Oryolda ko'pchilik bilardi. Men buni Alfyozeva buvimdan va o'ta to'g'riso'zligi bilan nom chiqargan qariya – tujjor Ivan Androsovdan eshitganman. U «tozilar ruhoniylarni qanday tilka-pora qilganini» o'z ko'zi bilan ko'rgan, grafning zulmidan esa «gunohga botib»gina omon qolgan ekan. Kamenskiy uni qoshiga chorlab, «Ularga achinyapsanmi?» deb so'raganida qariya Androsov «Zarrachayam achinmayapman, janobi oliylari, qilmish – qidirmish: savoq yurgan tayoq yeydi», deydi. Shu bilan graf uni qo'yib yuboradi.)*

Lyubov Onisimovnaning aytishicha, graf o'taketgan ta'viya bo'lgan va badqovoqligidan vahshiy hayvonga o'xsharmish. Biroq Arkadiy ana shu hayvonturqni ham vaqtincha bo'lsa-da, odambashara qilib qo'ya olarkan: qarabsizki, kechqurunlari teatr lojasida basavlat-u o'ktam graf qad kerib o'tiribdi.

Aksiga olib, graf tabiatida aynan shu – savlatdorlig-u «harbiycha o'ktamlik» yetishmas ekan-da.

Xullas, xizmatidan boshqa biror kimsa bahramand bo'lmasin uchun Arkadiydek bebaho ustaning «umri to'rt devor ichida va qo'liga sariq chaqa tegmay o'tmoqda edi». O'sha kezlar u yigirma besh yoshlarda, Lyubov Onisimovna esa endigina o'n to'qqizga kirgan ekan. Tabiiyki, ular bir-birini tanirdi. Bu yoshda yigit bilan qiz o'rtasida nima sodir bo'lishi mumkin? Bular ham shunga muhtalo bo'ladi: bir-biriga ko'ngil qo'yadi.

Lekin bunday «zindon»da izhori dil qilish qayoqda deysiz: ikki sho'rpehona pardozi vaqti boshqalar ko'z o'ngida imo-ishora bilan bir-biriga muhabbat izhor qilardi.

Yuzma-yuz uchrashuv haqida-ku gap ham bo'lishi mumkin emas, buni hatto xayolga keltirib bo'lmasdi.

– Biz, aktrisalarni, – deydi Lyubov Onisimovna, – zodagonlar uyida enagalarni qanday tutsa, xuddi shunday saqlashardi; yoshi oʻtganroq ayollar bizga koʻz-quloq qilib qoʻyilgan edi. Ularning qaramogʻida bolalar ham bor edi. Xudo koʻrsatmasin, birontamiz oʻylamay shoʻxlik qilib qoʻysak, oʻsha bolalar yoppa talab – shoʻrimizni quritardi.

Maʼsumalik ahdini faqat «uning oʻzi» – yaʼni bu «ahdni taʼsis etgan vallahat» buzishi mumkin edi.

## 5

Lyubov Onisimovna oʻsha kezlar goʻzalligi bilangina emas, turfa qobiliyati bilan ham tanilib qolgan edi. Qiz «xor tarkibida popuri (bir necha qoʻshiqdan parcha) kuylardi», «birinchi marta «Chin bogʻboni»da raqs ham tushadi va oʻzi fojiani yoqtirgani uchun «hamma rollarni bir koʻrishdayoq» oʻzlashtirib olar edi.

Qaysi yili boʻlsa ekan – aniq bilmayman, Oryol shahriga podshoh (Aleksandr Pavlovichmi yoki Nikolay Pavlovich – bunisini ham aniq ayta olmayman) qoʻnib oʻtadigan va bir kun shaharda tunab qoladigan boʻladi. Oʻsha kuni kechqurun u graf Kamenskiy teatriga tashrif buyurishi kerak edi.

Graf shaharning kazo-kazolarini teatrga taklif qiladi va eng mashhur spektaklini qoʻydiradi. Oʻsha oqshom Lyubov Onisimovna popuri kuylashi va «Chin bogʻboni»da raqs tushishi lozim edi. Aksiga olib, soʻnggi mashq vaqti nogoh sahnadagi yon parda agʻdarilib ketib, pyesada gersoginya de Burblyan rolini ijro etadigan aktrisaning oyogʻi lat yeydi.

Men hozirga qadar biron joyda, biron marta bu nomdagi rolni uchratganim ham, eshitganim ham yoʻq, lekin enagamiz aynan shunday deb aytgani aniq esimda.

Yon pardani agʻdarib yuborgan duradgor ustalarga jazo tayinlanib, otxonaga joʻnatiladi. Oyogʻi shikastlangan aktrisani koʻtarib hujrasiga eltadilar. Biroq gersoginya de Burblyanni endi kim oʻynaydi deb hammaning boshi qotadi.

– Shunda, – dedi Lyubov Onisimovna, – men oʻynayman deb talabgor boʻlib chiqdim. Chunki gersoginya de Burblyanning padari



poyiga tiz cho'kib afv tilashi-yu sochlari parishon holda vafot etish sahnasi menga juda yoqardi. Eh, sochimni aytmaysanmi, malla sochlarim naq sharshara edi. Arkadiy uni shunaqa chiroyli turmaklardi-ki, ko'z uzolmay qolardi odam.

Graf qizginaning gersoginyani men o'ynayman deya kutilmagan tashabbus bilan chiqqanini eshitib juda mamnun bo'ladi va rejissordan «Lyuba tomoshani rasvo qilmaydi, rolni eplaydi» degan gapni eshitib:

– Tomosha barbod bo'lsa boshing ketadi, bilasan-a? Qizga esa mening nomimdan akvamarin – havorang toshli zirak tuhfa olib bor, – deydi.

«Havorang toshli zirak» teatrda ham faxrli, ham jirkanch tuhfa sanalarkan. Ya'ni uni olgan qiz qisqa bir fursatga hukmdor jazmani «maqom»iga ko'tarilar, zirak shuni anglatar ekan. Tuhfa berilgach tez orada, ba'zan o'sha zahoti Arkadiyga tomoshadan so'ng «mahkuma»ni «bokira Sitsiliya» qiyofasida ziynatlash buyurilarkan. Shunday qilib, ma'suma qiz oppoq libosda, boshida nafis gulchambar, qo'lida liliya bilan graf xobgohiga kuzatilarkan.

– Sen hali yoshsan, tushunmaysan, – deydi enagam, – men uchun bu o'lim hukmiddek gap edi. Chunki men Arkadiyni sevardim. Ko'zimdan yosh seldek quyilib keldi. Zirakni stol ustiga otdim-u yuzimni yostiqqa bosib o'kirib yig'ladim. Kechqurun rolni qanday ijro etaman, nima bo'ladi – mutlaqo qizig'i qolmagan edi menga.

## 6

Aynan shu mash'um soatda bundan-da mash'um va qaltis bir sinov Arkadiyning ham chekiga tushadi.

Podshohga ta'zim bajo aylash uchun qishloqdan grafning inisi keladi. Uka akadan-da tasqara, almisoqdan beri qishloqda yashab, na risoladagidek kiyinar, na soch-soqoliga qaychi-yu ustara tekkan edi. Chunki «yuzining sog' joyi yo'q: qavariq va g'udda bosgan» emish. Imkon tug'ilib qolganda uka u yoq-bu yog'iga qarab, odamga o'xshab kiyinib, asilzodalik talabi – «harbiycha salobatga ega bo'lish» payiga tushibdi-da.

Ammo bu oson yumush emas, satarosh-u pardozchi obdan «ter to'kish»i kerak edi.

– E-he, ilgarilari naq hayot-mamot masalasidek gap edi bu, hozir aysang birov ishonmaydi, – deydi enagam. – Har jihatdan mukammal ko‘rinish – bu oliytabaqalik belgisi sanalardi. Engil-boshingdan tortib soch turmaginggacha o‘sha talabga javob berishi lozim edi. Ammo bu hammaga ham birdek yarashavermasdi, ba‘zilarning epaqaga kelmaydigan tikkayma kokili urfga ko‘ra taralsa xuddi ivirsiq bir dehqonga o‘xshab qolardi. Oqsuyaklar shunisidan balodan qo‘rqqandek qo‘rqardi. Soqol kuzash-u soch tarashga ham mahorat kerak, mo‘ylov bilan bakenbard-chakkasoqol orasida qancha joy qoldirish, jingalak sochni qanday tarash – shu arzimasi ikir-chikirlarning o‘zidan odam chehrasi qanchalik o‘zgarib ketadi!

Enagamning aytishicha, harbiy maqomga ega bo‘lmagan zodagonlarga osonroq, chunki ularga unchalik e‘tibor qaratilmagan – faqat ozodagina kiyinsa bas, harbiylarga esa talab qat‘iy bo‘lgan – o‘zidan yuksak lavozimdagilar oldida siporoq, qolganlarga esa benihoya jasoratli ko‘rinishi lozim ekan.

Arkadiy hayratomuz san‘atkorlik bilan grafning haqir va ta‘viya yuziga ana shunday ko‘rk va nur bag‘ishlay olarkan.

## 7

Qishloqi graf shaharlikdan ham xunuk ekanini aytdik, buning ustiga, soch-soqoli patak bo‘lib ketgan va bundan yuzi battar qo‘pol ko‘rinardi. Buni o‘zi ham bilib turar, soch-soqolini oladigan sartaroshi yo‘q, tag‘in deng, o‘lgudek qurumsoq edi u. O‘zining sartaroshini Moskvaga pul ishlab kelgani jo‘natgan ekan. Uning yuzidagi katta-katta g‘urrallarni kesib olmay soqolini kuzash mashaqqatning o‘zginasi edi.

Xullas, u Oryolga keladi va shaharda necha sartarosh bo‘lsa, bari ni huzuriga chaqirtirib:

– Orangizda kim mening soch-soqolimni akam graf Kamenskiyga o‘xshatib kuzab-olib qo‘ysa, ikki oltin tanga bilan siylayman, – debdi. – Lekin stolga ikkita to‘pponcha ham qo‘ydim, ishni besh qilsang – tilla tangangni ol-da ketaver, agarda bitta husnbuzarni kesib yuborsang yoki chakkasoqolimni noto‘g‘ri kuzasang – shu zahoti peshonangdan darcha ochib qo‘yaman!

Stol ustida yotgan o'qlanmagan to'pponchalarni ko'rib, tabiiyki, sartarosh ustalarning kapalagi uchib ketadi.

Oryolda o'sha kezlar sartarosh deganlari barmoq bilan sanarli, bori ham ko'proq hammomlarda tog'ora ko'tarib yurar – odamlarga zuluk qo'yishdan ortmas ekan. Na did, na bir topqirlik bormish ular-da. Ahvoli o'ziga ma'lum bu ustalar graf Kamenskiyning «qiyofasini o'zgartirish»dan bosh tortibdi; «o'zingniyam, tillangniyam xudo ol-sin» degan bo'lishsa kerak-da.

– Biz, – debdi ular, – bu ishni uddalay olmaymiz, buning ustiga, sizdek ulug' zotga qo'l tekkizishga haddimiz sig'armidi! To'g'risi, ustalarimiz ham ishga yaramaydi – oddiy, rus ustarasi, sizning yu-zingizni faqat ingliz tig'ida qirtishlash mumkin. Bu ishni akangizning sartaroshi Arkadiygina eplaydi.

Graf shaharlik sartaroshlarni haydab solibdi, ular esa qutulganiga shukur qilib juftakni rostlabdi. Kichik graf akasi yoniga bosh egib borishga majbur bo'libdi.

– Xullas, aka, qoshingizga bir iltimos bilan keldim, kechga tomon Arkashangizni menikiga yuborsangiz. Yuz-boshimga bundoq qarab, kuzab-tarab qo'ysa, soqol oldirmaganimga ham necha zamonlar bo'lib ketdi. Bu yerlik sartaroshlarning hech ishga uquvi yo'q ekan, – debdi.

Graf ukasiga qarab turib:

– Aysang-aytmasang, bu yerlik sartaroshlar bir tiyinga qimmat, – debdi. – Men shaharda sartarosh zoti borligini ham bilmasdim. Chunki itlarimning yungini ham o'zimiznikilar qaychilaydi. Sening iltimosingga kelsak, mendan inkonsiz narsani so'rayapsan. Chunki toki ti-rik ekanman, Arkasha mendan boshqaning soch-soqoliga qo'l tekkiz-maydi deb o'zimga o'zim so'z berganman. Xo'sh, men qulim oldida aytgan so'zimdan qaytib lafzsiz bo'laymi?!

Uka ham bo'sh kelmadibdi:

– Nima qipti, o'zingiz aytdingiz – o'zingiz qaytdingiz. Biror kim-sa g'ing deya oladimi?

Aka taajjub degandek yelka qisibdi.

– Avvaliga shunday talab qo'yib, keyin sen aytgandek qilsam, – debdi u, – qo'l ostimdagilar oldida nima degan odam bo'laman? Arkashaga shunday qat'iy talab qo'yilganini hamma biladi, shu uchun uning turish-turmushi boshqalardan a'lo. Mabodo u biror kun haddi-

dan oshib, mendan boshqani «bezab-yasantirsa» – o‘lasi qilib savalab, askarga berib yuboraman.

Uka debdi:

– Ha endi, yoki o‘lasi qilib savalatasiz, yo askarga berasiz-da, ikkalasini baravar qilmaysiz-ku.

– Bo‘pti, – debdi graf yon berib, – sazung o‘lmasin: o‘lguncha emas, chalajon bo‘lguncha savalatib, keyin askarga berarman.

– Yigit so‘zingizmi bu? – debdi uka xursand bo‘lib.

– Yigit so‘zim!

– Demak, ish bitdi?

– Bitdi.

– Yashang! Men bo‘lsam, iningizning qo‘lingizdagi qarolchalik qadri yo‘qmikan deb qo‘rqvdim. Qarang, aka, so‘zingizdan qaytib qolmang – Arkashangizni kuchukchamning yungini olishga jo‘natasiz. U sochimni oladimi-yo‘qmi – u yog‘ini o‘zimga qo‘yib bering.

Yana yo‘q deyish noqulay bo‘lgani uchun, graf:

– Hay, mayli – debdi, – kuchukchangning yungini olishga yuboraqolganim bo‘lsin.

– Qoyil! Menga shu so‘zingiz kifoya!

Uka akaning qo‘lini siqib, uyiga jo‘nabdi.

## 8

Qish kuni, qosh qorayib, chiroqlar endi yoqilayotgan palla graf Arkadiyni chaqirtiribdi.

– Ukamnikiga borib kuchugining yungini olib qo‘yasan, – debdi.

– Boshqa topshiriqlar bo‘lmaydimi? – deb so‘rabdi Arkadiy ko‘ngli bir noxushlikni sezib.

– Shuning o‘zi, – debdi graf. – Ish bitgach darrov qayt – aktrisalarni tomoshaga tayyorlashing kerak. Lyubani bugun uch ko‘rinishda pardozlaysan. Spektakldan so‘ng uni «bokira Sitsiliya» qiyofasida xobgohimga olib kelasan.

Arkadiy gandiraklab ketibdi.

Graf:

– Nima bo‘ldi senga? – debdi.

Arkadiy:

– Afu eting, janob, gilamga to‘qinib ketdim, – debdi.

– Qara, yaxshilikkamikan ishqilib? – debdi graf qoshini chimirib.

Arkadiyning qalbida shunday bir g‘alayon bosh ko‘targan ediki, ayni choqda, yaxshilikkami bu yoki yomonlikka – uni mutlaqo qiziq-tirmasdi.

Meni Sitsiliya qiyofasida yasantirish haqida buyruq olgach, ko‘ziga hech nima ko‘rinmay, qulog‘iga biror gap kirmay asbob-uskunasi solingan charm qutini oladi-yu jo‘naydi.

## 9

Grafning inisinikiga borsa, toshoyna atrofi to‘la sham – charog‘on, unga tutash qo‘yilgan stolda ikkita to‘pponcha yotganmish. To‘pponcha yonida esa ikki tilla tanga emas, o‘n tilla tanga. To‘pponchalar avvalgidek o‘qsiz emas, cherkas o‘qi joylanganmish.

Kichik graf:

– Hech qanaqa kuchuk-puchugim yo‘q, mendan o‘ktam, salobatli bir janob yasang, ana, o‘n tilla seniki, biron yerimni kesib-netib olsang – o‘ldim deyaver, – debdi.

Arkadiy qarab turib-turibdi-da, shartta ishga kirishibdi. O‘sha choq u nimani o‘yladi – yolg‘iz xudoga ayon. Birpasda ishni graf aytgandan ham a‘lo bajarib, tillani cho‘ntagiga solibdi-da:

– Omon bo‘ling, – deb eshikka yo‘nalibdi.

– Yaxshi bor, – debdi kichik graf. – Lekin nega bilaturib boshingni xatarga qo‘yding, shuni aytib ket. Bunday jasoratni qaydan olding?

Arkadiy:

– Nega bunday qilganim, yuragimda ne borligi yolg‘iz O‘ziga ayon, – debdi.

– Balki o‘q tegmasin deb afsun qilingandirsan, to‘pponchadan ham qo‘rqmading?

– To‘pponchami? – debdi Arkadiy. – Xayolimga ham kelmabdi.

– Yo‘g‘-e? Nahotki sen grafingning gapi gap-u, meniki quruq safsata, u yer-bu yerini kesib olsam ham meni baribir otmaydi deb o‘ylagan bo‘lsang?

Arkadiy grafning nomini eshitib battar titrab ketadi va xuddi alah-sirayotgan odamdek:

Arkadiy Ilich bu ko'rgiliklarga giriftor bo'lmadi, chunki u hujramga kirishi bilan stolni dast ko'tarib deraza oynasini urib sindirdi. U yog'i nima bo'ldi-nima qo'ydi, eslay olmayman...

Oyog'im muzlab hushimga keldim. Qimirlatay desam, boshoyog'im bilan bo'rimi, ayiqmi po'stiniga o'ralgan ekanman – zim-ziyo, hech nimani ko'rmayman, uchqur uch ot qo'shilgan chana yelib borayotir, qayerga – bilmayman. Chana keng, oldimda ikkita odam tog'dek bo'lib o'tiribdi. Bittasi meni ushlab olgan, bu – Arkadiy Ilich, ikkinchisi bor kuchi bilan otlarni qamchilayapti... Otlar tuyog'idan chor tarafga qor sachraydi, chana muvozanatni ushlayolmay u yondan bu yonga qiyshayib-qiyshayib ketadi. Biz qoq o'rtada o'tirmasak, qo'llarimiz bilan chanaga yopishib olmasak tirik qolishimiz dargumon edi.

Ularning xavotirli gap-so'zlari elas-elas qulog'imga kiradi – faqat Arkadiyning «Choptir, bo'l, choptir!» deganini aniq eshitaman, xolos.

U hushimga kelganimni payqab, menga engashdi:

– Lyubajonim, azizam! Izimizdan kelishyapti... qo'lga tushsak, o'limga rozimisiz? – deb so'radi.

Men jon-jon deb roziman, dedim.

U Turkiyaning Xrushchuk (*Bolgariyadagi Ruse shahri, eski nomi Rushchuk*) shahriga yetib olamiz deb umid qilgan edi, o'sha kezlar ko'pgina do'stlarimiz Kamenskiydan qochib o'sha shaharga ketgandi.

Bir vaqt chanamiz muzlagan daryo ustida uchib keta boshladi, uzoqdan uymi-kulbami qorayib ko'rindi, itlar tinimsiz akillayotgani eshitildi; aravakash otlarga basma-bas qamchi urdi, shunda chana bir yonga ag'darilib ketdi, Arkasha ikkalamiz uchib tushib qorga botib qoldik, aravakash ham, otlar ham, chana ham bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Qo'rqmang, – dedi Arkadiy. – Hammasi rejadagidek, biz aravakashni, u bizni tanimaydi, shunga kelishilgan. Sizni olib qochish uchun uch tillaga yolladim, u yog'i o'zining ishi – jonini saqlash tashvishini o'zi qilsin. Biz ham peshonada borini ko'ramiz. Mana bu – Suxaya Orlitsa qishlog'i. Bu yerda bir mard ruhoniy yashaydi deyshadi. Bizga o'xshab noiloj qolganlarni nikohlab qo'yarmish. Teatrdan qochgan qancha do'stlarimizni shu odam yo'lga kuzatgan. Biz unga tuhfasini beramiz, kechgacha bizni yashirib, so'ng nikohimizni o'qib qo'yadi, kechasi aravakash yana keladi, keyin yo'lga chiqamiz.

Uy eshigini qoqib, dahlizga kirdik. Ruhoniyning o'zi eshik ochdi, pastbo'y, kemshik bir qariya. Bukchayib qolgan kampiri darrov o'choqqa o't yoqdi. Chol-kampirning oyog'iga o'zimizni otdik.

– Bizni qutqaringlar, isinib olaylik, kechgacha biror yerga yashirib turinglar.

– Sizlar kimsiz, chiroqlarim, o'g'rimi-to'g'rimi, shunchaki qochqinmi? – deb so'radi otaxon.

Arkadiy:

– Shu kungacha birovning haqiga xiyonat qilmadik, graf Kamenskiyning jabr-zulmidan qochib ketyapmiz, – dedi. – Turkiyaning Xrushchuk shahriga borib qo'nsak deymiz, qanchadan-qancha do'stlarimiz o'sha yerda. U yoqqa yetib olsak marra bizniki – izimizni birov topa olmaydi. Yonimizda pulimiz bor, shukur. Bir kecha tunagani bir tilla chervon, nikoh o'qib qo'ysangiz uch tilla chervon beramiz. Nikohlab qo'ya olmasangiz ham mayli, Xrushchukda uylana qolamiz.

– Yo'q, nega nikohlay olmas ekanman? Nikohlab qo'yaman. Xrushchukka borguncha cho'zib o'tirasizlarmi? Kel, hammasiga besh tilla chervon ber, shu yerning o'zida sizlarni nikohlab ham qo'yay, – dedi chol.

Arkadiy unga besh tilla chervon tutqazdi, men qulog'imdagi akvamarin zirakni shartta yechib kampirga uzatdim.

Ruhoniy:

– Eh, chiroqlarim-a, qanchasining nikohini o'qib qo'yganman, lekin grafga qaram ekaningiz durust emas-da. Men pop bo'lsam ham uning zulmidan qo'rqaman. Hay, mayli, xudoning buyurgani bo'ladi. Kesikmi-kemtikmi yana bir tilla qo'shinglar-da, yashirinib o'tiraqolinglar, – dedi.

Arkadiy unga bus-butun oltinchi tilla tangani uzatdi, shunda qariya kampiriga qarab:

– Hoy, kampir, nima qilib turibsan qaqqayib? Bu qochqin qizgiga biror ko'ylak-po'ylagingni bersang-chi, odamning ko'zi tushsa uyaladi – yalang'ochdek turibdi-ya, – dedi.

Keyin bizni cherkovga boshlab borib, o'sha yerda ruhoniylar kiyim-boshi solinadigan sandiqqa yashirmoqchi bo'ldi. Kampir meni

taxta to'siq ortiga o'tkazib, endigina ust-bosh bermoqchi bo'lib turuvdi hamki, eshik halqasi shiqirlagani eshitildi.

13

Arkadiy ikkalamizning yuragimiz shuv etib ketdi. Otaxon Arkadiyga shipshidi:

– Eh, chirog'im, cherkovdagi sandiqqa yashirinishga ulgurmay-sizlar chog'i, kel, tezroq shu parto'shak tagiga kirib olaqol.

Menga qarab:

– Sen esa, chirog'im, bu yoqqa kel, – dedi qo'l to'lg'ab.

Meni shartta shu yerda turgan kattakon qutiga joylab, ustimdan qulflab, kalitni cho'ntagiga soldi-da, eshikka yurdi. Shovqindan ko'pchilik kelganga o'xshardi, bir qanchasi eshik ortida turibdi, ikkitasi deraza oynasidan mo'ralamoqda. Yetti kishi kirdi uyga. Hammasi grafning ovchilaridan, qo'lida cho'qmori, qamchisi bor. Beliga arqon bog'lab olgan. Ular ortidan kirgan sakkizinchi odam – grafning bosh qaroli edi, egnida etagi yer supurib turgan bo'ripo'stin, yoqasini ko'tarib olgan.

Men yashiringan qutining old tomoni yarmigacha arralanib panjara o'rnatilgan va eski doka tutilgan edi. Shu yerdan tashqari ko'rinib turardi.

Ruhoniy chol ish pachava ekanini anglab qo'rqib ketdimi, bosh qarol oldida dag'-dag' titrab tinmay cho'qina boshladi. So'ng shang'illab qolsa deng:

– Oh, mening chiroqlarim, chiroqlarim-a! Bilaman, nima izlayotganingizni bilaman, biroq shavkatli grafimiz oldida mening aybim yo'q, xudo haqqi, gunohkor emasman men!

O'zi esa cho'qina turib chap yelkasi osha men yashiringan qutiga ishora qilyapti.

«Tamom bo'ldim», deb o'yladim.

Bosh qarol ham buni ko'rib:

– Biz bilamiz hammasini. Mana bu qutining kalitini ber-chi, qani! – dedi.

Pop yana qo'l silkib:

– Oh, ko'zimning nuri, chiroqlarim mening! Aybga buyurmanglar: xudo haqqi, kalitni qayerga qo'yganim esimda yo'q, xudo haqqi, – dedi.



O‘zi bo‘lsa ikkinchi qo‘li bilan cho‘ntak ustini silab ko‘rsatmoqda. Bosh qarol buni ham payqadi va uning cho‘ntagidan kalitni olib, qutini ochdi.

– Buyuring, go‘zalim – dedi menga, – shunqoringiz ham hozir o‘zi chiqib keladi.

Arkasha, rostdan ham, yopinib olgan parto‘shakni irg‘itib tashlab, yashiringan joyidan chiqdi.

– Taslimman, – dedi u. – Sizlar g‘olibsiz. Meni qiynaysizmi-azoblaysizmi – olib boringlar, biroq qizga tegmang, uning aybi yo‘q, uni men o‘g‘irlab ketdim.

Keyin ruhoniya o‘girilib, uning aftiga tupurib yubordi, lekin lom-mim demadi.

Chol esa qarolboshiga arzi dod qila ketdi:

– Chirog‘im, qarang, mening rutbam va sadoqatim qanday oyoqosti qilinayotir! Shavkatli grafimizga buni ham dalolat etgaysiz.

Qarolboshi unga tasalli berib:

– Aslo xavotir olmang, bariga kallasi bilan javob beradi bu hali! – dedi-da, Arkadiy ikkimizni olib ketishni buyurdi.

Uchta chana yo‘lga tushdi; oldinda qo‘l-oyog‘i bog‘langan Arkadiy ovchilar bilan, men ham shunaqa qo‘riqchilar bilan uchinchi chana, qolganlar o‘rtadagi chanaga o‘tirdi.

Keta-ketguncha oldimizdan chiqqan olomon chetga surinib yo‘l ochadi – to‘y chanasi, kelin olib kelishyapti, deb o‘ylashdi chog‘i.

## 14

Ko‘z ochib yumguncha graf qo‘rg‘oniga yetdik. Lekin men Arkadiyni olib kelgan chanani qaytib ko‘rmadim. Meni hujramga qamashdi va qayta-qayta savol-so‘roqqa olib chiqishdi. Topib olgan savoli: «Arkadiy bilan qancha vaqt yolg‘iz qolding?» Men ham «Hech qancha vaqt yolg‘iz qolmadik!» deyishdan charchamadim.

Suyganim emas, nafratlanganim bilan birga bo‘lish peshonamda borgan o‘xshaydi, nachora, taqdirdan qochib qayga borardim? Hujramga kirdim-u o‘zimni to‘shakka otdim – o‘krab yubordim. Shunda pastki qavatdan dahshatli oh-vohlar qulog‘imga chalindi.



Biz, qizlar yog'och imoratning ikkinchi qavatida yashardik, tagimizda esa baland, kattakon xona bo'lib, u yerda qo'shiq aytish va raqs tushishni mashq qilar edik. Xullas, u yerdan tepaga – bizga har qanday ovoz eshitalardi. Anavi «do'zaxiy shoh – iblis graf» Arkashani atay mening yotog'im tagida qiynashni zolim-qonxo'rlariga buyurgan...

Uni azoblashayotganini anglaganim hamono o'zimni eshikka urdim – sevgilimning qoshiga uchib bormoqchi edim – ustimdan qulflashgan ekan. Nima qilmoqchi bo'ldim, bilmayman, polga yiqildim – oh-vohlar baralla eshutilmoqda edi. O'zimni o'ldiray desam na pichoq, na mix bor xonada. Shunda sochimni bo'ynimga o'rab-o'rab o'zimni bo'g'a boshladim. Endi faqat qulog'im shang'illar, ko'z o'ngimda halqalar aylanar edi, u yog'i esimda yo'q...

Begona bir joyda hushimga keldim – kattakon yorug' bir kulba. Buzoqchalar bor edi bu yerda – juda ko'p, o'ndan ziyod, chamamda – shunaqangi chiroyli, shunaqangi yoqimtoyki! Kelib muzdek tili bilan qo'lingizni yalaydi – onasini emyapman deb o'ylaydi shekilli. Aslida shundan uyg'ondim-ov – qitig'im keldi-da. Atrofga alanglayman: qayerda yotibman o'zi? Shu choq kulbaga keksa bir ayol kirdi, baland bo'yli, ola-chipor kiyim kiygan, boshini ham yap-yangi olachipor ro'mol bilan tang'ib olgan. Yuzidan muloyimgina ekani ko'rinib turibdi.

Hushimga kelganimni ko'rib ayol boshimni silab erkalagan bo'ldi va men haliyam graf qo'rg'onida – unga qarashli molxonada ekanimni aytdi. «Bu huv anavi yerda edi», deya qo'li bilan vayron bo'lib yotgan kulrang devorning bir burchagiga ishora qildi enagam.

## 15

Enagamizni aqldan ozmadimikan deya shubha qilib molxonaga yuborishgan ekan. Shunday ahvolga tushganlarni atay og'ilga jo'natib sinab ko'risharkan. Chunki dasht odami bo'lgan molboqarlar tajribali keladi, ular ruhiy xastalarni «ajrata oladi» deb hisoblangan ekan-da.

Lyubov Onisimovna o'ziga kelganda yoniga kirgan ola-bula kiyimli mehribon kampirning ismi Drosida ekan.

– U kechga tomon hammayoqni saranjomlab bo'lgach, yangi sulipoyadan menga to'shak to'shadi. Shunday qalin qilib to'shadiki,

naqd parto'shak deysiz. Keyin «Men senga, qizginam, hamma gapni aytaman. Birov-yarimga fosh qilib qo'ysang ham mayli, bo'lganicha bo'lar. Men ham bir zamonlar senga o'xshagan navnihol qiz edim. Umr bo'yi shu ro'dapo olachiporga o'ranib yurmaganman. Men ham boshqacha hayotni ko'rganman, eh, u kunlarni eslashdan xudo asrasin. Qulog'ingga quyib ol, qiz: molxonaga badarg'a bo'ldim deb kuyinma – shunisiga-da shukur qil. Faqat mana bu zormandadan hazir bo'l, og'zinga ola ko'rma...».

U ko'ylagi yoqasiga qo'l solib, mo'jazzgina oq idish chiqarib ko'rsatdi.

«Nima bu?» deb so'radim.

«Zormandaning idishi shu-da, dard-hasratni unuttiradigan og'u solib yuraman bunga», dedi kampir.

«Bering shuningizni: men ham ichib unutayin», deyman.

«Sen ichma, bu – araql. Mana, men bir marta o'zimni qo'lga ololmay ichganman, yaxshi odamlar tutgan edi-da. Endi bundan yutib turmasam bo'lmaydi. Sen bunga o'rganma... Birgina ho'playin – meni aybsitma, qizim, ichim kuyib ketyapti. Sening hali hayotdan umiding bor; chunki sevgilingni xudo azoblardan forig' etdi!»

«O'ldimi?!» deya dodlab sochimni changalladim, qarasam, soch o'zirniki emas – oppoq... Bu nimasi!

«Qo'rqma, qizaloq, qo'rqma. Soching o'shanda – bo'yingndan o'rim kokilingni arang yechib olishgandayoq oqarib ketgan edi. Sevgiling esa hayot, zulmlardan omon qoldi: graf unga shunday marhamat ko'rsatdi – hali biron tirik jon undan bunday shafqat ko'rmagan. Oqshom cho'ksin, senga barini gapirib beraman. Endi yana bir ho'play. Ho'plamasam bo'lmaydi-da, yurak-bag'rim yonib ketyapti», dedi u idishchasini ko'tarib.

«Zormanda»sidan ho'play-ho'play kampir uxlab qoldi.

Kechasi, hammayoq suv quygandek sokin bo'lgan kez Drosida xola sekin o'rnidan turib, sham yoqmay darcha yoniga bordi, qarasam, tik turgancha idishchasidan ho'pladi va qo'yniga yashirdi.

«G'amzada uxlayaptimi yoki uyg'oqmi?» dedi shivirlab.

«G'amzada uyg'oq», dedim men.

U boshimga kelib o'tirdi va graf Arkadiyni qiynoq-azobdan so'ng huzuriga chorlab, «Sen men avvalboshda tayinlagan jazoni o'tashing

kerak edi, lekin arzandam bo'lganing uchun shafqat qildim: ertaga seni emingina askarlikka berib yuboraman. Ammo ukamdan – kim-san graf, qo'lida to'pponcha tutgan zodagondan qo'rqmaganing uchun senga yana bir imkon beraman – sha'ningni saqla, mardligingni amalda ko'rsat! Seni hozirning o'zida qaynoq jang maydoniga jo'natishlarini so'rab maktub yozaman – oddiy askar emas, polk serjanti o'laroq jasoratingni namoyish etasan shunda. Ana undan keyin sen mening emas, podshohimiz izmida bo'lasan», deganini aytib berdi.

«Unga, – dedi olachiporga burkangan kampir, – endi oson va qo'rqadigan joyi yo'q: o'lsa, bir zodagon qo'lida emas, urushda mardlarcha halok bo'ladi».

Men bu gaplarga laqqa ishondim va uch yil mobaynida har oqshom Arkadiy Ilichning jang qilayotganini tush ko'rdim.

Uch yil shu tarzda kechdi. Bu yillar xudo menga rahm qildi: teatrga qayta olishmadi, molxonada Drosida xolaga yordamchi bo'lib qolaverdim. Bu yerda ko'nglim xotirjam edi. Men u ayolga achinardim. Ba'zan kechalari uncha sarxush bo'lmaganida uning hikoyalarini maza qilib tinglardim. U grafning otasini gumashtalari, qarolboshisining o'zi qanday chavaqlab tashlaganini, chunki uning zulmiga qo'l ostidagilar ortiq toqat qilolmay qolganini ham hikoya qilib berdi. Men u vaqtlar hali ichkilikka o'rganmagan edim, Drosida xolaning o'rniga jon deb og'ilda kuymalanardim: buzoqchalar men uchun go'dak boladek gap edi. Buzoqlarga sut berib, parvarishlab katta qilgach, ularga shunaqa o'rganib qolasanki, so'yishga olib ketilayotganda tuyoqlarini chalishtirib bog'lab berasan-u, ortidan uch kun yig'laysan, o'zingga kelolmay qiynalasan. Teatr ishiga men endi yaramas edim, chunki oyog'im qaltiraydigan bo'lib qolgan, oqsabroq yurardim. Ilgari juda chaqqon, yengil qadam tashlardim, Arkadiy Ilich meni behush holda qirchillama ayozda olib ketganida, aftidan, oyog'imni sovuqqa oldirib qo'ygandim. Shu sabab bu oyoqni ko'tarib raqs tusholmasdim. Men xuddi Drosidaga o'xshab ola-bula ayolga aylangan edim. Bilmadim, bunday umidsiz ahvolda yana qancha yashardim, ammo bir kuni shom kirar chog'i kulbamda ip yigirib o'tirsam, derazadan qog'ozga o'ralgan bir tosh oldimga kelib tushdi.

U yoq-bu yoqqa alangladim, oynadan bosh chiqarib qaradim – hech kim yo‘q.

«Ehtimol, kimdir devor ortidan otgan-u, mo‘ljaldan adashgan bo‘lsa kerak», deb o‘yladim. O‘zimcha, ochsammi-ochmasammi deb bosh qotirdim rosa. Yaxshisi, ocha qolay, chunki nimadir yozilgan, bunisi aniq. Balki zarur gapdir, o‘qisam ma’lum bo‘ladi-da. Sirni yuragimga ko‘maman-u tosh o‘ralgan xatni sekingina bir yoqqa tashlab qo‘yaman.

Ochib o‘qiyapman-u, ko‘zlarimga ishonmayman...

Xat shunday boshlanardi: *«Vafodorim Lyuba! Jangga kirdim, podshohga xizmat qildim, necha marta qon to‘kdim, buning evaziga zobitlik unvoni va ulug‘vor rutbaga loyiq ko‘rildim. Hozir menga davolanish uchun ta‘til berilgan. Pushkar qishlog‘ida karvonsaroyga qo‘ndim. Ertaga bor nishonimni ko‘ksimga taqib graf huzuriga boraman. Sizni ozod qilishga ko‘ndiraman: davolanishga berilgan bor-yo‘q pulim – besh yuz rublni taqdim etib uning qo‘lidan qutqarib olaman. Ana shunda Yaratgan qoshida nikoh o‘qitamiz deb umid qilaman».*

– Keyin esa, – deydi Lyubov Onisimovna, odatdagidek tushkun kayfiyatda, – bunday deb yozgan: *«Boshingizga neki kelgan, ne kunlarni ko‘rgan bo‘lsangiz, men bunga o‘zingiz yoki irodangiz bo‘shligi sabab deb emas, aksincha, xudo manglayingizga yozgan qismat deb qarayman. Sizga hamon cheksiz hurmat va muhabbat ila*

*Arkadiy Ilich»* deb imzo chekibdi.

Lyubov Onisimovna xatni shu zahoti o‘choqqa tiqib yoqib yuboradi. Bu haqda birovga lom-mim demaydi, hatto «olachipor» kampirga ham. Tuni bilan xudoga iltijo qilib chiqadi: o‘ziga hech nima so‘ramaydi, faqat sevgilisining duoi jonini qiladi. U endi unvondor-u nishondor, boz yana yaralangan zobit ekanini yozgan bo‘lsa ham, graf unga ilgarigidan boshqacha munosabatda bo‘lishiga uncha ko‘zim

yetmas edi, deydi enagam. «To'g'risini aytsam, uni yana kaltaklab jazolashadi deb qo'rqardim».

18

Ertasiga ertalab Lyubov Onisimovna buzoqlarni oftobga olib chiqib tog'orachadan sut ichira boshlagan mahal devor orti – katta ko'chadan allanechuk g'ala-g'ovur eshitaladi. Odamlar shovqin-suron solib qaygadir shoshilmoqda edi.

– Ularning biror so'zini aniq eshitmadim-u, – deydi enagam, – biroq negadir bu olag'ovurdan yuragim shuv etib ketdi. Shu vaqt darvozadan go'ng tashiydigan Filipp ko'rindi, «Filyajon otaxon! Bu odamlar kim? Qayga shoshmoqda? Buncha bezovtalik sababi nima ekan, bilmaysizmi?» deb uni ketma-ket savolga tutdim.

«Ha, bularmi – dedi u, – Pushkar qishlog'ida karvonsaroy egasi tunda uxlab yotgan bir zobitni so'yib qo'yibdi, o'shani ko'rgani ketishyapti. Bo'g'izlab tashlab, cho'ntagidan besh yuz rubl pulini olibdi. Tutishibdi u qotilni, usti-boshi qop-qora qon ekan, pul ham yonida emish».

Uning gapini eshitib-eshitmay shilq etib yiqildim...

Rostdan ham o'sha karvonsaroy egasi Arkadiy Ilichni so'yib qo'yibdi... Uni mana shu qabrga ko'mishdi. U hozir mana shu yerda, qora tuproq ostida yotibdi... Sen nega enagamiz bizni doim bu yerga olib keladi deb o'ylasang kerak. Men u yoqni tomosha qilgani emas, – deya u tashlandiq, tund vayronaga ishora qildi, – mana bu yerda – uning boshida o'tirib, haqqiga ikki kalima duo o'qib ketsam deb kelaman.

19

Lyubov Onisimovna hikoyasini tamomlab, cho'ntagidan shisha-chi qiqardi va sartaroshi haqqiga duo o'qib, bir ho'pladi. Men undan:

– O'sha mashhur sartaroshni bu yerga kim dafn qilgan? – deb so'radim.

– Hokim, azizim, hokimning o'zi marosimga keldi. Kelmay bo'ladimi? Kimsan – zobit! Ibadat mahali ruhoniya ham, otaxon ham

uni «boyon Arkadiy» deb atadi. Tobutni qabrga tushirishlari bilan askarlar multiqlaridan osmonga qarata o'q uzishdi. Karvonsaroy egasi bir yildan so'ng jazolandi: Ilinka maydonida jallod uni qamchiladi. Arkadiy Ilichning joniga qasd qilgani uchun qotilga qirq uch darra tayinlangan edi, lekin u tirik qoldi, surgunga – og'ir mehnatga jo'natildi. Jazoni ko'rishga borgan bizning odamlar va bir vaqtlar grafimizning otasini o'ldirgan qarolboshiga berilgan jazoni eslaydigan qariyalarning aytishicha, qirq uch darra juda kam emish – Arkasha oddiy xalqdan bo'lgani uchun uning qotiliga shunday arzimas jazo tayinlanibdi. Grafning otasini chavaqlagan qarolboshiga esa bir yuz bir qamchi tayinlangan ekan. Qonunga ko'ra, jazo juft emas, toq zarba bilan yakunlanadi. O'shanda atay tulalik jallod olib kelingan va maydonga chiqish oldidan unga uch qadah rom ichirilgan ekan. Yuzinchi darrani urganda ham grafning qotili tirik ekan, jallod yuz birinchi darrani shunday kuch bilan tushiribdiki, qarolboshining umurtqa suyaklari parcha-parcha bo'lib ketibdi. Uni yotgan taxtasidan ko'tarib olganlarida joni bo'g'zida ekan. Ustiga chipta to'shak yopib qamoqxonaga eltishayotgandagina yo'lda jon taslim qilibdi. Tulalik jallod esa quturgan hayvondek tinmay o'kirarmish: «Qani, yana kimni qamchilash kerak – orlovliklarni bitta qo'ymay qirib tashlayman!».

– Siz-chi, – deb so'rayman, – dafn marosimiga bordingizmi?

– Bordim. El qatori, graf teatr ishchilarining barini olib boringlar deb buyruq bergan ekan: bizdan chiqqan odam harbiy xizmatda nimalarga erishganini ko'rib qo'yishsin degan-da.

– Vidolasha oldingizmi?

– Albatta, boshqalar qatori boshiga bordim, rozi-rizolik aytdim. Avvalgi Arkashadan asar ham qolmagan, boshqa joyda ko'rsam tanimas edim. Ozib-to'zib ketgan, allaqanday rangpar – aytishlaricha, rosa qon ketgan, chunki yarim tundayoq bo'g'izlab tashlangan ekan... Xudo bilsin, qancha vaqt qoniga g'arq bo'lib yotdi ekan sho'rlik.

Enagam birdan jim bo'lib, o'yga cho'mib qoldi.

– Siz, – deyman, – o'zingiz bu ko'rgiliklarga qanday bardosh qildingiz?

U xuddi uyqudan uyg'ongandek ko'zini ochdi va peshonasini silab qo'ydi.

– Uyga qanday kelganimni eslay olmayman. Hamma qatori kelgandirman-da, kimdir suyab olgan bo‘lsa kerak. Kechga tomon esa Drosida Petrovna «Bunaqasi yaramaydi, qizgina, toshdek qotib yotasan-u, bir lahza ko‘z yummayсан. Undan ko‘ra yig‘la, ko‘ngling bo‘shaydi, ichingdagi dard chiqadi», dedi.

«Yig‘olmayapman, ko‘zimda zarracha yosh yo‘q, xolajon, yuragim yonyapti», dedim men.

«Ha, endi mana bu idishsiz bu darddan xalos bo‘la olmayсан», dedi u.

Menga shishasidan quyib berdi-da, «O‘zim senga ichma deb qo‘ymasdim, endi qarasam boshqa ilojimiz yo‘q – ma, ol, ho‘plagin-da, ichingda tutab yotgan cho‘g‘ni o‘chir», dedi.

«Ichgim kelmayapti», dedim men.

«E, ahmoq qiz, – dedi u, – boshda shunday – ichging kelmaydi. Axir, bu dard achchiq, mana bu zahriqotil esa undan-da achchiq, yurakdagi o‘tni shu bilan o‘chirasan – bir lahza bo‘lsin unutasan. Ich, ichaqol!»

Bir ko‘tarishda qadahni bo‘shatdim. Yoqimsiz narsa ekan, lekin shuni ichgachgina ko‘zim ilindi – uxladim. Ertasi ham ichdim, indini ham... Endi esa shusiz ko‘zim ilinmaydi. Keyin-keyin men ham yonimga idishcha solib yuradigan, may sotib oladigan bo‘ldim. Sen, o‘g‘lim, buni oyingga aytma, oddiy odamlarni hech qachon sotma. Chunki ularni himoya qilish kerak, axir, bu sho‘ring qurg‘urlarning boshi hech g‘am-tashvishdan chiqmaydi-ku... Uyga qaytishda men yana qovoqxonada darchasini chertaman. Ichkariga kirmaymiz, darchadan bo‘sh shishamni uzataman. Ular menga yangisini beradi.

Men qattiq ta’sirlangan edim va enagamga hech qachon «shishacha»si haqida birovga lom-mim deb og‘iz ochmaslikka so‘z berdim.

– Omon bo‘l, jonim bolam, shunday qilsang menga yaxshilik qilgan bo‘lasan.

Uning g‘amgin qiyofasi hozir ham ko‘z o‘ngimda, gaplari qulog‘imda jaranglab turibdi. Har kecha uyda hamma uxlagach, u sekin o‘rnidan turardi va sovuqqa oldirgan oyog‘ini sassiz bosib deraza yoniga borardi... Oyimni yotoqdan chiqib kelmayap-



timikan deya bir zum quloq solib turardi-da, keyin «zormandali shishachasi»ning qopqog'ini tishlab ochib, ho'plar edi. Arkashasini xotirlab bir, ikki, uch ho'plardi... yurak cho'g'ini o'chirardi-da, to'shagiga qaytardi. Ko'rpasini yopinar-yopinmas «xur-xur» qilib uxlab qolardi.

Men umrim bino bo'lib bundan-da qayg'uli, yurakni ezib yuboradigan yodlovni qayta eshitmadim.

*Shohsanam SOPIYEVA tarjimasi*





## RUH AZOBI

### O'smirlik xotiralaridan

Mening tarbiyamda bevosita ishtirok etgan odamlar orasida novcha va qotmadan kelgan, Echki laqabli nemis Ivan Yakovlevich ham bo'lgan. Uning haqiqiy familiyasini bilmayman – u aft-angoridan echkini yodga solar, biz uni orqavarotdan Echki deb chaqirardik.

Ushbu voqea Oryol guberniyasida yashaydigan boy qarindoshlarining uyida sodir bo'lgan. Meni shahardagi maktabga bergunlariga qadar men ularnikida voyaga yetib ta'lim-tarbiya olganman. Bu qishloqda bir nechta o'qituvchi istiqomat qilardi: rus – Ivan Stepanovich Ptitsin rafiqasi bilan, ular fligel<sup>1</sup>da yashashardi va fransuz – msye Lyui, u ham rafiqasi va biz bilan birga tahsil oluvchi o'g'li Alvin bilan shu qishloqqa kelib o'rtnashgandi. Ular ham o'ziga xos fligelda yashashgan, shuningdek yana bir nemis, yolg'iz, ko'pincha mast yuradigan va urushqoq bo'lgan Kolberg ham bor edi. U xizmatkori bilan shu qadar ko'p janjallashardiki, oxiri amakisini bezor qildi va kutilmaganda u bilan hisob-kitob qilishib ishidan bo'shatib yuborishdi: shunda uning o'rniga bundan oldin shu qishloqdagi boshqa pomeshchiklarning uylarida yashab kelgan, biroq hech kimnikida uzoq ushlanib qolmagan Echki ishga olindi. Uni juda ham beozor va quvnoq, lekin o'ziga xos «fantaziya»ga ega odam deb aytishardi. Uni biz bilan yashashi va bizga nemis tilini o'rgatishi, ammo hech qanaqa fantaziyalarini ko'rsatmasligi sharti bilan ishga olishdi.

U o'ziga yuklatilgan yumushlarni bajarishga kirishdi va vazifasini uch oy davomida sidqidildan ado etdi, ammo keyin dabdurustdan sabri tugadi va shunday fantaziyani ko'rsatdiki, go'yoki hech qanaqa qat'iy va'da bermagandek edi.

---

<sup>1</sup> *Fligel* – asosiy uyning yoniga qurilgan bino.

Bir safar gubernatorning xotini yozda o'zining dala hovlisiga ketayotib o'n bir yoshlardagi, juda ham taltaygan va quloqsiz o'g'li bilan yo'l-yo'lakay amakisinikiga kirib o'tishga qaror qilishdi. Biz mevali bog'ga yo'l oldik va u yerda erkatoiy o'g'il har bir donasi amaking sanog'ida bo'lgan noyob olxo'ri daraxtidagi mevalarni uzib yedi. Biz uning bu qilmishidan qo'rqib ketdik va amakimga hech narsani aytmalik haqida qasam ichdik. Kechqurun amakim bog'ga kirdi va daraxtdagi olxo'rilarining bir nechtasi uzilganini ko'rdi. U g'azab otiga minib, bog'bonning o'g'li Kostyani chaqirdi va undan olxo'rini kim uzganligini so'radi. Kostya bo'lib o'tgan voqeadan mutlaqo bexabar edi va barcha shubha-gumon unga ag'darildi. Uni bu qilmishi uchun kaltaklashni buyurishdi, u esa qo'rqib ketdi va go'yoki chindan ham olxo'rilarni yeb qo'yganligini tan oldi. Shunga qaramay uni baribir kaltaklashdi. Biz esa olxo'rilarni kim uzganini bilardik, biroq qasamimizni buzmaslik va mehmonimizni xijolatda qoldirmaslik uchun unga haqiqatni aytmadik, lekin kechga borib ba'zilarimizning vijdonimiz azoblana boshladi va uxlashga tayyorgarlik ko'rayotganimizda men chidab turolmadim, Ivan Yakovlevichga Kostyani behuda jazolaganini, u o'g'ri emasligini, o'g'ri aslida kimligini, biz esa haqiqatni yashirish uchun qasam ichganimizni aytdim.

Ivan Yakovlevichning rangi quv o'chdi va baqirib yubordi:

– Qanaqa qasam?! Qanday qilib qasam ichishga haddingiz sig'di? Sizlar xristiansizlar-ku! Kim sizlarga qasam ichishga ruxsat berdi? Ko'ryapsizmi, bundan qancha yomonlik kelib chiqqanini, endi men sizlarni tark etaman.

Biz yanada qattiq tashvishga tushdik va undan iltimos qilib ko'ndira boshladik, lekin u:

– Yo'q, men ketaman, men albatta ketaman va shunchaki ketmayman, balki meni haydashadi, shunday bo'lgani ma'qul... Bu yaxshilikka bo'ladi, – dedi.

U bu so'zlarni tinmay takrorlardi, o'zi esa ko'z yoshi to'kardi va birdan derazaning oynasiga peshanasini qo'yib, uh tortdi-yu xonadan yugurib chiqib ketdi.

Uning qayoqqa va nima uchun yugurib ketganini bila olmadik, qaytib kelishini kutdik, lekin kuta-kuta uxlab qoldik; ertasi kuni qari-

qiz Vasilisa Matveyevna bizga yangi choyshab olib kelganida esa biz Ivan Yakovlevich qaytib kelishga shoshilmayotgani, boisi u aqldan ozgani haqida xabar topdik.

– E xudo!.. – Biz angrayib qoldik... – Sho‘rlik, mehribon Ivan Yakovlevich aqldan ozibdi!.. Hammasiga biz aybdormiz. Biroq u nima qildi ekan?

– U janoblar davrasida g‘ayriinsoniy qiyofada paydo bo‘ldi va fantaziya qo‘l urdi, unga buning uchun rad javobi berildi.

Fantaziya shundan iborat ediki, bizning qo‘sh yomonligimizdan hayajonlangan Echki pastga, mehmonxonaga tushib, «yuzida g‘ayriinsoniylik alomatlarini aks ettirib», gubernatorning oldiga yaqinlashib, unga mutlaqo bamaylixotir «g‘ayriinsoniy ovoz» bilan:

– O‘g‘lingizning yuragi qora ekan: u shunday ishga qo‘l urdiki, buning uchun bir bechora bolakayni kaltaklashdi va aybni o‘z bo‘yniga olishga majbur qilishdi... Sizning badbaxt o‘g‘lingiz bunga toqat qilib qarab turdi, buning ustiga boshqalarni qasam ichishga majbur qildi, bunga esa dinimizda hech kimga va hech qachon ruxsat berilmagan. Men sizning nodon, johil o‘g‘lingizga achinaman. Unga ko‘zlarini ochishga, yorug‘likni ko‘rishga va yaxshi yo‘lga kirishiga yordam bering, aks holda u nafsini tiymaydigan va boshqalarni ham egri yo‘lga boshlaydigan esi past odam bo‘lib voyaga yetadi, – dedi.

Gubernatorning xotini behuzur bo‘ldi va jazavaga tushdi.

Ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan sahnadan qattiq g‘azablangan amaki Echkini eshikdan turtib-surtib chiqarib yubordi va uni hoziroq idoraga qamab qo‘yishlarini buyurdi, so‘ng bugunoq dehqonlar aravasida Oryolga jo‘natib yuborish tayinlandi.

Unga rahmimiz kelib:

- Nima uchun dehqonlar aravasida ketarkan? – deya qiziqdik.
- Bo‘lmasa nimada ketishi kerak? – javob qildi Vasilisa.
- Pochta tashuvchi aravada ham olib ketishsa bo‘ladi-ku.
- Yana nima! Unday aravada popni muqaddas suvni kuylashga olib borishadi... Tentak nemisni esa ruhoniy bilan birdek ulug‘lash to‘g‘rimi? Ruhoniy gunohlarimizni afv etishni so‘rab mehrobda Yaratganga sig‘inadi, nemisni bo‘lsa ot-aravada emas, go‘ng aravada olib ketishsa ham arziydi.

– Nima uchun uni bu qadar yoqtirmaysiz?  
– Tentak va yolgʻonchi boʻlgani uchun.  
– U hech qachon yolgʻon soʻzlamagan, aksincha, doim haqiqatni gapiradi.

– Aynan shunisi joiz emas-da! Uning haqiqati kimga kerak? Haqiqat ham yaxshiku-ya, lekin har doim va hammaga aytilgani emas. Oʻzi uchun haqiqatgoʻy boʻlsin, lekin oʻzining qoidasi bilan begona joyga suqilmasin. Bizning qoidalimiz ularnikidan-da boyroq: bordi-yu biz yolgʻon soʻzlasak, qancha kerak boʻlsa, shuncha istigʻfor keltirib gunohlarimizni yuvib olishimiz mumkin: bizda avliyolar ham bor, jafokashlar ham, Praskoveylar ham boʻlgan. Ularning bizga tumshuqlarini suqishlari hech lozim emas. Shu boisdan unga Xudo qayerda-yu boʻsagʻa qayerda ekanligini koʻrsatib qoʻyishdi.

– Uni qanday qilib koʻrsatishadi?

– Xudo qayerda ekanliginimi?

– Ha.

– Odamni yuzini eshik tomonga qaratib qoʻyishadi va ketidan tepishadi, u esa darvoza tagidan lip etib uchib chiqib ketadi.

– Bu, sizningcha, odamga «Xudoning qayerda» ekanligini koʻrsatishmi?

– Ha. Daf boʻl degani, bori shu!

– Bundan chiqdi, unga ham «Xudoning qayerdaligini» shu tarzda koʻrsatishgan ekan-da?

– Xoʻsh, har holda u «Xudo qayerdaligini» koʻrib qoʻydi.

– Demak, u Xudoni koʻradi va... ehtimol, uni haydab yuborganlaridan xursand boʻladi.

– Qanday maʼqul boʻlsa, shunday xursand boʻlaversin: unga shafqat qilib oʻtirmaymiz.

Men Ivan Yakovlevichga juda achindim, fransuz Lyuining oʻgʻli kichkintoy Alvinning esa unga hammadan koʻproq rahmi keldi. U yuzida duv-duv yosh bilan xonamizga kirib keldi va birga dehqonlarning dalasi orqali qishloq toʻsigʻidan tashqariga chiqib, u yerda Ivan Yakovlevichni aravada olib ketgunlariga qadar bedazorda yashirib olishimizni taklif qildi. Biz aynan shunday qildik – yugurib borib berkinib oldik, biroq arava hadeganda kelmasdi. Maʼlum boʻlishicha, Ivan Yakovlevich uni olib borish tayinlangan dehqonga rahm qilib,

uni bunday majburiyatdan xalos qilgan, o'zi esa piyoda ketgan. Uning egnida yashil frak va kulrang mantilya<sup>1</sup>, qo'lida esa juda ham kichkina o'ram hamda ko'k rangli soyaboñ bo'lgan. Echki nafaqat xotirjam, balki o'ziga xos tantana bilan odimlab borardi, yuzida esa hattoki xursandchilik va mamnuniyat alomatlari aks etgandi. U bizni ko'rib to'xtadi va xitob qilib yubordi:

– Ajoyib, bolalar! Ajoyib! Ayni shu daqiqalarda qanchalik shod ekanligimni bilsangiz edi! – va u bolalarni bag'riga bosish uchun qo'llarini ochdi, ko'zlarida esa yilt-yilt yosh ko'rindi.

Biz ham uning quchog'iga otildik va: «Bizni kechiring, iltimos!» deya yig'lab yubordik. Nima uchun kechirim so'rayotganimizni o'zimiz ham bilmasdik, biroq u bizga aybimizni tushunishga yordam berdi va dedi:

– Sizlar o'z erkingizni asramay va qasam ichib chakki qildingiz: sizlar qasam ichib, ozod bo'lishni bas qildingiz, sizlar beixtiyor o'z qasamlaringizning asiriga aylandingiz... Ha, sizlar haqiqatni aytish huquqiga ega bo'lmay qoldingiz va shu sababli bechora bolani o'g'riga chiqarib savalashdi. Uni umrbod o'g'ri deb hisoblay boshlashlari va ehtimol u chindan ham o'g'riga aylanishi mumkin edi. Bu holatga chek qo'yish kerak edi... Men shunday qildim... Isyon ko'tarish lozim edi va men isyon ko'tardim... (Ivan Yakovlevich qizisha boshladi.) Boshqacha yo'l tutolmasdim... Ruhim g'alayon qildi... ruhim tirildi... har qanday qasamdan ozod ruh... va men ketdim... men qasamni rad etdim. O'zimga o'zim «qasamsiz rostgo'y bo'l» dedim... Menga mana shu kerak edi... Hech qayerda va hech kimning oldida yolg'on so'zlama... na so'zing bilan, na yuzing bilan... Hech kimdan qo'rqma! Muqaddas bitikda kimdandir qo'rqish kerak deyilgan – bularning hammasi safsata! Xudo muqaddas bitikdan buyukroq! Qaysi biri buyukroq deb o'ylaysiz?

– Xudo buyuk!

– Albatta, Xudo buyuk, u esa: «Hech kimdan qo'rqmang» degan. U o'zidan o'zga hech kimdan qo'rqmaslikni buyurgan... Qo'rquv ahamiyatsiz narsa... Qo'rquv yo'q narsa! Hattoki men, men qo'rquvni mag'lub etdim! Men uni haydab yubordim. Siz ham uni haydab yubo-

<sup>1</sup> *Mantilya* – yelkaga ilib yuriladigan yengsiz nimcha.

ring. Shunda u ketadi. U bu yerda bormi? U bu yerda yo‘q. Biz bu yerda uch kishimiz va oramizda kim bor? Xo‘sh, kim? Qo‘rquvmi? Yo‘q, qo‘rquv emas, Xudo bor! U biz bilan. Nima? Siz uni ko‘ryapsizmi? Uni his qilyapsizmi? Uni tushunyapsizmi?

Biz unga qanday javob berishni bilmasdik, ammo ayni daqiqalarda eng ajoyib tuyg‘uni «his qilayotganimizni» «tushunardik» va buni unga aytdik.

Echki quvonib ketdi:

– Xudo yarlaqasin sizlarni, bu narsalarni zinhor unutmang. Buning uchun har qanday holatda ham haqgo‘y bo‘lish lozim. Pok vijdon qayerda istasangiz Xudoni ko‘rsatadi, yolg‘on esa Xudodan uzoqlashtiradi. Hech kimdan qo‘rqmang va hech qachon yolg‘on gapirmang.

– Ha, ha! – deya javob berdik biz. – Biz bundan buyon yolg‘on gapirmaymiz va qasam ichmaymiz, biroq bizni kechirishlari uchun nima qilishimiz mumkin?

– Kechirish... Faqat Xudo kechirishi mumkin. Kechirish – bu sizning ishingiz emas. Kostyani seving va boshqalarga uning aybsiz ekanligini, unga tuhmat qilinganini eslatib turing.

– Biz shunday qilamiz, lekin siz, Ivan Yakovlevich, siz qayoqqa ketyapsiz? Sizning biror yerda o‘z uyingiz bormi?

U yo‘q degan ma‘noda bosh chayqadi va dedi:

– Menga uyning nima keragi bor?

– Sizni sevuvchi oila a‘zolaringiz-chi?

– Oila a‘zolarim? Yo‘q... Ularning-da nima keragi bor?

– Yaqinlaringiz ham yo‘qmi?

– Yaqinlarim? Mana, endi sizlar mening yaqinlarimsiz. Yaqinlar – bu birgalikda umumiy narsani yaxshi ko‘radigan odamlaring.

– Birinchi navbatdagi yaqinlaringiz-chi?

– Nima uchun birinchi navbatda bo‘lsin? Bu nima degani o‘zi? Hammasini birinchi navbatda emas, birga qilish kerak.

– Unday bo‘lsa endi qayerga yo‘l olyapsiz?

U yelkasini qisdi va dimog‘i chog‘ bo‘lib javob berdi:

– Qayerga deysizmi? Baxt-saodatli mangulikka; qaysi yo‘ldan ketishimga kelsak – bu mutlaqo ahamiyatsiz – faqat hamma joyda Xudoning aytganini qilish kerak.

Biz «Xudoning aytgani» nima ekanini tushunmadik va ko‘zlarimiz to‘la yosh bilan Echkiga yopishdik.

– Biz sizni bekorga haydashganidan juda ham afsusdamiz.

U sekingina boshini chayqatib qo‘ydi va javob berdi:

– Yo‘q, meni mutlaqo behuda haydashmadi.

– Qanday qilib, axir siz hammamizdan ko‘ra to‘g‘ri yo‘l tutdingiz va nojo‘ya ish qilmadingiz.

– Ana! Nima uchun nojo‘ya ish qilish kerak? Bu kerakmas... lekin men tashvish keltirib chiqardim: men asrimiz zulmatiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardim... va meni haydash kerak. Va bu juda ham to‘g‘ri!

– Siz go‘yoki haydalayotganingizdan xursand odamdek gapiryapsiz.

– Xursandman! Ha, men xursandman! Axir biz «tana va qon bilan emas, asr jaholati – yerda yashovchi adovat ruhlari bilan kurashayapmiz». Biz axir asrlar zulmati va xusumat ruhlariga qarshi urushayapmiz, ular esa bizdan har taraflama ustun bo‘lgan oldingi odamlarni qanday azoblashgan va halok qilishgan bo‘lsalar, bizni ham xuddi shunda haydashyapti va o‘ldirishyapti.

– Biroq nima uchun? Nima uchun biror kimsaga yomonlik qilganlarni haydashyapti? Bu axir dahshat-ku!

– Hechqisi yo‘q, – javob berdi Echki yanada quvonib, – aksincha, bu yaxshi... Ularni o‘rinsiz haydashayotgani yaxshi: bu ularni tarbiyalaydi, bu ularni yanada kuchli qiladi... Nahotki siz meni hozirda asrlar zulmati va xusumat ruhlariga qarshi bosh ko‘targanim uchun emas, balki kimgadir yomonlik qilganim bois haydashlarini xohlasangiz!

– Aslo yo‘q!

– Demak, hammasi shunday bo‘lishi kerak, hammasi ajoyib... Oradan biroz vaqt o‘tib, agar siz hayot nimadan iborat ekanligini kashf qilsangiz va eng ulug‘vor tarzda yashashni, ya‘ni xusumat ruhlari sizni haydashlarini xohlab qolsangiz – shundagina buni tushunasiz... Ular sizni haydashsa – bu ajoyib, bu quvonch, bu baxt! Biroq...

U yelkalarimizni ushladi va past ovozda davom etdi:

– Biroq qachonki ular sizni erkalab maqtay boshlaganlarida... Shunda...



- Siz qandaydir qo‘rqinchli narsani aytmochisiz...
- Ha, bu qo‘rqinchli. Shunda qo‘rqing, shunda atrofga qarang, shunda... Samoviy ota sizni qutqarishi uchun uni axtaring.
- Axir biz uni qanday qilib izlashni, buning uchun nima qilish kerakligini bilmaymiz-ku?
- Ha! Men ham bilmayman... men ham, haligi... hattoki turmayman, u esa...

Ivan Yakovlevichning ko‘kragida ko‘z yoshlari qaynay boshladi va u jazavaga tushib gapira ketdi:

– Men haqirlikdan chiqqan osiy bandaman: men loydan o‘rmlab chiqqan chuvalchangman, otam esa meni o‘zining tiz-zasida ushlab turibdi; u meni hali yura olmaydigan o‘g‘li kabi quchog‘ida olib yuribdi, yerga tashlamayapti, bilmasvoyligimdan g‘azablanmayapti, hali aqlim noqis bo‘lsa-da, lekin u meni insonga lozim bo‘lgan narsalarga inontirmoqda, men esa u bilan insonga qancha kerak bo‘lsa, shuncha narsani tushuna olishimga ishonaman... siz ham tushunasiz... sizga buni ruh aytib beradi... Shunda najot keladi va siz u qanday qilib kelib qoldi deb so‘ramaysiz... Bularning hammasi kerak... sekin... Jim! Xudo jimjitlikda kelyapti... Still!

Echki birdan boshini quyi soldi, qo‘llarini ko‘ksiga siqdi va nemischasiga duo o‘qiy boshladi. Biz uning ijozatisiz boshimizdagi qalpoqlarimizni yechdik va u bilan duo o‘qiy boshladik. U duosini tugatib, boshimizga qo‘lini qo‘ydi-yu, yosh to‘lgan ko‘zlar bilan duosini yakunladi.

– Ey Xudo! – dedi u, – sening muqaddas irodangni bajarish chog‘ida haydalishtir quvonchini bag‘ishlaganing uchun senga minnatdorchilik bildiraman. Sening irodangga bo‘ysunib sabr qilayotganlarning qalblariga kuch ber va bizni haydayotganlarga rahmshafqat qil. Shuningdek mana bu farzandlaringni ham sahroda uzoq qoldirma: ularga fahmlab olishga va men hozir sening marhamating bilan ruhiyatimda his qilayotgan huzur-halovat ta‘mini totishga yordam ber. Ularga irodangning mazmunini tushuntir! – va u bizni yana bir bor quchoqladi, peshanamizdan o‘pdi-da, mutlaqo boshpanasiz va mutlaqo baxtli bo‘lib shahar tomonga yurib ketdi, biz, hamma narsamiz bor va serob bo‘lgan bolalar esa chang yo‘lda tiz

cho'kib turardik, biz Echking orqasidan kuzatib, achchiq-achchiq yig'lardik.

U go'yoki bizni qandaydir o'tkir va shu bilan birga ulkan zavq darajasiga yetuvchi xursandchilikka tashlagandek edi. Echki bizni nimagadir da'vat qilgandi, bizni tushunarsiz tuyg'u qamrab oldi, biz yuraklarning yumshashi haqidagi iltijo bilan safarimizni tugatmoqchi edik va to'satdan ikkalamiz ham irg'ib turib uning orqasidan yugurib ketdik:

– Ivan Yakovlich!..

U to'xtab, o'girilib qaradi va dabdurustdan bizga o'zgarib qol-gandek ko'rindi: go'yo bo'yi cho'zilib yorishgandek edi. Ehtimol uning ayni damda tepalikda turgani va quyosh uning orqasidan yo-ritayotgani uchun shunday ko'ringandir. Biroq uning ovozi ham o'zgargandek edi. U go'yoki so'zlarni havoga suv kabi quyayotgan-dek tuyulardi:

– Sizga yana nima kerak?

Biz esa unga aynan nima demoqchi ekanligimizni bilmasdik, shu bois so'radik:

– Biz sizni bir kunmas, bir kun yana ko'ramizmi?

U aniq javob qildi:

– Ko'rasiz.

– Bu qachon sodir bo'ladi?

U bo'g'iq va tushunarsiz ovoz bilan javob berdi:

– Bu... balki mutlaqo kutilmaganda sodir bo'lar, keyin esa bu yana sodir bo'lmas, keyin yana ba'zida sodir bo'lar...

Biz uning orqasidan yugurayotgandek edik, u esa yolg'iz o'zi ol-dinda ketar, biz bo'lsak orqada qolib ketardik va baqirardik:

– Qayerda ko'rishamiz?

U uzoqdan turib javob berdi:

– Farqi yo'q, – dedi u va qo'llarini har tomonga harakatlantirdi, u bilan «ba'zida» uchrashish uchun hamma tomonlar teng ekanligini tushuntirmoqchidek go'yo. Uning uchun makon mavjud emas. «Ba-ribir... ba'zida ko'rishamiz... va yana... ko'rishmaymiz... ba'zida» va yana ba'zi narsalar, o'zi esa tobora uzoqlashib borardi va birdan qo'llarini hilpiratib, yugurib ketdi, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bu voqea sodir bo'lganiga ko'p yillar bo'ldi, Echki uzoq, uzoq vaqt ko'rinmadi,

biroq keyin u mutlaqo kutilmaganda bir, ikki, uch marta paydo bo'ldi va ro'paramga shunday yaqin turdiki, xuddi hech qayerga ketmagandek, bu orada esa... hamon oldinga yugurib ketayotgandek... Va o'sha daqiqalarda go'yoki uning qarshisida turmagandek tuyulardi menga... Tamom! Undan orqada qolib ketaman va uni endi hech qachon ko'ra olmayman! Lekin shunday vaqtlarda har doim kutilmagan yordam yetib keladi: kimdir qayerdandir paydo bo'ladi va «Xudo qayerda» ekanligini ko'rsatadi, shunda o'sha zahoti tahlil qila boshlaysan, hamma yaqinlaringni qalbingga jo aylaysan, ularning hech biri bilan vidolashishdan qo'rqmaysan, chunki «bir ruhiyat bilan sug'orilgan odamlarning hammasi hayotni bir zaylda tushunishadi».

*Toshpo'lat MIRZAYEV tarjimasi*





## KICHIK XATO

### Moskvalik bir oila siri

#### BIRINCHI BOB

Odatdagi ajoyib kunlarning birida kechqurungi ulfatchilikda imon va imonsizlik to'g'risida gap ketdi. Suhbat deizm<sup>1</sup> yoki materializm muammolari ustida emas, balki sohibkaromat va sehrargarlarga ishonish-ishonmaslik to'g'risida borar edi. Bizning ulfatchilikda moskvalik basavlat bir kishi ham ishtirok etib, u shunday deb qoldi:

– Kimning imoni bor, kim imonsiz – buni aytish qiyin, janoblar, chunki har kimning turish-turmushi har xil bo'ladi; bu masalada ham-mamiz ham xato qilishimiz mumkin.

Shu muqaddimadan keyin boyagi kishi juda qiziq bir voqeani so'zlab berdiki, men uni aynan keltirishga harakat qilaman:

«Pochcham ham, xolam ham marhum Ivan Yakovlevich degan sohibkaromatga ixlos qo'ygandi. Ayniqsa xolam, uning maslahatini olmasdan turib, biron ish boshlamas edi. Ya'ni avval jinnixonaga borib, u bilan maslahatlashib olardi (sohibkaromat jinnixonadan qo'nim topgan edi), maslahatdan so'ng uning duosini olardi. Pochcham ancha esli-hushli odam, sohibkaromatga ko'p ham ishonmas, ammo ishongan vaqtlari ham bo'lar edi, unga nazr-niyoz va tuhfalar berilishiga qarshilik qilmasdi. Ular juda badavlat bo'lmasalar ham, o'zlariga to'q edi – uyida do'kon ochib, choy bilan qand sotishardi. O'g'illari yo'q edi, ammo Kapitolina Nikitishna, Katerina Nikitishna va Olga Nikitishna degan uchta qizi bor edi. Qizlarining uchovi ham ko'hlikkina, chevar va ephil edi. Kapitolina Nikitishna turmushga chiqqan, eri rassom edi, nuqul butxonalarning ichini rasm bilan bezar: daromadi

---

<sup>1</sup> *Deizm* – Xudoni tan oluvchi, lekin uni tabiat taraqqiyotiga daxli yo'q deb hisoblovchi diniy-falsafiy ta'limot.

durustgina, ko'p pul topar edi. Qavm-qarindoshlariga uning bir jihati yoqmas edi: o'zi har turli sohibkaromatlarning suratini solishga usta bo'lsa ham, ammo nuqul Kurganovning «Xatnomasi»dan imonsiz gaplarni gapirib yurguchi edi. Nuqul Xaosdan, Ovidiydan, Promifeylardan so'z ochar, muqaddas kitoblarni yomonlab yurardi. Agar shunisi aytmasa – binoyidek. Yana bir kamchiligi shu ediki, ular negadir bola ko'rmayotgandi, bu esa pochcham bilan xolamning dilini juda xira qilardi. Ular hali birgina qizini erga bergan edilar. U uch yildan beri farzand ko'rmayotgani bois qolgan ikkala qizni ham hech kim so'ramay qo'ygan edi.

Xolam Ivan Yakovlevichning oldiga borib, «Nega qizim bola ko'rmaydi, ikkovi ham yosh, chiroyli, sog'lom, nega endi bola ko'rmaydi?» deb so'ragan ekan, sohibkaromat shunday debdi:

– Parvardigorning o'zi bor. Osmon bor-u, Parvardigor bor.

Uning yonidagi korchallonlari sohibkaromatning gaplarini xolamga tushuntirib berishibdi: «Ustoz, kuyovingiz xudoga nola qilsin, kuyovingiz imonsiz bo'lsa kerak, demoqchi», deyishibdi.

Xolamning og'zi lang ochilganicha qolibdi: sohibkaromatning aytgani to'ppa-to'g'ri! Shundan keyin xolam rassom kuyoviga, ruhoniya borib tavba qilasan, deb yopishib olibdi. Lekin rassomning parvoyiga kelmasmish! Hech narsani pisand qilmasmish, hatto ro'za ham tutmas ekan. Buning ustiga, pochcham bilan xolam odamlardan «kuyovingiz chualchang yutadi, qisqichbaqa yeydi» degan gaplarni ham eshitishibdi. Ular hammasi bir xonadon bo'lib turishardi, shuning uchun, «nahotki bizning savdogarlar oilamizda shunday imonsiz odam bo'lsa» deb juda xafa bo'lishibdi.

## IKKINCHI BOB

Shunday qilib, bir kuni xolam Ivan Yakovlevichning oldiga borib, ojiza Kapitolinaga farzand, banda Lariyga esa (rassomning ismi Lariy edi) imon so'rabdi.

Buni pochcham bilan xolam ikkovlashib so'rashibdi.

Ivan Yakovlevich allanimalar deb g'o'ldiragan ekan, yana hech kim tushunmabdi, bu safar yonidagi korchallon xotinlar yordamga kelishibdi:

– Sohibkaromatning bugun mazasi yo‘qroq, iltimosingizni qog‘ozga yozib qoldiring, biz ertaga o‘zimiz topshiramiz.

Xolam iltimosini aytib turibdi, ular yozib olishibdi: «Ojiza Kapi-tolinaga farzand, banda Lariyga imon-insof bersin».

Pochcham bilan xolam xatni yozib berishibdi-da, ko‘ngillari chog‘, uyga qaytishibdi.

Uyga kelib bu haqda hech kimga churq etishmabdi, faqat Ka-pochkaga aytishibdi, lekin zinhor-bazinhor eringga bu to‘g‘rida og‘iz ochma, u bilan xushmuomalada bo‘l, ko‘z-quloq bo‘lib tur, Ivan Ya-kovlevichga moyil bo‘lganini sezgan zahotingdayoq bizga xabar qil deyishibdi. Rassomning og‘zi shaloq, nuqul xudoni yomonlar edi, yo-monlaganda ham, xuddi Presnyadagi masxarabozlar singari yomon-lardi. Og‘zidan hech hazil tushmasdi. Kech kirishi bilan qaynotasi-ning oldiga chiqardi-da, «Qani, keling, ellik ikki varaqli duolardan bir o‘qib tashlaylik» derdi, bu, uning karta o‘ynaymiz degani edi... Karta o‘ynagani o‘tirib «Hushdan ketguncha o‘ynash» derdi.

Xolamning qulog‘iga bunaqa gaplar yoqmas edi. Pochcham bir kuni unga: «Qaynonangni ko‘p ham xafa qilaverma, u seni yaxshi ko‘radi, sen uchun va‘da berib keldi» dedi. Rassom zaharxanda qildi-da, qaynonasiga qarab:

– Nega o‘zingizcha har xil va‘dalar berib yurasiz-a? Mana shun-day va‘dalar tufayli Ivan Predtechaning kallasi sapchaday uzib tash-langanidan bexabarmisiz? Ehtiyot bo‘ling, yana bizning uyda ham biron falokat yuz berib yurmasin tag‘in, – dedi.

Bu gaplarni eshitib xolamning kapalagi uchib ketdi, endi har kuni jinnixonaga yuguradigan bo‘lib qoldi. U yerda faqat taskin berib, ko‘nglini ovutishdi: ishingiz o‘ngidan keladi, sohibkaromat xatingizni kunda o‘qiydi, xatda nima yozilgan bo‘lsa – albatta, ro‘yobga chiqadi deyishdi.

Ha, ro‘yobga chiqdi! Ammo, shunaqangi narsa ro‘yobga chiqdiki, asti qo‘yavering!

## UCHINCHI BOB

Bir kun xolamning o‘rtancha qizi Katechka oyisining oldiga keldi-da, oyog‘iga yiqilib, achchiq-achchiq yig‘lay boshladi.

Xolam undan so‘radi:

– Nega yig‘laysan, kim seni xafa qildi?

Qizi yig‘i orasida:

– Jon oyijon, – dedi, – buning qanday sodir bo‘lganini o‘zim ham bilmay qoldim... umrimda birinchi marta... bundan keyin sira ham qilmayman... aybimni bekiting, iltimos, otamdan zinhor bilmasin.

Xolam unga bir qaradi-da, barmog‘i bilan uning qorniga nuqib:

– Shu yeringmi? – deb so‘radi.

– Ha, shu yerim, – dedi Katechka. – Darrov bilaqoldingiz-a... qanday bo‘lib qolganini o‘zim ham bilmayman...

Xolamning ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi.

– Oh, qizginam-a, – xo‘rsindi taqdirga tan bergan xolam, – gap so‘rama, ayb menda, men hozir borib bilib kelaman, – dedi-da, izvoshga o‘tirib, Ivan Yakovlevichning oldiga yugurdi.

– Biz tashlab ketgan qog‘ozni ko‘rsating-chi, biz sohibkaromatdan farzand so‘ragan edik, qanday yozilgan ekan o‘sha xat, – debdi o‘pkasi og‘ziga tiqilgan xolam.

Korchallon xotinlar derazadan xatni uzatishibdi.

Xolam xatga qarashi bilan esdan og‘ishiga sal qolibdi. Nima deb yozilgan ekan deng? Darhaqiqat, hammasi birgina kichik xato tufayli ro‘y bergan ekan: xatda erga tekkan ojiza Kapitolina o‘rniga hali erga tegmagan qizlari Katerinaning oti yozilgan ekan.

Korchallon xotinlar ham rosa hayron bo‘lishibdi:

– Yomon gunoh bo‘pti-ku... Buni qarang-a, otiyam bir-biriga o‘xshar ekan-da, a... Mayli, hechqisi yo‘q, buni tuzatsa bo‘ladi... – deyishibdi.

Xolam esa ichida: «Yo‘q, yolg‘on aytasizlar, endi buni tuzatib bo‘psizlar, Katya farzand ko‘radigan bo‘ldi» debdi-da, qog‘ozni mayda-mayda qilib yirtib burdalab tashlabdi.

## TO‘RTINCHI BOB

Hammadan ham ular pochchamga bu xabarni qanday yetkazamiz endi, deb qo‘rqishardi. Uning fe‘li shu qadar tez ediki, agar jahli chiqib ketsa, aslo to‘xtatib bo‘lmas edi. Buning ustiga, poch-

cham Katyani uncha yaxshi ko'rmas ham edi, hammadan ham eng kichigini, Olenkani yaxshi ko'rardi, shu Olenkani arzanda qilardi nuqul.

Xolam o'ylab-o'ylab, bu ishga bir o'zining aqli yetmasligini bildi, rassom kuyovi bilan maslahatlashmoqchi bo'lib, unga bor gapni oqizmay-tomizmay aytib berdi:

– O'zing imonsiz bo'lsang ham, mehribonliging bordir, axir: Katyaga rahming kelsin, bir iloj qilib uning qizlik aybini bekitaylik.

Rassom birdan qovog'ini soldi-da, dedi:

– Kechirasiz, garchi siz xotininning onasi bo'lsangiz-da, meni imonsiz demang, ikkinchidan, Ivan Yakovlevich shuncha vaqtdan beri duo qilib kelgan ekan, nega endi Katya gunohkor bo'lsin? Men Katechkaga akaday gapman, albatta, uning yonini olaman, negaki bu ishda uning mutlaqo gunohi yo'q.

Xolam yuzlarini timdalab yig'ladi va dedi:

– Nega... nega gunohi bo'lmasin?

– Albatta uning gunohi yo'q-da. Butun ishni chalkashtirib yuborgan – sizning sohibkaromatingiz, aybni o'shandan ko'ring!

– Unga ayb qo'yib bo'ladimi? Sohibkaromat odam bo'lsa...

– Sohibkaromat odam bo'lsa – jim yuravering. Katyangizdan mening oldimga uch shisha shampan vinosi yubortiring.

Xolam tushunmay qayta so'radi:

– Nima deding?

Kuyovi qaytardi:

– Uch shisha shampan vinosi keltirsin, bittasini hozirning o'zida mening uyimga olib kirsin, ikkitasini keyin o'zim aytganda keltiradi, ammo albatta muzga solib qo'ysin.

Xolam uning aftiga qaradi-da, boshini chayqab qo'yaqoldi:

– Xudo olsin seni, men seni faqat imonsiz, betavfiq deb yursam, berahm ham ekansan... Garchi sen aziz-avliyolarning suratini solib yurgan bo'lsang-da, men sen chizgan ikonalarga hech qachon ishonmayman...

Bunga javoban kuyovi shunday debdi:

– Men sizga takror aytaman, mening imonimga til tekkizmang. Siz bu ishda, albatta, Katyaning gunohi bor deb o'ylaysiz, ammo men bunda Ivan Yakovlevich gunohkor deb hisoblayman. Mening meh-



ribonligim yoki shafqatsizligim masalasiga kelsak, buni ishxonamga Katyadan shampan vinosi jo'nattirganingizda ko'rasiz...

## BESHINCHI BOB

Xolam anchagacha o'ylanib yurgach, axiri rassomning oldiga Katechkan vino kiritdi. Katechka ho'ng-ho'ng yig'lab, qo'lida patnis ko'tarib kirdi, rassom o'rnidan sakrab turdi-da, uning ikkala qo'lidan ushlab, o'zi ham yig'lab yubordi.

– Ahvoling chatoq-ku, oppog'im, – dedi rassom Katechkaga, – ammo buni kechiktirib bo'lmaydi, qani, ayt menga butun siringni...

Qiz qanday sho'xlik qilganini, kim bilan o'ynashganini barisini aytib berdi, shundan so'ng rassom qizni ustaxonasiga yashirib qo'ydi.

Xolam kuyovini ko'z yoshi bilan kutib oldi. Kuyovi uni quchoqladi, o'pdi, yupatdi va shunday dedi:

– Qo'rqmang, yig'lamang. Nasib etsa bir yoqlik bo'lar.

– Aytaqol, butun ayb kimda ekan? – dedi shivirlab xolam.

Rassom muloyimgina ko'rsatkich barmog'ini yuqori ko'tarib dedi:

– Mana bu gapingiz chakki bo'ldi: o'zingiz meni hamisha imonsiz deb yurasiz, ammo o'zingizning imoningiz sinovdan o'tayotgan bir paytda uni yo'qotdingiz. Nahot bu ishda hech kimning aybi yo'qligiga, barisi sohibkaromatning kichikkina xatosi tufayli ro'y berganiga ishonmaysiz?

– Bechora Katechkam qani?

– Men uni rassomlarning eng o'tkir so'zi bilan avragan edim, omin deyishim bilan yo'q bo'ldi-qoldi.

Shu gaplarni aytib bo'lib, qaynonasiga kalitni ko'rsatdi.

Xolam bildiki, kuyovi qizini otasining g'azabidan saqlash uchun yashirgan. Xolam uni quchoqladi.

– Xafa bo'lma mendan, aslida sen juda mehribon ekansan, – dedi shivirlab.

## OLTINCHI BOB

Pochcham ishdan qaytib, choyini ichib bo'ldi-da:

– Qani, ellik ikki varaqlik duodan bir o'qib tashlaylik-chi, – dedi kuyoviga.

Ular karta o‘yiniga tushib ketishdi. Uy ichidagilar barcha eshiklarni bekitib, oyoq uchida yura boshladilar. Xolam esa goh eshik yoniga boradi, goh nari ketadi, nuqul cho‘qinadi.

Bir mahal ichkarida to‘satdan bir narsa qattiq taraqladi... Xolam eshik yonidan qochib, allaqayerga bekinib oldi.

– Sirni ochib qo‘ydi shekilli, – dedi xolam o‘ziga-o‘zi. – Ha, aniq sirni ochdi. Ana endi qiyomat qoyim boshlanadi.

Darhaqiqat, birdan eshiklar taraqlab ochildi-yu, darg‘azab pochchamning bo‘kirgani eshitildi:

– Po‘stinimni keltiringlar, kaltakni ham beringlar!

Rassom uning qo‘llaridan ushlab:

– Ha, nima gap? Qayerga? – deb so‘radi.

– Jinnixonaga borib, sohibkaromatning adabini berib kelay! – dedi pochcham.

Eshik ortida turgan xolam ingrab yubordi.

– Yugur bittang jinnixonaga, darrov Ivan Yakovlevichni yashirishsin, – dedi xolam.

Agar rassom pochchamni ushlab qolmaganda edi, pochcham muqarrar jinnixonaga borib, sohibkaromatni o‘lgudek savalagan bo‘lardi.

## YETTINCHI BOB

Kuyov, pochchamga hali yana bir qizing bor deb nasihat qila boshladi.

– Mayli, u qizimning ham o‘z taqdir-qismati bor, men baribir o‘sha sohibkaromatni borib adabini bermasam bo‘lmaydi, keyin meni sud qilishsa ham mayli, – deydi hadeb pochcham.

– Men seni sud bilan qo‘rqitayotganim yo‘q, axir. O‘zing o‘ylab ko‘r, Ivan Yakovlevich Olganga ham biron yomonlik qilib qo‘yishi mumkin. Buyog‘ini ham hisobga olgin-da.

Pochcham to‘xtab, o‘ylanib qoldi.

– Qanaqa yomonlik qilishi mumkin?

– Katechkaga qanday yomonlik qilgan bo‘lsa, unga ham xuddi shunday yomonlik qilishi turgan gap.

– Bo‘limg‘ur gaplarni qo‘ysang-chi! Bunaqangi ish uning qo‘lidan kelarmidi?

Bunga rassom shunday javob berdi:

– Agar bunga ishonmasang – bilganingni qil, faqat keyin pushaymon yeb yurma, bechora qizlaringni ham qiynama.

Pochcham yana o‘ylanib qoldi. Kuyovi uni yana uy ichiga olib kirdi-da, maslahat bera boshladi.

– Menimcha, sohibkaromatni hozir bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, bu mujmal ishni o‘zimiz tezda bir yoqlik qilganimiz ma‘qul.

Pochcham ko‘ndi, ammo buni qanday qilib bir yoqlik qilishni o‘zi ham bilmasdi, yordamga yana rassom kuyov keldi:

– Yaxshi fikr jaholatdan emas, shod-xurramlikdan kelib chiqadi.

– Bunday mushkul ahvol bo‘lib turganda shod-xurramlik qayoqda deysan, og‘ayni! – dedi pochcham.

– Mening asrab qo‘ygan ikki shisha vinom bor, men bilan o‘tirib ichishmaguningcha, bitta so‘z ham demayman senga. Xo‘p deyaver. Mening fe‘limni yaxshi bilasan-ku.

Pochcham uning yuziga qarab turdi-da, shunday dedi:

– Ha, gapir, gapir, qani, nima der ekansan!

Ammo kuyovining aytganlariga ko‘ndi.

## SAKKIZINCHI BOB

Rassom tashqariga chiqdi-yu, tezda qaytib kirdi, uning ketidan yosh rassom, – uning shogirdi, – ikki shisha shampan vinosi bilan bokal qo‘yilgan patnis ko‘tarib kirdi.

Shundan so‘ng rassom eshikni qulflab, kalitni cho‘ntagiga soldi. Pochcham buni ko‘rdi-yu, gap nimada ekanligini darrov fahmladi, kuyovi shogirdiga imo qilgandi, rassom bola bir burchakka borib, boshini egib turdi.

– Gunohkorman, kechiring va fotiha bering, – deb turib oldi.

Pochcham kuyovidan:

– Ursa bo‘ladimi? – deb so‘radi.

– Bo‘ladi-yu, ammo hojati yo‘q.

– Juda bo‘lmasa, oldimga kelib tiz cho‘ksin, – dedi pochcham.

Rassom shogirdining qulog'iga:

– Tiz cho'k tezroq, yaxshi ko'rgan qizing uchun tiz cho'k, – deb shivirladi.

Rassom bola tiz cho'kdi.

Pochcham yig'lab yubordi.

– Juda ham yaxshi ko'rasanmi qizimni? – deb so'radi yosh rassomdan.

– Juda yaxshi ko'raman.

– Bo'lmasa o'p yuzimdan.

Sohibkaromat Ivan Yakovlevichning kichikkina xatosini shu tariqa bosti-bosti qilib yuborishdi. Sir-sirligicha qoldi, qizlarining eng kichigiga ham bir talay kuyov chiqdi, negaki, endi pochchamning qizlariga ishonsa bo'lar ekan.

*Dilafruz MATYOQUBOVA tarjimasi*





## SOQCHI

### BIRINCHI BOB

O'quvchining e'tiboriga havola etilayotgan ushbu hikoyada keltirilgan voqea nihoyatda ta'sirlidir, uning oqibati hikoyaning asosiy qahramoni uchun dahshatli va mash'umdir; voqeaning yakuni shu qadar ajoyibki, bunday hodisalar Rossiyadan boshqa hech qayerda uchramasa kerak.

Bir tomondan saroy ahliga tegishli bo'lgan, ikkinchi tomondan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bu mojaro, hozir o'tib borayotgan o'n to'qqizinchi asrning nihoyatda qiziq, ammo hech kim tomonidan tarix uchun yozib qoldirilmagan o'ttizinchi yillarining xulqi va odatlarini tasvirlaydi. Bu qissa aslo uydirma emas, uning turgan-bitgani haqiqatdir.

### IKKINCHI BOB

1839-yilning qish faslida, Cho'qintirish bayrami arafasida Peterburgda kunlar isib, qorlar va muzlar eriy boshladi. Havo shu qadar isib ketdiki, xuddi bahor kirib kelganday bo'ldi: qorlar eriy boshladi, tomlarning bo'g'otidan chakka toma boshladi, daryo yuzini qoplagan muzlar esa, ko'm-ko'k ko'karib, suvga aylana boshladi. Neva daryosidagi Qishlik saroy ro'parasida chuqur-chuqur ko'lmaklar hosil bo'ldi. G'arb tomondan esib kelgan kuchli va iliq shamol dengiz suvlarini daryoga haydab kelgandi, shuning uchun zambaraklardan o'q uzilardi.

Saroyni qo'riqlash Izmaylov polkiga qarashli rotalardan biriga topshirilgandi. Rotaga ma'lumoti oliy va mukammal, obro'si baland Nikolay Ivanovich Miller degan yosh zobit boshchilik qilardi (keyinchalik u general unvoniga va litsey direktorligiga erishdi). U odamning «insonparvar» ekanligi anchadan beri ma'lum edi, bu esa uning

martaba pillapoyasidan ko'tarilishiga to'sqinlik qilar edi, ya'ni bu fazilat boshliqlarga yoqmas edi.

Aslini olganda esa, Miller ixlosmand va sodiq zobit edi, u davrlardagi saroy soqchilari uncha xavfli emas edilar ham. Zamon juda tinch va sokin edi. Saroy qorovullaridan belgilangan joydan qimirlamay turishdan boshqa hech narsa talab qilinmasdi. Ammo aynan kapitan Millerning rotasi saroy qorovulligida turgan paytda g'oyat tasodifiy va xavotirli bir voqea yuz berdiki, o'sha zamonda yashab, bunga guvoh bo'lgan kamdan-kam odamlarning ham xotirasidan ko'tarilgan desa bo'ladi.

### UCHINCHI BOB

Qorovullik avvaliga juda yaxshi ketayotgandi: postlar belgilandi, soqchilar tayinlandi, hammayoq xotirjam. Podshoh hazratlari Nikolay Pavlovich sog'-salomat edi, kechqurun ot minib sayr qilib keldi-da, to'shagiga yotib uyquga ketdi. Saroy ham uyquga cho'mdi. Sokin va tinch tun kirdi. Qorovulxonaning ichi ham jimjit. Kapitan Miller, zobitlar o'tiradigan va usti charm bilan qoplangan kresloning yog' bosgan baland suyanchig'iga oq dastro'molini to'g'nag'ich bilan qadab qo'ydi-da, mutolaaga kirishdi.

N.I. Miller ashaddiy kitob ishqibozi, zo'r kitobxon edi, shu sababdan u kitob o'qib zerikmas, tunning qanday o'tib borishini ham sezmas edi; bir mahal, soat ikkilarga yaqin Millerni birdan xavotir bosdi: uning oldiga rangi oppoq oqargan, butun badanini titroq bosgan kichik zobit kirib, tishi-tishiga tegmasdan, shunday dedi:

- Falokat ro'y berdi, janobi oliylari, falokat.
- Nima gap?
- Katta baxtsizlik yuz berdi!

N.I. Miller hovliqqanidan o'rnidan sakrab turib ketdi, qanday «falokat» va qanday «baxtsizlik» ro'y berganini zo'rg'a so'rab bildi.

### TO'RTINCHI BOB

Voqeya quyidagi yuz bergan edi: Izmaylov polkiga qarashli askar, Postnikov degan soqchi, hozir Iordan deb atalmish darvoza yonida qorovullikda turganda, darvozaning ro'parasida, Neva daryosida suvga cho'kkan bir odamning dod-faryodini eshitib qolgan.

Badavlat odamlarning qo‘lida qarol bo‘lib ishlagan askar Postnikov asabiy va juda ta’sirchan odam edi. U cho‘kayotgan odamning dod-voyini anchagacha eshitib, vahimaga tushdi. U hadeb u yoq-bu yoqqa qararkan, aksiga olib na daryo bo‘yida, na yon-atrofdan bitta ham odam qorasi ko‘rinmasdi.

Cho‘kayotgan kishiga hech kim yordam berolmaydi, demak uning g‘arq bo‘lishi muqarrar...

Bu paytda suvga g‘arq bo‘layotgan kishi tirik qolish uchun hamon kurashar, qutilib qolishga tirishar edi.

Kuchini bekorga, behuda sarf qilmasdan suvning tagiga cho‘kib keta qolsa-chi endi, yo‘q, u hadeb baqiraverar edi. Dod-faryodi bir-pas bosilardi-da, yana eshitila boshlardi, buning ustiga, bu tovushlar borgan sari saroyga yaqinlashib kelar edi. U odam yo‘ldan adashmagan va to‘g‘ri fonuslar yonib turgan tomonga qarab oqib kelayotgan bo‘lsa kerak. Ammo u baribir qutilolmaydi, negaki, agar shu oqim bo‘yicha kelaversa, Iordan darvozasi to‘g‘risidagi chuqurlikka tushib ketishi muqarrar, mabodo muz ostiga kirib ketsa – tamom... Ana, yana ovozi tindi, ammo bir daqiqadan keyin: «Voy-dod, qutqaringlar!» deb baqira boshladi. Uning ovozi endi shu qadar yaqin kelib qolgan ediki, hatto suvning shaloplashi ham bemalol eshitalardi...

Askar Postnikov, cho‘kib ketayotgan odamni qutqarish juda oson degan fikrga keldi. Agar hozirning o‘zida muz ustiga yugurib borsa, uning ustidan chiqish mumkin. Arqon yoki tayoq tashlansa yoki mil-tiqniig bir uchini uzatsa – bo‘ldi, omon qoldi degan gap. U shu qadar yaqinki, qo‘lini uzatsa ham ushlab chiqib olishi mumkin. Ammo Postnikovning qanday xizmatda ekanligi va qasamyod qilgani yaxshi esida edi; o‘zining soqchi ekanligini, soqchining esa o‘z joyini har qanday vaziyatda ham tashlab ketishga haqi yo‘qligini yaxshi bilardi.

Ikkinchi tomonini olib qaraganda, Postnikovning yuragi juda notinch: goh achishadi, goh gupullab uradi, goh urishdan to‘xtagandek tuyuladi... Dod-faryodlar dastidan yuragi shu qadar bezovta bo‘lar edi-ki, uni ko‘ksidan yulib tashlashga ham tayyor edi. Birovga yordam berish qo‘lingdan kelsa-yu, buni qilolmay, uning dod-faryodini jmgina eshitib, kuzatib tursang – bu nima degan gap?! U yog‘ini surishtirganda, yordam berishning iloji bor, axir, qo‘riqlayotgan budkasi qochib ketmas yoki biron falokat ro‘y bermas. «Yo ketaveraymi, a? Hech kim ko‘rib qolmasmikini?.. Ana, yana dodlay boshladi...».

Shu hodisa davom etgan yarim soat ichida askar Postnikovning yuragi pora-pora bo‘lib ketdi, «aqli ayniy» boshladi. O‘zi esli-hushli, itoatgo‘y, aqli raso askar edi, postni tashlab ketish – harbiy sudga, ikki qator tizilgan askarlar orasidan o‘tib, yelkasining shompol bilan savalanishiga yoki bo‘lmasa surgun qilinishga hatto «otuv»ga olib keldigan jinoyat ekanligini bilardi. Ammo ko‘pirib, hayqira boshlagan daryo tomondan yana dod-voylar, bechora odamning xarsillagan ovozi, jon talvasasidagi tovushi kela boshladi:

– Vo-o-y, cho‘k-yap-man!.. Qutqaringlar, cho‘kyapman!

Ana, Iordan teshigi ham yaqin qoldi... Tamom!

Postnikov yana bir-ikki marta atrofiga qaradi. Hech kim ko‘rinmaydi, faqat shamol miltillagan fonuslarni silkitadi, odamning nolasi eshitiladi, balki bu so‘nggi faryoddir..

Ana, yana bir marta suvning shaloplagan ovozi keldi, yana ingradi odam, keyin suv bilqillay boshladi.

Soqchi ortiq chidolmay, o‘z postini tashlab ketdi.

## BESHINCHI BOB

Postnikov darhol zinadan yugurib o‘tdi-da, yuragi gupullab ur-gancha, muzga sakradi, undan yuzasini suv bosgan muzlikka o‘tdi, suv tagiga cho‘kib ketayotgan kishini qidirib topib, miltig‘ining qo‘ndog‘ini uzatdi.

Suvdagi kishi qo‘ndoqqa yopishdi, Postnikov miltiq nayzasidan ushlab, uni suvdan tortib chiqardi. Qutqargan ham, qutqarilgan ham shalabbo edi, qutqarilgan odam benihoya darmonsizlikdan titrab-qaltiragani va oyoqda turolmaganidan, askar Postnikov uni muz ustida tashlab ketishga ko‘zi qiymay, daryo bo‘yiga sudrab chiqdi va biron kishi ko‘rinmasmikin deb atrofga alanglay boshladi. Shu orada daryobo‘yi ko‘chasidan chana o‘tib qoldi, chanada saroy huzuridagi nogironlar jamoasiga (keyinchalik bu jamoaga barham berildi) qarashli bir zobit o‘tiringandi.

Postnikov uchun juda bemahal va noo‘rin paydo bo‘lib qolgan bu janob juda yengil tabiat, kaltafahm va surbet odam chog‘i, u chana-dan sakrab tushdi-da, so‘roqqa tuta ketdi:

– Kim bu?.. Kimsizlar?..

– Suvga cho‘kib ketayotgan edi, – deb tushuntira boshladi Postnikov.



– Qanaqasiga cho‘kadi? Kim cho‘kdi, senmi? Nega bu joyda cho‘kasan?

Qutqarilgan odam o‘zi bilan o‘zi ovora ekan, Postnikov lip etib g‘oyib bo‘ldi. U miltig‘ini yelkasiga osgancha zumda yana o‘z postida qaqqayib turardi.

Haligi zobit nima voqea ro‘y berganini bildimi, bilmadimi, buni si qorong‘i, ammo u yog‘ini surishtirib o‘tirmasdan, suvdan chiqarib olingan kishini chanaga soldi-yu, Admiralteystvo dahasiga qarashli Morskaya ko‘chasidagi politsiyaga qarab ot choptirib ketdi.

Politsiyaga yetib kelib, nozirlarga mana bu odam saroy qarshisida suvga cho‘kib ketayotgan edi, men o‘z jonim va hayotimni tahlikaga qo‘yib, zo‘rg‘a qutqarib qoldim deb axborot berdi.

Suvdan qutqarilgan kishining ust-boshi hali ham ho‘l, o‘zi sovqotgan, bedarmon edi. Qo‘rqib ketganidan va charchaganidan hushidan ketayozgan, shu sababli, uni kim qutqarganligi hozir unga farqsiz edi.

Behush yotgan kishi oldida uyqusi buzilgan politsiya feldsheri ivir-siy boshladi, mahkamada nogironlar jamoasi zobitining og‘zaki axborotidan bayonnoma tuza boshladilar; bayonnomani yozuchi kishi nima uchun suvdan qutqargan odamning usti-boshi quruq deb hayron bo‘lar edi. «Halok bo‘layotganlarni qutqargani uchun» degan medal ilinjida bo‘lgan zobit buni bu ham mening bir omadim dedi-yu, ammo tafsilotini beo‘xshov va aqlga sig‘maydigan tarzda aytib berdi. Borib boshliqni uyg‘otib kelishdi va voqeaning qanday bo‘lganini surishtira boshlashdi.

Shu orada saroyda bu voqea bo‘yicha ishlar butunlay boshqacha tus olib ketdi.

## OLTINCHI BOB

Suvdan qutqarilgan odamni zobit o‘z chanasiga solib, olib ketganidan keyingi voqealar saroy qorovulxonasiga noma‘lum edi. Izmaylov polkining zobiti va askarlari faqat soqchi Postnikovning o‘z joyini tashlab, odam qutqargani ketganini, bu esa harbiy burchni buzish ekanligini, endilikda Postnikovning sudga berilishi va savalanishini, rota komandiridan tortib polk komandirigacha bo‘lgan hamma boshliqlarga gap tegishini bilar edilar.

Ust-boshi ho‘l, dir-dir titragan askar Postnikovni postdan bekor qilib, o‘rniga boshqa soqchi qo‘ydilar. Askar Postnikovni qorovul-

xonaga olib keldilar, u bizga ma'lum bo'lgan butun hodisani, suvga cho'kkan kishini nogironlar jamoasi zobiti chanaga solib, Admiral-teystvo dahasiga olib ketganini N. I. Millerga batafsil aytib berdi.

Tahlika borgan sari kuchayar va xavf muqarrar edi. Albatta, nogironlar zobiti hamma gapni politsiya boshlig'iga aytadi, boshliq shu ondayoq barchasini ober-politseymeyster Kokoshkinga yetkazadi, ober-politseymeyster esa, ertalab podshohga ma'lum qiladi, ana undan keyin mojaroni ko'raverasiz!

Uzoq mulohaza qilib o'tirishga vaqt yo'q, katta boshliqlarga ma'lum qilib, ularni yordamga chaqirish kerak edi.

Shu ondayoq Nikolay Ivanovich Miller batalyon komandiri, podpolkovnik Sviniga saroy qorovulxonasiga tezroq yetib kelishini va yuz bergan dahshatli falokatdan qutilishga yordam berishini so'rab xat yozib yubordi.

Xatni yozganda soat uchlar bo'lib qolgan edi, Kokoshkin esa podshoh huzuriga odatda juda barvaqt kirguchi edi. Shuning uchun hamma tadbir va choralarni ko'rishga juda oz vaqt qolgan edi.

## YETTINCHI BOB

Podpolkovnik Svinin Nikolay Ivanovich Millerga o'xshab rahmdil va ko'ngilchan odam emas edi. Svinin berahm edi, ammo shuning bilan birga, u «xizmatparast» odam ham edi (bunday odamlar to'g'risida gapirganda odatda achinib gapiradilar). Svinin qattiqqo'l edi, hatto intizom o'rnatishda o'zining qattiqqo'lliligi bilan maqtanardi ham. Unda yovuzlik qilish odati yo'q edi, odamni bekorga xafa qilishni ham yomon ko'rardi; ammo biron kishi o'zining xizmat vazifasini buzdimi, bas, Svinin uni g'ajib tashlardi. U, jinoyatchining nima uchun jinoyat qilganligini, buning sabablarini muhokama qilib o'tirmasdi, uning fikricha, har qanday jinoyat – baribir jinoyat edi. Shuning uchun qorovul rotasidagilar askar Postnikov o'z postini tashlab ketgani uchun jazo tortish kerak bo'lsa – muqarrar tortajagini va buning uchun Svinindan shafqat kutish behuda ekanligini yaxshi bilardilar.

Boshliqlar va o'rtoqlari o'rtasida bu shtab zobitining shunday dong'i chiqqan edi, lekin ular orasida Svininni yomon ko'rganlar ham bor ediki, chunki u vaqtlarda «gumanizm» va shunga o'xshash bo'lmag'ur fikrlar hali tugatilmagan edi. «Gumanistlar»ga yoqqan

yoki yoqmagan narsalarga Svinin mutlaqo befarq edi, uni bu narsalar umuman qiziqtirmasdi. Svininga yalinish, iltimos qilish, hatto uning rahmini keltirish mutloq foydasiz ish edi. O'sha zamonning mansabparast odamlari singari, u bu hislardan o'zini xoli tutar, o'z qalbini toblab olgan edi; ammo afsonaviy Axilles singari uning ham ojiz ta'raflari bor edi.

Svinin yaxshigina xizmat martabasiga erishgandi, o'z mansabini ehtiyot qilardi, unga biron dog' tushirmaslikka tirishardi. Ammo uning qo'li ostidagi batalyon askarlaridan birining «badbaxt jinoyati» uning qismida o'rnatilgan intizomga, albatta, dog' bo'lib tushar edi. Askarlaridan birining olijanoblik qilaman deb qilgan jinoyati uchun batalyon komandiri aybdormi, yo'qmi, Svininning ko'ngildagidek boshlangan martabasini ko'taruvchi yo pasaytiruvchi odamlar bu bilan qiziqmaydilar, albatta, balki hatto aksari bu lavozimga o'z odamlarini qo'yish maqsadida, uni oyog'idan chalib yiqitishdan toymaydilar ham. Podshoh hazratlarining jahli chiqib, polk komandiriga: «Zobitlaringizning mazasi yo'q», «Askarlaringiz orasida intizom yo'q» deyishi ham mumkin. Kim qildi? Svinin qildi! Kim aybdor? Svinin aybdor! Shundan keyin «Svinin kuchdan qolibdi» degan gap hamma-ning og'zidan tushmaydigan bo'ladi, uning ojizligi misqollab yig'gan martabasiga o'chmas dog' tushiradi. Oqibatda u, o'z zamondoshlari qatorida nom chiqarolmaydi, Rossiya davlati tarixiy shaxslari qatoriga o'z rasmini kiritishga muayassar bo'lolmaydi.

## SAKKIZINCHI BOB

Svinin soat uchlarda, kapitan Millerning xatini olishi bilanoq, o'rnidan sakrab turib, parad kiyimini kiydi va yuragi po'killagancha, darg'azab bo'lib, Qishlik saroy qorovulxonasiga yo'l oldi. yetib kelishi bilan darhol askar Postnikovni so'roq qilib, dahshatli jinoyatga yo'l qo'yilganini bildi. Askar Postnikov soqchilikda turganda yuz bergan hamma voqeani, o'z rota komandiri kapitan Millerga aytib bergan hamma gapni yana sofdillik bilan so'zlab berdi. Askar «xudo va podshoh oldida katta gunoh» qilganini, qorovullikda turganida birdan suvga cho'kib ketayotgan odamning oh-vohlarini eshitib qolib, uzoq payt qiynalganini, xizmat burchi bilan rahmdillik o'rtasida qolib siqilganini va axiri vasvasga berilib, chidab turolmaganini, joyini tashlab,

muzga yugurib borganini, cho'kib ketayotgan odamni suvdan daryo bo'yiga olib chiqqanini va birdan saroy nogironlar jamoasi zobitining qo'liga tushib qolganini gapirib berdi.

Podpolkovnik Svinin nima qilarini bilmay qoldi. So'ng butun alamini askar Postnikovdan oldi: uni shu ondayoq kazarma karseriga qamattirdi, keyin Millerdan gina qilib, uni bir-ikki urushgan bo'ldi, «gumanizm»ngizni harbiy xizmatda qo'llash – bo'lmag'ur narsa dedi. Ammo ishni to'g'rilash uchun bularning bari foydasiz edi. Soqchining o'z postini tashlab ketishiday jinoyatni oqlash u yoqda tursin, juda bo'lmasa afv so'rash uchun ham imkon yo'qligi aniq edi, demak bu hodisani podshoh hazratlaridan sir saqlashdan boshqa iloj yo'q edi.

Ammo buning iloji bormikan?

Har holda iloji bo'lmasa kerak, chunki suvga cho'kib halok bo'luvchining qutqarilganidan faqat soqchilargina emas, balki hech kim bilmay qolgan nogironlar zobiti ham xabardor edi, u albatta, allaqachon bu gapni general Kokoshkinga yetkazgan.

Endi nima qilmoq kerak? Kimdan najot kutish mumkin?

Svinin ulug' knyaz Mixail Pavlovichning huzuriga ot choptirib bormoqchi, hamma gapni ochiq aytib bermoqchi bo'ldi. U zamonlarda shunday odatlar bor edi. Mayli, ulug' knyazning fe'li tor, jahli burnining ustida bo'lsa ham, baqirib-urishsa, so'kib bersa ham mayli, ammo uning odati shunday ediki, oldin qanchalik jahli chiqib, qanchalik tutoqsa, keyin shunchalik pasayib, rahmi kelar va hatto oqlashga ham kirishar edi. Bunday voqealar ko'p bo'lgan, ba'zan jo'rttaga qilar edilar ham. Svinin, so'ksa so'kar dedi-da, noiloj knyaz huzuriga borishga qaror qildi, ammo kechasi saroyga kirib bo'ladimi? Ulug' knyazni bemahal bezovta qilib ham bo'lmaydi. Ammo ertalabgacha sabr qilish, Kokoshkin podshoh hazratlari huzuriga kirib ma'lumot berib bo'lishini kutish – yaramaydi. Svinin shunday o'y-xayollar bilan ezilib o'tirarkan, a'zoi-badani bo'shshib ketdi, va nihoyat uning miyasiga shu mahalgacha kelmagan bir fikr keldi.

## TO'QQIZINCHI BOB

Jang qilish usullari orasida shunday bir usul bor: qamal qilingan qal'a qamalchilarni tahlikaga solib qo'ysa, qal'a yonidan qochish emas, balki to'g'ri uning ustiga bostirib boriladi. Svinin ham to'ppa-to'g'ri Kokoshkinning huzuriga bormoqchi bo'ldi.

Ober-politseymeister Kokoshkin haqida Peterburg ahli dahshatli va bo'lmag'ur gaplarni tarqatib yurardi, odamlarning aytishicha, uning qobiliyati juda zo'r ekan, shu qobiliyati orqali u «pashshadan fil, fildan esa pashsha yasay olar ekan».

Kokoshkin, darhaqiqat, qattiqqo'l va badjahl odam edi, undan hamma qo'rqardi, ammo ba'zi vaqtlarda harbiylarning sho'xlik va hazillariga yon bosardi, bunaqangi hazilkash va sho'x yigitlar u vaqtlarda ko'p bo'lardi, har safar ularga Kokoshkin himmat ko'rsatar edi. U yog'ini surishtirsangiz, Kokoshkin hushiga kelsa ko'p narsalarni qila olardi, uning qo'lidan ko'p ishlar kelardi. Svinin bilan kapitan Miller ham buni yaxshi bilardilar. Miller ham o'z batalyon komandirini darhol Kokoshkin huzuriga borishga, uning olijanoblighi va zo'r qobiliyatidan foydalanib qolish lozimligiga ko'ndirdi. Kapitan Miller, podshoh hazratlarining g'azabini keltirmaslik uchun bu mushkul ahvoldan qutilish chorasini ko'rarkan, Kokoshkin ko'pincha podshoh hazratlaridan bunday ishlarni bekitib keladi, dedi.

Svinin shinelini kiydi-da, ko'zlarini shiftga qadab, bir necha marta: «Yo, parvardigor!» dedi, so'ngra Kokoshkin huzuriga jo'nab ketdi.

Bu gap bo'lib o'tganda soat ertalabki to'rtidan o'tgandi.

## O'NINCHI BOB

Ober-politseymeister Kokoshkini uxlab yotgan yeridan uyg'otib, Svininning juda zarur va kechiktirib bo'lmaydigan ish bilan kelganini ma'lum qildilar.

General darhol o'rnidan turib, sovuqdan eti uvishib, peshanasini ishqalab, Svininning oldiga chiqdi. Svinin gapirgan hamma gapni alohida diqqat bilan, ammo jimgina tingladi. Svinin bo'lib o'tgan voqealarni aytib, gunohidan kechishini so'rab bo'lgandan keyingina Kokoshkin tilga kirdi:

- Askar qo'riqlayotgan joyini tashlab, odamni qutqaribdimi?
- Xuddi shunday, – deb javob berdi Svinin.
- Budkasi-chi?
- Bo'sh qolgan.
- Hm... Uning bo'sh qolganini o'zim ham bilaman. Yaxshiyamki ko'tarib ketishmabdi.

Xotirjamlik bilan aytilgan bu gapdan keyin Svinin, butun voqea unga ma'lum ekan, buni ertalab podshoh hazratlariga qay tarzda aytajagini ham oldindan o'ylab qo'ygan, bu tadbiridan sira ham qaytmasa kerak deb o'yladi. Bo'lmasa, saroy qorovulligida turuvchi askarning o'z postini tashlab ketishiday jinoyat serg'ayrat ober-politseymeyster-ga qattiq ta'sir etgan bo'lardi.

Ammo Kokoshkinning hech narsadan xabari yo'q edi. Suvga cho'kkan odamni chanaga solib olib ketgan nogironlar zobitini so'roq qilgan politsiya boshlig'i, bu ishni arzimas hodisa deb hisobladi. Uning nazarida bu voqea, ishlab charchagan ober-politseymeysterni uyg'otib, bezovta qilishga arzimasdi, buning ustiga voqeaning bunday bo'lganiga boshliqning o'zi ham ishonqiramagan edi, chunki nogironlar zobitining usti-boshi qup-quruq edi. Axir, zobit, suvga cho'kib ketayotgan kishini o'z jonini xavf ostiga qo'yib qutqarib qolgan bo'lsa – usti-boshi ho'l bo'lishi kerak edi-da. Politsiya boshlig'i nogironlar jamoasiga qarashli bu zobitni ko'kragiga medal taqishni havas qilgan maqtanchoq va yolg'onchi odam deb o'yladi, shu sababli, navbatchi bayonnoma yozish bilan ovora ekan, boshliq zobitni ham so'roq qildi, ikir-chikir savollar berish yo'li bilan, haqiqatni bilib olishga urindi.

Bunday hodisaning uning dahasida yuz bergani va suvga cho'kayotgan kishini politsiya emas, balki saroy zobiti suvdan qutqarib olgani ham boshliqqa yoqmagan edi.

Kokoshkinning esa sokinligi va beparvoroq qarashining sababi bor edi: birinchidan, u kun bo'yi ishlab, kechasi ikki yerdan chiqqan yong'inni o'chirishga bosh bo'lib, o'lgudek charchagan edi; ikkinchidan, Postnikov qilgan jinoyatning ober-politseymeyster janoblari-ga bevosita aloqasi yo'q edi.

Shunday bo'lsa ham, Kokoshkin shu ondayoq tegishli amr-buyruqlar berdi.

U Admiralteystvo dahasi politsiya boshlig'ini chaqirtirdi, nogironlar zobiti bilan suvdan qutqarilgan odamni olib kelishni buyurdi, Svininga esa, kabinet yonidagi kichik qabulxonada o'tira turishni aytdi.

So'ngra Kokoshkin o'z kabinetiga kirib ketdi-da, eshikni ochiq qoldirib, stol yoniga borib o'tirib, qog'ozlarni titkilay boshladi; ammo shu ondayoq boshini stolga qo'yib, ko'zi uyquga ketdi.

## O'N BIRINCHI BOB

U vaqtlarda na telefon, na telegraf bor edi, agar biron boshliqning zarur buyrug'ini biron yerga yetkazish kerak bo'lsa, shaharning har tarafiga «qirq mingta chopar» yo'llanar edi.

Bu choparlar telegraf yoki telefon singari tez bo'lmasdi, albatta, ammo bu hodisa shaharni ancha g'ala-g'ovurga solardi va boshliqlarning hamisha hushyor turishlarini ko'rsatar edi.

Politsiya boshlig'i, qutqaruvchi zobit va qutqarilgan odam Admiralteystvo dahasidan harsillab yetib kelgunlariga qadar serg'ayrat va asabiy general Kokoshkin biroz mudrab olib, endi kayfi chog' bo'lgan edi. Bu uning chehrasidan, gap-so'zlaridan ham ko'rinib, bilinib turardi.

Kokoshkin uning huzuriga kelganlarni va ular bilan birga Svininni ham o'z kabinetiga chorladi.

– Bayonnoma qani? – deb so'radi general Kokoshkin politsiya boshlig'iga qarab.

Boshliq indamasdan to'rt buklangan qog'ozni unga uzatdi-da, keyin sekin shivirladi:

– Janobi oliylariga aytadigan maxfiy gapim bor...

– Xo'p, yaxshi.

Kokoshkin deraza yoniga bordi, uning ortidan pristav ham ergashdi.

– Xo'sh, nima deysan?

Pristav bir nimalar deb shivirlarkan, general nuqul tomoq qirardi.

– Hm... Ha-ha!.. Shunaqami?.. Bo'lishi mumkin... Ular suvdan quruq chiqadigan odamlar barisi... Gaping shumidi?

– Shu edi.

General deraza oldidan joyiga kelib o'tirdi-da, bayonnomani o'qishga tutindi. Uni ichida o'qirkan, o'qiyotganlaridan nimalarni o'ylayotganini aftidan bilib bo'lmasdi. Keyin, suvdan qutqarilgan kishiga qarab baland ovozda dedi:

– Qanday qilib saroy oldida suvga tushib ketding, og'ayni?

– Aybimni bo'ynimga olaman, – dedi u kishi.

– Shunaqa degin! Mastmiding?

– Yo'q, mast emas edim-u, biroz kayfim bor edi.

– Suvga nega tushding?

– Yo‘lni yaqinroq qilish maqsadida muzdan yurmoqchi bo‘ldim, yo‘ldan adashib suvga tushib ketdim.

– Demak, ko‘zlaringni zulmat bdsagan ekanda, a?

– Ha, qop-qorong‘i edi, hammayoq qorong‘i edi, janobi oliylari.

– Seni suvdan kim tortib chiqarganini ko‘rolmadingmi?

– Ko‘rolmadim. Mana bu kishi qutqarib olgan bo‘lsalar kerak, – deya zobitni ko‘rsatdi u. – Yaxshilab razm sololmadim, chunki judayam qo‘rqib ketgandim.

– Odam uxlaydigan vaqtda daydib yurganlaring yurgan! O‘zingni qutqarib qolgan odamga yaxshilab qarab ol. Bir olijanob kishi seni deb hayotidan ayrilishiga sal qoldi.

– Bir umr minnatdorman.

– Ismingiz nima, janobi zobit?

Zobit ismini aytdi.

– Eshitingmi?

– Eshitdim. janobi oliylari.

– Pravoslavmisan?

– Pravoslavman, janobi oliylari.

– Bu kishining haqiga duo qilib yur.

– Duo qilaman, janobi oliylari.

– Xudoga shukur qil, bor endi ketaver, ortiq keraging yo‘q.

Qutqarilgan kishi ta‘zim qildi-da, sevina-sevina chiqib ketdi.

Svinin ishning bu tarzda ketib qolganidan lol-u hayron edi.

## O‘N IKKINCHI BOB

Kokoshkin nogironlar zobitiga qarab dedi:

– Siz o‘z joningizni xatarga qo‘yib, shu odamni qutqardingizmi?

– Xuddi shunday, janobi oliylari.

– Vaqtning kechligi tufayli bu ishning guvohlari yo‘q, bo‘lmasligi ham mumkindir?

– Shunday, janobi oliylari, tun qorong‘i edi, daryo bo‘yida soqchilardan boshqa hech kim yo‘q edi.

– Soqchilarni aytmasangiz ham bo‘ladi: soqchi o‘z postini qo‘riqlaydi, boshqa ishlar bilan chalg‘imasligi kerak. Men bayonnomada yozilgan gaplarga ishonaman. Axir, uni sizning gaplaringizdan kelib chiqib yozib olishganku! Shundaymi?



Bu soʻzlarni Kokoshkin xuddi bировga doʻq qilganday, ovozini balandlatib, niqib-niqib aytdi.

Ammo zobit esankiramadi, koʻzlarini jovdiratib va koʻkragini ke-rib, dedi:

– Mening soʻzlarimdan aynan yozilgan, janobi oliylari!

– Sizning bu ishingiz mukofotga loyiq ish.

Zobit minnatdorligini bildirib, egilib-bukilib taʼzim qila boshladi.

– Arzimaydi, – davom etdi Kokoshkin. – Sizning fidokorona ishingizni podshoh hazratlariga aytaman, balki bugunoq koʻkragingizni medal bezatar. Hozir endi uyingizga ketsangiz ham boʻladi, issiq choy iching-da, uyingizdan hech qayoqqa chiqmay oʻtiring, chunki bugun kerak boʻlib qolishingiz mumkin.

Nogironlar zobiti oʻzida yoʻq sevinib yana bir bor taʼzim qilgach, chiqib ketdi.

Kokoshkin uning ketidan qarab turib, dedi:

– Balki podshoh hazratlari uni oʻzlari chaqirtirib qolishlari mumkin.

– Xoʻp boʻladi, tushunarli, – dedi politsiya boshligʻi.

– Siz ham boʻshsiz.

Politsiya boshligʻi kabinetdan chiqdi-yu, eshikni yoparkan, xayriyat-e deb choʻqindi.

Nogironlar zobiti politsiya boshligʻini pastda kutib turgan edi, ilgarigiga qaraganda endi ularning munosabatlari ancha quyuqlashib, birga ketishdi.

Ober-politseymeysterning kabinetida yolgʻiz Svinin qoldi. Kokoshkin unga uzoq tikilib qaragach, soʻradi:

– Ulugʻ knyazning huzuriga bormadingizmi?

Ulugʻ knyaz deb Mixail Pavlovichni aytar edilar.

– Toʻgʻri sizning huzuringizga keldim, – dedi Svinin.

– Soqchilar zobiti kim?

– Kapitan Miller.

Kokoshkin yana Svininga uzoq tikilib qaradi-da, dedi:

– Menga oldin boshqacharoq aytgan edingiz, shekilli.

Svinin uning nima demoqchi ekanligiga tushunmagani uchun. indamay qoʻya qoldi.

Kokoshkin yana dedi:

– Hay, mayli, borib beimalol uxlayvering.

Shu bilan muloqot tugadi.

## O'N UCHINCHI BOB

Kunduz kuni soat birda nogironlar jamoasi zobitini yana Kokoshkinning huzuriga chaqirtirishdi. Kokoshkin, podshoh hazratlari saroyi qoshidagi nogironlar jamoasida shundayin fidokor zobitlar borligidan xursand bo'lganini va unga «Halok bo'layotganlarni qutqargani uchun» medali in'om qilinganini juda muloyimlik bilan ma'lum qildi. Kokoshkin o'z qo'li bilan medalni qahramonning ko'kragiga taqib qo'ydi, zobit general huzuridan gerdaygancha chiqib ketdi. Shu bilan ishni tamom deyish mumkin edi, biroq podpolkovnik Svinin uchun unda hali oxirigacha yechilmagan yana allanarsa borday tuyular va u o'zini «point sur les»<sup>1</sup> qo'yishga majburday sezardi.

U shu qadar xavotirda ediki, uch kungacha betob bo'lib yotib qoldi, to'rtinchi kuni o'rnidan turdi-da, Pyotrga atab qurilgan cherkovga borib, duo o'qittirdi, so'ng ko'ngli sal joyiga tushib uyiga qaytdi-da, kapitan Millerni chaqirtirdi.

– Xudoga shukur-ey, Nikolay Ivanovich, – dedi u Millerga, – boshimizga tushgan tahlikadan qutildik, soqchimizning badbaxt ishi butkul bosti-bosti bo'lib ketdi. Endi bermalol nafas olsak ham bo'ladi. Ishning bunday xayrli, tinchgina yakun topgani uchun eng avvalo parvardigordan, keyin esa general Kokoshkindan minnatdor bo'lmog'imiz lozim. Odamlar uni berahm va toshyurak deyishadi, ammo men uning shu qadar olijanobligidan minnatdorman, uning aqliga qoyilman. Nogironlar jamoasiga qarashli betamiz maqtanchoqni aslida medal bilan mukofotlash emas, balki o'lgudek do'pposlab, savalash kerak edi, ammo general Kokoshkin uning maqtanchoqligidan juda ustalik bilan foydalandi, bundan boshqa iloji ham yo'q edi-da, o'zi: bu yo'l bilan ko'p kishilar qutqarib qolindi, butun ishni Kokoshkin mohirlik bilan bu yoqqa burib yubordi, natijada hamma omon qoldi, olam guliston. Gap ikki oramizda qolsin-u, ammo Kokoshkinning o'zi ham mendan xursandmish, menga buni ishonchli odamlar aytishdi. Mening hech qayerga bormay, to'g'ri uning huzuriga yo'l olganim va betamiz zobit bilan olishmaganim unga ma'qul kelibdi. Xullas, hamma omon qoldi, bundan buyon bu ishning oqibatidan qo'rqmasak ham bo'ladi, ammo yana jimitdek kamchiligi bor. Biz ham Kokoshkin

<sup>1</sup> Nuqta qo'yish, ya'ni ishni tamomila tugatish (*frans.*).

singari ishni shunday yopishimiz kerakki, uning yomon oqibatlaridan o'zimizni tamomila holi qilib qo'yimg'imiz lozim. Yana bir kishining ahvoli hozircha noma'lum. Men askar Postnikovni aytyapman. U hali ham karserdagi, qamoqda. O'z taqdirining nima bo'lishini kutib o'tirgan bo'lsa kerak. Uning ham og'ir ahvolini yengillatish kerak.

– Ha, albatta! – dedi Miller xursand bo'lib.

– Albatta! Buni hammadan ham ko'ra siz puxta bajarasiz: hozirning o'zida kazarmaga boring-da, rotangizni to'plab, askar Postnikovni qamoqdan chiqartirib, quoldoshlari huzurida ikki yuz marta savallattiring.

## O'N TO'RTINCHI BOB

Miller avvaliga taajjublandi, so'ng ishning omonlik bilan tugashi munosabati bilan, karserdagi o'z taqdirining qanday kechishini kutave-rib toqati toq bo'lgan askar Postnikovning gunohidan kechishga Svininni ko'ndirishga urinmoqchi bo'ldi. Ammo Svininning jahli chiqib ketdi va Millerning gapini shartta bo'ldi.

– Yo'q, – dedi u, – bu ishingizni qo'ying: men hozir sizga tartib saqlash to'g'risida gapirsam, siz o'zingiz tartibsizlik qilyapsizmi? Qo'ying bu ishingizni!

Svinin gapirish ohangini o'zgartirib, keskinlik bilan dedi:

– Bu ishda sizning ham aybingiz bor, negaki sizda harbiy kishiga yarashmagan rahmdillik bor, tabiatigizdagi bu kamchilik o'z qo'l ostingizdagi odamlarga ham yuqqan, shu sababdan men sizga jazolash ustida shaxsan o'zingiz turishingizni va aybdorni jiddiy ravishda savallattirishingizni buyuraman. Buning uchun, aybdorni harbiy xizmatdan yaqinda kelgan yosh askarlarga savallattiring, chunki keksa askarlaringiz gvardiya liberalligi bilan zaharlangan, ular o'z o'rtoqlarini urmaydilar, balki uning yelkasidagi burgalarni haydaydilar, xolos. Gunohkorning qanday jazolanganini o'zim borib ko'raman.

Boshliqning buyrug'ini bajarishdan bosh tortib bo'lmas edi, albatta, shuning uchun yuragi bo'sh N.I. Miller batalyon komandiridan olgan buyruqni to'la bajo keltirishi kerak edi.

Rota Izmaylov polki joylashgan kazarma qo'rasida saf qilindi, yetarli miqdorda gavronlar ham keltirildi, karserdan olib chiqilgan Postnikovni harbiy xizmatdan yaqinda kelgan yosh askarlar jon-jahdlari

bilan savaladilar. Gvardiya liberalligi bilan hali zaharlanmagan bu yigitchalar uning yelkasiga batalyon komandiri tayinlagan miqdorda «point sur les»ni qo'ydilar. So'ngra jazolangan Postnikovni tagiga to'shalgan shinelga solib, polk lazaretiga olib ketishdi.

## O'N BESHINCHI BOB

Jazoning ijro etilgani to'g'risida axborot olgan batalyon komandiri Svinin darhol lazaretga borib, Postnikovni ko'rdi, buyrug'ining to'la-to'kis va ko'ngildagidek bajarilganini ko'rib, xursand bo'ldi. Shafqatli va ko'ngli bo'sh Postnikov «jiddiy savalangan» edi. Bundan xursand bo'lgan Svinin unga otalarcha g'amxo'rlik qilib, to tuzalgunicha rohat qilsin uchun Postnikovga o'z nomidan bir qadoq qand bilan chorak qadoq choy buyurtirdi.

Bu buyruqni karovatda inqillab eshitib yotgan Postnikov shunday dedi:

– Ko'p minnatdorman, janobi oliylari, otalarcha mehribonlik ko'rsatganingiz uchun rahmat.

Haqiqatan ham u «minnatdor» edi, chunki uch kun karserdagi o'tirib, bundan battarini kutgan edi. Harbiy sud hukmi asosida beriladigan jazolarga qaraganda ikki yuz tayoq u zamonlarda yengil jazo hisoblanardi-da; agar Postnikovning baxtiga biz yuqorida aytgan o'zgarishlar yuz bermaganda edi, uni albatta harbiy sud hukmi bilan jazolagan, bo'lar edilar.

*(Hikoya qisqartirishlar bilan tarjima qilindi).*

*Dilafroz MATYOQUBOVA tarjimasi*





## QAROQCHI

Biz Makar tomonlarga, yarmarkaga yo‘l oldik. Tarantas<sup>1</sup> kattagina, yog‘ochdan ishlangan edi. Aravaga mendan tashqari besh kishi chiqdi. Men, nijniy lomovlik savdogar, Astraxandagi tijoriy uylardan birida ishlaydigan xizmatchi va uning ikki navqiron sherigi, Golovinshina qishlog‘idan chiqqan tijoratchi dehqon – jami olti kishi bo‘ldik. Men, savdogar va xizmatchi orqa o‘rindiqa, soyabon tagiga joylashdik, xizmatchining ikki hamrohi bizga ro‘parama-ro‘para o‘tirdi, dehqon esa qutichasi bilan izvoshchining yonidan joy oldi. Avvaliga pochta tashiydigan aravaga tushib ketmoqchi edik, ammo «P» guberniyasida ushlanib qolishdan cho‘chidik. Hozir u yerlar Sigantov degan odam hukmida edi (famiyasi o‘zgartirilgan). Sigantov u yerlarda boshliq sanalib, shu paytgacha ancha-muncha tulki-yu, qizg‘ish yungli darandalarning boshiga yetib bo‘lgandi. Qo‘l ostidagilar ham boshliq soyasida ko‘ngliga kelganini qilib yurardi. Yarmarka kunlari ularning, ayniqsa, ovi yurishardi; o‘tkinchilar ko‘p, barisi savdogar, hamyoni qappaygan, eng muhimi mo‘min-qobil odamlar; ularni har qanaqasiga qilib aldash mumkin: bir-ikki rubl ular uchun pisand emas, kech qolishsa – bir amallab yetib oladigan odamlar. Sigantovchilar stansiyalardagi mojarolardan ham qo‘rqishmas edi. «Daftari nima ekan? Bunaqa daftarlar bizga chikora. Istaganingni yozaver daftaringga. Bitta yangi daftar uch so‘m turadi, yangisini olib beramiz» deyishardi. Mana shularni mulohaza qildik-da, bitta tarantasni o‘zimiz ijaraga olib yo‘lga tushdik. Bunaqangi aravada yurish juda qulay yoki safar maroqli o‘tadi deb bo‘lmasa ham, har holda mojaro kam bo‘ladi, qolaversa, yurak qurg‘ur yaxshilikdan umidvor edi. Ob-havo ham ko‘ngildagidek: quruq va issiq. Oldimizda bepoyon yo‘l, quloqqa aravaning bir maromdagi g‘ichirlashi eshitiladi. Yo‘ldagi hamrohi bilan juda tez apoq-chapoq bo‘lib ketish faqatgina rus xalqiga xos xususi-

---

<sup>1</sup> *Tarantas* – odam tashiydigan to‘rt g‘ildirakli arava.

yat. Shu ko‘yi biz ham xuddi ming yillik qadrdonlardek valaqlasha boshladik. Suhbatimiz bir daqiqa bo‘lsin uzilgani yo‘q, bu bilan yuziga ro‘molcha tashlab olib nuqul uxlashga tirishayotgan savdogarning joniga tegdik. Bir-ikki burnining tagida bo‘lib turgan g‘ala-g‘ovurga dimog‘ida ming‘irlab nimadir dedi-yu, keyin o‘zi ham gapga aralashib ketdi. Hatto eng ko‘p gap sotgan ham u bo‘ldi. O‘zining gapdonligi bilan astraxanlik savdogarning sherigi Gvozdikovning joniga tegdi. Yigitcha juda ajoyib edi, yuzidan ko‘p ham aqlli odamga o‘xshamasa-da, har holda istarasi issiq, xushsurat. Deyarli har daqiqada bitta yangi hazil o‘ylab topadi, arava qahqahadan nari borib beri keladi. Hammadan ko‘ra sherigiga ko‘proq tegishadi. Gvozdikovning sherigi qirq yoshlar atrofidagi erkak, sochi, qosh-ko‘zlari tim qora. O‘siq qoshlari ustiga bir tekis qilib keschilgan gajjaklari tushib turadi, shu alfozda qadimgi rus mazhabiga mansub ruhoniylarni eslatib yuboradi. U gap orasida o‘zi ham «qadimgi e‘tiqodga» ko‘ra yashayotganini qistirib o‘tdi. Aftidan sherigining hazillariga bazo‘r toqat qilar, suhbatni tezroq odob-axloq mavzusiga tortishga harakat qilar edi. Gvozdikov unga «malla ko‘zli tullen» deb laqab qo‘yib oldi. Kotibning o‘ziga keladigan bo‘lsak, xo‘ppa semiz, bo‘ychan, salobatli odam. Paxmoq soqoli salobatiga salobat qo‘shib turadi. Bir so‘z bilan aytganda kamtarin, kamsuqum rus kishisi. Izvoshchining yoniga o‘tirib olgan dehqon yo‘l bo‘yi deyarli hech narsa demadi. Ahyon-ahyonda suhbatga umuman yopishmagan savollarni berib qoladi, Gvozdikov esa uni darrov kulgiga oladi. Arzamasda bir kun turib qoldik, qosh qorayganda yo‘lga tushdik. O‘n besh chaqirimcha yo‘l yurganimizdan keyin ancha qorong‘i tushib qoldi, otni almashtirmoqchi bo‘lgan qishloqqa yetganimizda butunlay kech kirgan edi. Oldimizga chiqqan xotinga eng avval samovar buyurdik, keyin har kim tugunini, ipga bog‘langan teshikkulchasini olib uyga kirdi, «malla ko‘zli tullenini» tarantasda qorovul qilib qoldirdik. Uy dim, nafas olib bo‘lmas edi. Stolni dahlizga olib chiqdik, o‘rindiqqa o‘tirdik-da, pon-ponlarimizni o‘rtaga qo‘ydik. Bir soatlardan keyin boyagi xotin ko‘m-ko‘k ko‘karib ketgan, jo‘mragi teshik samovarni oldimizga keltirib qo‘ydi.

– Otni qo‘shaversinmi? – deb so‘radi xotin, jo‘mrakdan tomayotgan tomchi tagiga zarang kosa qo‘ya turib.

– Qo‘shaversin, qo‘shaversin, shahlo ko‘zli go‘zalim! – dedi Gvozdikov.

- Erkaklaring qani? Yo bir o‘zingmisan? – so‘radi savdogar.
- Nega yolg‘iz o‘zim bo‘lar ekanman? Xudoyim men bilan birga.
- Demak, seni xudo asrar ekan-da.
- Bo‘lmasa kim asrardi? Xudoyim asraydi-da.
- Erkaklardan kimdir bormi?
- Erkaklardanmi?
- Ha.
- Xo‘sh, qaynotam, xo‘jayin va uning ukasi, keyin bir yosh bola.
- Ayollardan bir o‘zingmisan?
- O‘zim. Qaynonamni bahorda dafn qildik, yigitchani kuzda uylantirsakmikan deb turibmiz.
- Erkaklar qayerda?
- Qayerda bo‘lardi, o‘smiri ertalab arava haydab ketgan, savdogarlarni olib ketganicha hali yo‘q, qaynotam blan erim qo‘shnimiznikida, tergovchi so‘roqqa chaqirtirgan ekan.
- Qanaqa so‘roq?
- Yaqinda o‘rmonda bitta yo‘lovchining yo‘lxaltasini kesib, tunab ketishibdi.
- Kim kesgan? Kim tunagan?
- Kim bilsin? Hozir kim ko‘p, yo‘lda valaqlagan ko‘p. Yarmarka mavsumi emasmi, o‘g‘ri ham, to‘g‘ri ham yo‘lda.
- Tergovchining oldidan qachon kelishadi?
- Xotin ikki barmog‘iga tufladi-da, shamning kuyasini olib tashladi.
- Hozir kelib qolishar. Kun yorug‘ida ketishgan edi.
- Keyin hamma choy ho‘plashga tushdi, birin-ketin piyolalar bo‘shab yana choy bilan to‘la boshladi. Shu payt katta darvozaning g‘irchillab ochilgani eshitildi, o‘sha tomondan odamlarning g‘o‘ngir-g‘o‘ngir ovozi kela boshladi. Bir necha daqiqa o‘tib yo‘lakda baland bo‘yli, yuzidan zahar tomib turgan darg‘azab erkak paydo bo‘ldi. Ehtirom yuzasidan bo‘lsin biz tomonga qarab bosh silkib ham qo‘ymadi, to‘ppa-to‘g‘ri kulbaga borib ayolni so‘roqqa tuta boshladi.
- Mikitka hali ham qaytmadimi? – so‘radi u toqatsizlanib va vajohat bilan.
- Qaytganicha yo‘q.
- Nega haligacha olov yoqmading. Kechki ovqatga tayyorgarlik ko‘rmingmi? – u kulbadan chiqdi hamki bizga biron iltifot

ko'rsatishni xayoliga ham keltirmas edi, ortiga o'girilib yana ayolga o'shqira boshladi:

– Hali tarantasni ham qo'raga kiritish kerak edi.

– O'sha yerda turaversin. Biz ketmoqchimiz.

– Ayni yurish vaqtida o'ziyam, – dedi u po'ng'illab va birdan yana xotiniga baqirib qoldi: – Tezroq ovqatning harakatini qil. Qulog'ing tom bilganmi nima balo?

– Buncha tomoq yirtib bo'kirmasang, ko'rmayapsanmi, dasturxon solyapman-ku, – kulba ichidan ayolning asabiy javobi yangradi.

Erkak kulbadan qaytib chiqdi, tashqarida yana g'ala-g'ovur boshlandi, bir mahal «yemini soldim dedim-ku, karmisan nima balo? Soldim yemini, yeyishyapti» degan xirqiroq ovoz keldi. Keyin darvoza ochilib pichan ustidan bir mo'ysafid xatlab o'tdi. Cholning sochsoqoli dokadek oppoq, beli ham ancha bukchayib qolgan edi.

– Choymi yoki shakar, nima tilaysizlar, hurmatli savdogarlar? – so'radi u.

– Biz kamsuqum odamlarmiz, ota, tilagimiz ham shunga munosib, – javob qildi xizmatchi, lekin chol uning so'zlarini navbatdagi balandparvoz gap deb o'yladi chog'i javob qaytarib o'tirmadi.

– Yo'lga tushmoqchimisizlar? – so'radi chol ikkala qo'lini stolimizga tirab turib.

– Ha, ketmoqchimiz.

– Juda zarurmi shu safar sizga?

– Ha, zarur.

– Yarmarkagami?

– Ha.

– Lekin tunda yo'l yurmaganingiz ma'qul, – dedi u hammamizning ko'zimizga birma-bir qarab.

– Nimaga endi?

– Kechasi yo'lto'sarlar bor-budingizni shilib olshadi-ku.

– Yo'lto'sarlar?!

– Ha, hammani yaxshigina «siylashyapti». Juda notinch. Uch kundan beri hammayoqqa kazaklar qo'yishgan. Jar yoniga ham qorovul tayinlashdi. Yerga katta-katta handaqlar qazib qo'yishgan emish, mana kecha qo'shni barin rafiqasi bilan ketayotgan ekan, o'sha handaqqqa tiqilib qolibdi, foytunni beomon talashibdi o'ziyam.

– Kim ekan ular?



– Bunisini endi xudo biladi.  
– Hech kim aft-angorini ko‘rmabdimi?  
– Aftidan, barin bilan rafiqasi aravaning orqa tomonida o‘tirgan chog‘i, shuning uchun hech narsani ko‘rmagan. Lekin kampirsho o‘ziga yetgulik edi. Bunaqa vaqtda kim e‘tibor qiladi deysiz.

– Aravakash-chi?  
– Ha, aravakashmi, balki u ham ko‘rmagandir?  
– Balki ko‘rgandir? – o‘smoqchiladi Gvozdikov.  
– Kim biladi deysiz, ko‘rgan taqdirida ham qo‘lidan nima kelardi, bunday dushman bilan olishib bo‘lar ekanmi?  
– Nima uchun izg‘ib yurishibdi ular o‘zi?  
– Bekorchilikdan! – uning o‘rmiga qo‘lida fonus bilan kirib kelgan xizmatchi ayol asabiy ohangda javob berdi.

Hech kim suhbatni ortiq davom ettirishni istamadi. Hammaning ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi.

– Barisining topib olgan gapi shu: ketamiz-chi-ketamiz! – dedi erkak o‘ziga o‘zi gapirayotgandek. – To‘xtab tur, picha sabr qil deganga ko‘nmaydi, aravani qo‘shirib olishadi, ikki orada baloga biz qolamiz, so‘ng bizni sudrashgani-sudrashgan.

– Nega endi sudrashadi? – so‘radi yana xizmatchi.  
– Bunisini tergovchilarning o‘zidan so‘raysan.  
– Birovni ko‘rdingmi, biron narsani eshitingmi, deb so‘rashadi-da, – dedi chol yumshoqqina qilib.  
– Demak, shunday deng.  
– Ha, shunday.  
– Rosa qiynaydilar, ko‘rmaganingni ham ko‘rdim deb aytishga majburlaydilar, – qo‘shib qo‘ydi mo‘ysafid.  
– Unda marhamat qilib o‘zing aytaqol.  
– Nimani?  
– Nimani bo‘lardi haqiqatni-da, – suhbatga yosh yigitcha qo‘shildi.

– Haqiqatmi? Bilganim shuki, haqiqatning oyog‘i yalang, birodar, mening kallam esa o‘zimga ham kerak.

Ayol katta idishni to‘ldirib kvas olib keldi, uni stolimizning bir chekkasiga qo‘ydi, yana qo‘lida uchta yog‘och qoshiq va bir qadoq non bor edi, ularni ham stol ustiga qo‘ydi. Ikkala erkak bilan ayol non turgan eshikka qarab cho‘qinishdi-da, ovqatlanishga tushishdi. Chol

savdogar yoniga o'tirdi, erkak bilan xotin tikka turishardi. Gvozdkov qadahining tagida qolgan kvas quyindisini yerga sepib yubordi, keyin «malla ko'zli tullen» bilan navbatchilik almashish uchun ketdi. Xiyol o'tib «malla ko'z» kirib keldi. Ikki barmog'i bilan cho'qinib, qanddan tishlab, choydan xo'pladi.

– Endi yo'l yurish yaramaydi, – dedi u piyolasini to'ldirish uchun samovarga qo'l cho'zar ekan.

– Nega endi? – deyarli hamma bir vaqtning o'zida shu savolni berdi, uy egalari ovqat bilan ovora bo'lib bizning gaplarimizga e'tibor berishmadi.

– Tunda juda xavfli bo'ladi deyishyapti.

– Axir, biz besh kishimiz-ku.

– Go'yoki besh kishi bo'lsangiz sizdan birov cho'chiydigandek, – dehqon o'rnidan turdi.

– Masalan, sen oltinchimiz bo'lasan.

– Nima men? Qo'limdan bir ish keladi deb o'ylaysizmi? Mening ishim yo'ldan ko'z uzmaslik, vassalom.

– Aravakash nima ham qila olardi deysiz, janoblar? – dedi mo'ysafid. – Aravakash odatda ko'rganini ham ko'rmadim deydi.

– Nega endi?

– Qoidasi shunday-da.

– Har holda, baribir yo'lovchilar nima uchun dod solishmas ekan-a?

– Ortga qaytayotganda kimga dod solaman? – istehzo qildi yigit.

– Unda nega dod solishing kerak?

– Ketayotganda nima uchun dodlagan bo'lsam, shunga-da!

– E, yo'q, himmatli savdogarlar, bunaqasi ketmaydi, – yana gapga aralashdi mo'ysafid, – arava sizlarni eltib qo'ygandan keyin ortga qaytishi kerakmi axir. La'nati yo'lto'sar biror ovloqda bekinib poylab turgan bo'lsa, yana yonida sherigi ham bo'lsa, unda aravakash sho'rlik nima qiladi? Ichak-chavag'ini ag'darib, kallasini sapchaday uzib tashlaydi-qo'yadi.

– G'irt bema'nilik. Safsata.

– Nega be'manilik bo'larkan? Nima, bunaqa voqealar bo'lmagan deysizmi? – gapga aralashdi erkak.

– Haqrost, ularga qarshi hech bir ish qila olmaysan, – dedi chol.

– Rosa yurak oldiribsizlar-ku!

– Yurak emish! Ming dovyurak bo‘l, baribir, dunyodan ustun kelolmaysan, – dedi yana erkak.

– Dunyoning nima aloqasi bor?

– Dunyonimi?

– Ha.

– Juda qiziq gaplarni gapirar ekansan! Dunyoning nima aloqasi bor emish! Jahl otiga minsa – hovlimga o‘t qo‘yib yuboradi, butun qishloqni kunpayakun qiladi. Mana, dunyoning aloqasi!

– Yondirish oson ekan-da!

– Ular aql bovar qilmas xunrezliklarni qilishadi.

– Kazaklar-chi? Qaramaydimi?

– Kazaklarga nima? Ularning ish-yumushi tayin: tovuq ovlaydi, juda zeriksa ayollarni ovlaydi, balki o‘zlari ham sherikchilik qilishar...

– Nahotki, o‘g‘rilar bilan-a?

Erkak javob bermadi.

– Kim biladi deysiz, – dedi chol o‘g‘lining o‘rniga javob qilib. – Odamlar shunday deyishadi, biz bilmaymiz. Qayerga, qanday odam tayinlashni boshliqlarning o‘zlari bilishadi.

– Janoblar, aftidan tunab qolganimiz ma‘qulga o‘xshaydi, – xizmatchi bizga yuzlandi.

– Tunab qolish kerak bo‘lsa, tunab qolamiz-da, – hamma bir ovozdan uning gapini ma‘qulladi.

Yo‘lovchilarda safar ishtiyoqi so‘ndi-qoldi. Mezbonlar bunga unchalik ham e‘tibor berib o‘tirishmadi, faqat yigitchaning avzoyi o‘zgardi. U endi ancha o‘zini bosib olgandek ko‘rinardi. Keyin birikki ho‘plam choy ichdi. Shundan so‘ng ovozi ham o‘zgarib qoldi.

– Odam o‘ldirish ham, qishloqqa o‘t quyib yuborish ham o‘g‘riga baribir. Uning ishi shu. Ikki orada baloga biz qolamiz: nega ushlamading, nega tutmading deb sudrashgani-sudrashgan. Buning ustiga, yurt oldida yana javobgarsan.

– U muttahaamlarni hech ko‘rganmisizlar o‘zi?

– Ko‘rganimizdan nima naf?

– Yo‘q, men boshqa ma‘noda so‘ragan edim, umuman, ularning aft-angori qanday?

– Ular ham xuddi yirtqich hayvondek gap. Sen panada pisib yotgan yirtqichni faqat hujumga o‘tganidagina ko‘rasan.

– Sen o‘zing ko‘rganmisan?

Erkak jim bo‘lib qoldi, qo‘lidagi qoshig‘ni stol ustiga qo‘ydi. Ayol ovqat suzib kelish uchun ketdi.

– Olti yilmidi, balki undan ham ko‘proqdir, bir marta ko‘rib yuragim chiqayozgan edi... – deya hikoyasini boshladi erkak.

Biz diqqat bilan uni tinglay boshladik.

– Bundan o‘n chaqirimlar narida, katta yo‘ldan sal chetroqda yana bitta qishloq bor, – ertaga o‘zlarinigiz ham ko‘rasizlar, – ancha katta qishloq. O‘sha qishloqdagi bir odam ot sotayotgan edi. Nashinolik erkaklar o‘sha tulporni juda maqtashgandi: o‘ynoqi, chopqir, baquvvat ot deyishdi. O‘sha kezlarda, men sizlarga aytsam, otimiz mayib bo‘lib qolgan edi, vaqt esa, xuddi hozirgidek tig‘iz, yarmarka payti, ish ko‘p. O‘sha kuni quyosh chiqmasidanoq o‘rnimdan turdim, kissamga qirq rublni soldim-u, katta gavron kesib olmoqchi bo‘ldim, vaqt bemahal edi. Daraxtlar orasidan birisini tanlab kesib oldim-da, pichoq bilan novdalarini kesib, yo‘nib ketaverdim. Juda yaxshi tayoq chiqdi. Birovni bir ursa o‘ldiradigan kaltak bo‘ldi-da, deb ketaverdim. Yana uch chaqirimcha yo‘l yurib, o‘rmon boshiga yetib qarasam, mendan o‘ttiz qadamcha narida, yo‘l chetida, bir kishi oyog‘ini ariqqa solib o‘tiribdi. O‘zi boshyalang, sochlari xuddi yosh rohibining sochlariga o‘xshash uzun, ustida yirtiq shim, yelkaları yalang‘och. Tizzasida juldur-juldur bir narsa: bit boqib o‘tirgan bo‘lsa kerak. Orqamga qaradim, atrofimga qaradim – hech zog‘ yo‘q. Qo‘rqib ketdim. Ortga qaytay desam – quvadimi deb cho‘chiyman, oldinga yuray desam ham qo‘rqaman. Eh, nima bo‘lsa bo‘lar, xudo panohida saqlar dedim-da, oldinga qarab boraverdim. Oldiga yaqin borishim bilan, tizzasidagi juldurini yerga tashladi, aftidan askarlarning kiyimiga o‘xshadi. O‘zim yurib borayapman-u, yuragim taka-puka, ammo hamon oldinga qarab boraman. Xuddi uning yoniga borganimda o‘rnidan turdi. Qarasam – qo‘lida hech narsasi yo‘q.

Ayol bir tovoq shavla suzib kelib, stolning o‘rtasiga qo‘ydi, erkak yana cho‘qindi-da, ovqatdan bir-ikki qoshiq yeb, hikoyasini davom ettirdi:

– ...Unga juda yaqin borib, razm solib qaradim: boyoqishning ahvolini ko‘rsangiz edi, nihoyatda achinarli. Etiklari burda-burda bo‘lib ketgan, shimining butun joyi yo‘q, davalasi chiqib ketgan, ko‘ylak degan jonivordan yelkasida faqat julduri chiqib ketgan latta qolgan. Askar movutidan tikilgan bo‘lsa kerak, yoqasi yulib olingan.

– Xo‘sh, uyog‘i nima bo‘ldi?

– Nima bo‘lardi, albatta, men unga achindim, rost, juda rahmim kelib ketdi. Askarlikdan qochib yurgan bo‘lsa kerak deb o‘yladim. Mening ham bir akam xizmatda, ularning turish-turmushidan biroz xabarim bor. Men unga juda yaqin bordim. «O‘tinaman sendan, xudo yo‘lida menga ozgina non ber, mana to‘rt kundir-ki og‘zimga ushoq ham olganim yo‘q», dedi. «Eh, birodar, bilganimda olib kelardim, aksiga olib hozir yonimda bir burda non ham yo‘q», dedim. «Unda bir miri ber», dedi. Bir mirini-ku ayamas edim, bir miri emas, undan ko‘proq ham berardim, ammo qo‘rqdim. Hamma pulimni lattaga o‘rab, etigimning qo‘njiga solib qo‘ygan edim, uni olib ochsam, o‘zi nochor odam bo‘lsa, shuncha pulni ko‘rib yana bir balo qilib qo‘ymasin, dedim ichimda. Jussasi mendan kichik, ahvoli nochor bo‘lsa ham, nafs degan narsa yomon, deb o‘yladim. «Xafa bo‘lma, birodar bir mirim ham yo‘q», dedim. Ahyon-ahyonda etigimning qo‘njiga qistirib qo‘ygan pullarimga ko‘z qirimni tashlab qo‘yaman. «Yolg‘on gapirma, dindoshligimiz haqi-hurmati, ber», dedi. Gapidan erib ketib, o‘ylanib qoldim: ham pul bergim keladi, ham qo‘rqaman. Shu payt uning tili chiqib, do‘q qilishga kirishsa deng: «Qani, puldan cho‘z, bo‘lmasa sheriklarimni chaqiraman», deb turib oldi. Xi-yol engashib, qo‘njiga qo‘l sola boshladi. yelkasini xuddi taxtaday egib turardi. Juda qo‘rqib ketdim, qarasam – o‘y o‘ylashga vaqt yo‘q, kaltakni shaxd bilan sermadim-u, kuchimning boricha umurt-qasiga boplab tushirdim. Ikki qo‘lini kergancha, mukkasidan yiqildi. «G‘ing» deyishga ham ulgurmadi. Faqat bir marta bo‘g‘zidan qisqagina «g‘i-iq» etganga o‘xshash tovush chiqdi-yu, og‘ir oh tortib quladi. Buncha kuch qayerdan kelganini o‘zim ham bilmayman. Bir mahal qarasam, yerda xuddi o‘lik qurbaqadek cho‘zilib yotibdi. Jon holatda olg‘a qarab chopdim, yo‘lda umuman to‘xtamadim. Qishloqqa zo‘rg‘a yetib oldim. Shunaqangi qo‘rqdimki, dushmanimga ham ravo ko‘rmayman...

Biz erkakning zabardast gavdasiga zimdan ko‘z yugurtirdik.

- Qaytib kelayotganingda bor ekanmi?
- Yo‘q ekan. Balki o‘rmon ichiga yashiringandir.
- Uni o‘rib o‘ldirgan bo‘lmagin tag‘in?
- Qachon? Keyinmi?
- Yo‘q, o‘sha urganing zahotiyog‘.

– Bunisi endi Xudoga ayon. Lekin ko‘nglimda dog‘ qoldi. Agar o‘lgan bo‘lsa gunohi mening bo‘ynimda. Ammo o‘ldirish ko‘nglimda yo‘q edi. Keyin keksalarga maslahat soldim, ruhoniy qarshisida tavba-tazarru qildim. Keksalar bo‘lgan ish bo‘ldi, buni hech kim bilmasin, sen bu voqeani qaytib o‘ylama, unut deyishdi. Ruhoniy tavbamni qabul qildi, gunohimdan kechdi, «sen bu ishda gunohkor emassan» dedi, ammo qattiq koyidi. Lekin uning qumga singgan suvdek nomnishonsiz g‘oyib bo‘lgani g‘alati ish bo‘ldi, – erkak biroz sukutdan so‘ng horg‘in qo‘shib qo‘ydi: – Ikki yil o‘zimga kelolmay xavfsirab yurdim, u yer bu yerdan chiqib qolmasmikin dedim-da, hatto soyamdan ham qo‘rqadigan bo‘lib qoldim. Yo‘q, chiqmadi. Xullas, domdaraksiz ketdi.

– Qayoqqa gumdon bo‘lgan bo‘lsa ekan-a? – so‘radi dehqon.

– Kim bilsin, balki hamtovoqlari bo‘lsa, o‘shalar olib ketishgandir... – javob qildi chol.

Nihoyat, uy egalari kechki ovqatni ham yeb bo‘lishdi, biz ham samovarni oxirgi tomchisigacha quritib, choydan to‘ydik.

– Yur, tarantasni olib kirishimiz kerak, – deya o‘g‘li otasi bilan chiqib ketdi.

– Qayerda yotasizlar? – so‘radi ayol, – uydami yoki hovlida?

– Hovlining qayerida uxlasa bo‘ladi?

– Qo‘noqlar odatda anavi pichan ustida yotishadi.

– Ha, mayli, ma‘qul.

Biz hovlida tunaydigan bo‘ldik, osmon to‘la yulduz, havo ham issiq. Hovlining bir burchagi molxona, yana bir burchagi otxona: biri ma‘ragan, biri kishnagan. Ota-o‘g‘il tarantasni itarib kirgizib darvozani tambalashdi.

– Pichanda yotasizlarmi, savdogarlar? – so‘radi erkak.

– Ha, pichanda.

U pichan isi bosib ketgan kichkina ayvonchanning eshigini ochdi.

– Marhamat qilinglar, agar isib ketib, nimanidir olib chiqib tashlashga ehtiyoj tug‘ilsa, bildirib qo‘yarsizlar. Buyumlaringizdan xavotir olmasangiz ham bo‘ladi, bizda shu paytgacha igna ham yo‘qolmagan, – qo‘shib qo‘ydi u, – men o‘zim hov anavi yerda yotaman, – u qo‘li bilan darvoza tagidagi baland karavotni ko‘rsatdi.

Biz to‘shak va yostiq so‘rab oldik.

Besh daqiqadan keyin bostirmaning ichini xurrak va burundan chiqqan hushtak tovushlari bosib ketdi. Xuddi mashshoqlar mashq qilayotganday. Hammadan oldin savdogar xurrak ota boshladi, uning ketidan Gvozdikov jo‘r bo‘ldi. Kun davomida tarantasda yuraverib charchashgan-da, bari darrov qotib uxlab qoldi. Yolg‘iz mening uyqum kelmasdi, uy egasi aytib bergan askar hech ko‘z oldimdan ketmasdi. Go‘yo uning boshi jonsizmish, ko‘zlari shokosasidan chiqib ketganmish, lablari ham ko‘m-ko‘k gezarib ketganmish, tili tishlari orasida qisilib qolganmish, ko‘zlari va burnidan qon oqarmish, tili ham qonga belanganmish, o‘zi o‘rmonga qarab emaklab ketayotganmish; etigining qo‘njida qo‘lda yasalgan va sopi sim bilan o‘ralgan pichoq, kichkina butcha va lattaga tugilgan bir siqim tuproq bor emish. Ehtimol, u tuproqni uzoq yerlardan, keksa otasi, kampir onasi o‘g‘lini ko‘zi to‘rt bo‘lib kutib turgan yurtlardan olib kelgandir; balki yosh xotini ham uni intizor kutib o‘tirgandir yo kazaklar bilan o‘ynashib yurgandir yoki bo‘lmasa o‘lib ketgandir.

Kutinglar, do‘stlar, kutinglar.

*Rohila ABDULLAYEVA tarjimasi*





## UYATSIZ

Biz kichkinagina nosoz kemada dengiz bo'roniga dosh berdik, kemanding qayeriga nima bo'lgan, ochig'i tushunmadim. Keyin matroslar yarim soat ichida hammayoqni epaqaga keltirib qo'yishdi. Biz ham u yoq-bu yog'imizni epaqaga keltirib olgan bo'ldik, ovqatlandik. Har tugul kayfiyatimiz ham joyiga kelib qoldi.

O'zi kamchilikmiz: kema kapitani, ikki flot zobiti, shturman, men va keksa dengizchi Porfiry Nikitich. Meni kemaga «havo almashtirib kelish» va guruh bilan tanishib olish uchun chiqarishgan edi.

Qorin to'q, balo boshimizdan aridi. Qilar ishimiz o'tirib olib gap sotishdan iborat. Tabiiyki, endi suhbatning asosiy mavzusi no-bop ob-havo va uning oqibatlari bo'ldi. Suhbatdoshlar bo'ron bilan bog'liq ancha qaltis voqealarni esga olishdi. Kimdir dengiz va undagi dovullarning inson fe'l-atvoriga ta'siri haqida gapirdi. Albatta, dengiz o'zining ixlosmand dengizchilari tomonidan juda chiroyli ta'riflarni olgan, u dengizchilar nazdida barcha yovuzlik, buzuq fikr, bo'shashgan his va sayoz xulq-atvorning davosi sanab kelingan.

– Xo'sh, siz qanday xulosaga keldingiz?

– Nima deganingiz bu?

– Gap dengiz hayotining aylanishi va uning qanday oqibatlarga olib kelishi haqida ketmoqda. Gap uning inson hayotiga ta'siri, insonning dengiz xizmatiga doir mundir kiyishi haqida emas. Bu borada sizning gaplaringizga qo'shila olmayman, bunday bo'lishi mumkin emas.

– Kechirib qo'yadilar, ma'zur tutsinlar, birinchidan, sizga o'zim to'qib chiqargan gaplarni aytayotganim yo'q. Buni qadim zamonlarda yashagan donishmandlardan biri aytgan.

– Xo'sh, nima bo'libdi, jin ursin ana o'shalarni.

– Birinchidan, men sizga iqtibos keltirgan inson siz aytgan «jin urgur» chala faylasuflar sirasidan bo'lmagan, o'z vaqtida bir necha davlat idoralarida xizmat qilgan. Ikkinchidan, uning qarashlari o'z



davridayoq g'oyat katta hurmat bilan qarshi olingan va olqishlangan. Men ham namunali rus kishisi sifatida mazkur shaxsiyatning hurmat qilinishini talab qilaman, zero u serqirra va iste'dodli rus kishisining yaqqol namunasidir.

– Kechirasiz, unda mazkur gapning tarixiy dalillarini keltira olasizmi?

– Kechirasiz...

Qrim urushidan keyin Peterburgdagi katta yig'inlarning birida Stepan Aleksandrovich Xrulevni uchratib qoldim. Atrofda sonsanoqsiz qurol-yarog' taqib olgan harbiylar, ular orasida o'zimizning qora kiyib yuradigan xizmatchilar ham bor. Ular, menimcha, Stepan Aleksandrovich bilan Sevastopol jangidagi xandaqlarda tanishishgan bo'lsa kerak. Turgan gapki, qadrdonlarim bilan uchrashish men uchun juda yoqimli bo'ldi. Hammamiz bitta stolga o'tdik. Hammamiz gapga berilib ketdik, ora-sira og'zimizni ho'llab olamiz. Xrulev kechalari odatda juda ko'tarinki o'tardi, asosan, karta o'ynaladi, keyin bo'r bilan taxtaga yozib o'ynaladigan tijoriy o'yin ham bor, xullas ular talaygina. Marhum juda jasur odam edi, lekin bundan-da yodda qolarlisi o'tkir hissiyotlarni yaxshi ko'rar edi, ammo o'ylab ko'rsangiz, bu uning vaziyatida kerak, nafaqat kerak balki zarur edi. Lekin biz, dengizchilar kartasiz ham tez til topishib oldik. Hozir o'sha vaqtdagi suhbat mavzusini eslayapman, yangi nashr qilingan «Qrim urushi ichida» kitobini muhokama qilayotgan edik. Kitob o'z davrida juda katta dovruq qozondi va safimizdagi hamma uni o'qib chiqqan edi. Kitob insonlarni junbushga keltirdi. Lekin buning ajablanarli joyi ham yo'q. Chunki u aynan biz haqimizda, Sevastopol jangida boshdan kechirib, hali eskirishga ulgurmagan xotiralarimiz haqida edi. U bizning ochiq yaralarimiz haqida yozilgan edi. Kitobda komissarlik va g'aznadagilarning o'g'riligi, talon-tarojlari haqida hikoya qilingan, biz bu o'g'rilarning sharofati bilan necha marta och, yupun qolganmiz.

Asar nihoyatda tabiiy chiqqan, u bo'g'zimizga tiqilib qolgan alamlarimizni qo'zg'ab yubordi, tabiiyki, ko'pchilikning g'azabi oshdi. Ko'rinishimiz bir alfozda, yer yutkur o'g'rilarni haromidan olib haromiga solamiz. Yonginamda qo'shnim, qora dengiz floti kapitani Yevgraf Ivanovich o'tirardi (juda nozikta'b va shuning bilan bir qatorda mehribon odam edi), bir mahal stol ostidan qo'lini tizzamga

qo'ydi, keyin bo'ynini cho'zib pichirladi. Uning tili biroz chuchuk, duduqlanib gapirardi.

«Bu qanaqasi, – deya o'yladim, – bizdan nima xohlaydi o'zi?»

– Ma'zur tutasiz, – deyman unga, – azizim, men ham bu yerda siz qatori mehmonman. Agar sizda nozikroq istak bo'lsa, xizmatchini chaqiring. Men ham bu yerlarni yaxshi bilmayman.

U yana duduqlanib o'zinikini ma'qullay ketdi. Men esa o'zimning ahmoqligim haqida o'ylay boshladim, biroz avval kitob qo'zg'agan xotiralar vajidan qizishib ketdim, vaholanki, buning mavridi ham, joyi ham emas edi. Tavba, xuddi shayton qitiqlayotganga o'xshaydi, Yevgraf Ivanovich esa o'zini juda g'alati tutishni boshladi. Stol ostidan tinimsiz tizzamni siypalaydi. Juda g'alati hissiyot, huddi buzoqcha kichkina tilchasi bilan yalayotganga o'xshaydi.

– Bo'ldi qiling endi, – deyman, – Yevgraf Ivanovich, nimalarni xayol qilayapsiz? Men sizga stol tagidan oyog'ini siypalatadigan xonimcha emasman, juda istasangiz hammaning oldida hissiyotlaringizni bo'lishishingiz mumkin.

Yevgraf Ivanovich, mislsiz darajala mehribon inson – birdaniga qizarib, bo'g'ilib shivirlay boshladi.

– Sha-a-a-ar-ma-a-an-da! Uyatsiz! – dedi u, – siz, Porfiriy Nikitich.

– Bilmayman, – dedim, – menimcha esa, siz uyatsizroqsiz. Sizga qarab turib xayolimdan biron biron shubhali diniy guruhga aralashib qolmaganmikan degan o'y o'tyapti.

– Si-i-i-iz-ga qanaqa bilmadi-u, hozir shu yerda komissarlik haqida valaqlash mumkin deb o'ylaysizmi?

– Sizga nima, – dedim, – juda yonini olayapsiz?

– Me-e-e-n ularning yonini olayotganim yo'q, – Yevgraf Ivanovich ovozi yanada pasaytirib pichirladi, – ortingizda, ikki qadam narida kim o'tirganini ko'rdingizmi?

– Xo'sh, kim o'tirgan ekan. Ma'zur tutadilar, orqamda ko'zim yo'q, shuning uchun ko'rmay qolgandirman.

Keyin ortimga o'girildim, ikki qadam narida mundir kiyib olgan «bir xalta go'sht» turibdi. Gogol ta'riflagandek, qopga tiqilgan cho'chqaning o'zginasi. Mukka tushib karta o'ynaydi, ularning shiori bir: «Yutamizmi, yutqazamizmi, bizga baribir, o'yindan zavq olish

uchun o'ynaymiz. Hayotimiz bir tekis: ye, ich, ko'ngilxushlik qil, qolganini faqir odamlarning o'zi qilaveradi».

– Eh seni, qara-yu, mitti qushcha. Qanday qilib uni payqamay qolibmana-a? – Sizda ham shunday hissiyot bo'lganmi, dushmaningizni ko'rganingizda shayton yo'ldan uradi, masalan, menda shunday bo'ladi. Hozir ham tilimni tiyish o'rniga battar qildim. Ovozimni yanada balandlatib gapira boshladim. O'z ko'nglimda ularni tuzlay boshladim.

– Qaroqchilar! – dedim. – Maraz qonxo'rlar, chala uvildiriqlar! Shularni deb Qrim yo'llarida lavlagi kvasga qo'shib qon yutdik. Bular-chi, bizning haqimizga cho'ntagini to'ldirdi, qo'sha-qo'sha imorat soldi.

Yevgraf Ivanovich jon holatda pichirlaydi:

– Bo'ldi qiling endi.

Men esa baqirishda davom etaman.

– Nega endi bas qilishim kerak. Nima, yolg'onmi? Mana shularni deb kunimiz tuzlangan karam yeb o'tdi, ochimizdan o'la yozdik. Qon to'lgan yaramizni somon bilan bog'ladik, shundan xabardormikan bular?

Hammasini atay qilaman. Stoldagilar g'azabga minganimni ko'rib yaqinimga yo'lamaydi. Faqat qadahni barmog'i bilan o'ynab, o'zaro pichirlashishadi. Yevgraf Ivanovich mening o'rnimga qizarib-bo'zaradi. Bir hovuch kartoshka bilan og'zini bekitib yana menga pichirlaydi:

– Eh, Porfiriy Nikitich, nimalar deyapsan o'zi, sal bo'lsayam cho'chimaydi-ya!

Men uning pichirlashini eshitib avjiga chiqaman:

– Sizlarni bilmadimku-ya, menimcha, rus kishilari to'g'ri va tozaqalb bo'lishlari uchun cho'qintiriladi, o'g'ri mushuk Vaska kabi oshxonadan ovqat yulib chiqishi uchun emas.

Keyin ortimda o'tirgan xo'ppa semiz baqqol tomonga o'girilib qaradim. U mening gaplarimni eshitdimi yoki yo'q bilib bo'lmadi, u hozir o'zi bilan o'zi bo'lib qolgan, o'pkasini to'ldirib tamaki tortadi. Bilasizmi, insonning kayfiyatiga ko'p narsa bog'liq. U go'yoki bor vujudi bilan karta o'ynar, gaplarimga javoban barmog'ini qimirlatib ham qo'ymadi. Balki shu harakati bilan «Sen – la'natilar e'tiboringa ham arzimaysanlar, senlarga hatto ko'z qirimni ham ravo ko'rmayman»

– Mutlaqo, – dedim men qayg‘uga botib, – nega shunday ekan-a, mana, masalan, Angliyada (o‘sha kezlarda hammamiz Katkovning «Rossiya xabarnomasi»ning ta‘siriga tushib qolgan edik).

Angliya so‘zini eshitishi bilan Stepan Aleksandrovichning avzoyi o‘zgardi. Og‘ir nigohlarini menga qadadi-yu, shartta gapimni kesdi.

– Nima bizni ham Katkov ta‘siriga tushirmoqchimisiz? Angliya bizga o‘rnak bo‘la olmaydi.

– Nima uchun, Angliyada ham siz va men kabi odamlar yashaydi chamamda.

– Bizga o‘xshashga o‘xshaydi, lekin ular boshqa qonuniyatlar asosida yashashadi.

– Men, – dedim, – siyosatga aralashgim yo‘q.

– Men ham sira aralashishni istamasdim. Xudoga shukurki, dunyoga ingliz lordi bo‘lib emas, rus zodagonlari bo‘lib kelganmiz. Shunday ekan, aziz boshimizni siyosat atalgan bo‘lmag‘ur ish bilan qotirib nima qilamiz? Demak, sizning haqiqatingizga ko‘ra Angliyada halol va batartib odamlar ko‘p, shundaymi? Xo‘sh, shunday bo‘lgan taqdir-da ham nima qilibdi? Kishini hayratga soladigan jihati yo‘q. U yerda to‘g‘ri inson bo‘lish foydali, nopok bo‘lishdan esa hech qanday foyda yo‘q. Hatto yosh bolalarini ham shu aqida bo‘yicha tarbiyalashadi, ularga doim «jentelmen bo‘ling» deb uqtirishadi. Keyin ularga jentelmen kim ekanligini tushuntirib berishadi. Xo‘sh, bizda-chi? Bola yoshligidan qiyinligi uchun toshdan uycha qura olmasligini ta‘kidlab kelamiz. Lekin bola aqlli, u nima qilishni yaxshi biladi. Hammasi shunday davom etadi. Bularning barini bafurja o‘tirib o‘ylab olish kerak, xuddi sizda, kemada bo‘lgani kabi emas, hammasi ideal darajada. Lekin shunga qaramay hech qayerga sig‘maysiz.

– Xo‘sh, – dedim, – nima uchun hech qayerga sig‘mas ekanman?

– Sig‘maysiz, vassalom. Na chiroyli kiyimga va na boshqasiga. O‘zingiz bir tasavvur qilib ko‘ring, sizni qaysidir bir lavozimga tavsiya qilishyapti. Xo‘sh, sizni qanday ta‘riflashadi, menimcha bunday: «mana qarshingizda qora dengiz floti xizmatchisi va g‘oyatda halol odam, o‘zi hech qachon hech narsa o‘g‘irlamaydi, qolganlarni ham o‘g‘irlashga qo‘ymaydi, biron adolatsizlikni ko‘rib qolsa bormi, dod-faryod ko‘taradi». Men hech qachon sizga o‘xshaganlarni tanlamagan bo‘lar edim, chunki sizdaylarni telba deb atashadi. Bilasizmi, ular yana nima deyishadi: «Albatta, yigitcha chakki emas, lekin u bizga

to‘g‘ri kelmaydi. Bizga bundayrog‘i kerak». Men siz uchun hech qayerga borishni istamayman, mana bu barin uchun esa (xo‘jayin baqqol tomonga bosh irg‘ab ishora qildi) istalgan joyga boraman, chunki uning xaridori ko‘p. U bizning zamonamizda olg‘ir va omadli kimsalardan biri.

– Darhaqiqat, – dedim, – shunday bo‘lish kerakmi?

– Albatta-da, u juda aqlli va moslashuvchan odam, hammaga qiziq, u kimga nima kerakligini yaxshi biladi, siz-chi, sizdan kimga nima naf? Siz o‘z haqiqatingiz yo‘lida barcha bilan janjallashasiz. Shu sababli ham sizning iningiz qirg‘oqdan bir qadam uzoqlasha olmaydi, siz yana yangi mashmashani boshlamasligingiz uchun dum bo‘lib yuradi.

– Buni o‘zingiz uchun qayd qilib qo‘ying, azizlar, – dedi Porfiriy Nikitich, – men sizlarni aldayotganim yo‘q yoki o‘yin-kulgi uchun aytildigan yengil-yelpi hikoyalarni keltirayotganim yo‘q. Men sizlarga tarixiy shaxsning gaplarini aytyapman. Uning gaplari tarixiy ahamiyatga ega, to‘g‘ri, tarix kitoblarida bu jumlar qolmagandir, hech bo‘lmasa, bizning kemadagi maroqli suhbatlarda barhayot bo‘ladi. Xullas, janoblar, o‘sha vaqtda atrofimizni halol va pokiza insonlar o‘rab olgan edi... tushunib turganingizdek bularning bari qavs ichidagi gaplar. Men esa yana o‘zimning Xrulev haqidagi hikoyamga qaytaman.

– Mening minnatdorchiligimni qabul qiling, – Stepan Aleksandrovich yelkamga do‘stona qoqib qo‘ydi, – Ideal odamlar davri o‘tdi. Hatto lotin tilidan mutlaqo bexabar odamlar ham «suum cuique» (hammaniki o‘ziga) deyishni kanda qilmaydi. Yuring, yaxshisi, gazak qilamiz, bu masalada Anempodist Petrovich cho‘chqaning o‘zginasi. Bilasizmi, bir o‘zi qancha qizil uvildiriqni paqqos tushirishi mumkin. Lekin mag‘iz masalasida yaxshi. Men o‘zim Smurova Morskoydan tatib ko‘rdim. Aytgancha, sizlarni gazak ustida tanishtirib qo‘yaman.

– Kim bilan?

– Anempodist Petrovich bilan.

– Sizdan behad minnatdorman, lekin sira hojati yo‘q.

– Nega? Nahotki, istamasangiz?

– Mutlaqo, istamayman.

– Afsus, katta bilim sohibi, hattoki davlat ahamiyatiga molik haqiqiy pokiza rus farzandi desak ham bo‘laveradi. Uzoqni ko‘ra biladi, bu ketishda uzoqqa boradi.

- Ha, Xudo uni yarlaqasin.
- To‘g‘ri, g‘oyatda dilkash va ibratli odam.
- Nimasini aytasiz, anchadan beri ta‘rifini keltira olmayotgan edim, endi topdim: ibratli odam. Tfu!

Biz gazak tortilgan stol oldiga bordik va Anempodist Petrovichni o‘rab turgan olomonga aralashdik. U hozir olomonning diqqat markazida turgan edi. Men ham ularga qo‘shilib «ibrat bo‘lgulik odam»ning so‘zlariga quloq soldim.

U avvaliga uvildiriq haqida gap boshladi, gaplaridan bu borada katta bilim va tajribaga ega ekanligi sezilib turardi. Menimcha, bu gaplar har qanday risoladagidek odamda nafrat uyg‘otar edi.

U avvaliga ozgina tatib ko‘rdi, keyin yanada kattaroq luqmani olib obdon chaynadi, bulaning bari mana shu losos uvildirig‘ining asl bahosini berish uchun qilinayotgan ishlar edi. O‘zi ham qilayotgan ishidan zavq olayotgan edi, shu turishida Gogolning xo‘rozini yodga soldi:

- M... n... n... ha, chakki emas, chakki emas, yaxshi desa bo‘ladi. Kimdir luqma tashladi:
- Hatto, juda yaxshi deyish mumkin.
- M... n... n... ha, ehtimol, mayin, yumshoq...
- Shunchaki sening yog‘ing kabi.
- M... ha... yog‘li.
- Og‘zingizni to‘ldirib maqtashingizni qarang-a, – dedi peshonasiga katta chandiqliq tushgan polkovniklardan biri, – bizga Qrimdan keyin hammasi yoqaveradigan bo‘lib qolgan, u yerlarda yegulikning o‘zi bo‘lmas edi-da.
- M.. n... nega endi bo‘lmas ekan, biz u yerlarda ham topa olgan edik.
- Lekin qanday narxga?
- Albatta, bu borada haqsiz, narxi anchayin qimmat, o‘shanda men uchun maxsus yuborishgan edi... Kiev orqali... savdogar Pokrovskiy orqali jo‘natishgan edi... juda mazali uvildiriq edi... adashmasam «proviantskaya» deb atashardi. Dasturxonni bezagan uvildiriqni ham m... n... u yetkazib bergan edi... Pokrovskiy... biroq uning sifati biroz pastroq edi... biznikilar narx belgilashga jurat qila olishmadi... lekin uning uchun pul to‘lamadik.

Chandiqli polkovnik og‘ir xo‘rsindi.

– Pullaringiz juda ko‘p bo‘lgan ko‘rinadi, – dedi u, – ularni qayerga sarflash borasida uzoq bosh qotirgan ko‘rinasiz.

– Ha, bemaza ishlarga sarflagan vaqtlarimiz ham ko‘p bo‘lgan. Bittasini eslayman, shtof cho‘ntaklar haqida eshitib qolganimizdan keyin tikuvchiga huddi shunday cho‘ntak o‘rnatib berishini aytdik. U bo‘lsa cho‘ntakni shtof matosidan tikib qo‘ygan. Qotib-qotib kulgan edik o‘ziyam.

– Xo‘sh, qanaqa bo‘lar edi o‘zi u?

– Hajmi katta cho‘ntak, kattaroq hamyon sig‘ishi uchun. Biz odatda semiz hamyon olib yuramiz.

«Obbo sen, xudobexabar qo‘sh mugiz, – dedim ichimda, – odamlarning oldida gapirayotgan gapini qarang».

U yana kommisarlik va oziq-ovqat ta‘minoti haqidagi gaplarni aytib hammani og‘ziga qaratib o‘tirdi.

«Oh, – o‘yladim yana, – ajoyib, hammangiz «nima yeganini xudo biladi degan jumla bilan, yo‘ldan adashgan bo‘lar edingiz».

– Har doim kvas, – dedi u, – u bu ichimlikni juda yaxshi ko‘rgan va doim iste‘mol qilgan. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan gap bu... uning otasi o‘z davrining mashhur rohib va voizlaridan biri bo‘lgan, u o‘limi oldidan shunday vasiyat qilgan: agar vino ichishga yetgulik pulingiz bo‘lsa, pivo iching, pivo ichish vino ichish demakdir. Kvas iching, bo‘lmasa o‘rniga suv iching. O‘zi ham butun umri davomida kvas ichgan ekan. Faqatgina harbiy yurishlar chog‘ida kvasga shampan vinosi aralashtirib ichishni odat qilgan ekan.

– Qanaqasiga?

– Aytaylik shunday qilib, m... n... yarim stakan kvas oladi, yarim stakan shanpan oladi va ularni bir-biriga aralashtirib ichadi.

– Axir bu borib turgan cho‘chqalik-ku, – dedim men shivirlab, aftidan gapim qaatiqroq chiqib ketdi chog‘i, endi u men tomonga qarab gapira boshladi.

– Ha, seni qara-yu, to‘kis, lekin men sizlarga kvas va shampan aralashmasi siz o‘ylaganchalik rasvo narsa emasligini aytib o‘tishim kerak. Hatto, urush vaqtida biz, zodagonlar orasida shunaqa qilib ichish urf bo‘lib ketdi... ko‘pchilik hozir ham davom ettirayapti, odatlanib qolgan-da... xorijliklar bunday qila olishmaydi... hazil uchun bir-ikki qultum ichishgan edi, birpasda tupurib tashlashdi.

Men xorijlik bo'lmam ham tupurdim, shartta o'girilib ketmoqchi edim, u yana men tomonga o'girilib gap boshlab qoldi.

– Ma'zur tuting, menga biroz marhamat ko'rsatib gaplarimni eshitingiz, men rus xulq-atvori haqida ham ikki og'iz gapirmoqchi edim.

Bilmadim nega, men ham uning gaplarini eshitgim keldi:

– Marhamat.

– Gapimni qisqa qilmoqchiman, – dedi u, – siz rus xalqiga nisbatan g'oyat adolatsiz va haqoratli munosabatda bo'ldingiz.

Men o'rnimdan sakrab turdim.

– Qanaqasiga haqorat qildim?

– Ha. Masalan, men karta o'ynab o'tirgan bo'lsam-da sizning o'rtoqlaringiz bilan rus xalqining sha'niga aytgan gaplaringizga quloq tutib turdim. Men ham Sevastopolda bo'lgan yurtdoshlarim uchun chuqur qayg'udaman. Lekin ishoning, bejiz ularni kamsitayapsiz.

– Kim? Menmi? Men kamsitayapmanmi?

– Bilasizmi, mening qonimda asl rus zodagonlarining qoni oqayapti, qolaversa, mening otam ham umri bo'yi shunday yashashni uqtirgan edi, men hech qachon o'zim haqimda aytilgan salbiy gaplarga etibor bermayman. Men sizdan xalqimizning boshqa vakillari uchun xafa bo'ldim. Menimcha, xalqimiz ahli istisnosiz, toza va ochiqko'ngil odamlar. Go'yoki, sizlar Qrim tuprog'ida qon kechib yurganingizda, biz hamma narsani o'g'irlab, talon-taroj qilganmiz, shundaymi?

– Ha, – dedim dadil, – sizning shampan va kvas haqidagi gaplaringizdan keyin esa fikrlarim to'g'ri ekanligiga yana bir bora amin bo'ldim.

– Kvas va shampan masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu umuman boshqa mavzu, masalan, uni qirol Fridrix doim iste'mol qilib kelgan, men ham buning yomon tomonini ko'rmayapman. Endi sizning mulohazalaringizga keladigan bo'lsak, butun xalqning yarmini qora, yarmini oq qilib bo'lmaydi. Axir, hammamizning kelib chiqishimiz bir.

– Qani, xo'sh, – dedim men, – to'g'ri biz ham siz bilan bir o'zakdan kelib chiqqan bo'lishimiz mumkin. Lekin biz sizlar kabi o'g'rilar emasmiz.

U gapimga tushunmagandek angrayib qoldi.

– Bu nima deganingiz?

Men shijoat bilan gapirishda davom etdim.



– Biz o‘g‘ri emasmiz.

– Bilaman. Sizga qanday tushuntirsam ekan? Siz qayerdan o‘g‘irlash mumkinligini bilmaysiz? Qolaversa, shu paytgacha qayerdan o‘marish mumkinligini ham o‘rgatishmagan. Qolaversa, sizning marhum Lazerevingiz ham juda halol odam bo‘lgan, kim biladi bizni oldinda nimalar kutyapti, bunisi endi xudoga ayon.

– Yo‘q, har doim shunday bo‘ladi.

– Nega endi?

– Chunki bizda halol kishilar xizmat qilishadi.

– Halol odamlar! Bunga sira qarshiligim yo‘q. Juda rostgo‘y deng, lekin ba‘zilarni rostgo‘y va ba‘zilarni nomussizga chiqarib bo‘lmaydi. Bo‘lmag‘ur gap. Men ular tomondaman. Men rus xalqi tomonidaman. Ha, janob, ishonavering, siz och qolib janggohlarda joni uzilishi mumkin bo‘lgan yagona odam emassiz. Biz esa faqat qo‘lidan o‘g‘rilik keladigan odamlar emasmiz. Safsata! Adolatsizlik! Har bir rus kishisining o‘ziga xos tabiati bor. Biz, ruslar o‘z tabiatimiz bilan mushuklarga o‘xshab ketamiz, qayerdan uloqtirishmasin, yerga oyog‘imiz bilan tushishni uddalaymiz. Biz qayerga munosib bo‘lsak, o‘zimizni o‘sha joyda ko‘ramiz. Qaysi jabhada bo‘lmasin, o‘zimizni ko‘rsatish qo‘limizdan keladi, o‘lish kerakmi – o‘lamiz, o‘g‘irlash kerakmi – o‘g‘irlaymiz. Lekin siz bizdan ko‘ra sharaffiroq taqdir egasi bo‘lishingiz mumkin, masalan, Yevropa tuproqlarida jon berib, qahramon bo‘lishingiz mumkin. Bizning taqdirimiz xiyol boshqacha, biz o‘g‘irlash mumkin bo‘lgan joydan o‘g‘irlaymiz, lekin siz kabi mashhurlik martabasidan chetda qolamiz. Agar o‘rin almashishimiz mumkin bo‘lganda, hammasi juda oddiy bo‘lardi, biz xandaqlarga ko‘milib sizning o‘rningizga jang qilar edik, siz esa mening o‘rnimga o‘tirib o‘g‘rilik qilgan bo‘lar edingiz.

Keyin u jim bo‘lib qoldi.

Men uni bo‘g‘ib tashlashga ham tayyor holatga kelib qolgan edim.

– Sen qanaqa maxluqsan o‘zi?

Lekin atrofdagilarga uning gaplari juda yoqib tushdi, har tomondan baqiriq va olqishlar kela boshladi:

– Bravo, bravo, Anempodist Petrovich! Behayo, lekin juda ochiq va oqilona aytilgan gaplar!

Juda g'alati holat, uning gaplaridan atrofdagilarning bahr-u dili ochilib, yuzlariga tabassum yugurdi. Hatto Yevgraf Ivanovichning ham chehrasi yorishib ketdi:

– To‘p-p-pa to‘o‘o‘-o‘-g‘ri.

Keyin «boshi toshdan bo‘lgan kimsa» bo‘shab qolgan og‘zini losos uvildirig‘i bilan to‘ldirdi-da menga qaratilgan odob-axloq darsini o‘tishda davom etdi.

– Albatta, – dedi u, – shu paytgacha og‘zingizdan qanday gaplar chiqqanini bilmayman, ularning bari uchun Xudo sizni kechirsin. Lekin bunday buyon o‘z millatingizga qarshi so‘z ayta ko‘rmang, nega endi ularning yarmini ko‘klarga ko‘tarib, yarmini yerga urishimiz kerak ekan. Xudo barchamizga o‘z marhamatidan bir ulush berib qo‘ygan, biz hali juda ko‘p ulug‘vor ishlarga qo‘l uramiz, agar taqdiringizga bizdan avval rixlat qilish yozilmagan bo‘lsa, barchasiga o‘zingiz guvoh bo‘lasiz!

Shunday qilib, barchasiga men gunohkor bo‘lib qolaverdim, barcha «katta hayotiy tajribaga ega donishmand»ning suhbatidan olam-olam zavq oldi. Men esa o‘sha paytdagi uyatsizligim haqida ko‘p o‘yladim, hali-hamon uyatsizlik nima-yu, haqqoniylik nima degan masalalarda bosh qotiraman.

*Rohila ABDULLAYEVA tarjimasi*



## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI. <i>Jamshid Matyoqubov</i> .....	3
--	---

### MSSENSK UYEZDIDAN CHIQQAN MAKBET XONIM

#### Qissa

Birinchi bob. <i>Qodir Mirmuhamedov tarjimasi</i> .....	6
Ikkinchi bob .....	8
Uchinchi bob.....	11
To'rtinchi bob .....	14
Beshinchi bob .....	16
Oltinchi bob .....	17
Yettinchi bob.....	25
Sakkizinchi bob .....	31
To'qqizinchi bob.....	34
O'ninchi bob .....	36
O'n birinchi bob .....	40
O'n ikkinchi bob.....	43
O'n uchinchi bob .....	46
O'n to'rtinchi bob .....	49
O'n beshinchi bob.....	53

## CHAPAQAY

### Tulalik g'ilay-chapaqay va po'lat burga qissasi

#### Qissa

Birinchi bob. <i>Nigora Rahimova tarjimasi</i> .....	60
Ikkinchi bob .....	61
Uchinchi bob.....	63
To'rtinchi bob .....	67
Beshinchi bob .....	69
Oltinchi bob .....	71

Yettinchi bob.....	71
Sakkizinchi bob .....	73
To‘qqizinchi bob.....	74
O‘ninchi bob .....	75
O‘n birinchi bob .....	77
O‘n ikkinchi bob.....	78
O‘n uchinchi bob .....	79
O‘n to‘rtinchi bob .....	81
O‘n beshinchi bob.....	83
O‘n oltinchi bob.....	88
O‘n yettinchi bob.....	90
O‘n sakkizinchi bob.....	91
O‘n to‘qqizinchi bob.....	92
Yigirmanchi bob .....	94

## HIKOYALAR

<b>ALOMAT SAN’ATKOR.</b> <i>Qabr boshidagi hikoya.</i> <i>Shohsanam Sopiyeva tarjimasi.....</i>	96
<b>RUH AZOBI.</b> <i>O‘smirlik xotiralaridan. Toshpo‘lat Mirzayev tarjimasi.....</i>	120
<b>KICHIK XATO.</b> <i>Moskvalik bir oila siri. Dilafruz Matyoqubova tarjimalari.....</i>	130
Birinchi bob.....	130
Ikkinchi bob.....	131
Uchinchi bob .....	132
To‘rtinchi bob .....	133
Beshinchi bob .....	135
Oltinchi bob.....	135
Yettinchi bob.....	136
Sakkizinchi bob .....	137
<b>SOQCHI.....</b>	139
Birinchi bob.....	139
Ikkinchi bob.....	139
Uchinchi bob .....	140
To‘rtinchi bob .....	140
Beshinchi bob .....	142
Oltinchi bob.....	143

Yettinchi bob.....	144
Sakkizinchi bob .....	145
To'qqizinchi bob.....	146
O'ninchi bob.....	147
O'n birinchi bob .....	149
O'n ikkinchi bob.....	150
O'n uchinchi bob.....	152
O'n to'rtinchi bob.....	153
O'n beshinchi bob .....	154
<b>QAROQCHI. Rohila Abdullayeva tarjimalari .....</b>	<b>155</b>
<b>UYATSIZ .....</b>	<b>166</b>

*Adabiy-badiiy nashr*

**Nikolay Semyonovich LESKOV**

**MSENSK UYEZDIDAN  
CHIQQAN MAKKET XONIM**

*Qissalar va hikoyalar*

Rus tilidan *Qodir Mirmuhamedov, Nigora Rahimova,  
Shohsanam Sopiyeva, Toshpo'lat Mirzayev,  
Dilafruz Matyoqubova, Rohila Abdullayeva* tarjimasi

Nashr uchun mas'ul *Azimboy Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *Jamshid Matyoqubov*

Muharrir *Jamshid Matyoqubov*

Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharrirlar: *Lina Xijova, Yekaterina Stepanova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Kira Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.  
Bosishga 2021-yil 29-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'oz.  
«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,5.  
Nashr tabog'i 12,78. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-442.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

**Leskov, Nikolay.** T. 72

L 45


Msenskiy uyezdidan chiqqan Makbet xonim [Matn]: qis-salar va hikoyalar / N. Leskov. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU. – 184 b. (Rus adabiyoti durdonalari).

ISBN 978-9943-7605-3-0

UO‘K 821.161.1-32  
KBK 84(2Ros=Rus)







18638,05 сум





*Rus adabiyoti durdonalari*

**N.S. Leskov**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7605-3-0



9 789943 760530